Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf «Ruhiy tarbiya» nomli 3 jildli kitobiga so'zboshisida bunday yozadi: «Islom dini insonning jismiga va ruhiga ...alohida e'tibor qaratgan. Ruhiy-ma'naviy qism «tazkiyat un nafs» – «nafsni poklash» deb atalib, unda mo'minlarning nafsini, ya'ni, shaxsiyatini poklash, ularga fazilatlarini kasb qildirish va razolatlardan xoliy ettirish kiradi. Bu borada nafs so'zi bilan birga qalb, ruh deb ataladigan ma'nolar katta ahamiyat kasb etadi. Qalb Robboniy, ruhoniyy va latiyf narsa, ruhning haqiqatini Olloh taolodan o'zga hech kim bilmaydi. Ammo Qur'oni karimda nafsni poklash haqida ko'p so'z ketgani uchun qalb, ruh so'zlaridan ko'ra aynan nafs so'zini ishlatish keng tarqalgan». <sup>5</sup> Demak, muallif bu uch kalimani ma'nodosh deb hisoblagani holda, ular orasida nozik farq ham borligiga ishora etadi. Uning fikriga ko'ra, «nafs jonning eng tuban holati yoki boshlang'ich nuqtasi, ruh esa jonning eng yuksak holati va yakuniy nuqtasidir. Nafs maqomidagi jonda o'z-o'zi bilan kurashayotgan shaxs ziddiyati bor. Ammo ruh maqomidagi jon bunday kurashga asos bo'luvchi ziddiyatdan xoli. Sababi, u xotirjamlik-sokinlikka erishgan». <sup>6</sup> Demak, Sharq falsafasida nafs, qalb va ruh inson jonining tadrijiy yuksalib boruvchi, kamolotga tomon ketuvchi holati ekanligi kelib chiqadi.

Ruhoniyat va nafsoniyat o'rtasidagi munosabat mashhur mutasavvif – shayx Suhrovardiyda quyidagicha ifodalanadi, «nafs va ruh orasida azaldan bir sevgi bo'lgan. Buning sababi nafsning ayolligi (unusati), ruhning erkakligidir (zukurat). Modda olamida Momo Havvo Odam Atodan yaratilgandek, qudrat olamida nafs ham ruhdan yaralgan edi. Nafs va ruh o'rtasidagi unsiyat va ulfatlashuvning asosi mana shudir. Chunonchi, nafs hayvoniy bir ruhdiki, ruhoniyy ruhga yaqinlashuv sharofati tufayli uning jinsiyatini

---

<sup>1</sup> Shu manba. 57-bet.

<sup>2</sup> Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадир. Тошкент, “Ёзувчи”, 1997, 101-бет.

<sup>3</sup> Жалолиддин Румий. Маснавий-маънавий. Биринчи жилд. Биринчи китоб, Т., “Шарқ”, 1999, 108-бет.

<sup>4</sup> Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадир. Тошкент, “Ёзувчи”, 1997, 111-бет

<sup>5</sup> Жалолиддин Румий. Маснавий-маънавий. Биринчи жилд. Биринчи китоб, Т., “Шарқ”, 1999, 4-бет.

<sup>6</sup> Мухаммадходжаев А. Мироззрение Фаридаддина Аттора. Душанбе, 1974, с. 79; Из истории средневековой восточной философии. Баку, 1989, с. 108.

egallagan». <sup>1</sup>Ruh va nafs munosabatiga alloma Suhrovardiyga xos bunday yondashuv ham ahamiyatli hisoblanadi.

Xulosa qilganda, Sharq falsafiy fikr taraqqiyotida ko‘plab mutafakkirlar inson qalbidagi ezgulik va yovuzlik mayllarini tahlil qilgan, axloqiy va e’tiqodiy ahamiyatini yoritishga o‘rinish bilan birga, inson qalbini ezguliika yoki yovuzlikka yo‘naltiruvchi omillar, ularning ko‘rinishlari va ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatib berishga harakat qilishgan.

Саидахмадов Шухрат Шамиевич (Шароф Рашидов номидаги Самарқанд Давлат университети мустақил тадқиқотчиси)

### ДИНИЙ-ИЛОҲИЙ ҚАРАШЛАРДА ИЙМОН, ИЛМ ВА АМАЛ МАСАЛАСИ: ТАРИХИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛ

**Аннотация.** Ушбу мақола ислом манбалари: Қуръони карим, Ҳадиси шариф, хусусан, Имом ал-Бухорийнинг “Ал-Жоми ас-Саҳиҳ” асарида илм тарғиботи масаласи тадқиқига бағишланади. Унда илм-фан тушунчасининг кенг маъноларда тушунилиши, диний ва дунёвий илмлар уйғунлиги, илм ва фанлар интеграцияси ҳақида фикр юритилади, жамият тараққиёти ва шахс камолотида илм-маърифатнинг ўрни фалсафий таҳлил этилади.

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению исламских источников: Корана, хадисов Шарифа, особенно труда имама аль-Бухари «Аль-Джами ас-сахих», вопросу распространения знаний. В ней обсуждается широкое понимание понятия науки, гармония религиозных и светских наук, интеграция науки и наук, философски анализируется роль науки и просвещения в развитии общества и развитии человека.

**Annotation.** This article is dedicated to the study of Islamic sources: the Holy Koran, Hadith Sharif, especially Imam al-Bukhari's work “Al-Jami al-Sahih”, the issue of knowledge promotion. It discusses the broad understanding of the concept of science, the harmony of religious and secular sciences, the integration of science and sciences, the role of science and enlightenment in the development of society and the development of a person is philosophically analyzed.

**Калим сўзлар:** диний-илоҳий манбалар, Қуръон, Ҳадис, илм-фан, тараққиёт, муҳаддис, ҳадислар тўплами, илм-маърифат ва ҳаёт.

**Ключевые слова:** религиозно-богословские источники, Коран, хадисы, наука, развитие, мухаддисы, сборник хадисов, знание и жизнь.

**Key words:** religious-theological sources, Koran, Hadith, science, development, muhaddis, collection of hadiths, knowledge and life.

Шарқ халқлари тарихида илм-фан ва маданиятга дахли бўлмаган бирор даврни эътироф этиб бўлмайди. Айниқса, Марказий Осиё ўлкаларида дин ва руҳониятга, илм ва маърифатга жамият тараққиёти омили сифатида қараш қадимдан шаклланган эди. Шарқ дунёсида яратилиб, жаҳонни ҳайратга солган улкан маданий мерос ҳам айнан мана шу илм-маърифат зиёсининг маҳсули ҳисобланади. Шу ўринда айтиш керакки, ҳозирда айрим ҳолларда қайд этилаётган “диний ва дунёвий илм” тушунчаси Шарқда бир сўз билан “маърифат” деб юритилган эди, юртимизда ислом қарор топгач, асосий эътибор мана шу маърифат масаласига қаратилди.

Унда жамият тараққиёти ва инсон камолоти учун зарур бўлган ақлий-нақлий илмлар бир мақсадга хизмат қилди, “ислом – илм”, “муқаддас Қуръони карим ва Ҳадиси шариф эса маърифат манбаи” эканлиги яққол намоён бўлди. Шу маънода Қуръони каримда 78 000 га яқин сўз ишлатилган бўлса, шунинг 1%ни илм калимаси ташкил этиши,<sup>2</sup> унда энг кўп қўлланилган сўзлар ичида илм бешинчи ўринни эгаллаши ва илм сўзи турли мақсадларда 765 марта қайд этилгани ҳам ислом таълимотининг илмга бўлган муносабатини кўрсатиб беради.<sup>3</sup> Худди шундай Аллоҳнинг сўзларида илм шу қадар муътабар ҳодиса сифатида кадр ва эҳтиёж, талаб экан, бу талаблар ислом таълимоти ва маданиятининг бошқа манбалари, хусусан, пайғамбар ҳадислари билан ҳам мустаҳкамланган эди. Манбаларда қайд этилган энг кўп ҳадис тўпламларида ҳам энг ишончли ҳадис ривоятларида ҳам илм-маърифат тарғиботи етакчи ўринни эгаллайди.

<sup>1</sup> Фалсафа. Қомусий луғат. Тошкент, “Шарқ”, 2004, 35-бет.

<sup>2</sup> Роузентал Франц. Торжество знания. Концепция знания в средневековом исламе. М., «Наука», 1978, с. 38.

<sup>3</sup> Ислом – илм демақдир (муфтий Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф билан суҳбат). Рустам Обидов суҳбатлашди. «Фан ва турмуш» журнали, 1989 йил июнь.

Шуни айтиш керакки, Шарқ, жумладан, юртимиз тарихида онг ва тафаккур ривожи, шахс камолоти учун бирдан-бир таянч манба бўлиб келган Қуръони карим ва Ҳадис маърифати собиқ шўро даврида таълим-тарбия, одоб-ахлоқ жараёнидан бутунлай четга чиқарилди, жамият аъзолари бундай оламшумул ва инсонпарвар қарашлардан маҳрум этилди. Шунинг таъсирида ўзига хос анъаналарга эга ҳадис мактаблари, муҳаддислар фаолияти, ҳадисларнинг жамият равнақи ва шахс камолотида тутган ўрни ўзининг тўлақонли баҳосини олмади. Юқорида айтилганидек, муқаддас Қуръони каримда илм ва ҳикмат, олим ва фозил қай даражада юқори мартаба касб этса, Ҳадиси шарифларда илм ва илм аҳлига шу қадар эҳтиром билан ёндашилади. Хусусан, саҳиҳ ҳадислар тўпламларида ҳам, биринчи навбатда, иймон таърифланса, иккинчи ўринда илм баҳоланади.

Эътиборли томони шундаки, дунё жамоатчилигини ўзига ром этган Шарқ мумтоз адабиётларида ҳам “илоҳий илмлардан дунёвий ёки шу дунёвийликдан илоҳийликка олиб боровчи илму маърифат” шахсият ва жамият асоси сифатида улуғланади. Муҳаддислар пешвоси Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорийнинг машҳур “Ал-жомийъ ас-саҳиҳ” ҳадислар тўпламига назар ташланса, унда жамият ҳаётида илму маърифат ва олимлик мақоми алоҳида ўрин тутиши намён бўлади.<sup>1</sup> Албатта, шарқона қарашларда дин вакили – обид, илм соҳиби – олим, маърифат эгаси – ориф деб юритилади. Бунда обид – ибодатчи, яъни намоз ўқиш, рўза тутиш, ҳажга бориш, нафсни тийиш, охират ғамини ейиш билан машғул кишиларни тоифасини англатади. Олим – илм билан шуғулланувчи, яъни, олам ва одам сирларини ақл билан англовчилар бўлса, ориф – танувчи, билувчи, Аллоҳ ҳақида маърифат ва ирфонга эга комил инсон, ҳикмат ва асрорга ошно, Ҳақшуносдир. Тасаввуф арбоблари наздида, обидлар табиатида бир-бирларига озор етказиш, кибр, ҳасад, хусумат каби иллатлар мавжудлигидан “авом”га яқинлашади. Манбаларда олимларнинг дунёни англаш, ҳаёт сиру синоатларидан хабардорлик, замон ва маконлар моҳиятини ҳис этиш зехниятига эгаллиги туфайли обиддан устунлиги қайд этилади. Шу нуқтаи назардан, ибодат – талабга, илм – ақлга, маърифат – туйғуга асосланади. Бироқ улар алалоқибат бир ўзанда, яъни “Ҳақни танимоқ” ва “ҳақиқатларни билмоқ” маъноларида бирлашади.

Шу нуқтаи назарлардан, илм ислом маърифатга биноан, уч замонга ажратилиб кўрсатилади. Биринчидан, борлик яратилгунга қадар бўлган – сирли-ботиний илм, иккинчидан, олам бино бўлгандан кейинги – башарий илм, учинчидан, охиратдан кейинги – илоҳий илм. Манбаларда илмнинг илоҳий-дунёвий фазилатлари пайғамбарларга бевосита ва билвосита уқдирилганлиги зикр этилади. Шунинг учун “Кимки илм олган бўлса, пайғамбар алайҳиссаломдан тўлиқ мерос олибдир”, дейилган саҳиҳ ҳадис ҳам айни маънода илм оламининг бениҳоя кенглигидан далолат беради. Муборак ҳадисларда илм зиёси олимга дунёни англаш, инсон моҳиятини тушуниш, бугун ва келажак учун муносиб ҳаёт тарзини яратишда муҳим восита эканлиги уқдирилади. Қуръони каримда “биз ушбу оятларни тафаккур қилишингиз учун юбордик” ёки «Дўзахийлар: “Агар тинглаб, фикр юритганимизда эрди, дўзах аҳлидан бўлмаган бўлур эрдик”, деган мазмунда оятлар келтирилади. Бу шундан далолат берадики, Аллоҳ сўзлари шунчаки насихат эмас, балки юксак онг ва тафаккур талаб этадиган ҳикматлар ҳисобланади. Уларни англаш учун эса чуқур мушоҳада юритиш қобилияти, ҳикмат ва фалсафага эга бўлиш, илм ва маърифат нуридан баҳрамандлик зарурдир.

Шунинг учун Қуръон ва ҳадисларда олим сиймоси, шахсияти, фазилати ва маънавий-руҳий дунёсига алоҳида эътибор қаратилади. Мисол учун, бир ояти каримада: “(Лекин) уларни фақат олимларгина англайлар” (Анкабут, 43) дейилган.<sup>2</sup> Бундан кўринадики, хоҳ диний-илоҳий, хоҳ илмий-дунёвий масала бўлсин, унинг моҳияти, аввало, олимлар муносабатлари ва қарашлари билан ойдинлашади. Хусусан, ислом таълимоти ва ҳадислар мазмуни ҳам илм аҳли диққат назари билан илмий ҳақиқатларга асосланиб, халққа етказилади, оммага тушунтирилади. Шу боис ояти каримада: “Аллоҳдан бандалари ичидан фақат олимларгина кўрқарлар” (Фотир сураси, 28), дейилган бўлса, бошқа бирида “Айтинг: “Биладиганлар билан билмайдиганлар тенг бўлурми?!” (Зумар, 9) дейилган.<sup>3</sup>

Бунда қадим туркий битикларда айтилган “Худодан кўркмагандан сен кўрк” иборасига монанд фикр юритилган бўлиб, олим том маънода иймон ва эътиқод соҳиби бўлиши зарур эканлигига урғу берилади, айни фазилатлари билан ҳам “билганлар” “билмаганлар”дан афзаллиги таъ-

<sup>1</sup> Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-жомийъ ас-саҳиҳ. 4-жилдлик. Т., Қомуслар бош таҳририяти, 1992, 1-жилд, 560-бет.

<sup>2</sup> Расулов Ҳ. Халқлар илм ва маърифат билан юксалади//<https://www.bukhari.uz/?p=1149>

<sup>3</sup> Шу манба.

кидланади, олим ҳақиқий илмда собит ва холис бўлиши талаб этилади. Ўрни келганда айтиш лозимки, айна ҳақиқатлар олимлар томонидан тўғри маънода анлангани ва адолатли баҳоланганлиги туфайли ҳам улар ҳадисларда Ҳаққа энг яқин бўлган пайғамбар сиймолар билан бир қаторда эъзозланади, олим ҳаққига хиёнат иймон ва маърифатга бўлган хиёнат деб қаралади. Гап шундаки, шарқона қарашлар бўйича, дину ислом ҳам, ҳадис ҳам, аввало, илм ва ҳақиқий илмларга йўл ҳисобланади. Шарқнинг оламга машҳур қомусий олимлари ва файласуф-мутафаккирлари ҳам, ҳатто, бадиий ижодда мумтоз адиблар қаҳрамонлари ҳам дунё ва дин илмида комил инсонлар сифатида шаклланган эди. Буни Имом ал-Бухорий келтирган “Кимгаки Аллоҳ таоло яхшилиқни раво кўргайдир, уни дин илмидан баҳраманд қилгайдир, илмга илм олмоқ йўли бирлан эришилгайдир”, деган Расулulloҳ саллаллоҳу алайҳи ва саллам ҳадиси ҳам тасдиқлайди.<sup>1</sup> Шу ўринда айтиш керакки, дину диёнат, биринчи галда, яхшилик, ҳалоллик, поклик илми ҳисобланади.

Демак, оят ва ҳадисларда илму ҳикмат ҳаётнинг фаровон ва мазмунли ўтиши, жамиятнинг барқарор ривожини учун муҳим воситадир, илмсизлик ва маърифатсизлик эса жаҳолатни келтириб чиқаради. Ҳадиси шарифларда илм фаҳми, илм ниятида бўлиш, илм олиш тартиблари, илм йўлида сафар қилиш, илмни барбод қиладиган жиҳатлар, илм олишдан ор қилмаслик, илм ўрганиш ва ўргатишда замон-макон танламаслик сингарилар ҳақида ҳам ҳикматлар келтирилади. Уларда ижтимоий ҳаётнинг барча масалалари, хусусан, илм-маърифат ва олим шахсияти хусусида ҳам ниҳоятда ибратли мисоллар, ҳаётий қиёслашлар асосида хулосалар чиқарилади. Масалан, “Ал-Жомий ас-Саҳих”нинг “Илм ўрганмоқ ва илм ўргатмоқнинг фазилати” бобида Ҳазрати Расулulloҳ саллаллоҳу алайҳи ва салламнинг “Аллоҳ таоло менга юборган ҳидоят сингари илм ҳам кўп ёққан ёмғирга ўхшайдир. Баъзи ер соф, унумдор бўлиб, ёмғирни ўзига сингдирадир-да, ҳар хил ўсимликлар ва кўкатларни ўстиради ва баъзи ер қурғоқ, қаттиқ бўлиб, сувни эммасдан ўзида тўплайди, ундан Аллоҳ таоло бандаларини фойдалантиргайдир. Одамлар сувдан ичгайдирлар, ҳайвонларини ва экинларини суғоргайдирлар. Баъзи ер эса текис бўлиб, сувни ўзида тутиб қолмайди, кўкатни ҳам кўкартирмайдир. Буларни қуйидагича муқояса қилиш мумкиндир.

Бир киши Аллоҳ илмини теран ўрганадир, теран тушунадир ва ундан манфаатланадир ва Аллоҳ юборган ҳидоятни ўзи ўрганиб, ўзгаларга ҳам ўргатадир. Иккинчи бир киши илм ўрганиб, одамларга ўргатадир. Аммо ўзи амал қилмайди. Учинчи бир киши мутакаббирлик қилиб, ўзи ҳам ўрганмайди, ўзгаларга ҳам ўргатмайди. Булардан биринчиси мўъмин, иккинчиси фосиқ, учинчиси кофирдир”, деган сўзларини келтиради.<sup>2</sup> Бунда илм – ёмғирга, илм аҳли – ерга ўхшатилади, ёмғир қанчалик ёғмасин, унинг фойдаси ернинг унумдорлиги билан боғлиқ бўлади. Шу маънода инсон ҳам ернинг сифати сингари тоифаларга бўлинади. Улар ўзи чуқур ўрганиб, ўзгаларга ҳам самимий ўргатувчилар (мўъмин), илмни ўрганиб унга ўзи амал қилмайдиганлар (фосиқ), ўзи ҳам ўрганмайди ва ўзгаларга ҳам ўргатмайдиган (кофир) инсонлардир.

Кўринадики, ҳақиқий илм иймон ва амал билан қимматлидир. Ҳадисга кўра, эътиқод ва илм-маърифат бирлиги – мўъминлик, илм ва амал номувофиқлиги – мунофиқлик, илмга эътиборсиз – иймонсизлик билан тенглаштирилади. Демак, иймон – илм – амал бирлиги жамият учун ҳам, инсоният манфаати учун ҳам барча даврларда заруратдир, аксинча, ҳолатларда ҳаётни жаҳолат, нодонлик, разолат эгаллайди. Шу боис ҳадисларда илм кушандалари ҳақида ҳам кенг фикр юритилади. Масалан, Расулulloҳ “илмга эътиборсизлик, нодонлик, арақхўрлик ва зинокорликнинг оммавий тус олмоғи қиёмат аломатларидандир”, дейди ва қиёмат аломатлари деб: илм сусайиши, жаҳолат кучайиши, зино авж олиши, хотинлар кўпайиши ва эркакларнинг озайишини”, таъкидлайди.

Демак, жаҳолат, зино, арақхўрлик, кибр, манманлик каби жамиятни бузадиган, инсон ҳуқуқатворини издан чиқарадиган омиллар ижтимоий ҳаёт сингари диний қарашларда ҳам тараққиёт заволи сифатида баҳоланади, аксинча, илму маърифат, иймон-эътиқод, ахлоқ-одоб инсон ва жамият камолоти асоси ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтилганда, муқаддас оят ва ҳадислар талабига кўра, иймон-эътиқодда собитлик, илм-маърифатни эгаллаш, унга амал қилиш ва асрлар давомида илм анъаналарини давом эттириш ҳар бир инсоннинг бурчи бўлиши керак. Шундагина жамият тараққиёти таъминланади, инсон камолоти ҳақидаги орзулар рўёбга чиқади, аждодлар ва авлодлар орасида маъсуллик амалга

<sup>1</sup> Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-жомий ас-саҳих. 4-жилдлик. Т., Қомуслар бош таҳририяти, 1992, 1-жилд, 560-бет.

<sup>2</sup> Шу манба.



ошади. Зеро, Ҳадиси шарифда айтилганидек, “Кимки илм истаб кадам қўйса, Аллоҳ таоло унга жаннат йўлини осон қилгайдир”.<sup>1</sup>

**Eshonkulova Nurjaxon Abdujabborovna (falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori,  
Navoiy davlat Konchilik va texnologiyalar universiteti; e-mail: [eshonkulova79@list.ru](mailto:eshonkulova79@list.ru))  
ZAMONAVIY JAMIYATDA YAGONA TA'LIM MAKONINI SHAKLLANTIRISHNING  
IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada, globallashuv sharoitlarida ta'lim jarayoni va ta'lim tizimlari ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan. Shuningdek, yagona ta'lim makonini shakllantirish, milliy ta'lim an'analarini asrab-avaylash, ta'lim va tarbiya tizimining transformatsiyasi, modernizatsiyasi va isloh qilinishining konseptual asoslarini yaratish zarurati ilmiy asoslangan.*

***Аннотация.** В данной статье проводится социально-философский анализ образовательного процесса и образовательных систем в условиях глобализации. Также научно обоснована необходимость создания единого образовательного пространства, сохранения национальных образовательных традиций, создания концептуальных основ трансформации, модернизации и реформирования системы образования и воспитания.*

***Annotation.** This article provides a socio-philosophical analysis of the educational process and educational systems in the context of globalization. Also scientifically substantiated is the need to create a single educational space, preserve national educational traditions, create the conceptual foundations for the transformation, modernization and reform of the education and upbringing system.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, transformatsiya, modernizatsiya, fundamentallashtirish, plyuralizm, ekologizm, gumanizm.*

***Ключевые слова:** образование, обучение, трансформация, модернизация, фундаментализация, плюрализм, экологизм, гуманизм.*

***Key words:** education, training, transformation, modernization, fundamentalization, pluralism, ecologism, humanism.*

Hozirgi zamon insoniyatning moddiy-ma'naviy taraqqiyoti jadalligi bilan ajralib turadi, hech qanday mubolag'asiz aytish mumkinki, inson so'nggi o'n yilliklarda erishgan yutuqlari o'tmishda ajdodlar erishgan barcha narsalar yig'indisidan ko'pdir. Butun dunyoda ijtimoiy ishlab chiqaruvchi kuchlar ulkan miqyosda o'sdi, bu, birinchi navbatda, fan va texnikadan samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liqdir. Muhim ilm-fan kashfiyotlari texnikani yaratilishi va ommalashtirilishiga, keng miqyosda kam xarj ishlab chiqarish tizimlarining vujudga kelishiga, mehnat unumdorligining keskin oshirilishiga, odamlar turmush sifatining yaxshilanishiga xizmat qildi. Tibbiyot fanining rivojlanishi va sanitariya sharoitlarining yaxshilanishi tufayli ko'plab mamlakatlarda odamlar salomatligi yaxshilandi, chaqaloqlar o'limi kamaydi, umr ko'rish davomiyligi oshdi.

Transport, kommunikatsiyalarning takomillashuvi odamlarni bir-biridan ajratib turadigan masofalarni qisqartirdi, xalqaro savdo va mutaxassislar almashinuvining o'sishiga yordam berdi. Ayniqsa, insoniyat bilim ko'lamining kengayishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bilimlar har tomonlama, keng miqyosda ortib, mikro va makrobilimlar misli ko'rilmagan sur'atlarda rivojlandi. Shuning bilan birga, inson faoliyati doirasi ham kengayib, ilgari orzu ham qila olmagan ko'pgina narsalar haqiqatga aylandi. Inson fazoga chiqdi, sun'iy yo'ldoshlar, kosmik laboratoriyalar, oyga sayohatlar, kosmik kemalar va fan va texnologiyadagi boshqa ajoyib yutuqlar inson nafaqat erni, balki, koinotni zabt eta boshlaganini ko'rsatdi. Mikroelektronika, biologik muhandislik, kosmik texnologiya, energiya ishlab chiqarishning yangi usullari va materiallar ishlab chiqarish fanida ro'y berayotgan yangi ilmiy-texnikaviy inqilob kelajakda inson hayotiga ta'sirini yanada oshiradi.

Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy jihatdan bu davr ijtimoiy voqelik tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydigan loyihalarni amalga oshirish davri sifatida ham tarixga kirdi. A.P.Valitskaya ta'kidlaganidek: «XX asr falokatlarini tahlil qilishda, so'nggi yarim asr davomida dolzarb falsafiy mavzu bo'lib qolgan fojialarning sabablari faqatgina iqtisodiy ishlab chiqarish omillari bilan cheklanmaydi. Ularning chuqur ildizlari ijtimoiy-madaniy va psixologik xususiyatga ega bo'lib, insoniyatning ma'naviy va axloqiy rivojlanishining ilmiy-texnik taraqqiyotdan orqada qolishi natijasida yuzaga kelgan global antropik inqirozdan dalolat beradi. Ushbu ma'naviy ortda qolish «tashqi tabiat ustidan hukmronlik qilish g'oyasini tasdiqlaydi» va ta'

<sup>1</sup> Шу манба.

lim tizimini og'irlashtirdi».<sup>1</sup> Bu esa jamiyat ma'naviyati, ta'lim falsafasi va sanoat ishlab chiqarishi hamda texnologik amaliyotning mutlaqo qoniqarsiz holatidan dalolat beradi.

Yangi ijtimoiy-ma'naviy hayotda ta'lim-tarbiyaning maqsadlari, shakllari va mazmuni o'zgardi. Nodavlat, xususiy ta'lim muassasalari paydo bo'ldi. Shubhasiz, ta'limni rivojlantirishning umumiy tendensiyasi, butun dunyoda bo'lgani kabi, ta'limning bozor ehtiyojlariga tobora ko'proq yo'naltirilishi bo'ldi.

Hozirgi davr muayyan ma'noda, rivojlanishning yuqori darajasida bo'lsa ham, bir butun yaxlit bilimga qaytish, boshqacha qilib aytganda, ta'limni uning tabiatshunoslik va gumanitar tarkibiy qismlarining uzviy birligi asosida fundamentallashtirish zaruratini ko'rsatmoqda. Dunyo va inson tomonidan tan olingan bilimlar, madaniyatlar, texnologiyalar yig'indisini izchil tizimga keltirilishi zarur. Xalqlar madaniyati, ekologiya, informatika, o'lkashunoslik, dinshunoslik, matematika, fizika va boshqa fanlar universal inson ta'lim dasturining tarkibiy qismi bo'lmog'i lozim, uning maqsadi va mohiyati, V.I.Vernadskiy yozganidek, «yaxlit bilim» va «yaxlit dunyo» bo'ladi. Bu jarayonni imkon qadar jadallashtirish kerak, aks holda, kech bo'ladi. Bugungi kunda inson o'zini koinot bilan bir butunligini to'liq anglashini taqozo etmoqda. Agar inson o'zini koinotning, noosferaning bir zarrasi sifatida anglab yetsa, tabiatga shafqatsiz, vahshiy, xudbinlik bilan munosabatda bo'lishga o'rin qolmaydi. «Shaxs mustaqil, mas'uliyatli bo'lishi bilan birga, insoniylikdan uzilmasligi kerak».<sup>2</sup> Bu nazariya, eng avvalo, erkin, shu bilan birga, har qanday xatti-harakatining oqilonaligi uchun o'zining ma'naviy javobgarligini his qiladigan, mas'uliyatli shaxsga ta'lim-tarbiya berish nazariyasidir. Bunday shaxsni tarbiyalash bevosita jamiyat, obyektiv voqelik ta'sirida amalga oshadi.

Zamonaviy qarashlarga ko'ra, keng bilimli shaxsni shakllantirish bir qancha muammolarni hal qilishni talab qiladi:

**Birinchi**dan, «Bozor iqtisodiyoti munosabatlari chuqurlashuvi sharoitida Yer sharida yashayotganlar ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy faoliyat olib borayotganlar insonning biologik tur sifatidagi holati hamda boshqa ekologik tur vakillari bilan birgalikda yashash imkoniyatlarini anglashi orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun harakat qilishini taqozo qilmoqda».<sup>3</sup> Demak, dunyoning zamonaviy tabiiy-ilmiy manzarasi, biosfera, umuman, koinot muammolari bilan tanishish, insonning tabiatdagi o'rnini anglash orqali insonning tabiat bilan munosabatini uyg'unlashtirish hamda shu asosda ekologiya va noosfera muammolarini hal qilish imkoniyati tug'iladi.

**Ikkinchi**dan, inson jamiyatda yashashi va uning zamon bilan hamohang ijtimoiylashuvi uchun tarix, huquq, madaniyatshunoslik, iqtisod va falsafani rivojlantirish orqali tegishli madaniy muhitga singishi zarurligidan kelib chiqishi kerak.

**Uchinchi**dan, zamonaviy inson boy axborot muhitida yashaydi va ta'lim tizimining vazifasi uni axborot oqimida yashashga o'rgatish, uzluksiz o'z-o'zini tarbiyalash uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

**To'rtinchi**dan, inson o'zi bilan hamfikir bo'lishi kerak, bu esa psixologiya, adabiyot va san'at sohasida ma'lum bilimlarni talab qiladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'limni fundamentallashtirish g'oyasi globallashtirish jarayonlarida insoniyatning muhim muammolarni hal qilish, uning ko'plab tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlarini ta'minlash zaruratidan kelib chiqadi.

Globalashgan dunyoda kechayotgan jarayonlar ta'lim sohasida bir qancha qarama-qarshiliklarni keltirib chiqardi. Bular asosiysi, bir tomondan, milliy ta'lim tizimlarini saqlab qolish bo'lsa, ikkinchi tomondan, dunyo ta'lim tizimiga muammosiz, to'laqonli kirishni ta'minlashga intilishdan iborat. Bu holatda quyidagilar amalga oshadi: birinchidan, noyob etnik-madaniy merosni yetkazishda avlodlar davomiy-ligi, ikkinchidan, milliy o'ziga xoslik saqlanib qoladi va yangi impuls oladi, uchinchi, milliy ta'lim komponentining mazmuni ishlab chiqiladi.

Bugungi kunda ta'limda insonparvarlik va insonparvarlashtirish asosiy muammolaridan biridir. Bu davr xarakteridagi texnokratiyaning hukmronligi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim va tarbiya tizimiga, ma'lum darajada jamiyatning ma'naviy saviyasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ma'naviyatsizlikning kengayishiga sabab bo'ladi.

Jamiyatimizda ta'limni insonparvarlashtirish tendensiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya-

<sup>1</sup> Вернадский В.И. Начало и вечность жизни. М., изд-во «Совет. Россия», 1989, с. 9 – 16.

<sup>2</sup> Shu manba. 7-bet.

<sup>3</sup> Hakimov N.H. Inson ekologiyasi. T., «Iqtisodiyot», 2020, 39-bet.

si, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-sonli farmonida va boshqa bir qator ta'limning huquqiy asoslarida o'z ifodasini topgan.

Bugungi kunda bunday insonparvarlashtirishning yangi bosqichi haqida gapirish zaruriyati zamonaviy sivilizatsiyaning bir qator global muammolarining keskinlashuvi bilan bog'liq. «Jamiyatda degumanizatsiya jarayoni kuchaydi. G'arb ratsionalizmining XX asr ikkinchi yarmidagi inqirozi, turli-tuman mu'tadil va tajovuzkor diniy sektalar, mistik teosofik, spiritualistik, parapsixologik ta'limotlarning had-dan tashqari ko'payib ketganligi, teleekranlarda shu mavzudagi hamda zo'ravonlik va fahshni ochiq ko'rsatuvchi filmlar salmoqli o'rin egallaganligi bunga dalildir».<sup>1</sup>

Fikrimizcha, yuqorida yuqorida qayd etilgan holatlar, ta'lim va tarbiya tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni va rolini tubdan o'zgartirish zarurligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Gap insonparvarlik va insonparvarlashtirish rasmiy emas, balki real, samarali xarakterga ega bo'lishi kerakligi haqida bormoqda. Zero, faqat insonparvar shaxs, insonparvarlashtirilgan texnologiyagina jamiyatni o'zgartirishga, uning ma'naviyatsizligini davolashga qodir.

XXI asrda insoniyat sivilizatsiyasida yangi rivojlanish davri axborotlashgan jamiyat davri boshlandi. Bugungi kunda an'anaviy ta'lim uslublari internet, elektron-kompyuter setlari va telekommunikatsiya muhitiga asoslangan yangi o'qitish uslublari bilan to'ldirilmoqda. Internet texnologiyaga asoslangan teleo'qitish va masofaviy ta'lim bir qator yangi funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda, o'zaro taqsimlangan hamkorlik prinsipi, integratsiya, xalqaro internet tarmog'iga kirish kabi aniq prinsiplarni amalda qo'llashni talab etadi».<sup>2</sup>

Shunday qilib, uchinchi ming yillik boshidagi o'zgargan ma'naviy vaziyat, umuman, ta'limni, xususan, oliy ta'limni yangi metodologiyaga yo'naltirdi, degan xulosaga kelish mumkin. Yaxlit dunyoqarashdan kelib chiqadigan universal mantiq zamonaviy ta'limning umumiy metodologiyasi hisoblanadi. «Yangicha falsafaga ko'ra, ta'lim tizimi va jarayonida bilim emas, balki o'quvchi-talaba shaxsi asosiy bosh qadriyat hisoblanadi. Didaktik jarayon subyekt-subyekt shaklida amalga oshiriladi. Ya'ni, o'quvchi-talaba o'qituvchi bilan birgalikda ta'lim jarayonini amalga oshiradigan subyekt mavqeyida bo'ladi. Yangicha pedagogik falsafa o'quvchi-talaba olamdagi narsa, hodisalarni jarayonlarni o'z ko'zi bilan ko'radi, idrok etadi. Shunday ekan, u bu narsa, hodisalarni o'z kuchi bilan o'rganishi kerak, degan g'oyaga asoslanadi. Yangicha falsafiy yondashuvga ko'ra inson olam hodisalarini yaxlit, bir-biriga bog'liq holda o'zlashtiradi. Shu bois ta'lim ham ana shu falsafiy qonuniyat asosida uyushtirilishi lozim».<sup>3</sup> Ushbu yangi metodologiya yangi o'qitish usullarini, yangi ta'lim texnologiyalarini talab qiladi. Bu texnologiyalar fundamental va amaliy fanlar yutuqlarini integratsiyalashuvi negizida vujudga keladi. Bunday samaraga erishishning asosida informatika, yagona axborot tizimining yaratilishi internetning keng tarqalishi bo'lib, u ta'limda odamlar o'rtasidagi mulqotni rivojlantirishga yordam beradigan, bo'lajak mutaxassislarni dunyo va insonni har tomonlama tushunishga, insonni insoniyat, umuman, koinot bilan uyg'un idrok etishga yo'naltiradigan eng yangi usul va uslublardan foydalanish imkonini beradi.

Bu borada maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'limgacha bo'lgan ta'lim jarayonini ham modernizatsiya qilish zarur. Shuningdek, maktab jiddiy islohotni talab qilmoqda, chunki «bilimlar iqtisodiyoti» sharoitida uning roli va maqomini oshirish muhim ahamiyatga ega. Maktabda o'rganilgan bilimlarning mustahkamlanishi o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida innovator o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan ko'plab innovatsion usullar hamda ta'lim shakllari tufayli amalga oshiriladi. Ular o'quvchilarning faolligini, o'rganilayotgan fanga qiziqishini uyg'otishga asoslanadi. «Ishbilarmon o'yin», «Aqliy hujum», «Talaba-seminar rahbari» kabi mashg'ulot shakllari allaqachon odatiy holga aylangan. Bugungi kunda oliy ta'limga faol joriy etilayotgan o'qitishning interfaol usullari talabalar guruhini faollashtirish asosida oliy ta'limni qayta qurishga xizmat qilmoqda. Ushbu barcha yangi texnologiyalar aynan o'qituvchi va talabaning shaxs sifatida tushunishiga asoslanadi, ta'limni yanada erkinlashtirib, ta'lim obyektini va subyektini o'rtasidagi munosabatlarda qat'iy tartibga solish, avtoritarizmni rad etishga yordam beradi.

XIX–XX asrlar bo'sag'asida ham J.Dyui ta'limni insonning muvaffaqiyat qozonishiga imkon be-

<sup>1</sup> Erkayev A. Tafakkur erkinligi. T., «Ma'naviyat», 2007, 128-bet.

<sup>2</sup> Serobov A. Ta'limga tikilgan sarmoya. Toshkent, «Akademnashr», 2022, 153-bet.

<sup>3</sup> Primov T. Ta'lim falsafasi yoki ta'lim-tarbiyaning metodologik masalalari. T., «Fan va texnologiya», 2014, 15-bet.

radigan haqiqiy tajriba asosida shakllantirish kerak, deb taklif qildi. Bu haqiqiy hayotdan ajralgan mavhum bilim emas, aynan tajribadir.<sup>1</sup>

XX asr oxirida R.Bar va J.Tagg faol hamkorlikka asoslangan, natijada talaba bilim oladigan, o'qituvchi esa mahoratga ega bo'ladigan «Oliy ta'limning yangi paradigmasi»ni ilgari surdilar.<sup>2</sup>

XXI asrda oliy ta'lim subyekt va obyekt, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi shunday munosabatlarga asoslanishi kerakki, bu ular o'rtasida muloqotni yo'lga qo'yishga, bo'lajak mutaxassisni o'zi va butun jamiyat uchun mas'ul shaxs sifatida shakllantirishga yordam bera olsun.

Xulosa sifatida quyidagi fikr-mulohazalarni aytishimiz mumkin:

–zamonaviy jamiyatda ta'lim-tarbiya maqomi o'zgarib, xizmat ko'rsatish sohasiga, tovarga aylanmoqda. Ta'limni tijoratlashtirish ta'lim sifatining o'ziga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, ta'limni to'liq texnologiyalashtirish, shuningdek, tijoratlashtirish muammosi keskinlashmoqda;

–globallashayotgan, axborot dunyosi sharoitida ta'lim tizimlari ommaviy jamiyat, bozor munosabatlarida shakllanmoqda. Bugungi kunda e'lon qilingan «ixtiyoriylik» prinsipidan maqsad esa imkon qadar ommaviy jamiyat ehtiyojlarini qondirish;

– ta'lim tizimlarining asoslarini tubdan qayta ko'rib chiqish va ularning eng muhim tarkibiy qismlarini mustahkamlash zarur. Fundamental va maxsus fanlarni o'qitish asosida tabiatga munosabatini ekologik ong darajasida anglaydigan, keng profilli yuqori malakali mutaxassis, bilimli, zukko shaxs-professionalning yangi idealini shakllantirish zaruratidan kelib chiqib, yangi ta'lim tizimining eng muhim tarkibiy qismlari fundamentallashtirish, gumanizm va ekologizm bo'lishi lozim;

– shuningdek, yagona ta'lim makonini shakllantirish sharoitida milliy ta'lim an'alarini asrab-avaylash, Sharq va G'arb ta'lim-tarbiya tizimi transformatsiyasi, modernizatsiyasi va isloh qilinishining konseptual asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

**Журакулов Жамол Комилович (Республика Маънавият ва маърифат маркази хузуридаги Ижтимоий-маънавий тадқиқотлар институти мустақил изланувчиси)**  
**АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ИНСОН МУАММОСИ**

***Аннотация.** Ушбу мақолада ахборотлашган жамиятда инсон муаммосига оид ахборотлар моҳияти очиқ берилган. Биз яшаётган бугунги жамият ахборотлашиб улгурганлиги ва яна-да такомиллашаётганлиги таъкидланади. Ҳозирги замон билан ҳам нафас яшаётган инсонлар ўз ҳаётини янги ахборотсиз тасаввур эта олмайди. Шундай экан, дунёнинг у ёки бу четидаги бўлаётган воқеа ва ҳодисалардан хабардорлик ҳисси ҳар қачонгидан ҳам юқорилиги изоҳланган.*

***Аннотация.** В данной статье раскрывается характер информации, связанной с проблемами человека в информационном обществе, подчеркивается, что общество, в котором мы живем сегодня, стало информированным и совершенствуется. Люди, живущие в наше время, не могут представить свою жизнь без новой информации. Поэтому объясняется, что чувство осведомленности о событиях и происшествиях в том или ином уголке мира выше, чем когда-либо.*

***Annotation.** This article reveals the nature of information related to human problems in the information society, it is emphasized that the society we live in today has become informed and is improving. People living in modern times cannot imagine their lives without new information. Therefore, it is explained that the sense of awareness of events and happenings in one or another corner of the world is higher than ever.*

***Калим сўзлар:** ахборот, ахборот алмашиши, ахборот маданияти, ахборот-коммуникация технологиялари, ахборот тафаккури, интернет олами.*

***Ключевые слова:** информация, информационный обмен, информационная культура, информационно-коммуникационные технологии, информационное мышление, мир интернета.*

***Key words:** information, information exchange, information culture, information and communication technologies, information thinking, Internet world.*

Ахборотнинг шахс, давлат, умуман, жамият ҳаётидаги ўрни жуда муҳим. Ахборот инсонни атроф-муҳитга мослаштиришга қаратилган алоқа жараёнининг натижасидир. Эндиликда ижтимоий муҳитда янги ахборот жамиятини яратиш мақсади мулоқот жараёнига ўзига хос хусусиятлар ва

<sup>1</sup> Дьюи Дж. Демократия и образование. М., “Педагогика-Пресс”, 2000, с. 10 – 12.

<sup>2</sup> Bar R.B., Tagg J. From teaching to learning. A new paradigm for undergraduate education. Change. 1995, November-December, p. 13 – 25.

Ўзгаришларни олиб келди. Ахборотнинг қимматлилиги инсоннинг субъектив хулқ-атвориға эға бўлиши билан изоҳланади. Агар инсон мақсадига эришса, унда фойдаланилган ахборот эътибордан четда қолади ва у ўз қийматини йўқотади. Шуни ҳам ёдда тутиш керакки, кадриятлар ҳар хил. Қиймат бу маълумотнинг шахсга мақсадга эришиш йўлини танлаш жараёнида фойдаланишга имкон берадиган хусусиятдир. Шу ўринда айтиш мумкинки, жамиятда кадриятга эға бўлган маълумотлардан ташқари, умуман, кадрсиз ёки салбий қийматга эға бўлган маълумотлар ҳам мавжуд.

**Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили.** Ахборот инсониятнинг асосий ресурси, асосий кадриятига айланди. Ахборотнинг ижтимоий соҳадаги ролининг ортиб бориши ва ахборот муносабатларининг пайдо бўлиши ахборот жамияти даврига қадам қўйганлик кўрсаткичидир. Америкалик социолог Д.Беллнинг фикрича, “Ахборотлашган жамият, аввало, маълумотлилиқ даражаси ва маънавиясига кўра, миллат элитасини шакллантирадиган жамият ҳисобланади. Ахборотни жисмонан истеъмол қилинмайдиган ва эскирмайдиган «жамоавий маҳсулот, индустриал жамиятда инсон ҳаётининг фаолиятидаги мутлақо янги маҳсулот бўлгани учун унга нисбатан ўша даврда муомалада бўлганидан ўзгача меъёр ва мезонларни қўллаш керак, деган хулосага келади.<sup>1</sup>

Ахборот маданияти шаклланган билимли шахс зарур ахборотни топиш, баҳолаш ва ундан самарали фойдаланиш, ахборотни сақлашнинг анъанавий ва автоматлаштирилган техник воситаларидан тўғри фойдалана олиши керак. Э.Тоффлернинг фикрича, ахборотлашган жамиятда фан услублари ҳажм жиҳатдан жуда катта бўлган маълумотларни йиғиш имконини беради.<sup>2</sup>

Япон олими Й.Маъсуда бу ҳақида шундай ёзади: ахборотлашган жамият инсониятнинг энг улкан ютуқларидан биридир. Янги технологияларнинг ривожланиши ижтимоий ҳаётнинг ўзига хос ижобий ўзгаришига олиб келади.<sup>3</sup> Ахборот оқидами ахборот муҳитининг қонуниятлари ҳақидаги билим, қобилият, кадриятларни шакллантириш инсонга ҳаётда тўғри йўлдан боришга, муҳим қарорлар қабул қилишга имкон беради. Ахборотлаштириш жараёни ахборот ва ахборот-коммуникация технологияларидан жамият ва инсон ҳаёти тараққиётининг ресурси сифатида тўлиқ фойдаланиш инсоннинг ахборот маданиятини ривожлантириш ва шакллантиришнинг аҳамиятини оширади.

**Тадқиқот методологияси.** Бу тенденция 20-асрнинг 70–80-йилларида жадал ривожланиб, цивилизация ривожига сезиларли таъсир кўрсатди. Ахборот жараёнининг жадал ривожланишининг асосий кўрсаткичи сифатида ахборотни олиш, тарқатиш, ташиш, алмашиш ва зарур ахборотни топиш ҳамда ахборотни қайта ишлаш, амалга ошириш ва бошқариш учун техник воситалар билан таъминлаш имкониятлари ошиб бормоқда.

Ахборотлаштириш – бу таълим, маданият ва ижтимоий соҳага таъсир қилувчи ижтимоий-маданий жараён. Ахборотлаштириш жараёни инсон муҳитини сезиларли даражада ўзгартирди. Ахборотлаштириш шароитида ахборот жамиятининг кадриятлари, тамойиллари, билимлари, меъёрлари ёйилиб, шахсда ахборот маданияти шаклланади. У инсонни ахборот ҳамжамиятининг ажралмас қисмига айлантиради.

Ахборотлашган жамият ва оммавий коммуникация воситаларининг келиб чиқишини тадқиқ этган ўзбек социологи О.Абдуазимов оммавий коммуникация воситаларининг тараққиёт тарихини уч даврга бўлиб ўрганишни таклиф этади. Учтинчи даврда электрон воситали ахборот алмашинуви пайдо бўлиши билан ахборотлашган жамиятга ўтиш содир бўлганини таъкидлайди.<sup>4</sup> Оммавий ахборот воситалари энг муҳим ахборотнинг ахборот функцияларини бажарадиган, одамларни демократия ва цивилизация кадриятларини, уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини билиш ва ҳурмат қилишга тарбияловчи демократик институтдир. Демократиклашган замонавий дунёда оммавий ахборот воситалари муҳим ўрин тутди. Айниқса, сўз, матбуот эркинлиги, радио ва телевидениедан фойдаланиш имконияти кафолатланган мамлакатларда фуқароларнинг ўз-ўзини англаши, жамият ҳаётидаги фаоллигини ошириш, одамларни етакчилик ва масъулият руҳида тарбиялашда оммавий ахборот воситалари алоҳида ўрин тутди.

<sup>1</sup> Абдуазимов О. Ахборотлашган жамиятда жамоатчилик фикри мониторингини таъминлашда оммавий коммуникациялар социологиясининг ўрни (Ўзбекистон оммавий ахборот воситаларининг 2001–2016 йиллардаги материаллари мисолида). Монография, Тошкент, “Fan va texnologiya”, 2016, 49 – 66-бетлар.

<sup>2</sup> Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования. Пер.с англ. В.Л. Иноземцева. М., “Academia”, 1999, с. 956.

<sup>3</sup> Маъсуда Й. Информационное общество как постиндустриальное общество. М., 1991, с. 172.

<sup>4</sup> Тьютин В.С. Отражение системы, кибернетика. Теория отражения в свете кибернетики и системного подхода. М., “Наука”, 1972, с. 256.

Бизга маълумки, оммавий ахборот воситаларининг асосий кучи одамларни уларнинг хатти-ҳаракатлари ва хатти-ҳаракатларига таъсир кўрсатишга ишонтиришдир. Қонун устуворлигидан фарқли ўлароқ, матбуотнинг таъсири одамларнинг давлат, унинг институтлари ва сиёсати ҳақидаги тафаккури ва хатти-ҳаракатларини шакллантириши ва йўналтириши мумкин. Оммавий ахборот воситаларининг муҳим роли жамият ҳаётийлигини таъминлашдан иборат. Ўзбекистоннинг ахборот майдони жамиятдаги иқтисодий, демократик, сиёсий ва ижтимоий ўзгаришларни англаш, янгича идрок этиш жараёнларини ўзида акс эттиради.

**Таҳлил ва натижалар.** Фикр ва қарашларнинг хилма-хиллиги, мақсадлари, талаблари, қарама-қаршиликлари, сиёсий ва ижтимоий ахборот воситалари жамият аъзоларининг маънавий эҳтиёжларини қондириш, уларнинг танлаш, таҳлил қилиш ва баҳолаш, жамиятда кечаётган жараёнларни тушуниш ва қарор қабул қилиш қобилиятига хизмат қилади. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 29-моддасида белгиланишича, ҳар ким ўзи истаган ахборотни излаш, олиш ва уни тарқатиш ҳуқуқига эга, амалдаги конституциявий тузумга қарши қаратилган ахборот ва қонун билан белгиланган бошқа чеклашлар бундан мустасно.<sup>1</sup>

Ахборот жамияти турли ғоялар ва таълимотларни, билимларни, турли цивилизация ва қадриятларни таҳлил қилади, одамларнинг тафаккурини кенгайтиради, муайян ғоялар атрофида бирлашишга, уларни чуқурроқ англашга ёрдам беради. Иқтисодиёт давлатнинг таянчи бўлса, унинг миллий руҳи, онгу қалби кабидир. Жамиятдаги ижтимоий институтнинг ўзига хос тури бўлган оммавий ахборот воситалари давлат қалби орқали бутун организм учун зарур бўлган озик моддаларни, давлат бирлигини англаш, фуқароларнинг умумий манфаатларини тарғиб қилади. Бусиз мустақил давлатнинг келажагини башорат қилиш қийин. Айни пайтда, Ўзбекистон нафақат иқтисодий манфаатлар нуқтаи назаридан, балки стратегик, сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий жиҳатдан ҳам жаҳон ҳамжамиятининг эътиборини тортмоқда.

Жамиятнинг цивилизацияси ва дунёвийлиги давлатнинг маданиятга муносабати билан ўлчанади. Ҳозирги цивилизациялашган жамиятда таълим ва ахборот кучи пул ва давлат ҳокимиятини бошқаришда асосий роль ўйнай оладиган сиёсий кучга айланди. Ахборот жамиятида шахснинг ахборот маданиятининг шаклланиши унинг ахборотга бўлган эҳтиёжини қондириш, муваффақиятга эришиш имкониятларини рўёбга чиқариш ва жамият ҳаётида фаол иштирок этишини таъминлайди. Ахборот технологияларидан ҳаддан ташқари фойдаланиш компютерга қарамликнинг “Велд синдроми” деб аталадиган нохуш “ножўя таъсири”ни юзага келтирди, бу аутизм ва кибер дунёга қарамлик сифатида баҳоланади, бошқа қарамликлар каби тузатиб бўлмайди. Илмий тадқиқотларда ахборот-коммуникация технологияларининг шахс камолотига таъсирининг ижобий томонларига ҳам эътибор қаратилган. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, кўп йиллардан буён ахборот-коммуникация технологиялари билан чамбарчас боғлиқ бўлган инсонлар толерант психологик хусусиятларга эга, мақсад сари интилувчи, мустақиллик, юксак интеллект ва ижодкорлик қобилиятига эга инсонлардир. Шу билан бирга, бундай одамлар иш жараёнининг натижаларига асосланади, ўзларига яқин, ўз ҳаётларида қоладилар, улар муносабатлардаги совуқлик ва мулоқотда ҳис-туйғуларнинг етишмаслиги, эмпатиянинг йўқлиги, қарама-қаршиликка мойиллик, эгоцентризм ва паст масъулият ҳисси билан ажралиб туради. Бироқ бу шахснинг психологик хусусиятлари узок муддатли алоқа ташувчиларга қарамлик жараёнида шаклланади, деб аниқ айтиш мумкин эмас. Эҳтимол, алоқа ташувчилар бу хусусиятларга эга бўлган одамларга кўпроқ жалб қилинади ёки бундай хусусиятларнинг кўпайишига қарши туради. Яширин хусусиятлар бу мулоқотда яна-да яққол намоён бўлади ва бундай одамлар маълумотни интим шаклда, ёпиқ муҳитда олишга мойил бўлади.

Технология асрига қадар бу хусусиятлардан азият чеккан кўплаб ижодий ва илмий олимлар ўхшашликларга эга эди. Таълимни ахборотлаштиришнинг мақсадларидан бири ахборот жамиятининг асосий қарама-қаршилиги бўлган инсон хотираси имкониятлари чекланганлиги сабабли зарур бўлган жуда катта ҳажмдаги маълумотларнинг мураккаб қарама-қаршилигини бартараф этиш орқали замонавий одамларнинг жамиятга муваффақиятли мослашишини бартараф этишдир. Шу боисдан ҳам “Ўзбекистон Республикасини яна-да ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегия-

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т., “Ўзбекистон”, 2018, 12-бет.

си”да сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мос юқори малакали кадрлар тайёрлаш каби йўналишлар белгиланиб олинган.<sup>1</sup>

Ахборот тафаккури назарияси концепциясида компьютер ахборотни идрок этиш қобилияти-ни ва инсоннинг уни қабул қилиш тезлиги ва ҳажмини ошириш қобилиятини тўлдиради. Компьютер ёрдамида шахсий маълумотлар тезроқ, кўпроқ ва аниқроқ ишлаши мумкин, лекин унинг имкониятларини фақат миқдорий жиҳатдан оширади.

Ахборот-коммуникация технологиялари таъсирига тобора кучайиб боргани сари, биз бошқача фикрлай бошладик. Агар инсон авваллари матн билан ўйлаган бўлса, энди у суратлар, тасвирлар билан фикр юритади ва бу сурат селфи моҳиятини кўпроқ тушунтиради. Илгари биз “китоб одамлари” эдик, энди эса график одамларга айландик. Биз камроқ ўқий бошладик. Агар веб-сайтда матн жуда кўп бўлса, унда ўқувчи, энг яхши ҳолатда, кўзларини диагонал равишда айлантиради ёки шунчаки эълонга қарайди, лекин, кўпинча, ўқишдан узоқлашади. Матнни саралаш ўқувчини қизиқтирмайди, айниқса, чиройли расм бўлмаса. Фойдаланувчи томонидан ўқиладиган сўзлар со-ни мониторинг ўлчамига қараб белгиланади.

Шу билан бирга, бошқа муаммолар ҳам пайдо бўлади. Ахборот олиш жараёнини мураккаб-лаштирадиган катта ҳажмдаги маълумотлар ва гиперҳаволалар, рекламалар, флуд, спам, маълумотлар манбаи ва қидирув йўналишини эркин танлаш фойдаланувчини асл мақсаддан чалғитиши мумкин. Ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг яна бир психологик жиҳати яққол кўзга ташланади.

Исталган вақтда ўқувчи ўзига қизиққан соҳа бўйича турли қарашлар, шунингдек, дунёнинг турли бурчакларидан келган мутахассислар билан танишиши, тенгдошлари билан электрон мулоқот қилишлари мумкин. Унинг позицияси жуда фаол бўлиши мумкин, у баҳслаша олади, ўз фикрларини ҳимоя қилади, ўз позициясини оқлайди. Ўхшаш манфаатларга ега бўлган одамларни яқин даврдан кўра интернетга кириш орқали дарҳол топиш осонроқ бўлади, бу эса компьютер алоқаси муаммосини ҳал қилади. Математик моделлаштиришнинг анъанавий воситалар билан ечилмайдиган илмий муаммоларини ҳал қилиш билан компьютер тадқиқоти фаолиятининг психологик тузилишини ўзгартириш хусусиятлари, ҳисоблаш усулларини ишлаб чиқиш, ахборот тизимларини қўллаш ва такомиллаштириш. Компьютернинг ўзаро таъсири шахсларо мулоқотнинг табиатини ўзгартиради ва жараённинг ўзига мутлако янги хусусиятларни беради.

Ахборот-коммуникация технологиялари алоқа воситаси сифатида ўз вазифаларини ўзгартирмақда:

1. Коммуникатив-ахборот алмашинуви янада мукамал ва соддалашади.

2. Интерактив–шерикларнинг ўзаро таъсири анъанавий концепцияда оддий суҳбатлар билан чегараланмайди. Бу одамларнинг манфаатларига қараб тахминлар қилиш, хатоларни тузатиш, баҳолаш ва мулоқот қилиш имконини беради.

Виртуал мулоқот тили аста-секин кундалик ҳаётнинг бир қисмига айланиб бормоқда. Замонавий тилнинг софлиги муаммоси, бир томондан, сўз эркинлиги унинг ривожланишига ҳисса қўшса, иккинчи томондан, адабий тилни ифлосликлар билан тўлдиради, суҳбат учун бегона бўлган суҳбат хоналари ёки форумларнинг тил қоидаларини тарқатади. ёки адабий нутқ, хатоларни тузатиб, нотўғри култ яратади. Сўқиниш орқали ибораларга ўзига хос хусусият беради. Бироқ жаргон ёки жаргонни қўллаш инсоннинг ички маданиятига боғлиқ. У умумий нутқ маданиятига таъсир кўрсатгани учун шахс шахсида ҳам ижобий, ҳам салбий из қолдириши мумкин. Технология нафақат жамият ва иқтисодиётни ўзгартиради. У ҳам бизни ўзгартиради, ҳар куни уйда ва кўчада хатти-ҳаракатларимизни ўзгартиради.

**Хулоса ва таклифлар.** Кўп ҳолларда рақамли ҳисоблар ва маълумотларни манипуляция қилиш орқали аниқланган ўзгарувчан кетма-кетликни амалга ошириши мумкин бўлган компьютернинг яратилиши ахборот технологияларига таъсир кўрсатди ва фикрлаш, билим ва алоқа каби асосий фундаментал тушунчаларни кенгайтди. Тасаввур қилиб бўлмайдиган суръатларда ривожланаётган ахборот-коммуникация технологиялари инсониятнинг бир авлодида ҳаётимизнинг барча соҳаларини эгаллашга муваффақ бўлди. Шахс ривожланиши билан боғлиқ бир қанча психологик муаммолар вужудга келдики, улар бу жараёни тушуниш, ҳал этиш ва йўналтириш учун

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Ахборот технологиялари ва коммуникациялари тизимидаги ишларни таҳлил қилиш, соҳани жадал ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирларни белгилашга бағишланган йиғилишдаги маърузаси. 19.09.2018.

социология, психология ва педагогиканинг турли соҳаларидаги назарий тушунчаларни бирлаштиришни тақозо этади. Бундай муаммолар қаторига инсон ва компьютер муносабатларининг салбий томонлари, психологик қарамлик, компьютер ташвиши ва компьютер ўзига ҳослиги, шунингдек, ахборот-коммуникация технологияларининг инсон ақлий фаолиятига таъсирининг ижобий томонларини ҳам тўлиқ ўрганиш ва амалиётга татбиқ қилиш керак.

**Salomova Nigina Muzaffarovna (Buxoro shahar tibbiyot birlashmasi  
Salomatlik markazining metodist shifokori, ilmiy izlanuvchi)  
IBN SINO JISMONIY VA RUHIY SOG‘LOM INSON HAQIDA**

***Annotatsiya.** Maqolada Ibn Sinoning jismoniy va ruhiy salomatlik, ularning dialektik aloqadorligi, ruhiy salomat bo‘lish omillari, unda ishqning o‘rni ko‘rsatilgan. Shuningdek, unda ruhiy salomatlikning ustuvorligi atroflicha yoritilgan bo‘lib, jismoniy va ruhiy salomatlikda me‘orning muhimligi alohida uqdirilgan.*

***Аннотация.** В данной статье раскрываются проблемы физического и духовного здоровья человека. Раскрываются виды любви. Духовная чистота, духовная любовь и его место в совершенствовании человека. В статье также подчеркивается приоритет психического здоровья и отмечается важность умеренности в физическом и психическом здоровье.*

***Annotation.** The article shows Ibn Sina’s physical and mental health, their dialectical relationship, factors of mental health and the importance of love. Also, the priority of mental health is covered in detail and the importance of the norm in physical and mental health is emphasized.*

***Kalit so‘zlar:** Ibn Sino, jismoniy va ruhiy sog‘lomlik, ishq, tana, qalb.*

***Ключевые слова:** Ибн Сина, физическое и духовное здоровье, любовь, тело, душа.*

***Key words:** Ibn Sina, physical and mental health, love, body, soul.*

Amerikalik olim-siyosatshunos Frederik Starr Markaziy Osiyoning X–XI asrlaridagi davrni “Oltin asr” deb atadi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkirlari ilmiy haqiqatga erishishning tajriba-eksperiment, kuzatish, deduksiya, intuitsiya, mantiqiy argumentatsiya usullarini aniqlab, ular orqali moddiy-tabiiy hamda ma’naviy-ruhiy borliqdagi haqiqatlarni ilk bor aniqligicha ko‘rsatdilar. Jahon ilmi-fanida o‘ziga xos sharafga ega Ibn Sino “Shayx ar-ra’is” (“Donishmandlar sardori, alomalar boshlig‘i”), “Sharaf al-mulk” (“O‘lka, mamlakatning sharafi”), “Hujjat al-haqq” (“Rostlikka dalil”), “Hakim al-vazir” (“Donishmand, tadbirkor vazir”) kabi sharafli nomlar bilan ulug‘landi.

Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan ikki yuz qirqta asari (ba’zi adabiyotlarda ikki yuz saksondan ortiq)ning mag‘z muammolari – inson farovonligi, baxti, kamoloti, jismoniy va ruhiy sog‘lomligi, ruhiy kamolotga erishuv omillari, ma’naviy-ruhiy kamolotiga salbiy ta’sir etuvchi omillar, ilohiy borliqni anglash saodati g‘oyalari yotadi.

Birgina Ibn Sinoning o‘zi insonni bir necha yo‘nalishlarda o‘rganib, juda katta ilmiy muvaffaqiyatlarga erishdi. Ibn Sinoning tadqiqot obyekti inson bo‘lgani bilan u insonni faqatgina tib nuqtayi nazaridangina emas, falsafa, tasavvuf, psixologiya, axloq nuqtayi nazaridan har tomonlama, chuqur, mantiqiy izchillikda o‘rgandi. Tana (jasad), ong, aql (bilish), ruh (axloq, ma’naviy kamolot) inson tarkibiga kiruvchi har bir immanent komponentlarni oldin alohida, so‘ng dialektik aloqadorlikda olib o‘rgandi. Shu sababli bo‘lsa kerak, uning inson falsafasi, inson anatomiyasi va fiziologiyasi, inson ruhiyatiga tegishli bo‘lgan barcha asarlari dunyo olimlarining sevimli ilmiy ozuqasiga aylandi.

Insonni o‘rganishning tibiiy yo‘nalishi, boshqacha so‘zlar bilan aytganda insonni biologik mavjudot sifatida o‘rganish. Bu borada alloma oltmishga yaqin asar yozgan. Barcha tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida o‘qilishi shart bo‘lgan bu asarlar o‘zining qimmatligi bilan boshqa tib manbalaridan ajralib turadi. Sog‘lom turmush tarzini ilmiy asoslab berdi.

Inson falsafasini o‘rganish (“Donishnoma”, “Kitob ash-shifo”, “Kitob an-najot”, “Al-Ansof”, “Fi-l-hudud”, “Hikmat aloiya”, “Al-Mabohisot” va boshqa falsafiy asarlari) inson ruhiy-ma’naviy olamini hamda tasavvuf nuqtayi nazaridan o‘rganishga oid yo‘nalish bo‘yicha asarlar yaratgan “Risola fil-ishq”, “Risolay axloq”, “Solomon va Ibsol”, “Uy tutish tadbiri”, “Hay ibn Yaqzon” (“Uyg‘oq, tirik o‘g‘li) kabi risolalarida inson ruhi jiddiy tahlil qilingan.

Boshqacha iboralar bilan ifodalaganimizda, qomusiy alloma tibbiyotga oid asarlarida inson tanasi salomatligini saqlash tadbirlarini aniqlab bergan bo‘lsa, falsafaga oid asarlarida inson ruhiy olamini sog‘lomlashtirish, tasavvufga oid asarlarida esa insonni kamolotga erishish omillarini mantiqiy izchillikda yoritib berdi.



Inson tanasi sifat va miqdoriy ko'rsatkichlariga ko'ra, uch holatda bo'ladi, deb ta'kidlaydi alloma.

1. Sog'lomlik.
2. Bemorlik holati.
3. Na sog'lom va na kasallik holati.

Sog'liq va kasallik darajalarini ham sifat va miqdoriy ko'rsatkichlariga ko'ra ajratdi. "Sog'liq shunday malaka yoki holdirki, u sababli a'zolaridan sog'lom ishlar vujudga keladi".

Masalan, salomatlikning to'rt darajasi mavjud:

1. Tana o'ta sog'lom.
2. Tana o'ta sog'lom emas.
3. Tana sog'lom ham, kasal ham emas.
4. Tana yaxshi holatda, salomatlikni tezda qabul etuvchi.

Bemorlikni ikki darajaga:

1. Tana yengil kasal.
2. Tana haddan tashqari og'ir kasal.

Aynan mana shunday salomatlik, aksincha, bemorlik holatining sifat va miqdor ko'rsatkichlarini normal anatomiya va patalogik anatomiya, normal fiziologiya va patalogik fiziologiya kabi fanlari o'rganishadi. Har bir organ, a'zolarining sifat va miqdor ko'rsatkichlarini chuqur va har tomonlama o'rganish ilmi tufayli Ibn Sino:

1. Yurak holatini sakkiz xil usul orqali (ya'ni, tomir urishi, nafas olish, ko'krak qafasi shakli va boshqa miqdor va sifat ko'rsatkichlariga ko'ra) aniqlash mumkinligi uqirdi.

2. Yigirma olti xil nafas olish holatini.

3. O'nta sifat hamda miqdor ko'rsatkichini mezoni qilib (mana shu parametrlarga ko'ra) tomir urishlarning 50 ga yaqin xillarini aniqladi (Ularga asoslanib, tomir urishi haqidagi nazariyaga bag'ishlangan "Risolayi nabziya" tibbiy asarini yozdi).

4. Ibn Sino 60 dan ortiq xilma-xil isitmalar va isitmali kasalliklarni bayon etdi. 60 xil isitmani bir-biridan sifat va miqdor ko'rsatkichlaridagi farqlarni to'liq izohlab, bir kunlik isitmada 23 xilini belgilarni, kechishlarini va oqibatlarini to'liq ko'rsatib berdi.

5. Siydik (peshob) rangining 22 xilini ajratdi.

Ibn Sino nuqtayi nazarida bo'yicha, sifat miqdordan ayrilgan emas. Xuddi shuningdek, sifat va miqdorning yagonaligi va yaxlitligi, bir-birini taqozo etishi, aslo, ularning bir-biriga qo'shilib ketganini bildirmaydi. Ibn Sinoning yutug'i shundaki, sifat va miqdor belgilarini farqlay oldi. Tabiat borlig'ida o'zgarimas obyektning o'zi yo'q. Ammo barcha tabiat borlig'i o'z doirasida o'zgarib turadi. Me'yor Ibn Sino ta'limotida ko'p qirrali, sermazmun kategoriyadir. Ibn Sino asarlarida me'yorning xilma-xil mohiyatlari: "adolatli bo'lak", "miqdorlar mosligi", "sifatlar mutanosibligi", "To'rt unurning o'zaro bir-biriga hamohangligi (mosligi)" kabi tushunchalarda yoritilgan. Masalan:

1. Birinchi me'yor – "adolatli bo'lak" ("xos adad").

2. Ikkinchi me'yor – qarama-qarshi sifatlar sintezi.

3. Uchinchi me'yor – to'rt va undan ortiq me'yorlar sintezi.

4. Uchinchi me'yor – rejim (ya'ni tartib).

5. To'rtinchi me'yor taqsimlashdagi adolatli bo'lak; aniq miqdorlarning biri-biriga munosobati;

6. Beshinchisi – yaxshi sifatli (bunda har qanday sifat emas, aynan yaxshi sifat, aniq qilib aytganda, "yaxshi sifat, a'lo sifat", "aniq sifat" me'yor modifikatsiyasidan biridir).

7. Jins mizoji (jins me'yori)

Alloma bunday yozadi: "Har gavdaning mizoji tug'ma issig'i va tug'ma ho'lligining miqdori talab qiladigan darajada zaruriy qurishga qarshi turish chegarasi bor. Gavda o'sha chegaradan o'tmaydi, lekin goho quritishga yordam beruvchi yoki boshqa bir vajh bilan halok qiluvchi sabablarning voqe bo'lishi bilan gavda o'sha chegaraga yeta olmaydi. Ko'p kishilar mana shu (birinchisini) tabiiy ajal deb, keyingisini tasodifiy o'lim deb ataydilar". Haqiqatdan ham, gavda harorati muayyan issiqlik orasida bo'ladi. Bu irsiy, onadan o'tgan issiqlik. Mana shu issiqlik chegarasidan u yoxud bu tomonga o'tish o'limga olib boradi. Gavda issiqligining tabiiy tug'ma issiqlik chegarasini aniq ko'rsatib, chegaradan keyin o'lim, aynan tabiiy o'lim chegarasini ko'rsata bildi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Абу Али ибн Сино. Қонуни тиб. Иборат аз 5 китоб. Душанбе, Сарредакцияи илмии Энциклопедияи Советии Тоҷик, 1991, китоби 1 (Андар умури ҳамагонии пиизишки). 384 саҳифа. Биз таҳлил этган саҳифа 174-саҳифа.

Aynan mana shu ibora fors tilidan o‘zbek tilida tarjima qilinganda (tarjima muallifnisi – S.N.) bunday mazmunda bo‘ladi: “Har bir tananing qurish bilan kurashishida meyor mavjud, u me‘yor insonning tabiiy mijoz xususiyati, tug‘ma issiqlik va tug‘ma ho‘llik miqdori bilan bog‘liq bo‘lib, shu me‘yordan o‘tib keta olmaydi. Lekin, mumkinki, deb yozadi Ibn Sino, inson badani turli sabablarga ko‘ra, qurishga yuz tutadi yoxud boshqa sababga ko‘ra, halokatga yuz tutadi. Chunki o‘z vaqtidan oldin shu me‘yorga yetgan bo‘ladi. Ko‘p kishilar uzoq umrlilikni – uzoq umr ko‘rishni tabiiy o‘lim va ikkinchi holatni esa araziy (sun‘iy, tabiiy o‘limdan oldingi o‘lim deyilar”. Tabiiy o‘limni tezlatishga sabab bo‘lgan a‘zoldagi me‘yor buzilishlarini ko‘rsatib bermoqda Ibn Sino.

“Har goh xushkshavii purra ba anjom birasad (garmii) modarzodi xomo‘sh gardada va margi tabii faro rasad”(sahifa 176). Mazkur fikrning tarjimasi: “Inson tanasidagi tug‘ma-irsiy haroratning to‘liq yo‘qolishi yoxud nihoyasiga yetgandan so‘ng (keyin) tug‘ma issiqlik, ya‘ni tananing tug‘ma tabiiy harorati yo‘qoladi va tabiiy o‘lim sodir bo‘ladi”. Allomaning yuqoridagi fikr-mulohazalari shundan dalolat beradiki, inson tanasining sog‘lomlik, bemorlik va o‘lim holatidagi miqdor va sifat ko‘rsatkichlari har xil, aynan mana shu ko‘rsatkichlar tananing sifat – sog‘lomlik yoxud bemorlik yoki o‘limdan darak beruvchi ko‘rsatkichlardir.

Ishq – falsafa masalalaridan biri. Tana, ong, qalb, ruh, ishq – bular dialektik aloqador kategoriyalar. Ibn Sinoning “Ishq risolasi” quyidagi yetti bobdan iborat:

1. Har bir kimsa tabiatida mavjud bo‘lgan ishqning kuchi haqida.
2. Jonsiz oshyolardagi ishq haqida.
3. Mavjudotlar va taomdan oladigan quvvatga ega bo‘lgan jonivorlarda ham ishq borligi haqida.
4. Ishqning hayvoniy javharlarga ega tiriklikdan quvvat oluvchi jonzotlarda borligi haqida.
5. Go‘zallik, yoshlik nazokatiga ega bo‘lgan kimsalardagi ishq haqida.
6. Allohga yaqin qalblar ishq haqida.
7. Fasllar xotimasi.

Abu Ali ibn Sino asarida “ishq” nihoyatda serqirra, murakkab va mohiyati chuqur. Ibn Sino ishqni ikkiga:

1. Jismoniy ishq.
2. Ruhiiy ishqqa ajratgan.

Alloma ishqni mohiyatiga ko‘ra, besh xilga ajratadi. Ammo Ibn Sinoning o‘zi uchun ishqning ikki turi – yoshlar va go‘zallar ishq va ilohiy ishq eng muhim. Shakl va mazmun, hissiyot va aql “ko‘zgusi” orqali ishqni tahlil etgan alloma fikricha, go‘zal qiyofani faqat go‘zalligi uchun sevgan odam, faqat hayvoniy hissiyot tufayli sevadi. Lekin go‘zallikni ruhan sevgan odam o‘zining ijobiy fazilatlarini orttiradi. Shuning uchun inson donishmand bo‘lsa, go‘zallikni mushohada qiladi, o‘shanda fazilatlarini orttadi. Ibn Sinoning ishq olamida sevuvchilar har doim o‘z shahvoniy tuyg‘ularini boshqara oladilar, ishq tufayli esa o‘zlarida ezgu fazilatlarini ko‘proq singdira oladilar, ruhlarini ham oliy ruh maqomi sifatlariga erishuviga yetkazishga intiladilar. Ruhiiy muhabbat tozaligi yuqori nuqtada bo‘ladi. Demak, muhabbatda ham axloqiy pokizalik yuqori o‘rinda turadi.

Xulosalar:

1. Ilm va axloqiy fazilatlar dialektik aloqador bo‘lib, ular yagonaligi, bir butunligi, mushtarakligi insonni donishmand va oliyjanob shaxsga aylantiradi.

2. Har bir inson jinsi, diniy e‘tiqodi yoshidan qat‘iy nazar, axloqiy ravnaq imkoniyatiga ega, chunki “go‘zallikka va axloqiy kamolotga intilish insonga xos xususiyatdir”, deya Ibn Sino har bir insonning axloqiy kamolot cho‘qqisiga chiqishini istaydi.

Ibn Sinoning “Ishq”ga bergan tasniflari:

a) ishq inson tanasining emas, balki inson ruhining mahsuli (Ibn Sinoning ushbu fikrini Provans shoiri Matfre Ermengau takrorlaydi);

b) ishq – mutanosiblikni qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir;

d) ishq – mutlaq yaxshilik, sof mohiyat (javhar) va borliqdir;

e) ishq – kasallik;

f) ishq – bu insonga xos bo‘lgan dunyoviy tuyg‘u, u insonni oliy ruh, barhayotlik bilan bog‘laydi (Ibn Sino, Dante).

Ishq ikkiga bo‘linadi: a) jismoniy ishq; b) ruhiy (ilohiy) ishq (Ibn Sino).

Худойбердиева Анорабону Ҳаётовна (Навоий Давлат Кончилиқ ва технологиялар университети  
Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси ассистенти; anorahudoyberdiyeva@gmail.com)  
СОЦИАЛ СТРАТИФИКАЦИЯ ТЎҒРИСИДА КЛАССИК ЁНДАШУВЛАР

**Аннотация.** Ушбу мақолада стратификациявий структураларнинг асоси жамиятдаги инсонларнинг нотенглиги эканлиги қадимги файласуфларнинг асарларида ижтимоий тенгсизликни ўрганиши доирасида жамиятнинг ижтимоий тузилиши, мулклари ва уларнинг турмуш тарзини ўрганишининг умумий назарий ва услубий асослари ёритиб берилган. Шунингдек, стратификация тушунчасининг мазмун-моҳияти, бугунги кундаги замонавий жамиятларнинг социал-синфий структураси, давлатларнинг тараққиёти ва таназзулида тутган ўрни ҳақида айтиб ўтилган.

**Аннотация.** В данной статье в рамках изучения социального неравенства в трудах античных философов освещаются общетеоретические и методические основы исследования социальной структуры общества, собственности и их образа жизни как основы стратификационных структур неравенства людей в обществе. Также упоминается сущность понятия стратификации, социально-классовая структура современных обществ, ее роль в развитии и упадке государств.

**Annotation.** In this article, as part of the study of social inequality in the works of ancient philosophers, the general theoretical and methodological foundations of the study of the social structure of society are highlighted, property and their way of life as the basis of the stratification structures of the inequality of people in society. The essence of the concept of stratification, the social class structure of modern societies, its role in the development and decline of states are also mentioned.

**Калим сўзлар:** жамият, стратификация, тараққиёт, инсон, шахс, жамият структураси, мулдорлар, нотенглик, давлат.

**Ключевые слова:** общество, стратификация, развитие, человек, личность, структура общества, собственники, неравенство, государство.

**Key words:** society, stratification, development, person, personality, structure of society, owners, inequality, state.

Инсоният ҳаётининг асосий кўрсаткичлардан бири шундан иборатки, унда тараққиёт ва рақобат туфайли ҳам инсонлар орасида социал тенгсизлик келиб чиқади. Социал стратификация ҳар қандай жамиятнинг ўзига хос функционал омили ҳисобланади. Бу ҳақида немис файласуфи Ральф Дарендорф шундай ёзади: “Ҳаттоки энг гуллаб-яшнаётган жамиятда ҳам энг муҳим жиҳатлар баъзида турғун ҳолат саналади. Албатта, замонавий жамиятда ушбу фарқлар каста ёки табақавий жамият таянган тўғридан-тўғри зўравонлик ва қонунчилик нормаларига таянмай кўйди. Шу билан бирга, мулк ва даромад ҳажми, обрў ва мансабга қараб табақаланишдан ташқари, жамиятда мансаб пиллапоялари билан боғлиқ фарқлар ҳам мавжуд. Улар шунчалик чигал ва жамият ҳаётига мустаҳкам ўрнашиб олганки, тенгсизлик йўқотилиб, барча баробар бўлди деб эълон қилинса ҳам, кўпчилик бу хабарга шубҳа билан қарайди”<sup>1</sup>.

Р.Дарендорфнинг фикрларидан шуни билишимиз мумкинки, жамият таркибий тузилишининг асосий белгиларидан бири бу социал фарқлардир. Социал стратификация бу одамларнинг қандайдир йиғиндисини социал синфга, иерархик мартаба қатламига табақаланишидир. Страта (лот. стратум – қатлам, қават, фесере–бўлмоқ) – ўхшаш социал кўрсаткичлар касб этган одамларнинг социал қатлами. Питирим Сорокин қуйидагича таъриф берган: “Социал стратификация – бу одамлар (аҳоли) муайян жамоасининг иерархик ранг (пиллапоя)га мос равишда турли синфларга дифференциациялашуви (табақаланиши) бўлиб, у юқори ва қуйи қатламларнинг мавжудлигида намоён бўлади. Унинг асоси ва моҳияти у ёки бу ижтимоий бирлик аъзолари орасида ҳуқуқ ва имтиёзларнинг, масъулият ва мажбуриятларнинг нотекис тақсимлангани, социал қадриятларнинг, ҳокимият ва таъсир кучининг мавжудлиги ёки мавжуд эмаслигидир. Социал стратификациянинг конкрет шакллари жуда кўп сонли ва турли-туман. Бироқ улар турли-туман бўлишига қарамай, асосий учта шаклга: иқтисодий, сиёсий ҳамда касбий (профессионал) стратификацияга келтирилиши мумкин. Одатда, булар ҳаммаси ўзаро ҳамбарчас қоришиб кетади. Социал стратификация бу ҳар қандай ташкиллаштирилган жамиятнинг доимий тавсифи (характеристикаси) бўлиб ҳисобланади”<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Дарендорф Р. Современный социальный конфликт. Очерк политики свободы. М., РОССПЭН, 2002, с. 19.

<sup>2</sup> Сорокин П. Социальная и культурная мобильность. Человек, цивилизация, общество. Под ред. А.Ю.Соло-

Стратификациявий структураларнинг асоси – одамларнинг табиий ва социал нотенглиги эканлиги қадимги файласуфларнинг асарларида ижтимоий тенгсизликни ўрганиш доирасида жамиятнинг ижтимоий тузилиши, мулклари ва уларнинг турмуш тарзини ўрганишнинг умумий назарий ва услубий асослари ёритиб берилган. Жумладан, милоддан аввалги 427–347 йилларда Афинада яшаб ўтган антик давр юнон файласуфи Платон (Афлотун) соғлом шаҳар давлатни барпо этиш учун қуйидаги шартларни илгари суради. Ҳокимият халқ ёки билими кам ва ҳимматсиз якка шахсли ҳукмдорларнинг эмас, балки ваколатли кишиларнинг қўлида бўлиши керак. Умумий таълим тизими эса бундай мақсадга эришиш учун восита ҳисобланади. Унда ҳар бир киши бир хилдаги имкониятларга эга бўлади ва ҳар бир киши полисда ўз қобилиятларига мос келадиган ўринни топиши мумкин.

Биринчи танловдан ўта олмаганлар ҳунармандлар, деҳқонлар ва савдогарлар бўлишади. Иккинчи танловдан четга чиқиб қолганлар бошқарувчилар ва жангчиларга айланишади. Шундай қилиб, таълим тизими учта ижтимоий синфни келтириб чиқаради. Биринчи синф ваколатларга ва тўла ҳокимиятга эга бўлган ҳукмдорлардан ташкил топади. Бошқарув ва ҳарбий мудофаа ишлари билан банд бўлганлар иккинчи синфни шакллантиради. Жамият учун муҳим маҳсулотларни ишлаб чиқарувчилар учинчи синфга мансуб бўлади. Бу ерда кишиларнинг ҳар хиллиги асос бўлади.<sup>1</sup>

Платоннинг юқорида баён қилинган фикрларидан тушуниш мумкинки, таълим тизими айнан ҳар хил типдаги кишиларнинг танлаб олиш ва уларни жамиятдаги тегишли ўринларга жойлаштириш учун хизмат қилади. Инсонларнинг ўқиб ўрганиши ва керакли билим ва тажрибаларга эга бўлиши туфайли уларнинг жамиятдаги маъқеи белгиланади. Унинг фикрларидан кучли давлат ва фаровон жамият барпо этишда таълим тизими ва инсон капиталининг ривожлантириш ҳаётий муҳим зарурият эканлигини англаб олиш мумкин.

Афлотуннинг шогирди буюк юнон файласуфи шарқ мутафаккирлари орасида “Узтози аввал” номи билан машҳур бўлган Аристотельнинг фалсафий қарашлари эса «Инсон ижтимоий маҳлуқотдир» деган ғояга асосланади, яъни, оила, жамият, давлат инсон ҳаёти ва фаолиятининг асосий соҳаларидир, буларсиз у яшай олмайди. Аристотел давлат масаласида ҳар қандай арбоб қулай сиёсий шарт-шароит вужудга келишини кутиб ўтирмай, мавжуд имкониятдан келиб чиқиб, яхши конституция асосида кишиларни бошқара билиши, биринчи галда, ёш авлоднинг жисмоний ва ақлий тарбияси ҳақида қайғуриши лозим, деб ҳисоблайди.

“Политика” асарида у барча жамиятларнинг учта таркибий қисмини айтиб ўтади: битта синф жуда бой, иккинчиси жуда камбағал, учинчиси ўрта. Аристотел ўрта синфни энг яхши деб ҳисоблайди, чунки унинг аъзолари яшаш шароитларига қўра, оқилона қоидалар ва тамойилларга риоя қилиб яшайдилар. Айнан шу ўрта синфдан яхшироқ жамият шаклланади, чунки у ўрта синф қўп сонли бўлган давлат яхшироқ бошқарилади, чунки шу давлатда ижтимоий мувозанат таъминланган бўлади.<sup>2</sup>

Аммо Платондан фарқли равишда, Аристотел хусусий мулк ахлоқий камолотга зарар етказишига ишонмаган ва буни, агар давлат мулки бўлган ижтимоий тузилиш, ҳақиқатан ҳам, жуда яхши бўлганида, унинг намуналари узоқ вақтдан бери маълум бўлиб қолишини таъкидлаган. Ижтимоий мувозанат учун эгаликдаги тенгсизлик хавфлидир, шунинг учун Аристотел кучли ўрта синфга эга бўлган жамият учун ва эгалик тенгламасини ҳимоя қилади.

У ўрта синф энг яхши эканлигини таъкидлайди, чунки унинг вакиллари ўзларининг хатти-ҳаракатларида энг оқилона йўлни танлашларини айтиб ўтган.<sup>3</sup>

Уйғониш ва янги аср олимлари ҳам тенгсизлик муаммоларини муҳокама қилишни давом эттирадилар. Н.Макиавелли, Ж.Локк, И.Бентҳам, Ж.Ж.Руссо, Г.Гегель туғма ёки орттирилган тафовутларга асосланган ижтимоий қатламларни ёки синфларни шакллантиришда жамиятда муаммолар бўлиши мумкинлигини айтиб ўтган. А.Смит, Сен-Симон, О.Мигне каби олимлар ижтимоий синф тушунчасини ижтимоий фанга киритдилар. Ижтимоий тенгсизликни ўрганишга замонавий ёндашувлар орасида Т.Парсонс, К.Девис, У.Мур, Р.Мертоннинг асарларида ёритилган функционал ёндашув энг ривожланган ёндашув сифатида эътироф этилади. Ушбу йўналиш вакиллари ижти-

---

монова. М., Политиздат, 1992, с. 297 – 307.

<sup>1</sup> Г.Скирбекк, Н.Гилье. Фалсафа тарихи. Тошкент, “Шарқ”, 2002, 98 – 99-бетлар.

<sup>2</sup> Аристотел. Композициялар. 4 т. да. М., 1983, 830-бет.

<sup>3</sup> Александрова О.А. Ўрта синф: шаклланишининг мафкуравий контексти. “Ижтимоий фанлар ва ҳозирги кун”, 2002, 1-сон, 25 – 33-бетлар.

мой табақаланишнинг мавжудлигини ҳар қандай жамиятда одамларнинг ижтимоий иерархиядаги мълум бир тузилишга тегишли бўлиши зарурати билан асослаб беришади.

Индивид жамиятда ўзининг фаолияти давомида турли соҳаларда турлича социал вазиятларни эгаллаши мумкин. Масалан, юқори сиёсий мақомга эга бўлган одам нисбатан камроқ даромад олиши, бой тадбиркор яхши маълумотга эга бўлмаслиги мумкин. Шунинг учун айрим олинган индивид ёки социал гуруҳларнинг ижтимоий ҳолатини аниқлаш учун амалий тадқиқотларда барча ўлчовларнинг йиғиндиси бўйича ўрганиладиган социал вазиятнинг интеграл кўрсаткичидан (интеграл мақом) фойдаланилади. Бундан ташқари, ўзини-ўзи таснифлаш усули ҳам мавжуд бўлиб, ҳар бир одамнинг қайси синфга мансуб эканлиги унинг ўзи томонидан аниқланади. Бу усул баҳолашлар мезонлари талабларига жавоб бермас-да, қандайдир даражада одамларнинг синфий ўзини-ўзи англашини акс эттиради.

Социал стратификациянинг куйидаги тарихий турлари мавжуд: куллик, кастачилик, табақа, синфлар. Бу тушунча-социологиянинг марказий мавзусидир. Чунки у жамиятнинг бойларга ва камбағалларга бўлинишини тушунтириб беради. Стратификациянинг тўртта асосий ўлчови даромад, ҳокимият, маълумот ва нуфуз ҳисобланади. Мақомларнинг ўзаро тенгсизлиги стратификациянинг асосий хусусиятидир. Европа олимларининг тадқиқотларида нуфуз уч ўлчовли белгилар-касбий нуфуз, даромад даражаси ва маълумотлилик даражаси ёрдамида аниқланади. Бу кўрсаткичларни умумлаштириш социал-иқтисодий вазият (позиция) индекси деб аталади.<sup>1</sup>

Юқоридаги таҳлилдан кўриш мумкинки, стратификация ижтимоий фалсафанинг муҳим йўналиши ҳисобланади. Бу тушунча ёрдамида жамиятнинг тури, ривожланиши, барқарорлиги, иқтисодий салоҳияти, синфлар ва социал қатламларнинг ривожланиш қонуниятлари ўрганилади, олинган натижалар жамиятни яна-да ривожланиши учун ҳаётга татбиқ этилади. Амалий ҳаётда стратификациявий тизимнинг далиллари бир-бирлари билан чатишиб кетади, бир-бирларини тўлдириб туради. Масалан, социал-професссионал иерархия меҳнат таксимотининг расмий мустаҳкамланган кўринишида жамиятнинг ҳаёт фаолиятини қўллаб-қувватлаб туриш учун нафақат мустақил равишда муҳим функцияларни бажаради, балки ҳар қандай стратификациявий тизим структураларига сезиларли таъсир ўтказиб туради.

Умуман олганда, жамиятда ижтимоий-сиёсий барқарорликни сақлашнинг асоси ва энг муҳим омили турли миллат вакиллари ва турли тоифадаги инсонлар ўртасидаги бирликни, ижтимоий ҳамжихатликни таъминлай олишдир.

---

<sup>1</sup> М.Қирғизбоев. Социология. Тошкент, 2017, 277-бет.

**Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna (Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, dotsent v.b., PhD)**

**ORNITONIMLARNING TURLI TILLAR TIZIMIDA O‘RGANILISH TARIXIGA DOIR**

***Annotatsiya.** Maqolada slavyan tillarida, jumladan, rus tilida qush nomlarining o‘rganilish tarixi ko‘zdan kechiriladi. Bunda L.A.Bulaxovskiy, A.I.Germanovich, N.V.Nikonchuk, I.G.Dobrodomov, T.A.Pavlyuchenkova, N.B.Neronova kabi olimlarning qush nomlarining qiyosiy-tarixiy tahlili, semantik-grammatik va struktural tiplarini o‘rganish, ayrim ornitonimlarning etimologiyasi o‘rganilgan.*

***Аннотация.** В статье изучена история исследования названий птиц в славянских языках, в том числе русского языка, показан вклад таких ученых, как Л.А.Булаховского, А.И.Германовича, Н.В.Никончука, И.Г.Добродомова, Т.А.Павлюченковой, Н.Б.Нероновой в исследовании орнитонимов славянских языков в сравнительно-историческом плане, в определении семантико-грамматических и структуральных типов названий птиц, а также в изучении семантики орнитонимов русского языка, заимствованных из тюркских языков и др.*

***Annotation.** Research about history of studying bird names in slavic, including Russian languages was looked through in this article. There were used analytical theories, comparative and historical, semantic-grammar and structural, typical reslaech works of L.A.Bulakhovskiy, A.I.Germanovich, N.V.Nikonchuk, I.G.Dobrodomov, T.A.Pavluchenkova, N.B.Neronova and other scientists. There analysed and defined etymology of ornitonims and obtained junk words which are related from Turkish languages. The work of research about nature of these semantic datas was done as well.*

***Kalit so‘zlar:** ornitonim, qush nomi, leksik qatlam, leksik-semantik guruh, semantik maydon, ornitonimlar etimologiyasi, ornitonimlarda umumslavyan qatlam, qush nomlarida slavyan-turkiy parallellar, ornitonimlarning yasalishi va tasnifiy belgilari.*

***Ключевые слова:** орнитоним, названия птиц, лексический пласт, лексико-семантическая группа, семантическое поле, этимология орнитонимов, общеславянский пласт орнитонимов, славянско-тюркские параллели в орнитонимии, образование орнитонимов, классификационные признаки названий птиц.*

***Key words:** ornitonims, bird names, lexical level, lexica-semantic group, semantic area etimology of ornitonims, the stage of common-slavic ornitonims, parallels of slavic-turkish in ornitonims composition of ornitonims, classification sides of birds names.*

Ma‘lumki, har bir til lug‘aviy tizimida qush nomlari (ornitonimlar) katta leksik qatlamni tashkil etadi. Shuning uchun tilshunos olimlar qush nomlarini tadqiq etishga alohida e‘tibor qaratib kelganlar. Masalan, F.Mikloshich, E.Berneker, D.Boranich, A.Bryukner kabi olimlarning xizmati bilan slavyan tillarida katta miqdorni tashkil etuvchi qush nomlari to‘planib, ularning etimologiyasi, qiyosiy-tarixiy tahlili yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilgan edi.<sup>1</sup>

L.A.Bulaxovskiy o‘tgan asrning 50-yillarida slavyan tillaridagi ornitonimlarning qiyosiy-tarixiy tahlili bilan jiddiy shug‘ullana boshlagan edi. Olim o‘zining bir qator salmoqli ishlarida slavyan tillarida ko‘pgina ornitonimlarning shakllanishida tovushga taqlid so‘zlarining alohida o‘rni borligini konkret dalillar asosida yoritib bergan edi. Olim “Umumslavyan qush nomlari” nomli salmoqli ilmiy maqolasida bir qator qush nomlarini morfologik, semantik va etimologik aspektda o‘rganar ekan, bu ornitonimlarning shakllanishida tovushga taqlid hodisasining o‘rnini konkret dalillar asosida ko‘rsatib bergan edi.<sup>2</sup> Olim o‘z ishida *голубь* (kartar), *орёл* (burgut), *лебедь* (oqqush), *ястреб* (qarchig‘ay), *соловей* (bulbul) kabi qush nomlarini eng qadimgi umumslavyan ornitonimlari tarkibiga kiritgan edi.<sup>3</sup>

Shunisi e‘tiborliki, L.A.Bulaxovskiy eng qadimgi umumslavyan qush nomlari orasida turkiy tillardan o‘zlashgan ornitonimlar ham mavjudligini, ular ikkala (slavyan va turkiy tillarda) parallel qo‘llanilishiga xarakterli misollar ham keltiradi: *qarchig‘a* (ястреб), *berkut* (орёл), *lachin* (сокол), *kugarchin* (голубь), *turna* (журавль), *sandugach* (соловей), *g‘oz* (гусь), *o‘rdak* (утка) kabilar. Bunday dalillar esa mazkur qush nomlarining eng qadimgi leksik qatlam ekanligidan dalolat beradi.

<sup>1</sup> Булаховский Л.А. Общеславянские названия птиц. Известия АН СССР, отделение литер. и яз., М., 1948, том VII, вып. 2, с. 100.

<sup>2</sup> Shu manba. С. 125.

<sup>3</sup> Тот же. С. 124.

L.A.Bulaxovskiy “Semiologik etyudlar. Slavyan tillaridagi qush nomlari” nomli asarida ko‘pgina ornitonimlarning tovushga taqlid asosida shakllanish usulini yoritishga alohida e‘tibor beradi. Masalan, olim rus tilidagi *цыплёнок* (jo‘ja) so‘zi *sip-sip* taqlidiy so‘zidan, *гусь* (o‘rdak) so‘zi esa dialektal xarakterdagi *siba-siba* taqlidiy so‘zidan hosil bo‘lganligini asoslashga intiladi.<sup>1</sup>

Olimning ta’kidlashicha, slavyan tillarida ayrim qush nomlari shakllanishiga ularning ovoz chiqarish xususiyati asos qilib olinadi. Masalan, *нетых* (xo‘roz) so‘zining o‘zagi *неть* (kuylamoq), *лебедь* (oqqush) so‘ziga esa *клик* (кликать) so‘zi asos bo‘lgan.<sup>2</sup>

L.A.Bulaxovskiy tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, slavyan tillarida ko‘pgina qushlarning nomlanishiga ularning fizik holati, xatti-harakati, boshqa hayvonlarga o‘xshashlik xususiyati asos bo‘lib xizmat qilgan. L.A.Bulaxovskiy slavyan tillaridagi *g‘oz* (гусь), *qarg‘a* (ворона), *berkut* (орёл), *kazarka* (yovvoyi g‘oz) kabi qush nomlarini turkiy tillardan o‘zlashgan deb hisoblaydi. Shu bilan birga, olim slavyan tillaridagi ayrim qush nomlarining motivatsion asoslarini serb, fransuz, nemis, lotin tillariga bog‘lab izohlaydi.<sup>3</sup>

N.V.Nikonchuk “Polese va Karpatdagi xalq ornitologik terminlari haqida” nomli maqolasida hududda aniqlangan qush nomlarini quyidagicha uch guruhga bo‘lib tadqiq etadi:

- a) qushlarning ovozi ma’lum darajada aks ettirgan o‘zak so‘zlar;
- b) sof tovushga taqlid so‘z bo‘lmasa-da, qisman qushlar ohangini ifodalovchi so‘zlar;
- d) bevosita tovushga taqlidga aloqador bo‘lmagan, ammo qushlar ovozi ifodalashga xizmat qiluvchi so‘zlar.<sup>4</sup>

A.I.Germanovichning “Rus tilida hayvonlarni chaqirish va haydashga xizmat qiluvchi so‘zlar” nomli maqolasida tovushga taqlid asosida shakllangan qush nomlari miqdori yangi so‘zlar tahlili hisobiga kengaytiriladi. Masalan, birgina *гусь* (g‘oz)ni chaqirish uchun shevalarda *гусь-гусь* (variantlari: *gusi-gusi*, *guti-guti*, *kuti-kuti*, *guli-guli* kabi) takror so‘zlardan foydalaniladi. Qo‘miq tilida esa *g‘oz* (q‘az) so‘zi bilan haydaladi, xuddi shu so‘z, keyinchalik, qumiq tilida bu uy hayvoni (qushi) nomiga aylanadi.<sup>5</sup>

G.M.Levinaning maqolasi *курица* (tovuq) ornitonimining ko‘pgina viloyatlardagi shevalarda qo‘llanuvchi dialektal variantlar tahliliga bag‘ishlangan edi. Olima bu ishida *курица* (tovuq) ornitonimining Pskov viloyatida keng tarqalgan 35 ga yaqin dialektal variantlarini keltiradi. Masalan, maqola muallifining fikricha, bu dialektal variantlarda kuritsa (tovuq)ning tashqi ko‘rinishi, rangi kabi xususiyatlari o‘z aksini topgan bo‘ladi: *белаха* – oq tovuq, *рябуха*, *рябуша* – kulankir tovuq, *вороновка* – qora (qarg‘a-simon) tovuq, *хорхора* – pati nozik tovuq; *сыточка* – yoshgina tovuq, *ерошка* – patlari qiyshiq o‘sgan tovuq, *самоседка* – o‘z tuxumiga o‘zi o‘tirib jo‘ja ochadigan va jo‘jalarini yo‘qotadigan tovuq va boshqalar.<sup>6</sup>

S.T.Aksakov “Orenburg guberniyalik ovchining yozishmalari” nomli asarida shu hududda tarqalgan qushlarning katta ro‘yxati keltirilgan. Olim bu ishida *кронинен* (uzunburun baliqchi), *гаринен* (bedanamashak), *дупель//дупельшнен* (loyxorak) kabi o‘zlashma ornitonimlarni keltirib, ularning qaysi til-dan o‘zlashganligi haqida asosli ma’lumotlar beradi.<sup>7</sup>

V.Larionov va A.Chelsev o‘z tadqiqotida rus ovchilari hamda dehqonlarining ko‘p yillik kuzatishlari natijasi bo‘lgan bir qancha dialektal xarakterdagi ornitonimlarni ham sanab o‘tadilar.<sup>8</sup>

L.Uspenskiy tovushga taqlid nazariyasining so‘zlar shakllanishiga ta’sirini o‘rganar ekan, *синица* (chittak), *кукушка* (kakku), *снегирь* (снегирь//qushcha) kabi qush nomlarining shakllanish motivatsiyasi haqida ham juda qiziqarli ma’lumotlarni keltiradi.<sup>9</sup>

<sup>1</sup> Булаховский Л.А. Семиологические этюды. Славянские наименования птиц. Вопросы славянского языкознания, книга 1, Львов, 1948, с. 153 – 198.

<sup>2</sup> Тот же. С. 160.

<sup>3</sup> Булаховский Л.А. Введение в языкознание. Учебное пособие, часть II, М., Учпедгиз, 1954, с. 9.

<sup>4</sup> Никончук Н.В. О народной орнитологической терминологии Полесья и Карпат. Карпатская диалектология и ономастика (сборник научных статей). М., “Наука”, 1972, с. 141.

<sup>5</sup> Германович А.И. Слова клича и отгона животных в русском языке. Известия Крымского пед. ин-та им. Фрунзе. том XIX, Симферополь, “Крымиздат”, 1954, с. 324.

<sup>6</sup> Левина Г.М. Народные названия курицы. “Русская речь”, 1974, № 5, с. 97.

<sup>7</sup> Аксаков С.Т. Записки ружейного охотника Оренбургской губернии. Барнаул, 1985, с. 560; Аксаков С.Т. Записки ружейного охотника Оренбургской губернии. М., “Правда”, 1987, с. 464.

<sup>8</sup> Ларионов В., Чельцев А. Народные названия курицы. Охота и охотничье хозяйство, 1957, № 3, с. 27 – 28.

<sup>9</sup> Успенский Л. Слово о словах. Ты и твоё имя. Л., “Лениздат”, 1962, с. 633.

L.F.Moiseyev “Qush nomlari nima haqda so‘zlaydi?” nomli maqolasida ayrim ornitonimlarning shakllanishida qushlar ovozi, ularning holati, yashash tarzi ham muhim ahamiyatga molik ekanligini misollar yordamida asoslashga intiladi.<sup>1</sup>

Rus tilshunosligida o‘zlashma ornitonimlarning shakllanishiga bag‘ishlangan bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, D.S.Setarov “Ruscha qush nomlarida turkiy so‘zlar” nomli maqolasida *буль, дудак, беркут, карауу* kabi turkiycha ornitonimlarning rus tili lug‘aviy tizimiga o‘zlashish jarayonini qiyosiy-tarixiy aspektida ko‘zdan kechiradi.<sup>2</sup> Olimning yana bir maqolasida turkiy tillardan rus tiliga o‘zlashgan *angich, atayka, barashik, bugay, bulgun, devyakush, karga, karcheya, kolpitsa, tarbazin, kachka, cheglok, chivil, chumichka, chekan* kabi turkiycha o‘zlashma qush nomlari motivatsiyasi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Olimning fikricha, o‘n to‘rt tomlik rus tilining akademik lug‘atida jami 180 ta qush nomi mavjudligi aniqlangan, shundan 138 tasi sof ruscha yoki umumslavyan ornitonimlari bo‘lsa, qolgan 42 tasi o‘zlashma qush nomlaridir, bu barcha ornitonimlarning 23,0 foizini tashkil etadi.<sup>3</sup>

Shu bilan birga, rus tilshunosligida ayrim ornitonimlarning etimologiyasiga doir kuzatishlar olib borilgan. Masalan, T.A.Pavlyuchenkova “синица (chittak) qanday rangda?” nomli maqolasida siniy (ko‘k, moviy) rangning arxaik ma‘nosi ko‘kish, qoramtir ma‘nolarini ham ifodalashini misollar yordamida asoslashga muvaffaq bo‘lgan edi.<sup>4</sup> I.G.Dobrodomov esa rus tilidagi turkiy o‘zlashma xarakterdagi *дудак/дрофа* (tuvaloq/to‘xtatuvaloq) ornitonimining etimologiyasiga doir kuzatishlarini e‘lon qilgan.<sup>5</sup> Shu bilan birga, ko‘pgina ruscha ornitonimlarning etimologiyasiga doir kuzatishlarni M.Fasmer va A.G.Preobrajenskiy lug‘atlarida ham uchratish mumkin.<sup>6</sup>

N.B.Neronovanning rus tilidagi qush nomlarining semantik-grammatik xususiyatlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi bu sohaga oid jiddiy tadqiqotlardan biri sanaladi. Bu ishda “Rus tilining katta izohli lug‘ati”ga kiritilgan 322 ta ornitonim-leksema tahlil qilinib, ularning yasalish usuli va struktural tiplari aniqlangan. Bu tadqiqotda ornitonim-leksemlar mavzuiy guruhlariga emas, balki semantik maydonlarga ajratib o‘rganilgan:<sup>7</sup>

1. Qush nomlari o‘z tarkibida ichki mavzuiy guruhlariga ajratib tasnif qilingan: quruqlikda yuruvchi va suvda suzuvchi qushlar; sayraydigan va sayramaydigan qushlar; ov qilinadigan va ov qilinmaydigan qushlar; xonaki va yirtqich qushlar kabi.

2. O‘z funksional xususiyati bilan qush nomlari bir-biridan keskin farq qiladi, shunga ko‘ra, ularni semantik jihatdan markaziy va periferiya (chegaraviy, oraliq) tiplarga ajratish o‘zini har jihatdan oqlaydi.

3. Qush nomlari bilan bog‘liq semantik maydonda uning birliklari o‘zaro sistem munosabatda bo‘ladi. Masalan: a) jins jihatdan zidlanishiga ko‘ra; b) tur-qism zidlanishiga ko‘ra; d) ayrim ornitonimlarda suffiksatsiyaning so‘z o‘zagi bilan zidlanishiga ko‘ra va hokazo. Shu jihatdan olima rus tilidagi ornitonimlarni quyidagi semantik maydonlarga ajratib tasniflaydi:

a) inson hayoti bilan uzviy bog‘liq ornitonimlar (*воробей* (chumchuq), *грач* (go‘ngqarg‘a), *кана-рейка* (kanareyka), *немых* (xo‘roz) va boshqalar);

b) ko‘plab variantlari, yasama ko‘rinishlari mavjud ornitonimlar (*perepelenok, perepelka, perepelitsa, perepelinot* kabi);

d) boshqa slavyan tillarida ham mavjud ornitonimlar (masalan, ruscha – *lastochka*, ukraincha – *ластивка*, beloruscha – *ластаука*, bolgarcha – *ластовица* va boshqalar);

e) maqol va matallar tarkibida mavjud ornitonimlar (masalan, vorona – qarg‘a haqidagi “*Ворон ворону глаз не выклюет*”//*Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi*” maqoli kabi).

Shu bilan birga, bu ishda qushlarni nomlashda motivatsiyaning o‘rnini aniqlash, ularning struktural tiplarini o‘zaro farqlashga ham alohida e‘tibor qaratilgan.<sup>8</sup>

<sup>1</sup> Моисеева Л.Ф. О чем говорят названия птиц? “Русская речь”, 1974, № 4, с. 93 – 98.

<sup>2</sup> Сетаров Д.С. Тюркизмы в русских названиях птиц. “Советская тюркология”, 1970, № 2, с. 86 – 95.

<sup>3</sup> Сетаров Д.С. Тюркские лексические элементы в русских названиях птиц. “Советская тюркология”, 1983, № 3, с. 11 – 21.

<sup>4</sup> Павлюченкова Т.А. Какого цвета синица? “Русская речь”, 1986, № 4, с. 126 – 129.

<sup>5</sup> Добродомов И.Г. Дрофа-дудак. “Русская речь”, 1968, № 4, с. 100 – 104.

<sup>6</sup> Фасмер М. Этимологический словарь русского языка в 4-томах. М., “Прогресс”, 1986–1987; Преображенский А.Г. Этимологический словарь русского языка в 2-томах. М., Гос. изд-во иностр. и нац. словарей, 1959.

<sup>7</sup> Неронова Н.Б. Наименование птиц в русском языке (семантико-грамматический аспект). Автореф. дисс... канд. филол. наук, М., 2000, с. 20.

<sup>8</sup> Неронова Н.Б. Шу манба. 6 – 7-бетлар.



Shunday qilib, rus tilidagi qush nomlari doimo tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga qaratib kelgan. Slavyan tillaridagi qush nomlarining qiyosiy-tarixiy tahlili sohasida L.A.Bulaxovskiyning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ayrim qush nomlarini struktural, etimologik jihatdan o'rganishga oid bir qator ishlar maydonga kelgan. Bular orasida N.B.Neronovanning rus tilidagi qush nomlarini semantik-grammatik aspektda tadqiq etishga oid ishi alohida o'rin tutadi.

**Эрназарова Гулноза Муродовна (Навойи Давлат Педагогика институти Ўзбек тилшунослиги  
кафедраси катта ўқитувчиси (PhD)  
ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИДА ТЕРМИНЛАРНИ ЎРГАНИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ДОЛЗАРБ  
ВАЗИФАЛАР**

***Аннотация.** Мазкур мақолада ўзбек тилшунослиги, жумладан, унинг терминология соҳасининг ҳал этилиши лозим бўлган асосий масалаларидан бири минералогия терминлари мисолида ёритиб берилади.*

***Аннотация.** В данной статье будет освещен один из основных вопросов узбекского языкознания, в том числе его терминология, на примере минералогических терминов.*

***Annotation.** This article will highlight one of the main issues of Uzbek linguistics, including its terminology, on the example of mineralogical terms.*

***Калим сўзлар:** терминологик тизим, минералогия терминлари, лексик-семантик гуруҳ, терминологик майдон, термин ва номен, дифференция, терминнинг номинатив хусусияти, терминнинг дефинитив хусусияти.*

***Ключевые слова:** терминологическая система, минералогические термины, лексико-семантическая группа, терминологическое поле, термин и номен, дифференциация, номинативное свойство термина, дефинитивное свойство термина.*

***Key words:** terminological system, mineralogical terms, lexical-semantic group, terminological field, term and nomen, differentiation, nominative property of the term, definitive property of the term.*

Маълумки, минералогия соҳаси кишиларнинг амалий фаолияти негизда юзага келган ва мураккаб тараққиёт босқичини босиб ўтган. Қадим замонлардан инсонлар бирикмаларга бой рудаларни топишга, уларни қазиб олишга қизиққанлар, шу асосда тоғ жинсларининг ҳосил бўлиши, таркибини аниқлашга уринганлар. Минералогия соҳаси тушунчаларининг кенгайиши, айниқса, тоғ саноатининг тараққиёти муҳим роль ўйнаган бронза ва темир даври билан чамбарчас боғлиқ. Энг қадимги даврларданок хитойликлар, вавилонликлар, мисрликлар, греклар тоғ саноати ишлари билан машғул бўлишган.

Ўзбекистон ҳудудида ҳам фойдали қазилмаларни излаб топиш ва ўрганиш масаласи ўз тарихига эга. Буни Хоразмий, Форобий, Фарғоний, Ибн Сино, Беруний каби ўрта осийлик олимларнинг геология ва минералогияга оид дастлабки изланишлар натижалари акс этган асарлари ҳам тасдиқлайди. Абу Райҳон Берунийнинг “Минералогия”, (“Қимматбаҳо жавохирлар ҳақида билимлар китоби”) асарларида эса олтин, кумуш, мис, темир, қалай, маргимуш, гавҳар, зумрад, феруза сингари юздан ортиқ минераллар ва маъданли тошлар қайд этилган.<sup>1</sup>

Қадимдан одамлар қимматбаҳо минераллардан турли безаклар ясашга қизиқишган. Аксарият ҳолларда безак ва бадийий буюмлар пушти рангли родонит, ранг-баранг яшма, мрамор, кварцит ва бошқалардан ясалган. Техник-технологик тараққиёт натижасида кейинги йилларда атом энергетикаси ҳарбий соҳаларда ҳам радиоактив элементларни ясашда минераллардан фойдаланишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Умуман, минераллар саноатининг турли соҳаларида ишлатилувчи асосий материал сифатида инсон ҳаётида муҳим ўрин тутди.

Минералогия соҳаси қадимий ва бой тарихга эга бўлганидек, унинг терминологик бирликлари ҳам ранг-баранг ва ўзига хос.

Ўзбек тилшунослигида геология ва унинг таркибий қисми бўлган минералогия, петрография, литография, кристаллография соҳалари терминологияси бўйича махсус изоҳли луғатлар яратилмаган, бугунги кунда геологияга оид мукамал қомусий луғат тузиш долзарб муаммолардан бири саналади.

<sup>1</sup>Беруний. Минералогия. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2017, 688-бет.

Республикамизда яратилган геология ва минералогияга оид мавжуд луғатларда уч мингга яқин термин камраб олинган, холос.<sup>1</sup> Ушбу луғатлар ҳамда “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” (2006–2008)да берилган минералогия терминлари қиёси шуни кўрсатадики, *аутиген минераллар, мирабилит, нордмаркит, оникс, оолит, ортит, пегматит, пертит, пироп, пироксинлар* каби юздан ортиқ минералогия терминлари турлича изоҳланган. Бу каби ҳолатлар, шунингдек, айрим минералогия терминларининг дарсликларда турлича таржима қилинаётганлиги<sup>2</sup> келгусида ўзбек тилида минералогия терминларининг янги мукамал изоҳли луғатини яратиш, бундай терминларнинг изоҳланиш тамойилларини белгилаш лозимлигини кўрсатади.

Маълумки, “терминлар тараққиёти тарихини фан тарихидан ажратиб тасаввур этиб бўлмайди, терминлар тегишли тушунча билан рост таносиби, уларнинг мунтазам такомилли ҳар қандай фаннинг илгарилаш тамойиллари билан уйқашдир”. Буни барча фанларда ўсиш ва ўзгаришларда кўриш мумкин. Илм-фан, техника жадаллик билан ривожланаётган ҳозирги даврда мамлакатимизда янги фан соҳалари, йўналишларнинг юзага келиши натижасида бу соҳаларнинг ўз терминологик тизими шаклланди. Шу муносабат билан, янги терминларни лингвистик аспектда ўрганиш, уларни тартибга солиш муаммоси ҳозирги ўзбек тилшунослиги, жумладан, унинг терминология соҳасининг ҳал этилиши лозим бўлган асосий масалаларидан бирига айланди.

Шуни унутмаслик лозимки, терминологиянинг долзарб масалалари ечимини топиш фақат у ёки бу фаннинг тегишли соҳалари учунгина эмас, умуман, тилшунослик учун ҳам муҳим аҳамиятга эга. Масалан, тилшуносликда биргина терминнинг таърифи масаласида ҳануз баҳс-талаш ўринлар мавжуд. Терминга кўплаб таърифлар берилган бўлса-да уларда терминларнинг хусусиятлари турлича белгиланган. Баъзи тадқиқотчилар терминнинг номинатив (аташ, номлаш хусусияти) хусусиятини биринчи ўринга қўйишади. Жумладан, Г.Винокурнинг тавсифича, “термин сифатида намоён бўлувчи сўзнинг алоҳида, махсус вазифаси аташдир”.<sup>3</sup>

Бошқа бир гуруҳ тадқиқотчилар терминни таърифлашда унинг дефинитив (аниқловчилик) хусусиятини, яъни тушунча билан алоқасини алоҳида ажратиб кўрсатишади. Буни академик В.В. Виноградовнинг куйидаги сўзлари ҳам яққол тасдиқлайди: “Ҳаммага маълумки, сўз, энг аввало, номинатив ёхуд дефинитив вазифани бажаради, яъни, агар сўз энг аниқ бир белги воситаси бўлиб хизмат қилса, оддий белги ҳисобланади, агар мантикий таъриф воситаси бўлса, илмий термин ҳисобланади”.<sup>4</sup>

А.А.Реморатский, В.П.Даниленко ҳам ўз вақтида терминнинг дефинитивлигини унинг асосий вазифаси деб кўрсатишган эди.<sup>5</sup>

Бундан кўринадики, термин ҳам оддий сўз бўлиб, “тилга алоқадор бирор-бир ҳодиса унга бегона эмас”.<sup>6</sup> Бироқ, шу билан бирга, “терминлар алоҳида вазифа бажарувчи сўзлардир”.<sup>7</sup> Улар махсус белгиларга эга бўлади. Бу, биринчи навбатда, терминни оддий сўзга нисбатан ўта тор маънога эгаллиги, маъно чегараларининг анча аниқ ва равшанлиги билан изоҳланади.

Бизнингча, “термин” тушунчасига юкланган мазмун куйидаги белгиларга асосланиши лозим: “1) термин умумодабий тилнинг муҳим лексик қатламларидан бири бўлмиш фан, техника, ишлаб чиқариш, касб-ҳунарларга оид тушунчаларни ифодаловчи махсус луғавий бирлик (сўз ёки сўз бирикмаси)дир; 2) термин махсус нарса, ашё ёки мавҳум тушунчанинг ўзига хос номидир; 3) термин учун муайян таъриф (дефиниция) зарур, бу таъриф тегишли тушунча мазмунини аниқроқ ифодалашга, тушунчаларнинг бирини иккинчисидан чегаралаб ажратишга, айни маҳалда маълум тушун-

<sup>1</sup>Содиқов О. Геология луғати. Геология терминларининг изоҳли луғати. Тошкент, 1958, 276-бет; Мавлонов Г.О., Утюшев И. Русча-ўзбекча геология терминлари луғати. 1-қисм, Тошкент, 1978, 304-бет.

<sup>2</sup>Бетехтин А.Г. Минералогия курси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1969, 600-бет.

<sup>3</sup>Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской химической терминологии. Труды МИФЛИ, том 5, сборник статей по языковедению, М., 1939, с. 6.

<sup>4</sup>Виноградов В.В. Вступительное слово на Всесоюзном терминологическом совещании. Вопросы терминологии. М., “Наука”, 1961, с. 16.

<sup>5</sup>Реморатский А.А. Что такой термин и терминология? Вопросы терминологии. М., “Наука”, 1961, с. 47; Даниленко В.П. Лингвистические требования к стандартизуемой терминологии. Терминология и норма. М., “Наука”, 1992, с. 11.

<sup>6</sup>Котелова Н.З. К вопросу о специфике термина. Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. М., “Наука”, 1970, с. 124.

<sup>7</sup>Виноградов В.В. Вступительное слово на Всесоюзном терминологическом совещании. Вопросы терминологии. М., “Наука”, 1961, с. 3.

чани муайян таснифий қаторга жойлаштиришга имкон яратувчи белгиларни равшанроқ кўрсатишга ёрдам беради”.<sup>1</sup>

Терминни тавсифловчи ушбу белгилар терминни умумистеъмомдаги сўздан фарқлаш учун ётарлидир.

Демак, терминология муайян фаннинг тушунчалар билан ўзаро муносабатда бўлган терминлар тизими сифатида таърифланади. Терминологик тизимлар фан тараққиёти билан биргаликда ривожланиб боради. Умумистеъмомдаги сўзлардан фарқли равишда, терминларнинг қўлланиши муайян тартибда назорат остида бўлади.

“Терминлар “пайдо бўлиб қолмайди”, аксинча, уларнинг зарурияти анланган ҳолда, “ўйлаб топилади”, “ижод қилинади”.<sup>2</sup> Шунингдек, оддий сўздан фарқли равишда, терминнинг маъноси контекстга боғлиқ бўлмайди, махсус сўз–термин ўз терминологик маъносида ва ўз “терминологик майдони”да<sup>3</sup> қўлланар экан, унинг айна маъноси сақланиб қолаверади. Бироқ полисемантик терминларнинг муайян маъноси ажратиб кўрсатилганда, улар контекст орқали аниқланади.

Терминшуносларнинг терминнинг номинативлиги ёки дефинитивлиги ҳақидаги баҳсларини таҳлил қилган ва давом эттирган ҳолда, бу масала кўп ҳолларда муайян лисоний бирликнинг термин ёки номен (атама) вазифасида келиши хусусияти билан боғлиқ, деган фикрни илгари сурмоқчимиз. Чунки номенклатура (номенлар йиғиндиси) терминологиядан фарқли равишда, “бутунлай мавҳум ва шартли рамзлар тизими бўлиб, уларнинг бирдан-бир вазифаси нарса ва буюмларни ушбу нарсалар билан иш кўрувчилар эҳтиёжларига билвосита алоқада кўрсатишдан иборатдир. Муайян буюм нима учун шундай аталганлиги номенклатура ифодалари учун маълум даражада аҳамиятсиз бўлгани ҳолда, маъно билдирувчи ички шаклга эга бўлишга интилувчи термин учун бу жуда муҳим масаладир.<sup>4</sup> Терминология ва номенклатурани фарқлаш зарурлиги ҳақидаги фикрни ривожлантирган А.А.Реформатский номенклатуранинг сон-саноксиз бўлиши, терминларнинг эса муайян санокқа эгаллигини уқдириб ўтган эди.<sup>5</sup>

Қайд этиш керакки, терминнинг таърифи ва унинг асосий белгиси ҳақида ягона фикр бўлмагани каби, термин ва номен ўртасидаги фарқ, чегара ҳақидаги масала ҳам ўз ечимини топмай қолмоқда. Шунга қарамай, айрим тадқиқотчилар бу масалани хусусий тарзда, яъни маълум бир фан соҳаси доирасида ўрганиб чиқишга ҳаракат қилишган. Масалан, А.П.Мадвалиев “Ўзбек кимё терминологияси ва уни нормалаштириш масалалари” мавзусидаги номзодлик диссертациясида ўзбек кимё терминологияси мисолида терминология ва номенклатуранинг, термин ва номеннинг фарқли жиҳатларини тўғри кўрсатиб беришга ҳаракат қилган. Шу билан бирга, терминология ва номенклатуранинг бир-бирига яқин алоқада бўлишини, бирининг иккинчисига доим ўтиб туришини аниқ мисоллар билан асослаб, “ўртадаги бундай қарама-қаршиликка қарамай, терминлар ва номенлар ягона терминологик системанинг таркибий қисмларидир”,<sup>6</sup> деган хулосага келади. Биз ҳам ўзбек минералогия терминларини ўрганиш жараёнида термин ва номенклатурани ягона терминологик тизим сифатида қараш лозим, деб ҳисоблаймиз. Шундай йўл тутилганда, улар ягона тизим ичида бўлгани сабабли, муайян терминологик тизимнинг ривожланиш тарихини яхлит ўрганиш мумкин бўлади. Қолаверса, минералогия терминологиясини тартибга солиш дейилганда, минералогия терминларининг ҳам, маъданли тошларни ифодаловчи номенларни ҳам тартибга солиш тушунилади.

Кўпчилик олимлар терминларга хос қуйидаги белгиларни ажратишади:

- 1) дифференциянинг мавжудлиги;
- 2) подсистемада, яъни маълум фан, касб доирасида моносемаликка интилиш тенденцияси;
- 3) экспрессиянинг йўқлиги;
- 4) услубий бетарафлиги.<sup>7</sup>

<sup>1</sup> Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. М., “Наука”, 1977, с. 90.

<sup>2</sup> Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ, том 5, М., 1939, с. 24.

<sup>3</sup> Виноградов В.В. Вступительное слова на Всесоюзном терминологическом совещании. Вопросы терминологии. М., “Наука”, 1961, с. 51.

<sup>4</sup> Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ, том 5, М., 1939, с. 8.

<sup>5</sup> Реформатский А.А. Что такое термин и терминология? Вопросы терминологии. М., “Наука”, 1961, с. 47.

<sup>6</sup> Мадвалиев А.П. Узбекская химическая терминология и вопросы её нормализации. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук, Ташкент, 1986, с. 26.

<sup>7</sup> Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. М., 1977; Канделаки Т.Л. Семан-

Минералогия терминларига назар ташланса, юқоридаги саналган хусусиятлардан моносемантик ва услубий бетарафлик белгиларининг барқарор эмаслиги кўзга ташланади. Чунки айрим соҳа терминлари, жумладан, минералогия терминлари полисемантиклик хусусиятига эга. Масалан, **ГАВҲАР** (ф. – қимматбаҳо тош; марварид) минералогия термини қуйидаги маъноларда қўлланилади: 1) тарашлаб сайқал берилган олмос; умуман, қимматбаҳо тошларнинг умумий номи; жавҳар. *Кўрдингми? Бу нима? Мана бу – дур, мана бу – марварид. Мана бу ёнга – гавҳар* (Ойбек. Танланган асарлар). *Гавҳар косода сув тутиб, қизлар қўшиқ айтиб, Нуралига парвона бўла берди* (“Нурали”); 2) кўчма Қимматли, бебаҳо, нодир нарса. Ер – хазина, сув – гавҳар (Мақол).

3) Гавҳар (хотин-қизлар исми).

**Кўз гавҳари** анат. Кўз қорачиғи орқасида жойлашган, икки томони қавариқ линза шаклидаги тиниқ танача.<sup>1</sup>

**ДУР** (а – марварид, инжу) **1** Инжунинг, гавҳарнинг йирик тури. *Доно – дурдан аъло*. Мақол. *Гул тикансиз бўлмас, Дурсадафсиз* (Мақол). – *Аслида, Аҳмад ёқут нима, дур, бриллиант, марварид нима, унчалик фарқига бормас эд.* (Ф.Мусажонов. Ҳиммат). *Дудоғу билақларида, қулоғу бармоқларида дурру гавҳарлар, олтин безаклар йилтиллаб, бир жаҳон бўлиб, уйғу оғушида ётибди*. (Мирмуҳсин. Умид).

**2** кўчма Бебаҳо ёки энг яхши, яъло, сара нарсалар ҳақида. *Яхшилик шундай дурру гавҳарки, унинг баҳоси ҳеч қачон камаймайди* (Газетадан). *Ҳар сўзи ширин – шакар дур қизлар* (“Муштум”).

**3** кўчма поэт. Қимматли, сермазмун, чуқур маъноли сўз ёки шеър ҳақида. *Мен Навоий “Хамса”сининг сарғиш саҳифаларига қараб олиб йиғлардим, кўз ёшларим тўкилиб, Навоий терган дурларга қоришарди* (М.Исмоилий. Фарғона т.о.). *Қиз сўзласа, оғзидан Дур сочилар, ёр-ёр* (“Кўшиқлар”). *Ҳангомада оғзидан дур сочибди* (“Юсуф ва Аҳмад”).

**4** кўчма Ёруғлик, ёғду. *Қуёш сепар нурларин, Ерга заррин дурларин* (З.Диёр. Асарлар).

**5** кўчма Мева, самара, ҳосил; натижа. *Отам ҳамиша: “Тажриба дуруни саралаб тер”, – дурдилар* (“Ўзбекистон кўриқлари”). *Бағрингга дур сочди олтин пахтазор!* (Г.Жўраева).

**6** кўчма Бойлик, давлат; кут-барака. *Тер тўксанг, дур оласан* (Мақол). *Ерга чигит тушиди – дур тушиди дейишади* (Газетадан).

**7** кўчма Сув ва унга ўхшаш товланувчан нарсалар (томчи, шудринг, қор учқунлари). *Рўпарамда сонсиз фонтанлар, Қулогидан дур ёгилди* (Х.Салоҳ. Чашма). *Кечаси тушган шудрингга чўмилган кўм-кўк майсалар худди дур тўккандек чарақлаб, қуёш билан ўпишиб товланади* (О.Ёқубов. Ота изидан).<sup>2</sup>

**ЗУМРАД** [ф. < юн. smaragdus – сабзаранг тош] **1** Олий сифатли, оч яшил тусли қимматбаҳо тош. *Кўрдингми? Бу нима? Мана бу – дур, мана бу – марварид. Мана бу ёнган – гавҳар. Қолганлари – ҳар хил тошлар, ёқут, зумрад, деди Мирзакаримбой* (Ойбек. Танланган асарлар). *Қозикалон сандиқларни очиб кўрсатди: баъзисида олмос, ёқут, ақиқ, зумраб ва марварид, баъзисида олтин ва кумушдан ясалган, қимматбаҳо тошлар билан зийнатланган идиш-оёқлар, баъзиларида зеб-зийнатлар тўла эди* (С.Айний, Дохунда). **2** кўчма сфт. Оч яшил, сабзаранг. *Молдавия далаларининг зумрад ранги бизнинг лалмикор бугдойзорларимизни эслатади* (Н.Сафаров. Оловли излар). *Воҳ, юрагим ўйнарди кумуш жилгаларнинг зумрад лабида* (Ш.Раҳмон. Юрак қирралари). *Ариқ бўйида қалин ёш тол, ўртасида ёғоч сўри. Унинг тагидан шовуллаб оқиб турадиган зумрад сувдан доим бир хилда салқин шабада эсади* (И.Раҳим. Ихлос).

**3** Зумрад (хотин-қизлар исми).<sup>3</sup>

**ЛОЖУВАРД** [ф. – қимматбаҳо кўк тош; мовий, зангори] **1** Тўқ кўк, яшилга мойил ҳаво ранг тусли майда донатор, шишасимон ялтироқ минерал (қимматбаҳо безак тош сифатида ишлатилади ва мовий ранг бадий бўёқ олинади). *Тоза ложувард устига олтиндан бўртма нақшлар солинган* (Ойбек. Навоий).

---

тика и мотивированность терминов. М., 1977; Маҳкамов Н. Ўзбек тилида терминларнинг метёрлаштириш муаммолари. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 1977; Усмонов О. Ўзбек тили терминологиясида лексик вариантлар. Тошкент, “Фан”, 1986; Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения отерминах. М., 1987.

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик, Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 1-жилд, 2006, 473-бет.

<sup>2</sup> Ўша манба. 666-бет.

<sup>3</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик, Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2-жилд, 2006, 165-бет.

2 Тиник кўк, тиник кўк тусли. *Ложувард кўкда сайрашиб учаётган қушлар дарахтларга қўниб... сахий қуёшга мадҳия айтаётгандек, басма-басга чуқурлашадилар* (Н.Сафаров. узокни кўзлаган қиз). *Юлдузлар ложувард чодирдан осилган электр чироқларидан ёруглашиб, кўзларни қамаштирмоқда эди* (С.Айний. Куллар).<sup>1</sup>

**ОЛМОС I** [m.+a – қимматбаҳо тош <юн. *adamas* – бузилмас, мустаҳкам] **1** Шаффоф, ялтироқ соф углероддан иборат ўта қаттиқ, қимматбаҳо тош (тарашлаб маълум шаклга келтирилгани “бриллиант” деб аталади). *Олмос ерда қолмас* (Мақол). – *табиатда мавжуд бўлган нодир тошлар ичида энг машҳури олмос ҳисобланади* (“Фан ва турмуш”).

2 Шундай тош ўрнатилган кескич; олмосли кескич. *Олмос билан ойна кесмоқ.*

3 Олмосдан ясалган, олмос билан безатилган, зийнатланган. *Олмос қилич. Олмос зирак.*

4 кўчма Шундай тош сингари ўткир, кескир; қимматли, бебаҳо. *Инсон ақли – олмос* (Мақол). – *Бу олмос сатрлар муаллифи буюк шоир ва мутафаккир Паҳлавон Маҳмудга қўйилган ёдгорлик қадимий Хоразм устлари қандай муъжизавор санъат обидаларини яратишига қодир бўлганликларидан гувоҳлик бериб турибди.*<sup>2</sup>

Кўринадики, қайд этилган минералогия терминлари полисемантик хусусиятга эга. Бу ҳолат уларнинг бошқа турдаги терминлардан фарқли хусусиятларга эга эканлигини англатади.

Минералогия терминларининг полисемантик хусусияти, айниқса, бадий асарларда яққол кўзга ташланади. Бу жиҳат уларни лингвопоэтик аспектда тадқиқ этиш лозимлигини кўрсатади.

Ўзбек тилшунослигида терминларнинг бадий матнда қўлланиш хусусиятларини ўрганишга, дастлаб, Ҳ.Шамсиддинов эътибор қаратди. Унинг номзодлик диссертациясида шеър тизимда терминларнинг услубий вазифалари ҳамда терминларда функционал-семантик синонимларнинг қўлланиш хусусиятлари ўрганилган.<sup>3</sup> Шу ўринда, тилшунослигимизда сўнгги йилларда амалга оширилган айрим тадқиқотларни мустасно қилганда,<sup>4</sup> турли соҳа терминларининг бадий матндаги хусусиятлари лингвопоэтик ёндашувда, шунингдек, матний қуршов доирасида ўрганилмаганлигини, уларнинг бадий матнда намён бўлувчи антропоцентрик, жумладан, лингвокультурологик, когнитив хусусиятлари монографик аспектда тадқиқ қилилмаганлигини алоҳида таъкидлаш лозим.

Замонавий терминологиянинг амалий ва назарий масалаларини яна-да жиддий ўрганиш, терминлар яратиш ва уларни қўллашнинг тил қонуниятлари асосида тартибга солиш давлат аҳамиятига молик муаммога айланди. Она тилимизнинг турли терминологик тизимларини яна-да теранроқ тадқиқ этиш, уларни терминологиянинг хилма-хил масалалари бўйича чуқурроқ тадқиқ қилиш, янги давр тилшунослигининг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади.

Хуллас, ўзбек тилшунослигида минералогия терминологиясини тадқиқ этиш кўлами бошқа терминосистемалар каби кенг эмаслигини айтиб ўтиш жоиз. Шу билан бирга, соҳага мансуб бирликларнинг ҳозирги ҳолатида тўпланган ва ҳамда семантикасини очиб берадиган луғатларнинг яратилмаганлиги соҳа терминологияси ва лексикографияси устида муҳим изланишлар олиб бориш заруратини юзага келтиради.

**Minniqulov Islom Urol o‘g‘li (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), O‘zDJTU Ingliz tili birinchi fakulteti Ingliz tilini o‘qitish metodikasi 1-kafedrasini dotsenti; email: [mr.islom19@gmail.com](mailto:mr.islom19@gmail.com))**  
**AKSIOLINGVISTIKANING O‘RGANISH OBYEKTI VA PREDMETI**

**Аннотация.** *Мазкур мақола аксиолингвистиканинг о‘рганish масалаларини муҳокима қилишга бағ‘ишланган. Хусусан, аксиолингвистиканинг о‘рганish оьекти сифатида қадрият ва баҳонинг тилда вербалашуви мақоллада асосий е‘тибор марказда бо‘лади. Шунингдек, оламнинг аксиолингвистик тасвирини йоритишда лингвоаксиологиянинг аҳамияти ҳақида фикр юритилди. Тилшуносликнинг ушбу yo‘nalishiga ko‘ra, тил аксиологик ахборот манбаи сифатида харақтерланади.*

**Аннотация.** *Данная статья посвящена обсуждению вопросов исследования аксиолингвистики. В частности, вербализация ценности и оценки в языке как объект изучения аксиолингвистики находится в центре внимания статьи. Также обсуждается значение лингвоаксиологии в*

<sup>1</sup>Ўша манба. 504-бет.

<sup>2</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик, Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 3-жилд, 2007, 115-бет.

<sup>3</sup>Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук, Ташкент, 1984.

<sup>4</sup>Жамолиддинова Д. Бадий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан д-ри (DSc)... дисс. автореф, Тошкент, 2021, 71-бет.

выяснении аксиолингвистической картины мира. Язык характеризуется как источник аксиологической информации в соответствии с этим направлением языкознания.

**Annotation.** This article is dedicated to the discussion of the issues of investigation of axiolinguistics. In particular, the verbalization of value and evaluation categories in language as an object of study of axiolinguistics is the main focus of the article. Also, the importance of linguoaxiology in elucidating the axiolinguistic image of the world is discussed. Language is characterized as a source of axiological information in accordance with this direction of linguistics.

**Kalit so'zlar:** aksiologiya, aksiolingvistika, qadriyat, baho, olamning aksiolingvistik tasviri, aksiologik axborot, aksiologik yondashuv.

**Ключевые слова:** аксиология, аксиолингвистика, ценность, оценка, аксиологическая картина мира, аксиологическая информация, аксиологический подход.

**Key words:** axiology, axiolinguistics, value, assessment, axiological image of the world, axiological information, axiological approach.

**Kirish.** Aksiolingvistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri sifatida jahon tilshunosligida o'z o'рни va ahamiyatiga ega. Zero, aksiolingvistika tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida talqin qilinishi uchun yetarli asosga ega. Ya'ni, lingvoaksiologiya o'z tadqiqot obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari va nazariy-metodologik asoslariga ega. Aksiologik kategoriyalar sifatida qadriyat va bahoning tilda namoyon bo'lishi lingvoaksiologiyaning tadqiqot obyekti belgilab beradi. Zero, falsafiy asoslarga ko'ra, qadriyat va baho kategoriyalari aksiologiya fanining obyekti ekan, ularning tildagi ifodasi, ma'lumki, aksiolingvistikaning o'rganish obyekti. Ushbu maqolada biz aksiolingvistikaning obyekti sifatida qadriyat va bahoning tilda verballashuvini talqin etgan holda, mazkur fikr aksiologiya fanining ilmiy-nazariy, metodologik asoslariga tayanishini ta'kidlaymiz.

**Tahlil va muhokama.** Reinhard Pauls qadriyatning aksiologik xarakterini quyidagicha tavsiflaydi: falsafiy qarashlarga ko'ra, qadriyat–mezon sifatida, ya'ni, baholashlar o'tkaziladigan standartlar sifatida talqin qilinadi. Aniq bo'ladiki, qadriyatlar ma'lum baholashlar o'tkaziladigan mezonlar yoki standartlar sifatida qaralishi mumkin. Bu esa ularning aksiologik tabiatini belgilaydi. Shuningdek, qayd etiladiki, falsafaning muhim sohalari, jumladan, etika, siyosiy falsafa va san'at falsafasi mezon sifatidagi qadriyatni o'rganishda me'yoriy pozitsiyani qabul qiladi. Shuning uchun ular qadriyat sohalari nima bo'lishi kerakligi bilan shug'ullanadilar. Demak, ma'lum bo'lishicha, ba'zi falsafiy sohalar (etika, siyosiy falsafa, san'at falsafasi)da qadriyat-mezon sifatida o'rganilishida normativ yondashuvdan foydalaniladi. Ya'ni, muayyan tushunchalar qadriyatlar bo'lishi uchun ma'lum normalarga amal qilishi zarur. Bundan tashqari, ijtimoiy va xulq-atvor fanlari, jumladan, sotsiologiya, psixologiya, ijtimoiy psixologiya va antropologiya kabi fanlar ushbu qarash (qadriyat mezon sifatida)ga qo'shiladi, deya e'tirof etiladi). Ko'rinadiki, falsafiy, ijtimoiy va xulq-atvor fanlari (falsafa, etika, siyosiy falsafa, san'at falsafasi, sotsiologiya, psixologiya, ijtimoiy psixologiya, antropologiya) qadriyatning aksiologik xususiyatini yoritishda uni qadriyat mezon sifatida ko'radi. Ya'ni, qayd etilganidek, qadriyatlar ma'lum baholashlar o'tkaziladigan mezonlar yoki standartlar sifatida talqin qilinadi.

Muallif har qanday aksiologik nazariya uchun muhim bo'lgan quyidagi ikkita asosiy savolni qayd etadi: a) qadriyat obyektning har qanday kuzatuvchi yoki baholovchi–subyektga bog'liq bo'lmagan xususiyatimi yoki u obyekt va baholovchi subyekt o'rtasidagi munosabatmi?; b) qadriyatni idrok etish shaxsiymi, butunlay intuitiv tajribami yoki ilmiy usullar yordamida tekshirilishi mumkin bo'lgan obyektiv asos bormi? Ushbu savollar har qanday aksiologik nazariya uchun ahamiyatlidir. Zero, ularning maqbul javobi aksiologik kategoriya bo'lgan qadriyat tushunchasining asosiy mazmun-mohiyatini aniq tushuntirishda ahamiyat kasb etadi.

Reinhard Pauls qadriyatning mezon sifatidagi qadriyatlar sifatidagi talqinining ijtimoiy va xulq-atvor fanlaridagi ahamiyatini shunday yoritadi: qadriyatlar inson xatti-harakatlarini tushuntirishga hissa qo'shishi mumkin, ya'ni, baholash standartlari sifatida ular inson harakatlarining sabablari yoki motivlarini taqdim etadi, shuning uchun ular individual va ijtimoiy xulq-atvorning tushuntiruvchi o'zgaruvchilari sifatida qaraladi.<sup>1</sup> Bundan aniq bo'lishicha, qadriyatlar inson xatti-harakatlarini tushuntirishi, ularning sabab va motivlarini namoyon etishi, individual va ijtimoiy xulq-atvorning tushuntiruvchi komponentlari bo'lishi mumkin.

<sup>1</sup> Reinhard Pauls. Concepts of Value. A Multi-Disciplinary Clarification. New Zealand: Centre for Resource Management, 1990, p. 23.

Diana Iliyeva qadriyatlarni insoniyat tarixining boshlanishi bilan bog‘lar ekan, qadriyatni insonning ma‘naviy ustunlari sifatida paydo bo‘lganligini va voqelikni tizimlashtirishini, voqelikning ma‘nosiga baholi ta‘sir ko‘rsatishini, ideal, orzu qilingan, me‘yoriy yoki maqbul g‘oya bilan bog‘liqligini va muayyan xatti-harakatlarni tavsifiya qilishini alohida e‘tirof etadi.<sup>1</sup> Qadriyat aksiologik kategoriya sifatida insoniyat tarixi bilan bog‘liq bo‘lib, inson ma‘naviyatining bosh mezonlaridan biridir, shuningdek, real voqelikni tizimlashtirish va unga baho berishda ahamiyat kasb etadi va normativ g‘oya va xatti-harakatlarni rag‘batlantiradi. Demak, ma‘lum bo‘ladiki, qadriyatlar va ularning tuzilishi aksiologiya fani tomonidan o‘rganilsa, qadriyatlar va ularning tuzilishining tilda aks etishi lingvoaksiyologiyada o‘rganiladi.

Shuningdek, o‘zbek tilshunos olimasi R.U.Madzhidova dunyoning aksiolingvistik manzarasi xususida so‘z yuritar ekan, shunday deydi: olamning lingvoaksiologik tasviri insonning hayotiy tajribasi, qadriyatlar bilan oldindan belgilanadi, unga qabul qilingan normalar va qoidalar doirasida jamiyat tomondan tasdiqlangan xatti-harakatlar modellariga muvofiq hayotning turli sohalarida ijtimoiy-kommunikativ faoliyati va nutq xatti-harakatlarini qurishga yordam beradi.<sup>2</sup> Bundan anglash mumkinki, insonning ijtimoiy-kommunikativ faoliyati va nutq xatti-harakatlari jamiyatda o‘rnatilgan norma va qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Bu esa uning qadriyatlarini va hayotdagi tajribasi orqali yo‘naltiriladi.

Shuningdek, Natalia Zerkina aksiolingvistika va uning o‘rganish masalalari haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: zamonaviy tilshunoslikdagi paradigma – antropotsentrizm tilni jamiyat qadriyatlar (ijtimoiy, mafkuraviy, yosh va boshqa qatlam va guruhlarga xos bo‘lgan variantlari) ining asosiy tizimining ko‘zgusi sifatida o‘rganuvchi “tilga aksiologik yondashuv”ni belgilab berdi va tilni bunday tizim haqida eng muhim ma‘lumot manbai sifatida ko‘radi. Shu bilan birga, “qadriyatlar tili”ni diaxronik va sinxronik jihatdan tadqiq qilish lingvoaksiologiyaning vazifalaridan biri sifatida e‘tirof etiladi.

Natalia Zerkina aksiologik tilshunoslikni aksiologik axborot manbai sifatida qayd etar ekan, uni frazeologiya bilan bog‘laydi. Zero, frazeologik birliklarni qadriyat va aksilqadriyatni verballashtirish xususiyatidan kelib chiqib, ikkiga – diadalarga tasniflanishini e‘tirof etadi. Ma‘lum bo‘lishicha, aksiologik tilshunoslik olamning aksiologik manzarasini yoritishda aksiologik axborot manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bunda qadriyat va aksilqadriyatlarini verballashtiruvchi til birliklari alohida ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, ta‘kidlash mumkinki, aksiologiya, xususan, tilshunoslikda aksiologik talqin muammosi yuzasidan quyidagi umumlashtirilgan fikrlarni shakllantirish mumkin:

XIX asrning ikkinchi yarmida aksiologiya baho va qadriyatning umumiy nazariyasi sifatida rivoshlangan falsafiy fan bo‘lishiga qaramasdan, u shug‘ullanadigan masalalar inson o‘z hayot sharoitlari, voqelikning tuzilishi, tabiatning tartibi va insonning tabiatdagi o‘rni haqida fikr yurita boshlagan paytdan boshlab insoniyat olamidani o‘rin olgan. Hozirgi zamon talqinida aksiologiya obyektiv voqelik hodisalarini aksiologik aspektda o‘rganish bilan birga, qadriyatlarining turli nuqtayi nazar (falsafa, huquq, ekologiya va h.k.)dagi talqinlarini tahlil qilish bilan shug‘ullanadi. Xususan, aksiologiya qadriyatlar tabiati, tuzilishi, real voqelikdagi o‘rni, ijtimoiy va madaniy omillar bilan munosabatlari, shaxs ruhiy tuzilishi kabi masalalarni o‘rganuvchi fan bo‘lib, u milliy qadriyatlar tizimida baholashni rag‘batlantirar ekan, ushbu jarayon mazkur millatning madaniy modeli asosidagi baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, boshqa fanlar qatorida tilshunoslik fani ham o‘z obyekt va predmetini aksiologik aspektda o‘rganish yondashuvini kun tartibiga qo‘ydi. Jumladan, lingvoaksiologiya tilda aks etadigan qadriyatlar va til orqali baholash muammolari bilan shug‘ullanuvchi yangi ilmiy yondashuv sifatida yuzaga keldi. Aksiolingvistika olamning aksiologik manzarasini yoritishda aksiologik axborot manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bunda qadriyat va aksilqadriyatlarini verballashtiruvchi til birliklari alohida ahamiyat kasb etadi.

Qayd etish joizki, til hodisalarini tadqiq etishga aksiologik yondashuv zamirida zamonaviy tilshunoslik paradigmasi – antroposentrizm yotadi. Xususan, Natalia Zerkina ta‘biri bilan aytganda, “antroposentrizm tilni jamiyat qadriyatlarining asosiy tizimining ko‘zgusi sifatida o‘rganuvchi “tilga aksiologik yondashuv”ni belgilab berdi va tilni bunday tizim haqida eng muhim ma‘lumot manbai sifatida ko‘radi”.

Tilshunoslikda aksiologik tadqiqot nazariyasi va metodologiyasi ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida shakllangan nazariya va metodologiyaga asoslanadi. Jumladan, sotsiologik nuqtayi nazardan amalga oshirilgan quyidagi aksiologik tadqiqotga ko‘ra, aholini yaxshilik mezoni asosida baholash amalga oshi-

<sup>1</sup> Diana Iliyeva. Axiological Aspects in Language. Proceedings of University of Ruse, 2017, Volume 56, Book 5.2, p. 25.

<sup>2</sup> Natalia Zerkina, Yekaterina Lomakinab, Natalia Kostina. Axiological linguistics and foreign language teaching. Procedia-Social and Behavioral Sciences, 2015, p. 102.

riladi. Bu yerda yaxshilik aholining ichki yaxshiligi, ya'ni ichki yaxshi xususiyatlariga ishora qiladi. Bunda aholining ma'lum bir aksiologik mezon (bu yerda ichki yaxshilik) asosida muayyan tartib asosida baholanishida ma'lum qadriyatlar asosiy o'rin egallaydi. Ma'lum sohadagi qadriyatlar insonning maqsadlari, vazifalari va qarorlariga muvofiq ravishda mavjud bo'ladi. Ya'ni, insonning maqsadlari, vazifalari va qarorlari muayyan qadriyatlar asosida yo'naltiriladi. Sohalar xususiyatidan kelib chiqib, qadriyatlar normalar, qadriyatlar, g'oyalar, munosabatlar, e'tiqodlar, maqsadlar, nishonlar, standartlar, ishonishlar, qarashlar, ehtiyojlar sifatida talqin qilinishi mumkin.

**Xulosa.** Lingvoaksiologiyaning obykti sifatida qadriyatlar va baholash lingvistik aspektida o'rganilar ekan, bunda asosiy e'tibor ushbu kategoriyalarning tilda qay holda aks etishiga qaratiladi. Shu ma'noda, qayd etish joizki, aksiologiyaning obykti sifatida qadriyat va bahoning verballashuvi mos ravishda tadqiq qilinishi uchun ushbu tushunchalarining nazariy-metodologik asoslarini alohida e'tiborga olish maqsadga muvofiq: baholash voqelikning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, uning obyektiga quyidagilar kiradi: voqelik, mavjud narsalar, hodisalar, xususiyatlar, harakatlar, insonning o'zi va uning fikrlari, xatti-harakatlari va his-tuyg'ulari. Baholash obykti doirasi juda keng bo'lib, baholash qadriyatlar tizimi asosida amalga oshiriladi. Qadriyatlar baholash komponenti tilning denotativ, konnotativ strukturasi singdirilgan bo'ladi. Baholash konseptualizatsiya hodisasi bilan bog'liq bo'lib, uning aksiologik tabiati muayyan kontekstda namoyon bo'ladi. Falsafiy qarashlarga ko'ra, qadriyat mezon sifatida (value as criterion), ya'ni baholashlar o'tkaziladigan standartlar sifatida talqin qilinadi. Falsafiy, ijtimoiy va xulq-atvor fanlari (falsafa, etika, siyosiy falsafa, san'at falsafasi, sotsiologiya, psixologiya, ijtimoiy psixologiya, antropologiya) qadriyatning aksiologik xususiyatini yoritishda uni qadriyat mezon sifatida tamoyili asosida o'rganishda me'yoriy pozitsiyadan boradi. Qadriyatlar inson xatti-harakatlarini tushuntirishi, ularning sabab va motivlarini namoyon etishi, individual va ijtimoiy xulq-atvorning tushuntiruvchi komponentlari bo'lishi mumkin. U insoniyat tarixi bilan bog'liq bo'lib, inson ma'naviyatining bosh mezonlaridan biridir, shuningdek, real voqelikni tizimlashtirish va unga baho berishda ahamiyat kasb etadi va normativ g'oya va xatti-harakatlarni rag'batlantiradi.

**Umarov Ilxomjon Akbarovich (JDPU, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD))**  
**O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA XALQ DOSTONLARI LEKSIKASINING O'RGANILISHI VA**  
**HOZIRGI DAVRDAGI DOLZARB MUAMMOLAR**

**Annotatsiya.** Maqolada "Malika ayyor" dostoni matnidagi qadimgi turkiy til davrida keng iste'molda bo'lgan va hozirgi o'zbek adabiy tiliga xos uzatmoq, ichmoq, bolalamoq, bitkazmoq, yasamoq, el, yo'l, olmoq kabi turkiy leksik birliklarning ma'no xususiyatlari ochib berilgan. Doston matnidan olingan mazkur so'zlarning ma'no xususiyatlari birlamchi manbalarga tayanilib tahlil qilingan.

**Аннотация.** В статье раскрывается значение тюркских лексических единиц в тексте эпоса «Малика айёр», широко употреблявшихся в период древнетюркского языка и типичных для современного узбекского литературного языка, таких как перевод, питьё, ребёнок, закончить, сделать, дорога, взять, раскрыты особенности их перевода. Смысловые характеристики этих слов, взятых из эпического текста, анализируются на основе первоисточников.

**Annotation.** In the article, the meaning of the Turkish lexical units in the text of the epic "Malika Ayyor", which were widely used in the period of the ancient Turkic language, and typical of the modern Uzbek literary language, such as transfer, drink, child, finish, make, el, road, take features revealed; The meaning characteristics of these words taken from the epic text are analyzed based on primary sources.

**Kalit so'zlar:** doston, matn, turkiy qatlam, baxshi shoir, epik qahramon, qadimgi turkiy til, tarixiy asar, turkiy so'zlar, leksema.

**Ключевые слова:** эпос, текст, тюркский пласт, бахшиикий поэт, былинный богатырь, древнетюркский язык, исторический труд, тюркские слова, лексема.

**Key words:** epic, text, Turkic layer, Bakhshi poet, epic hero, ancient Turkic language, historical work, Turkic words, lexeme.

Dunyo tilshunosligida til birliklari, xususan, leksik birliklar sistema, struktura va me'yor (norma)ning dialektik munosabati asosida shakllanishi, bunda sistema elementlarning yaxlit majmuyidan, struktura esa shu majmuyining ichki tuzilishidan iborat ekanligi olimlar tomonidan allaqachonlar isbotlangan. Binobarin, til hodisalarini sistem-struktur o'rganish, birinchidan, sistema tashkil qiluvchi elementlar yig'indisi (ro'yxati)ni tuzish, ikkinchidan, mazkur elementlar orasidagi ichki munosabat va aloqalarni belgi-



lash, ularning o'zaro pog'onali (iyerarxik) joylashishi hamda bir elementning ikkinchi elementdan hosil bo'lish yo'llarini ochib berishni taqozo etadi.<sup>1</sup>

Tilning boshqa sathlari singari leksikani sistem sifatida o'rganishda lug'aviy birliklarning paradigmatic, sintagmatik va pog'onali (iyerarxik) munosabatlarini ochish, ularning ma'lum bir birlashtiruvchi ma'no asosida muayyan paradigmalarga birlashuvi qonuniyatlarini o'rganish natijalari umumjahon tilshunosligida maydon nazariyasining shakllanishiga sabab bo'ldi.<sup>2</sup>

Xalq dostonlari tilining lisoniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida B. To'ychiboyevning kuzatishlari alohida qimmatga ega bo'ldi. Uning «Alpomish» dostoni tiliga bag'ishlangan monografik tadqiqotda<sup>3</sup> muallif dostonlarga og'zaki adabiy til namunasi, adabiy tilni boyituvchi manba sifatida qaraydi, ularda ijrochilar til xususiyatlarining aks etishini tabiiy bir hol, deb hisoblaydi. «Ijrochi shevasi doston tilining xususiyatini belgilashda muhim o'rin egallaydi. Darhaqiqat, qipchoq shevasi o'zining rang-barangligi, ohori to'kilmagan uslubiy imkoniyatlarga ega ekanligi, turli-tuman o'ziga xos jihatlari bilan kishining e'tiborini o'ziga beixtiyor tortadi, kuzatuvchini o'ziga moyil qiladi, rom etadi. Qipchoq shevasining bu xususiyati, shu jihatdan, to'lig'icha «Alpomish» dostonining til xususiyatini belgilaydi»,<sup>4</sup> degan fikrda bo'lib, tadqiqot davomida ana shu qarashlar dalillab beriladi. Dostonlarni kuylashdagi musiqaviylikni, o'zbeklarning o'ziga xos tarixi va turmush tarzini, udumlari va qadriyatlarini, muomala va muloqot jarayonlarini, shuningdek, *ot, tuya, qo'y* kabi zoonimlar misolidagi an'anaviy obrazlarni, faqatgina folklorga xos bo'lgan o'xshatish, epitet, mubolag'a kabi poetik vositalarni «Alpomish» til materialida ishonarli tahlil qiladi.

Shundan so'ng muallif o'z kuzatishlariga yakun yasab, «Alpomish» dostonini umumxalq tili bilan qiyoslab o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularda, avvalo, so'zlash usulida o'xshashlik, umumiylik, mavjud so'zlardagi siqqlik talaffuzning yengil bo'lishiga intilishdan kelib chiqadi. Umumxalq tilidagi iboralar asrlar osha sayqallashib boradi. Qisqa iboralar yirik ko'lamlilik fikrlarni ifodalaydi. Buning ustiga, iboralaridagi nishonga bexato urish xususiyati ham umumxalq tilining fazilatidir. Dostonda har bir satrda iboralarning o'rinli qo'llanilishi uning umumxalq tili asosida yaratilganligidadir. ...ushbu iboralarning haqiqiy turkiy (o'zbek) til mahsuli ekanligi e'tiborga olinsa, uning qimmatini yanada oshadi» tarzidagi mulohazalarni bayon qiladi va «adabiy til hamma vaqt xalq jonli so'zlashuv tili va dialektlardan oziqlanib turadi, o'zining leksik-stilistik imkoniyatini shular hisobiga kengaytirib boradi»,<sup>5</sup> degan fikr-mulohaza ilgari suradi. Ta'kidlash lozimki, bunday mulohazalar o'zbek lingvofolkloristikasida ilmiy nazariyiligi bilan muhim ahamiyat kasb etdi.

A.Rahimovning «O'zbek xalq dostonlari leksikasining qiyosiy-tarixiy tahlili»<sup>6</sup> mavzuidagi nomzodlik tadqiqoti ham dostonlar tilini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida masalaga til tarixining yozuv shakllangunga qadar bo'lgan folklor bosqichida lingvistik tizimning vazifaviy kengayishi, uslubiy tarmoqlanishi, adabiylik maqomiga ega bo'lishi va milliy tilning yuzaga kelish jarayoniga aloqador muammolar nuqtayi nazaridan yondashilganligi ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri bo'lgan. Shuning uchun ham muallifning ish yakunida til tizimida tarixiy jihatdan jonli tilga nisbatan og'zaki ust dialektning ustuvor bo'lganligi, folklor tili ana shu dialektlar zamirida rivojlanganligi, bu esa og'zaki til tizimida poetik ust dialektning, ayni paytda, uning yozma tilning vujudga kelishiga asos bo'lganligi haqida to'g'ri xulosalar chiqargan.

Muayyan bir doston leksikasiga keng qamrovda yondashilgan ishlar orasida S.Tursunovning dissertatsion tadqiqoti alohida o'rin tutadi.<sup>7</sup> Bir doston matni misolida folklor leksikasi va frazeologiyasining o'ziga xosligi, umumxalq tilining shu mazmundagi birliklaridan farqli ravishda tahlil etilganligi bilan ilmiy-amaliy qimmatga ega. Muallif birinchi bo'lib «Alpomish»ning dialektal leksikasini monografik tarzda o'rgangan. Asosiy e'tibor leksik, grammatik, frazeologik dialektizmlarga qaratilib, ularning o'zbek adabiy tilida ekvivalentlarining mavjud yoki mavjud emasligi nuqtayi nazaridan tahlil etilganligi, qolaver-

<sup>1</sup>Гак В.Г. Француз тили назарий грамматикаси. Морфология, И.Мирзаев таржимаси, СамДЧТИ, 2002, 15-бет.

<sup>2</sup>Щур Г.С. Теория поля в лингвистике. М., "Наука", 1974, с. 19; Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990, с. 380.

<sup>3</sup>Тўйчибоев Б. «Алпомиш» ва халқ тили. Тошкент, "Адабиёт ва санъат", 2001, 160-бет.

<sup>4</sup>Шу манба. 68-бет.

<sup>5</sup>Шу манба. 11-бет.

<sup>6</sup>Рахимов А.С. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида). Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф., Самарқанд, 2002, 27-бет.

<sup>7</sup>Турсунов С. Лексические особенности дастана «Алпамыш». Автореф. дис. ... канд. филол. наук, Ташкент, 1990, 19 с.

sa, ishda kitobiy-poetik va xalq-poetik leksikasining o'rganilganligi ham doston lingvopoetikasini tekshirishga munosib hissa bo'lib qo'shilgan.

Z.T.Xolmonova dissertatsion tadqiqotida<sup>1</sup> leksik material tahliliga birmuncha keng qamrovda yondashgan. «Shayboniyxon» dostoni tilidagi so'zlar leksik jihatdan maxsus o'rganilgan, qo'llanish miqdoriga ko'ra alohida kichik guruhlariga ajratilgan, bir asar matnida qo'llangan so'zlar leksik-genetik jihatdan aniqlangan, mavzuiy va semantik guruhlar asosida tasniflangan, sheva variantlariga qiyoslangan, qo'llanish me'yorlari va matnning tarixiy manbalari belgilangan. Tadqiqotning dastlabki bobida o'z va o'zlashgan qatlam o'rganilib, unda o'z qatlamning miqdoriy jihatdan ko'pligi matnda so'zlashuv tiliga xos elementlarning faolligi, ularning asosiy qismi turkiy so'zlar ekanligi bilan izohlangan. Ishning ilmiy qimmatini shundan iboratki, unda Po'ikan shoir kuylagan doston tili Muhammad Solihning «Shayboniyxon» dostoni va hozirgi o'zbek adabiy tiliga qiyoslangan holda o'rganilgan va til birliklarining qo'llanish qonuniyatlarini ochib berishda qiyosiy-tarixiy va statistik metodlardan foydalangan. Dissertatsiyaning ikkinchi bobida so'zlarning o'ttizdan ortiq mavzu guruhlari antroponimlar, toponimlar, etnonimlar, astronomlar, harbiy atamalar, maishiy turmush tarzi bilan bog'liq so'zlar, kasb-hunarga oid birliklar misolida tahlil etilgan. Dissertatsiyaning yana bir bobi «Shayboniyxon» dostoni leksikasining shakl va mazmun munosabatlari tahliliga, polisemantik, sinonim, antonim, omonim so'zlar tadqiqiga bag'ishlangan, unda statistik ma'lumotlar ham keng o'rin olgan. Doston leksikasining adabiy til, shevalar, yozma tarixiy yodgorliklar tiliga munosabatini ko'rsatishi nuqtayi nazaridan mazkur dissertatsiya qimmatli va ilmda muhim ahamiyatga ega. Fikrimizcha, Z.T.Xolmonova «Shayboniyxon» dostoni leksikasini vazifaviy jihatdan tahlil qilish maqsadini o'z oldiga qo'ymaganligi sababli, unda leksik birliklarning nominativ-tavsifiy hamda badiiy-uslubiy vazifasi yetarli darajada yoritilmagan. Ushbu fikr va boshqa mulohazalar ba'zi tadqiqotchilarning ishlarida ham ta'kidlangan.<sup>2</sup>

«O'zbek xalq dostonlari onomastikasi»<sup>3</sup> nomli maqolaning mualliflari o'n ikki doston materiallari asosida, dastavval, ularda qo'llangan atoqli nomlarning statistikasiga va qaytariq nomlarga e'tiborni qaratganlar. So'ngra qo'yilgan masalani keng qamrovda o'rganadilar: parallel nomlar, maqollar, etnonimlar, otlarning dostonlardagi nomlari, ot (ism) qo'yishdagi rasm-rusmlar bilan aloqador jihatlar, shuningdek, dostonlar onomastikasining leksik-semantik xususiyatlari haqida o'zlarining kuzatishlarini bayon etadilar, dostonlar tilini bir sheva materiallari orasida izohlash, tushuntirish yetarli emasligini alohida qayd etadilar.

J.Xolmurotovaning dissertatsion tadqiqotida<sup>4</sup> hududiy dostonlar, jumladan, Shimoliy Xorazm dostonlari leksikasining nominativ-tavsifiy vazifalari sifatida yozma badiiy nutq va doston tili, adabiy til va doston tili, shu dostonlar leksikasidagi so'zlarning mavzu guruhlari, onomastik leksikaning o'rni, dostonlar tilidagi so'z va frazeologizmlarning o'zaro munosabati kabi masalalar maxsus o'rganilgan. Bundan tashqari, dostonlar tilidagi epitelar, o'xshatishlar, metafora va metonomiyalar, evfemizmlar va sajlar Xorazm dostonlari leksikasining badiiy-uslubiy vazifasi sifatida tekshirilgan.

Ayni paytda, kuzatish jarayonida leksemalarning adabiy til hamda dialektal frazeologik birliklarga munosabati, ko'chimga yuz tutgan leksik birliklarning asar sujet chizig'i va g'oyaviy mazmuniga aloqadorlik tomonlari o'rganilganligi bilan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Muallifning doston tilidagi leksik birliklar nominativ-tavsifiy va badiiy-uslubiy vazifalarda qo'llanishi, ularni kuzatish orqali an'anaviylik va doston ijrochisi bayonidagi individuallikni aniqlash mumkinligi haqidagi xulosalari nazariy jihatdan asoslidir.

Yuqoridagi qisqacha ilmiy axborotda biz mavzumizga bevosita aloqador xalq dostonlari tilining o'zbek tilshunosligida o'rganilishining qay darajada ekanligi haqida tasavvur hosil qilish uchun hozirgi kungacha chop etilgan va himoya qilingan asosiy dissertatsion tadqiqotlarga to'xtalib o'tdik, xususan, xalq dostonlari leksik materialining sheva va adabiy tilga munosabatini ochishga bag'ishlangan, leksik material tahliliga keng qamrovda yondashilgan, shuningdek, xalq dostonlari tili masalalariga bevosita ba-

<sup>1</sup> Холмонова З. «Шайбонийхон» дostonи лексикаси (Пўлкан шоир варианты асосида). Филол. фанлари номзоди. ...дис. автореф., Тошкент, 1998, 25-бет.

<sup>2</sup> Холмуротова Ж. Шимолий Хоразм дostonлари лексикасининг функционал-услубий хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди ... дис., Тошкент, 2000, 19-бет.

<sup>3</sup> Абдурахмонов Д., Бектемиров Х. Ўзбек халқ дostonлари ономастикаси. Ўзбек халқ ижоди. Т., «Фан», 1964, 186 – 191-бетлар.

<sup>4</sup> Холмуротова Ж. Шу манба. 160-бет.

g'ishlangan tadqiqotlarning tahliliga qisqacha bo'lsa-da, to'xtaldik. Endi esa ular asosida quyidagi fikr-mulohazalarni o'rtaga tashlash mumkin bo'ladi:

1. Bundan keyin, umuman, kelajakda folklor namunalari tilini har bir janr bo'yicha, shu janrlarga tegishli asarlar misolida lingvostilistik va lingvopoetik yo'nalishlarda tadqiq etishga bag'ishlangan, ulardan filologiyamiz uchun umumnazariy xulosalar chiqariladigan, ayni chog'da, jiddiy va keng qamrovli ishlar yaratilishi lozim. Bu esa tilshunoslarimiz oldiga katta vazifalarni yuklaydi, o'z navbatida, alohida mas'uliyat bilan qo'yilgan masalalarga yondashishni talab etadi. Biz nazarda tutayotgan bunday xarakterdagi tadqiqotlar, eng avvalo, muhtaram Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonidagi talablarni amalga oshirishda, qolaversa, ona tilimizning milliyligi va o'ziga xosligini, ma'naviy qadriyatlarimiz silsilasida tutgan o'rni va madaniylik ildizlarini belgilab berishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

2. Tadqiqotimiz mavzusiga bevosita daxldor o'zbek xalq dostonlari tili va lingvopoetikasi haqida fikr-mulohazalar bildiradigan bo'lsak, eng avvalo, shuni alohida ta'kidlash zarur: xalq dostonlarining bir necha yuz-yuzlab namunalarga egaligi, epik qamrovining kengligi, obrazlar tizimining salmoqdorligi va g'oyaviy-badiiy jihatdan teranligi, so'z san'ati sifatidagi o'ziga xosligi va eng muhimi, lisoniy jozibasi bilan madaniy-ma'naviy merosimiz xazinasida muhim o'rin tutganligini ilm ahli yaxshi bilishadi. Ana shu badiiy durdonalarini tahlilu talqin etish bugungi kungacha tilshunos olimlarning doimiy diqqat markazida bo'lib keldi va bunday ilmiy jarayon hozir ham muttasil davom etmoqda. Shu nuqtayi nazardan qo'yilgan masalaga yondashsak, xalq dostonlarining lisoniy xususiyatlarini o'rganish darajasi mavjud materiallarga nisbatan juda tor va olib borilayotgan kuzatishlar natijasi tilshunosligimizda kamchilik miqdorni tashkil etadi.

3. Xalq dostonlari tili, umuman, doston janrining ichki turlariga mansub epik namunalarning o'rganilishi holati hozirgi vaqtda talab darajasida emas. Faqatgina, qahramonlik dostonlaridan "Alpomish"; ishqiy-romanik dostonlaridan "Balagardon", "Zevarxon", "Nurali", "Ravshan"; qahramonlik-romanik dostonlardan "Murodxon", "Rustamxon", shuningdek, Shimoliy Xorazmda keng tarqalgan "Go'ro'g'li", "Oshiqnoma", "Shaxriyor", "Malikayi Zavriyo", "Xirmondali" va "Qirq minglar", tarixiy dostonlardan "Shayboniyxon" kabi xalq dostonlari bilan bog'liq tilshunoslikdagi tadqiqotlar bu fikrdan mustasno, xolos.

4. Xalq dostonchiligida tan olingan baxshilik maktablaridagi badiiyat durdonalarining, biror turkumga daxldor epik namunalarning, juda bo'lmaganda, bir mavzu yoki nomdagi dostonlarning tili va lingvopoetik tadqiqiga bag'ishlangan bir tizim asosidagi keng qamrovli yoki qiyosiy tahlil yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlar ham yaratilgan emas, bunday xarakterdagi ishlar hozirgi tilshunoslikda ko'zga tashlanmaydi. Lekin shuni ham adolat bilan ta'kidlash joizki, xalq dostonlari tilining ba'zi lisoniy jihatlari, masalan, ularda keng qo'llanadigan stilistik formulalarning lingvopoetik va lingvistik tarkibining qiyosiy tahlilda o'rganilishi masalasi tilshunosligimizda endigina boshlandi, deyish mumkin. Sh.Mahmadiyevning «O'zbek xalq dostonlari tilida stilistik formulalar» nomli dissertatsion tadqiqoti bu sohadagi ilk ish hisoblanadi. Unga Fozil Yo'ldosh o'g'li, Xushboq Mardonaqul o'g'li tomonidan kuylangan «Alpomish» dostoni variantlari hamda Ergash Jumanbulbul ijrosidagi «Kuntug'mish», «Yakka Ahmad», «Oysuluv», «Kunlarim» dostonlari asosiy tadqiqot manbayi vazifasini o'tagan. Bunday xarakterdagi ilmiy ishlarni yanada jonlantirish va amalga oshirish hozirgi tilshunosligimiz oldidagi navbatdagi vazifalardan biri sanaladi.

5. O'zbek xalq dostonlari tili va lingvopoetik xususiyatlari tarixiy davriylik nuqtayi nazardan ham tadqiq etilgan emas. Bu mulohaza boshqa tadqiqotlarda ham aytilgan. Biz ham ta'kidlamochi bo'lgan fikr-mulohaza shundan iboratki, masalan, xalq dostonlarining mumtoz namunalari leksik tarkibidagi o'z va o'zlashgan qatlamlarning qo'llanish darajasi, har bir dostonlar tiliga xoslangan so'zlarning chastotasi ham keng qamrovda o'rganilishi, aniqlanishi va umumlashtirilishi lozim. Bunday katta ishlarni tegishli mutaxassislarni birlashtirib, jamoalashgan holda izchil, ketma-ket va muttasil ravishda amalga oshirilmog'i zarur. Oqibatda tashkil etilgan ilmiy-ijodiy harakatlarning natijasi tilshunosligimizda yangi-yangi tadqiqotlarning yaratilishiga sabab bo'ladi, ona tilimizdagi so'zlarning qay darajada qo'llanganlik darajasini aniqlashga zamin tayyorlaydi, ularning dostonlar matni tarkibidagi vazifaviy ma'nolari va uslubiyl-stilistik xususiyatlarini maxsus o'rganishga olib keladi.

6. Nihoyat, xalq dostonlarini maroq bilan kuylagan ijrochilar – baxshilarning epik repertuaridagi o'ziga xos individual uslubini aniqlashni ko'zda tutadigan, hofizasidagi so'zlarning boyligini va miqdorini shartli bo'lsa-da aniqlab, umumlashtirib beradigan, hech bo'lmasa, eng yuqori, o'rtacha va past darajada qo'llangan so'zlarning chastotasini ko'rsatadigan tadqiqotlar va har xil lug'atlar yaratilmagan. To'g'ri-

ri, bu sohada ham tilshunosligimizda muayyan ishlar endigina amalga oshirilayaptiki, bundan ko‘z yumib bo‘lmaydi. A.Rahimovning Ergash Jumanbulbul o‘g‘li dostonlari leksikasining qiyosiy-tarixiy tahliliga bag‘ishlangan nomzodlik tadqiqoti, shuningdek, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Saidmurod Panoh o‘g‘li tomonidan kuylangan «Alpomish» dostoni variantlari asosida tuzilgan izohli lug‘at shunday ishlar sirasiga kiradi. Biz alohida ta‘kidlamoqchi bo‘lgan fikr shuki, bunday tipdagi ishlarni hozirgi tilshunosligimizda yanada jonlantirish va tobora kuchaytirish lozim.

Xullas, bildirilgan fikr-mulohazalarning o‘z yo‘q xalq dostonlarini lisoniy va poetik jihatdan atrof-licha va keng qamrov bilan tahlil etishdagi eng dolzarb muammolar ko‘lami hamda kelajakda bajariladigan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan vazifalar haqida tasavvur bera oladi. Hozirgi davr talablari nuqtayi nazaridan, ularni ketma-ket va uzluksiz ravishda amalga oshirmasdan turib, og‘zaki milliy badiiy merosimiz, ona tilimizning boy va keng qamrovli badiiy-estetik imkoniyatlari haqida to‘laqonli tasavvurga ega bo‘lish qiyin. Shu ma‘noda, mazkur kuzatishlarimizni alohida olingan manbaning – Fozil shoir kuylagan «Malika ayvor» dostonining mutlaq o‘rganilmagan jihatlariga oydinlik kiritadi, degan fikrdamiz.

**Джураева Зулхумор Раджабовна (кандидат педагогических наук, доцент кафедры Русского языкознания Бухарского государственного университета; [djuraeva.z.r.17@gmail.com](mailto:djuraeva.z.r.17@gmail.com))**  
**«КОНЦЕПТ» И «КОНЦЕПТОСФЕРА» КАК БАЗОВЫЕ ПОНЯТИЯ КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКИ**

**Аннотация.** *Мақоллада когнитив тилшunoslik va lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalari sifatida “konsepsiya” va “konseptosfera” atamalarini talqin qilishga XX–XXI asrlarning ko‘zga ko‘ringan olimlarining munosabati ko‘rib chiqiladi.*

**Аннотация.** *В статье рассматриваются отношения видных ученых XX–XXI веков к толкованию терминов «концепт» и «концептосфера» как ключевых понятий когнитивной лингвистики и лингвокультурологии.*

**Annotation.** *The article deals with the attitudes of prominent scientists of the XX–XXI centuries to the interpretation of the terms “concept” and “conceptosphere” as key concepts of cognitive linguistics and linguoculturology.*

**Kalit so‘zlar:** *tushuncha, tushuncha sohasi, hodisa, talqin, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika, mentalitet, ta‘rif.*

**Ключевые слова:** *концепт, концептосфера, феномен, толкование, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, ментальность, дефиниция.*

**Key words:** *concept, concept sphere, phenomenon, interpretation, linguoculturology, cognitive linguistics, mentality, definition.*

В конце XX века в лингвистике наблюдается тенденция расширения ее границ за счет возникновения целого ряда дисциплин, связанных с изучением получения, переработки и хранения информации. В этом ряду особо стоит когнитивная лингвистика, объектом которой является познавательная деятельность человека. Лишь после появления когнитивной лингвистики в языкознании возникает понимание корреляции языка с историей и культурой народа. Благодаря когнитивной лингвистике в научный оборот вошли новые категории, позволившие показать процесс обработки информации языковыми знаками.

Концепт и концептосфера представляют ключевые понятия когнитивной лингвистики. Это положение подтверждает видный когнитолог З.Д.Попова, считающая, что «вся проблематика когнитивной лингвистики вращается вокруг ее основных категорий – концепт, концептуализация, категоризация, концептосфера или картина мира». <sup>1</sup> Концепты возникают для обеспечения необходимости идентификации человеком различных предметов окружающей действительности.

Термин «концепт» (conceptus) имеет латинское происхождение и переводится как «понятие». Однако было бы неправомерным ставить между ними знак тождества, поскольку они, несмотря на тесную связь, имеют и принципиальные различия. Концепт аккумулирует в себе с последующим обобщением в вербальном знаке социальные, исторические, культурные, научные знания предшествующих поколений о мироустройстве.

Термин «концепт» впервые был использован в 1928 году в статье «Концепт и слово» С.А. Аскольдовым. Знаменитый философ XX века понимал под ним «мысленное образование, которое

<sup>1</sup> Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. М., АСТ, 2007, с. 191.

замещает нам в процессе мысли неопределенное множество предметов одного и того же рода».<sup>1</sup> Такой подход позволил лингвистам презентовать концепт как мыслительную парадигму, корректирующую и трансформирующую ряд сходных объектов, имеющих нечеткие параметры в процессе мысли.

В связи с этим, что термин «концепт» входит в категориальный аппарат сразу трех научных направлений (когнитивную лингвистику, семасиологию и лингвокультурологию), до сих пор в современном языкознании отсутствует четкое и точное определение понятия. В этом плане выяснение различных взглядов и упорядочение научных подходов к пониманию концепта представляет собой одну из приоритетных задач современной когнитивной лингвистики, поскольку отсутствие единых критериев определения не только семантики, но и границ концепта приводит к размытости дефиниции термина.

Так, по мнению З.Д.Поповой и И.А.Стернина, концепт представляет собой «дискретное ментальное образование, являющееся базовой единицей мыслительного кода человека, обладающее относительно упорядоченной внутренней структурой, представляющее собой результат познавательной (когнитивной) деятельности личности и общества и несущее комплексную, энциклопедическую информацию об отражаемом предмете или явлении, об интерпретации данной информации общественным сознанием и отношении общественного сознания к данному явлению или предмету».<sup>2</sup>

По словам В.Н.Телии, в концепте наблюдается наивысшая степень семантической категории абстракции, охватывающая конкретизацию частного значения общей семантики.<sup>3</sup>

В.В.Колесов доказывает, что «концепт – зерно первосмысла, семантический “зародыш” слова». Ученый убежден в реальности его существования, как и таких общепринятых терминов, как «фонетика, морфология» и говорит, что концепты «для всякой культуры жизненно необходимы».<sup>4</sup> В.В.Красных отмечает, что концепт – это «предметная» идея, абстрагированная в самом максимальном виде. Вместе с тем известный лингвист указывает на то, что концепт в сознании конкретно репрезентирован и имеет национально-ориентированный маркер, способствующий полновесному раскрытию «всех валентных связей».<sup>5</sup>

На наш взгляд, наиболее полной и последовательной является точка зрения С.А.Аскольдова, высказанная им еще на заре изучения явления. Концепт представляет собой познавательное средство, выступающее в качестве заместителя как реально существующих объектов, так и мыслительных операций.

Однако, независимо от того, какого подхода придерживается лингвист, во всех определениях можно выделить следующие общие черты: концепт неразрывно связан с культурой, зависит от опыта и знаний человека о мире и является частью концептуального поля и сознания человека.

В большинстве случаев концепты выражаются языковыми средствами (лексическими, синтаксическими, текстовыми, речевыми), которые необходимы не столько для их существования в сознании, сколько для трансляции в процессе речевого общения.

В когнитивной лингвистике концептосфера также занимает одно из ключевых позиций. И концепты, и концептосфера – ненаблюдаемые ментальные единицы. Под концептосферой понимается свод знаний, состоящий из концептов, обобщающий различные знания внешнего мира, организующий мыслительные картины, схемы, символы, понятия, фреймеры, сценарии, гештальты, пропозиции, когнитемы, существующий в виде абстрактных значений.

Автором термина «концептосфера» является российский лингвист Д.С.Лихачев, который создал его, отталкиваясь от терминов В.И.Вернадского «биосфера» и «ноосфера». Впервые ученый использовал данное понятие в работе «Концептосфера русского языка», положившей начало формированию теории концептосфер различных языков.

---

<sup>1</sup> Аскольдов С.А. Концепт и слово. Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология, М., 1997, с. 260 – 267.

<sup>2</sup> Попова З.Д., Стернин И.А. Семантико-когнитивный анализ языка. Воронеж, 2006, с. 24.

<sup>3</sup> Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. М., “Наука”, 1986, с. 173.

<sup>4</sup> Колесов В.В. Философия русского слова. СПб., 2002, с. 50 – 51.

<sup>5</sup> Красных В.В. «Свой» среди «чужих»: миф или реальность? М., “Гнозис”, 2003, с. 196.

По определению академика Д.С.Лихачева, концептосфера – это совокупность концептов нации, она образуется через все потенции и комплексы концептов носителей языка.<sup>1</sup> Большое значение имеет пояснительная часть к вышеприведенному теоретическому положению. Так, Д.С. Лихачев отмечает: «Между концептами существует связь, определяемая уровнем культуры человека, его принадлежностью к определенному сообществу людей, его индивидуальностью. Одна концептосфера может сочетаться с другой – скажем, концептосфера русского языка в целом, но в ней концептосфера инженера-практика, а в ней концептосфера семьи, а в ней индивидуальная концептосфера. Каждая из последующих концептосфер одновременно сужает предшествующую, но и расширяет ее».<sup>2</sup>

Лихачев в своем фундаментальном труде обосновал необходимость ввода термина «концептосфера» тем, что она выполняет важную функцию в познании языка и, являясь «концентратом» национальной культуры, находит реализацию во всех группах социума.

Отличительными особенностями концептосферы, с одной стороны, является наличие у данной структуры множественных связей с другими концептосферами, другой стороны, поражает ее цельность, наблюдаемая при взаимодействии ключевых компонентов семантических сфер.

В.В.Красных при исследовании концептосферы использует термин «когнитивное пространство», разграничивая индивидуальное и коллективное когнитивные пространства.<sup>3</sup> З.Д.Попова и И.А.Стернин, развивая идеи Д.С.Лихачева, допускают возможность существования групповых концептосфер, таких как профессиональная, возрастная, гендерная и др.<sup>4</sup> Данные разновидности концептосфер в когнитивной лингвистике еще называют тематическими, поскольку акцент делается при номинации на семантическое поле концептосферы.

Структура концептосферы имеет, определяет взаимодействие концептов, их согласованность в рамках данного объединения. Некоторые ученые (И.К.Миронова, Е.И.Голованова, Г.В. Приходько, А.И.Яценко) признают полевым принцип организации концепта и концептосферы, а именно центрально-периферическую их организацию. Наиболее прототипичные представители относятся к ядерной части концептосферы, а менее значимые, «менее релевантные для носителей языка концепты, отражающие представления не всего общества, а определенной его части или характеризующие менее репрезентативные стороны описываемого фрагмента действительности»<sup>5</sup> – к периферийной. Между центром и периферией концептосферы нет резкой границы.

Другие исследователи (Ю.С.Степанов, М.Ю.Олешков, И.Щеболева) выделяют верхний и нижний уровни концептуализации, структурируя концептосферу иерархически. В зависимости от аксиологической направленности определяется отнесенность концептов к тому или иному уровню.<sup>6</sup> Компромиссная точка зрения предлагается исследователями И.А.Стерниным, О.Н.Телятниковой, З.Д.Поповой и др., которые располагают концепты в двухуровневой плоскости: аксиологической и лингвистической. Подобная иерархически-полевая структура характерна как для концепта, так и для концептосферы.<sup>7</sup> Каждый концепт имеет свою историю (появление, трансформацию, исчезновение), поэтому вполне естественно, что некоторые элементы концептуального пространства уходят на периферию или исчезают, а некоторые выходят на первый план или становятся ядерными.<sup>8</sup> В то же время изменения в концепте и концептосфере могут быть вызваны различными причинами. К внутренним факторам относятся соположение (слияние и упорядочение признаков нового концепта, заимствованных из исходного), достраивание (пере-ключение сознания из одной концептуальной области в другую), развитие (формирование новых признаков, не

<sup>1</sup> Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка. Русская словесность: от теории словесности к структуре текста: антол. Ин-т народов России, под общ. ред. В.П.Нерознака. М., 1997, с. 283.

<sup>2</sup> Лихачев Д.С. Тот же. С. 285.

<sup>3</sup> Красных В.В. С. 61; Коды и эталоны культуры. “Язык, культура, коммуникация”, 2001, № 16, с. 6.

<sup>4</sup> Попова З.Д., Стернин И.А. Язык и национальная картина мира. Воронеж, 2003, с. 98.

<sup>5</sup> Приходько Г.В. Концептосферы ДРУЖБА и FREUNDSCHAFT в русской и немецкой картинах мира. Дис. ...канд. филол. наук, 10.02.20, Новосибирск, 2011, с. 24.

<sup>6</sup> Щеболева И.Б. Функционирование и развитие концептов свобода, власть и вызов в русской языковой картине мира: на материале художественных текстов. Дис. ...канд. филол. наук, 10.02.01, Ростов н/Д, 2008, 193 с.

<sup>7</sup> Кушнир О.Н. Эволюция русской концептосферы на рубеже XX–XXI вв. вопросы динамической лингво-концептологии. Монография, Сыктывкар, 2012, с. 36.

<sup>8</sup> Ефремов В.А. Динамика русской языковой картины мира: вербализация концептуального пространства «мужчина» – «женщина». Автореф. дис. ... д-ра филол. наук, 10.02.01, СПб, 2010, с. 25.

связанных с оригинальными) и интеграция (метафорический и метонимический перенос признаков концепта). Внешними факторами, влияющими на изменение концепта и концептосферы, являются различные виды взаимодействия концепта с окружающей действительностью.

Можно утверждать, что концептосфера всегда шире семантического пространства языка, которое является частью концептосферы и получает свое выражение в системе языковых знаков - слов, фраз, синтаксических структур. Языковая система не способна в полной мере выразить мир мыслей, а знание о концептах, полученное из семантического пространства языка, не дает целостной картины концептосферы. Как мыслительные сущности концептосферы и семантическое пространство языка тесно взаимосвязаны: языковые знаки, входящие в состав концептосферы, дополняются ментальными образами, представляющими структурированные знания людей, их информационную базу. Язык в совокупности с концептуальными представлениями его носителей образует концептосферу, которая развивается в ходе исторического процесса под влиянием ряда факторов и формирует определенную картину мира. Изучение этих факторов, отдельных концептов и концептосферы народов и этносов помогает выявить общие и специфические особенности культуры и тем самым способствует избежать или предотвратить ряд проблем, связанных с непониманием и различиями в мировоззрении представителей разных языковых культур.

Культура в сознании носителей языка также представляет собой сумму разнообразных концептов, воплощенных в его языковой картине мира, в которой вступают в определенные взаимоотношения несколько концептосфер. Несмотря на то, что приоритетное место в миропонимании занимает собственная концептосфера индивидуума, однако и она не выходит за рамки культурно-языковой концептосферы народа. Концептосфера человека является мыслительной базой когнитивной картины мира, носящей упорядоченный, структурированный и системный характер, поэтому место и значение концептосферы в когнитивной картине личности и социума весьма и значима.

Таким образом, обзор научной литературы показал, что в современном языкознании до сих пор отсутствует однозначное понимание термина «концепт». Большинство исследователей склоняются к мнению, что концепт необходимо понимать как многокомпонентное образование, способное хранить и копировать информационные данные. Концептосфера представляет собой совокупность концептов, существующих в виде мыслительных картинок, схем, понятий, фреймов и сценариев.

В настоящее время перспективным является компаративный анализ концептосфер разнотемных языков с целью выявления типологических черт в коллективных концептосферах народов мира, что, на наш взгляд, представляет траекторию дальнейших научных исследований.

Asadov Maqsd Husenovich (O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo‘limi mudiri, filolofiya fanlari doktori; e-mail: [alpbek2010@mail.ru](mailto:alpbek2010@mail.ru))

### ТОЖИКИСТОН ВА ЭРОНДА НАВОИЙШУНОСЛИК

**Аннотация.** Мазкур мақолада XX аср жаҳон адабиётшунослигида навоийшунослик йўналишининг тараққиёти хусусида баҳс юритилган. Хусусан, Тожикистон ва Эронда навоийшунослик масалаларининг ўрганилиши, мавжуд тадқиқотларнинг ўзига хос хусусиятлари, аҳамиятли жиҳатларига эътибор қаратилган. Жаҳон навоийшунослиги ривожининг муҳим тамойиллари ва уларнинг мазмун-моҳияти муайян илмий изланишлар орқали очиб берилган.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается развитие навоинистского направления в мировом литературоведении XX века. В частности, акцентировано внимание на изучении вопросов навоиведения в Таджикистане и Иране, особенностях и важных аспектах существующих исследований. Важные принципы развития мировой науки и их сущность были выявлены в ходе отдельных научных исследований.

**Annotation.** This article discusses the development of the Navoi studies direction in world literature studies of the 20<sup>th</sup> century. In particular, attention is focused on the study of the issues of Navoi studies in Tajikistan and Iran, the specific features and important aspects of existing research. The important principles of the development of world science and their essence have been revealed through certain scientific researches.

**Калим сўзлар:** навоийшунослик, тараққиёт, Навоий, шоир, форс-тожик.

**Ключевые слова:** навоиведение, развитие, Навои, поэт, персидско-таджикский язык.

**Key words:** Navoi studies, development, Navoi, poet, Persian-Tajik.

Буюк мутафаккир шоир Алишер Навоий ижоди кўнгил, руҳ ва тафаккур софлигидан туғилган, ишк ва ирфон, маърифат ва иймон чашмасидан хурлик завқи ила тошиб чикқан фавкулдат гўзал бадият намунасидир. Шахсият ва ижод, қалб ва қиёфанинг ўзаро муштарақлиги мумтоз сўз санъатининг бу ёрқин дурдоналарига бўлган эътиборни вақт ўтган сари сира сусайтирмаган, янада кучайтириб, таъсир доирасининг кенгайишига йўл очган. Нафақат туркий халқлар, балки тожик ва форс халқлари адабиётида Навоийга ўз шоирлари сифатида қараб, даҳо санъаткор асарларининг узок асрлардан буён кизиқиб ўқилишига бир сабаб ҳам, аслида – ана шу. Жумладан, улуғ форс-тожик шоири Абдурахмон Жомий ўзининг «Силсилат уз-заҳаб» асарида қуйидагича ёзади:

*К-ин писар мешавад туро фарзанд,*

*Ё шогирди тусту хешованд?*

*Гуфтам: ў турк асту ман тожик,*

*Лек дорем хеши наздик.*

(Таржимаси: Бу йигит сенга фарзандми, ё сенинг шогирдинг (ёки) қариндошингми? Дедим: у–турк, мен эса тожик, лекин яқин қариндошлигимиз бор).

Дарҳақиқат, Тожикистон ва Эронда навоийшунослик хусусида сўз борар экан, аввало, фикрни ана шу Жомий ва Навоий ўртасидаги ўзаро дўстлик, биродарлик, устоз-шогирдлик ва юксак инсоний фазилатларнинг гўзал ифодасидан бошлаш мантиқан тўғри бўлади. Умуман, тожик ва форс адабиётшунослигида навоийшуносликнинг илк босқичи, шубҳасиз, XV–XIX асрларни ўз ичига олади. Жомийнинг «Баҳористон» ва «Ҳафт авранг»идаги дostonларда, Зайниддин Восифийнинг «Бадоеъ ул-вақоеъ», Давлатшоҳ Самарқандийнинг «Тазкират уш-шуаро», Биноийнинг «Мажмаъ ул-ғаройиб», Ҳотифийнинг «Лайли ва Мажнун», Хондамирнинг «Макорим ул-ахлоқ», «Хулосат ул-ахбор», «Ҳабиб ус-сияр», Абулмўминхоннинг «Том ул-таворих» (XVI аср), Абдуллоҳ Кобулийнинг «Тазкират ут-таворих», Сайид Шариф Роқим Самарқандийнинг «Тарихи касира» (XVII аср), Волаи Доғистонийнинг «Риёз уш-шуаро» (XVIII аср) асарларида Алишер Навоий ҳаёти, фаолияти ҳамда юксак инсоний фазилатлари ҳақида у ёки бу даражада маълумотлар келтирилган.

Буюк мутафаккир шоир ижодини илмий мезонлар асосида тадқиқ ва талқин қилиш эса Тожикистонда собиқ шўролар даврида, аниқроғи, XX асрнинг 20-йилларидан бошланган. Бу ишларнинг бошида етук адиб ва олим Садриддин Айний тургани, айни ҳақиқат. Устоз Айний, дастлаб, «Намунаи адабиёти тожик» («Тожик адабиёти намуналари») китобида Навоийнинг форс-тожикча шеърларидан намуналар келтиради, кейинчалик, «Хамса»ни оммабоп қилиб қисқартириб, шарҳ ва луғатлар қисми билан лотин алифбосида нашр этиради.



Айнийнинг 1948 йилда чоп этилган 200 бетдан иборат «Алишер Навоий» монографияси Навоий ҳаёти, ижтимоий-сиёсий фаолияти ва асарлари таҳлиliga бағишланган йирик тадқиқотлардан биридир. Шунингдек, улуғ шоир таваллудининг 500 йиллик юбилеи муносабати билан профессор Ш.Хусейнзоданинг «Фарҳод ва Ширин» достони», «Навоий ва Жомий»,<sup>1</sup> шоир ва олим А.Дехотийнинг «Ўзбек халқининг шоири ва буюк мутафаккири»,<sup>2</sup> «Икки тил ва икки адабиёт устоди»<sup>3</sup> мақолалари эълон қилинган. Шоир М.Аминзода эса «Фарҳод ва Ширин» достонини тожик тилига маҳорат билан таржима қилган.

XX асрнинг 50–90-йилларида академик Абулғани Мирзоев, профессорлар А.Маниёзов, Р. Ҳодизода, А.Афсаҳзодлар навоийшуносликнинг турли долзарб масалалари бўйича бир қатор тадқиқотлар яратишди. Жумладан, А.Мирзоев «Жомийнинг «Юсуф ва Зулайҳо»сида Алишер Навоий образи» мақоласида<sup>4</sup> Абдурахмон Жомий Юсуф тимсолини яратишда Навоийнинг тафаккур зиёси, маънавий қиёфаси, юксак олижаноб фазилатларидан фойдаланганини, яъни Юсуф образи учун ҳаётининг асос – прототип Навоий бўлганини тарихий маълумотлар билан далиллади. Олимнинг «Фоний ва Ҳофиз» китобида Алишер Навоийнинг Ҳофиз ғазалларига боғлаган айрим форсча татабуълари бадиий жиҳатдан Ҳофизникидан ҳам устун экани ёрқин мисоллар билан асослаб берилган.<sup>5</sup>

Абдулғани Мирзоевнинг “Биной” (1957) монографияси ҳам навоийшуносликда муҳим аҳамият касб этади. Олим мазкур тадқиқоти билан адабиётшуносликда Бинойни Навоийга рақиб қилиб кўрсатган айрим қарашларнинг асоссиз эканини исботлаб берди, Биной Навоийнинг дўсти ва устози Абдурахмон Жомийнинг жиёни бўлиб, Навоий билан ҳамшиша дўстона муносабатда бўлганини тарихий маълумотлар асосида очиб беришга ҳаракат қилди.

Бу даврда улуғ сўз санъаткорининг асарларини форс-тожик тилида яратилган бошқа асарлар билан ўзаро қиёсан ўрганиш борасида ҳам бир қатор ишлар амалга оширилди. Жумладан, У. Каримовнинг “XVI асрда тожик адабиёти” (“Адабиёти тожик дар асри XVI”. 1985) китоби “Мажолис ун-нафоис” ва унинг таржимаси” деб номланган биринчи қисмида “Мажолис ун-нафоис”-нинг 1945 йил Техронда А.Ҳикмат томонидан нашр этирилган Фаҳрий Ҳиротий ва Ҳакимшоҳ Қазвинийга мансуб бўлган форсий тилдаги таржималари ўзаро қиёсан текширилган. Шунингдек, профессор Р.Мусулмонқулов “Навоий арузида форсий сарчашмалар” (“Сарчашмаҳои форсий дар арузи Навоӣ”) мақоласида Навоийнинг “Мезон ул-авзон” рисоласини Шамси Қайс Розий, Носирдин Тусий, Абдурахмон Жомий каби буюк форс-тожик адибларининг асарлари билан таққослаб таҳлил қилади.

Умуман, истиқлолгача бўлган тожик навоийшунослигида улуғ ўзбек шоири асарларини нашр этиш, таржима қилиш ва салафлари ижоди билан ўзаро қиёсан ўрганиш борасида сезиларли ишлар қилинди. Айнан мана шу йилларда тожик адабиётшунослигида Алишер Навоий ижодини ўрганиш, тадқиқ ва таҳлил қилиш борасида ўзига хос бир йўналиш шаклланди, десак хато бўлмайди. Истиқлолдан кейинги давр навоийшунослиги ўзига хос бўлган, яъни, биз юқорида айтиб ўтган қатор ютуқларни умумлаштириб, шулар асосида ривожланди.

Истиқлол даврида Тожикистонда Алишер Навоий ижодининг ўрганилиши борасида профессор Абдусалом Абдуқодиров алоҳида саъй-ҳаракат кўрсатганини таъкидлаш жоиз. А.Абдуқодировнинг илмий ишларида ўзбек-тожик адабий алоқалари, Навоий ва тожик шоирлари ижодидаги анъана ва бадиий маҳорат, буюк мутафаккир ижодий фаолиятидаги тасаввуф масалалари тадқиқ этилган. Унинг “Тасаввуф ва Алишер Навоий ижодиёти (вахдат ул-вужуд проблемаси бўйича)” деб номланган докторлик диссертацияси ҳам Навоий ижодидаги тасаввуфнинг муҳим бир масаласи таҳлиliga бағишланган бўлиб, унда Аллоҳ, олам ва одамнинг ягоналигини ифодалаган вахдат ул-вужуд (борлиқнинг яхлитлиги) таълимоти таҳлили ишқ, фарқу фано ва комил инсон масалалари билан уйғун тарзда талқин этилган. Маълумки, шўро босқинидан кейин дин ўрнини даҳрийлик эгаллаб, тасаввуфга яқинлашиш таъқиқлангач, диний, тасаввуфий асарларни ўрганиш тўхтатилганди. Бу ноҳақлик ва зўравонликка мустақиллик чек қўйди. Истиқлол билан баб-баравар на-

<sup>1</sup> Хусейнзода Ш. Ҳабдаҳ мақола. Душанбе, “Хумо”, 2007, с. 252 – 276.

<sup>2</sup> Дехотий А. Шоир ва мутафаккири бузурги ўзбек. “Мақтаби совети”, 1948, № 5, с. 19.

<sup>3</sup> Дехотий А. Устоди ду забон ва ду адабиёт. “Тожикистони сурх”, 15 майи соли, 1948.

<sup>4</sup> Мирзоев А. Сездэх мақола. Душанбе, “Ирфон”, 1977, с. 266 – 273.

<sup>5</sup> Мирзоев А. Фоний ва Ҳофиз. Душанбе, “Ирфон”, 1966, с. 184.

войишуносликда янгича қарашлар бўй кўрсатди. Бу борада профессор А.Абдуқодиров тадқиқотлари ҳам муҳим аҳамият касб этганини эътироф этиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Профессор А.Абдуқодиров Навоий ҳаёти ва ижодиётига доир «Навоий ва тасаввуф» (Хўжанд, 1994), «Навоий ва накшбандийлик» (Хўжанд, 1994), «Навоий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти» (Хўжанд, 1995), «Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида ваҳдат ул-вужуд талқини» (Хўжанд, 1996), «Тасаввуф ва Алишер Навоий ижодиёти» (Хўжанд, 2005), «Амир Алишер Навоий ва тожик мумтоз шоирлари» (Хўжанд, 2007), «Амир Алишер Навоий» (Хўжанд, 2013), «Мавлоно Абдурахмон Жомий ва Амир Алишер Навоий» (Хўжанд, 2014) номли 8 та китоб ва 100 га яқин мақола эълон қилди. Хусусан, олимнинг “Амир Алишер Навоий ва тожик мумтоз шоирлари” (Хўжанд, 2007), “Мавлоно Абдурахмон Жомий ва Амир Алишер Навоий” (Хўжанд, 2014) монографиялари эътиборга молик. Дастлабки китобда форс-тожик мумтоз шоирларидан Низомий Ганжавий, Жалолиддин Румий, Амир Хусрав Дехлавий, Ҳофиз Шерозий ва Абдурахмон Жомий анъаналари илк марта қиёсий йўсинда таҳлил этилган бўлса, кейинги асарда икки улуғ шоирнинг ҳаёти ва ижоди, ўзаро адабий ҳамкорлиги чуқур илмий таҳлил қилинганлиги билан икки халқ адабий алоқалари йўлида амалга оширилган муҳим ишлар сирасига киради.

Олимнинг раҳбарлигида бевосита Алишер Навоий ҳаёти ва ижоди тадқиқига бағишланган бир қатор номзодлик диссертациялари ҳам муваффақиятли ҳимоя қилинди.

М.Суёновнинг «Ҳофиз Шерозий ва Алишер Навоий» (2004), О.Абдуллаевнинг «Амир Хусрав Дехлавий ва Амир Алишер Навоий» (2015) мавзуларидаги номзодлик диссертациялари фикри-мизнинг ёрқин исботидир. А.Абдуқодиров раҳбарлигида амалга оширилган яна бир тадқиқот адабиётшунос Б.Файзуллоевнинг “Ўзбек шеърлятида татаббу тарихи ва маҳорат масалалари” (2002) деб номланган номзодлик диссертациясидир. Унда Навоийга эргашиб ижод қилган йигирмага яқин мумтоз шоирларнинг татаббунавислик анъанаси илмий жиҳатдан ўрганилган. Б.Файзуллоевнинг “Навоийнинг адабий-эстетик қарашлари (татаббу асосида)”, “Фоний татаббуларида Жомий анъаналари”, “Эмас осон бу майдон ичра турмоқ...”, «Машраб ижодида Навоийга издошлик» каби қатор илмий ва илмий-оммабоп мақолалари ҳам бугунги кун навоийшунослигида алоҳида ўринга эга.

Истиклол йилларида Тожикистонда Алишер Навоий асарларининг нашр ишлари ҳам давом эттирилди. Масалан, таниқли тожик олими Али Муҳаммадий Хуросоний Навоийнинг “Девони Фоний” асарини қисқартириб, «Девони форсий» номи билан чоп эттирди.

Бу даврда Навоий асарлари тили бўйича ҳам илмий тадқиқотлар олиб борилди. Профессор Ҳ.Мамадовнинг Алишер Навоий асарларининг тил хусусиятлари ҳақида эълон қилган 44 та мақоласи ва “Маҳбуб ул-қулуб” транслитерацияси” (1995) китоби, «Маҳбуб ул-қулуб» луғати» (Хўжанд, 2003), филология фанлари доктори А.Каримовнинг 36 та мақоласи ва «Фарҳод ва Ширин» достонининг изоҳли луғати» (Тошкент, 2004) бу ишларнинг кўлами қанчалик кенг эканини кўрсатиб турибди. Адабиётшунос Ҳомиджон Мамадов академик Алибек Рустамов раҳбарлигида “Маҳбуб ул-қулуб”ни лингвистик тамойиллар асосида тадқиқ қилиб, “Навоий бадиий прозасининг лексик ва стилистик хусусиятлари” (1969) мавзусидаги номзодлик диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилган. Эътиборлиси, номзодлик ишининг бир боби Навоий насридаги бадиий санъатларнинг лексик-услубий хусусиятларини ўрганишга бағишланган бўлиб, унда мутафаккир шоирнинг бадиий маҳорат сирларини кўрсатишга алоҳида эътибор берилган.

Эронда ҳам навоийшунослик ўзига хос анъаналарга эга. Эрон навоийшунос олимлари ва улуғ шоир асарларининг таржимонлари сифатида Неъмат Лимойи, Меҳдий Қосимий, Муҳаммад Нахжавоний, Меҳди Фарҳоний Мунфарид, Али Асғар Ҳикмат, Рукниддин Хумоюн Фаррух, Баҳман Акбарий ва Хусайн Муҳаммад Сиддиқларни санаб кўрсатиш мумкин. Улар орасида, айниқса, Хусайн Муҳаммад Сиддиқнинг хизматлари алоҳида эътирофга лойиқ. Чунки олим Мирзо Меҳдихон Астрободийнинг “Санглох” луғатини бошқа нусхалари билан солиштириб, айрим ўринларни таҳрирлаб нашрга тайёрлаган. Маълумки, ушбу луғат Алишер Навоий шеърларидаги тушунилиши қийин сўзларни ўз ичига олади.<sup>1</sup> Доктор Сиддиқ Алишер Навоийнинг Турхон Ганжавий томонидан форс тилига ўгирилган “Муҳокамат ул-луғатайн” асарини нашрга тайёрлаб, 2009–2010 йилларда Табриздаги “Ахтар” нашриётида чоп эттирган. Олим ўзи Навоийнинг бошқа бир асари – “Мезон ул-авзон”ни форс тилига таржима қилиб, 2013 йилда Техрондаги “Такдерахт” нашриётида нашр қилдирган. Китоб мундарижасидан сўнг олим туркча матнлар ўқилишини осонлаштирадиган

<sup>1</sup> Ўзбекистонда хорижий тиллар. Илмий-методик электрон журнал//journal.fledu.uz №2/2019, 40-бет.

“транскрипция” – жадвал ҳам тузган. Хусайн Муҳаммад Сиддик бу китобнинг туркийча сўзларига айрим ўзгартиришлар киритади ва форсча ҳамда арабча сўзларни, иложи борича, аслига тўғри ёзишга ҳаракат қилади. Шундан сўнг Навоийнинг ҳаёти, фаолияти, ижод йўли хусусида, Хурсонда қурдирган бинолари ва хизматлари ҳақида батафсил маълумот беради. Навоий ва Жомийнинг дўстлигига алоҳида тўхталиб, уларнинг бир-бирини мадҳ қилган шеърларидан парчалар келтиради.

2019 йилда Хусайн Муҳаммад Сиддикнинг «Алишер Навоийнинг форс тилидаги хатлари» номли китоби чоп этилди. Бу асар Эронда Алишер Навоий ижодига бағишланган форс тилидаги илк мустақил тадқиқот экани билан навоийшунослик фанида муҳим аҳамиятга лойиқдир. Унда улуғ ўзбек мутафаккирининг форсий хатлари, уларнинг мазмун-моҳияти ва бадиий хусусиятлари таҳлил қилинган.

Кўринадики, Тожистон ва Эронда навоийшунослик, даставвал, тарихий, адабий манбаларда улуғ шоир фаолиятнинг ёрқин жиҳатларини эътироф этиш билан бошланган бўлса, 20-асрнинг дастлабки йилларидан илмий мезонлар асосида ўрганила бошланди. Ўтган давр мобайнида буюк мутафаккир шоир асарлари тожик ва форс тилларига бир неча марта таржима қилинди, нашр ишлари амалга оширилди. Алишер Навоий ҳаёти ва ижоди тадқиқ этилган қатор илмий, илмий-оммабоп асарлар яратилди, номзодлик ва докторлик диссертациялари химоя қилинди. Узоқ йиллар мобайнида улуғ мутафаккир таваллудига бағишланган халқаро анжуманлар Тожикистон ва Эронда ҳам анъанавий тарзда ўтказилиб келади. Уларда ўртага ташланаётган янги маълумотлар, таҳлил ва талқинлар навоийшунослик фанининг кейинги тараққиёти учун ҳам хизмат қилиши, шубҳасиз. Умуман, Тожикистон ва Эронда Алишер Навоий ҳаёти ва ижодининг тадқиқ этилишини ўрганиш адабиётшуносликнинг келгусидаги масалаларидан биридир.

**Rasulmuhamedova Dilfuza (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti; Rasulmuhamedova,@mail.ru)**  
**JAHON ADABYOTIDA ROMAN JANRINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI**

***Аннотация.** Adabiyotshunoslikda roman janri o‘ziga xos tarixga ega bo‘lgan janr hisoblanib, uning kelib chiqishi milodning XII–XIII asrlarida roman tillarida so‘zlashuvchi xalqlar orasida yuzaga kelgan. “Roman tillari” tushunchasi “Rim (Roma)ga tegishli” degan ma’noni anglatib, lotin tili asosida shakllangan ispan, italyan, moldova, portugal, rumin, flamand, fransuz va boshqa tillarni o‘z tarkibiga oladi. Ilk romanlar paydo bo‘lgan davrda Ovro‘podagi deyarli barcha davlatlar uchun lotin tili rasmiy va badiiy til sanalardi. Aholining asosiy qismi esa lotin tilini bilmas, binobarin, adabiyotdan bebahra edi. Qahramon (qahramonlar) hayotining inqirozli, nostandart davridagi hayoti va rivojlanishi haqida batafsil hikoya bo‘lib, u hikoyadan hajmi, mazmunining murakkabligi va tasvirlangan hodisalarni kengroq qamrab olishi bilan ajralib turadi.*

***Аннотация.** В литературоведении жанр романа считается жанром со своей историей, а зародился он у народов, говорящих на романских языках, в XII–XIII веках нашей эры. Понятие «романские языки» означает «принадлежащие Риму» и включает в себя испанский, итальянский, молдавский, португальский, румынский, фламандский, французский и другие языки, образованные на основе латыни. Во времена первых романов латынь была официальным и художественным языком почти всех европейских стран. Основная часть населения не знала латинского языка и, следовательно, не знала литературы. Это подробный рассказ о жизни и развитии героя (героев) в кризисный, нестандартный период жизни, отличающийся от повести объемом, сложностью содержания и более широким охватом изображаемых событий.*

***Annotation.** In literary criticism, the genre of the novel is considered a genre with its own history, and its origin arose among the peoples speaking Romance languages in the 12<sup>th</sup>-13<sup>th</sup> centuries AD. The concept of “Roman languages” means “belonging to Rome” and includes Spanish, Italian, Moldavian, Portuguese, Romanian, Flemish, French and other languages formed on the basis of Latin. At the time of the first novels, Latin was the official and artistic language of almost all European countries. The main part of the population did not know the Latin language and, therefore, did not know literature. This is a detailed story about the life and development of the hero (heroes) in a crisis, non-standard period of life, which differs from the story in volume, complexity of content and a wider coverage of the events depicted.*

***Kalit so‘zlar:** roman janri, antik roman, sujet, bosh qahramon, epos, xarakter, mahorat, tabiyat.*

***Ключевые слова:** жанр романа, старинный роман, сюжет, главный герой, эпос, персонаж, мастерство, природа.*

**Key words:** *genre of the novel, old novel, plot, protagonist, epic, character, craftsmanship, nature.*

Roman (fransuz roman tilidan, asli, roman tillaridagi asar) adabiyotshunoslikning epik janr asosiy shaklidir. Qanday hajmda bo‘lishidan qat’iy nazar, roman har doim o‘quvchiga bir epizod yoki yorqin lahzani emas, balki ajralmas badiiy makonda sodir bo‘lgan voqeani tasvirlaydi.<sup>1</sup>

Epik she’riyatdan farqli o‘laroq, romanda shaxsni murakkab hayot (ijtimoiy, tarixiy, psixologik va hokazo) omillar bilan uyg‘unlikda tasvirlashga alohida e’tibor qaratilgan. Yozuvchi o‘z qahramonlarining sof maishiy muammolarini tasvirlashda turli poetik vositalardan foydalanadi.

Roman janrining yaratilish tarixi “antik roman” paydo bo‘lgan (Dafnis va Xloya Longa, Satirikon Petroniya, Metamorfozlar yoki Apuleyning oltin eshagi) va o‘rta asrlarda, ya’ni, “ritsarlik romanlari” (Tristan va Izolda, XII asr, Parsifal Volfram fon Eschenbax, 1198–1210, Artur Tomas Malori o‘limi, 1469) davrlarga borib taqaladi.

Roman atamasining kelib chiqishi bo‘lsa o‘rta asrlarga borib taqaladi va asar qaysi tilda yozilganiga qarab belgilanadi. O‘rta asrlar G‘arbiy Yevropa yozuvining eng keng tarqalgan tili qadimgi rimliklarning adabiy tili bo‘lmish lotin tili edi. Eramizning XII–XIII asrlarida lotin tilida yozilgan, asosan, jamiyatning imtiyozli qatlamlari orasida mavjud bo‘lgan pyesalar, qissalar, hikoyalar bilan bir qatorda, romanlar ham roman tillarida yozila boshlandi, ular, asosan, jamiyatning lotin tilini bilmaydigan demokratik qatlamlari vakillari tomonidan talab qilinardi. Bu asarlar conte roman-roman shaklidagi hikoya, qissa deb atala boshlandi. Aholining asosiy qismi esa lotin tilini bilmas, binobarin, adabiyotdan bebahra edi. Ana shunday sharoitda, aholining ruhoniylar va aslzodalardan keyingi uchinchi va son jihatidan eng katta qatlami bo‘lmish ish odamlari, kosib-hunarmandlarga tushunarli bo‘lgan tildagi, ularning didiga muvofiq keladigan asarlarga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Roman ana shu ehtiyoj natijasi o‘laroq yuzaga keldi. Ilk paydo bo‘lgan chog‘ida roman tillarining birida yaratilgan asar roman sanalib, “roman tilidagi qissa yoki hikoya” ma’nosida conte roman deyilgan.<sup>2</sup>

Keyinchalik, ushbu jihat mustaqil ma’noga ega bo‘ldi. Shunday qilib, hikoya qiluvchi asarlarning maxsus nomi paydo bo‘ldi. Roman har qanday tilda asar deb atala boshlandi, uning xarakterli jihati katta hajmliligi, predmetining ayrim xususiyatlari, kompozitsion qurilishi, sujet rivoji va h.k.. Hozirgi davrda, ayniqsa, XVIII – XIX asrlarda roman yetakchi janrga aylandi.

“Qadim eposda bosh qahramon voqea edi, romanda esa tasvir predmeti “odatdagi prozaik hayotning hodisalari” deya ta’kidlagan mashhur rus olimi Belinskiy.<sup>3</sup> Roman janri mustaqil janr sifatida ancha kech, XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida rivojlandi. U nisbatan kech paydo bo‘lganligi sababli yangi davrning o‘rta sinf mafkurasi, diniy va axloqiy masalalarni hal qilish istagi, fan va falsafaga qiziqish, turli xil fanlarga bo‘lgan ishtiyoq, tadqiqotlar, kashfiyotlar kabi o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq o‘zlashtira oldi. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev ta’biricha: “Roman millat badiiy tafakkurining taraqqiyot darajasini namoyon etadi”.<sup>4</sup>

Roman diniy adabiyotning harakatsiz muqim taraflaridan tortib, ritsarlik romanlari va eposidan ko‘chalar va katta yo‘llarning oldindan aytib bo‘lmaydigan tarixiga yuzlanib, ritsarning sarson-sargardonligidan ko‘ra hikoya qilish uchun ko‘proq mos deb topdi. Turli xil qaroqchilar va daydilar boshidan kechirgan sarguzasht hikoyalari XVI asrning o‘rtalarida paydo bo‘la boshladi, harbiy jasorat haqidagi hikoyalardan farqli o‘laroq, ulardagi voqealar sarguzasht bilan bog‘liq bo‘lib, dunyo haqidagi ijtimoiy bilimlarga qiziqish uyg‘otdi.

Ushbu yangi yondashuvga misol tariqasida ispaniyalik muallifning Lazarillo-de Tormes hayoti (1554) kambag‘al yigitning mashaqqatli hayotini aks ettiruvchi anonim asari bo‘ldi. Angliyada turli xil ijtimoiy turlarga ega dinamik hikoyaga bo‘lgan talab Neshning “Baxtsiz sayohatchi” yoki “Jek Uiltonning hayoti” (1594) tomonidan yaratildi.

Roman o‘zining tarixi mobaynida qahramonlarni tasvirlash yo‘sini hamda inson shaxsigacha yondashuv maromiga ko‘ra, asosan, ochiq yoki ekstensiv va yopiq yoxud intensiv singari ikki turga bo‘lindi. Servantesning mashhur “Don Kixot”idan boshlangan ochiq romanlarda tasvirlanayotgan obrazlarning taqdiri, xatti-harakatlari, faoliyati ijtimoiy turmush bilan aloqadorlikda, hayotiy determinizmga muvofiq sabab-oqibat bog‘liqligida tasvir etiladi. Ochiq romanlarda odamga, asosan, ijtimoiy mavjudot deb qaralib,

<sup>1</sup> [https://www.krugosvet.ru/enc/kultura\\_i\\_obrazovanie/literatura/ROMAN.html](https://www.krugosvet.ru/enc/kultura_i_obrazovanie/literatura/ROMAN.html)

<sup>2</sup> Yo‘ldoshev Q. Roman va bugungi o‘zbek romanchiligi. “Sharq yulduzi”, 2011, 4-son, 72-bet.

<sup>3</sup> Belinskiy V. Tanlangan asarlar. 175-bet.

<sup>4</sup> Yo‘ldoshev Q. Shu manba. 72-bet.

uning taqdirida jamiyat tartiblari, ijtimoiy asoslar hal qiluvchi mavqeda bo'lishi ko'rsatilgan.<sup>1</sup> Romaning eng afzallik tarafi unda muallif nutqidan keng foydalanish mumkinligi. Unda voqea, yani, sujetning rivojlanishini ma'lum paytda "to'xtatib qo'yib", muallif o'z mulohazalarini keng izhor eta oladi, personajlarning ichki dunyosini batafsil tasvirlay oladi, tabiyat manzaralarini chizadi. Roman o'z rivojlanishini Uyg'onish davrida boshlaydi. Tadqiqotchi M. M. Baxtinning fikriga ko'ra, aynan u "yangi davr butun adabiyotining rivojlanish jarayonining boshida turgan" janrga aylandi. Demak, roman aynan realizmda keng qo'llaniladi.<sup>2</sup>

Romandagi hikoya shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida uning taqdiriga qaratilgan bo'lib, u obrazning mavzusi bo'lib, o'z-o'zidan qiziqarli bo'ladi. Belinskiy ta'rifiga ko'ra, roman "shaxsiy hayot dostoni"dir.

Roman epik nasr janri sifatida asosiy hisoblanadi. Romanning bir nechta o'ziga xos xususiyatlari bor, ammo ular kamdan-kam hollarda realistik romanda bir vaqtning o'zida paydo bo'ladi:

1. Tasvirlangan hodisalarning ko'pligi.
2. Bir nechta hikoyalarning murakkab o'zaro bog'liqligi.
3. Fazoviy panoramaning kengligi (joylashuvi).
4. Ta'riflangan hodisalarning uzoq davom etishi.
5. Dinamik sujet.
6. Belgilar va vaziyatlarning tipikligi va hayotiyliigi.
7. Psixologik tahlil.
8. Til uslubi.

Roman janri hayot hodisalarini keng qamrab oladi; roman sujeti ko'p satrlarga ega bo'lib, ma'lum bir zamon qatlamini qamrab oladi. Romanlar ko'p hollarda muhim ijtimoiy-siyosiy masalalarga ba-g'ishlanadi. Romanda kompozitsion tuzilish, tematik yoki janr cheklovlari mavjud emas. Bu qahramon hayotidagi alohida muhim davrni ham, uning butun hayot yo'lini ham tasvirlashi mumkin. Tarixiy roman, epik roman, psixologik roman va axloqiy roman kabi bir qancha roman turlari mavjud.

Roman masalasi haqida fikr yuritar ekan, Belinskiy bu janrni ikki jihatdan, ikki nisbatda ko'rib chiqadi: birinchidan, qadimiy dostonga muvofiq, ikkinchidan, zamonaviy adabiyotning boshqa nasriy janrlari, masalan, qissa, hikoya, she'r va ocherk bilan bog'liq holda. Tanqidchi romanni qissa va hikoya bilan qiyoslab, hayot tasviridagi kenglik, miqyos, hajm, hikoyaga eng xilma-xil materialni kiritish imkoniyati, shuningdek, tipik personajlarning sodiqligi, takrorlanishiga e'tibor qaratadi.

Belinskiyning ta'kidlashicha, roman uchun hayot insonda paydo bo'ladi, inson qalbining tasavvufiyliigi, inson ruhi, inson taqdiri, uning odamlar hayotiga bo'lgan barcha munosabati chuqur mavzudir.<sup>3</sup> Shunday qilib, romanning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirishda Belinskiy janrlarni ijtimoiy-tarixiy talqin qilish yo'lidan boradi.

Romanning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar tahliliga murojaat qiladigan bo'lsak, roman, boshqa janrlar singari, tipologik hodisa ekanligidan kelib chiqish kerak, ya'ni ba'zi mazmunli xususiyatlarda takrorlanadi. Bunday takrorlashning manbasi nima bo'lishi mumkin? Hayotning ayrim qirralarining takrorlanishi va o'xshashligi. Shuning uchun romanning paydo bo'lishi va rivojlanishini tushuntiruvchi tarixiy zamin va omillarni ko'rib chiqish, o'rganilayotgan janrning tipologik xususiyatlarini ko'rsatadigan va keltirib chiqaradigan hayotning o'xshash qirralarini kashf etish va ochib berish uchun amalga oshirilishi kerak.

Tarixiy sharoitlarni to'g'ridan to'g'ri tahlil qilishga kelsak, ushbu janr haqida to'htalganimizda, unga nisbatan uning taqdiri qandaydir tarzda shaxs taqdiri bilan bog'liqligi ma'lum. Bu haqida jahonga mashhur adabiyotshunoslar, tanqidchilar alohida to'xtalib o'tishgan. Gegel, Belinskiy, Veselovskiy va boshqalar shular jumlasidandir. Shuning uchun roman taqdiri nima bilan bog'liq, degan savolga javob berishga harakat qilinib, shaxsning shakllanishi qanday sharoitlarda sodir bo'lishining mohiyatini tushunmasdan turib tahlil qilish mumkin emas. Mazmun o'zagi, umumiy mansubligi, miqdoriy aniqligi bilan bir qatorda, uning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda, romanning o'ziga xosligini belgilovchi xususiyatlar guruhi ham mavjud. Bular, aslida, strukturaviy xususiyatlardir. V.Kojinov roman shaklining xarak-

<sup>1</sup> Yo'ldoshev Q. Shu manba. 74-bet.

<sup>2</sup> <http://profil.adu.by/mod/book/view.php?id=1713>

<sup>3</sup> Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. 1-jild, M., 1953, 265-bet.

terologik xususiyatlari sifatida – sujet tuzilmasining to‘liqsizligi, yaxlitligi, ochiqdigi, harakat rivojlanishida ekstensivlikning ustunligida namoyon bo‘ladi.<sup>1</sup>

Bunday keng xususiyatlar guruhini o‘z ichiga olgan yagona turdagi roman tuzilmasini topish mumkin emas. Romanning kompozitsiyon qurilishi eng katta ahamiyatga ega. Bu barqarorlik romanning konsentrik sujet deb ataladigan gravitatsiyasida yaqqol namoyon bo‘ladi, uning qurilishida harakatning bir yoki ikki bosh qahramon taqdiri atrofida to‘planishiga, uning rivojlanishidagi sabab-oqibat ketma-ketligiga e’tibor qaratiladi, ya’ni, epizodlarning o‘zgarishi va eng muhimi, ko‘proq yoki kamroq ifodalangan tanbehning mavjudligi.<sup>2</sup> Bunday qurilish, ayniqsa, denouementning mavjudligi, mazmunli roman xususiyatlariga mos keladi. Romanchi o‘z qahramonini tez-tez keltiradigan axloqiy, g‘oyaviy, falsafiy natija hissi kompozitsion jihatdan tashqi ko‘rinadigan cheklanganlik, romandagi harakatning to‘liqligida ifodaladi. Shu nuqtayi nazardan, Stendal, Tolstoy, Sholoxov va boshqalar romanlariga e’tibor qaratish lozim.

Shu bilan birga, shuni yodda tutish kerakki, bu belgilar darhol rivojlanmaydi, lekin asta-sekin shakllanadi va faqat roman mavjudligining keyingi bosqichlarida ko‘proq yoki kamroq aniqlik bilan namoyon bo‘ladi. Ko‘pincha, ularni faqat analitik yondashuv orqali ajratish mumkin. Shunday ekan, janr nazariyotchilari oldida turgan navbatdagi vazifa roman deb atalishi mumkin bo‘lgan asarlar qaysi tarixiy sharoitda, qayerda va qachon shakllana boshlaganligi, bu tip qanday evolutsiyani boshidan kechirganligi, uning qaysi bosqichlari eng ahamiyatli va muhim ekanligini ko‘rsatishdan iboratdir.

**Абдувахобова Махина Азатовна (ЎзМУ мустақил изланувчиси, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент; email: [makhina.abduvahobova@gmail.com](mailto:makhina.abduvahobova@gmail.com))**  
**ФОЛЬКЛОР МАТНЛАРИДА ЭРКАК ВА АЁЛ ҚАҲРАМОНЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС АРХЕТИПЛАРИ**

**Аннотация.** *Фольклор матнлари қаҳрамонлар схематик ва стереотипли бўлиб, “эркак ва аёллик” ўртасидаги фарқлар жуда ҳам яққол намоён бўлади. Маълум бир маданиятда қабул қилинган гендер нормалари ва стандартлари тўғрисидаги маълумотлар фольклор матнларида ўз аксини топади, жинслар ўртасидаги тафовутларни яратиб жараёнинг асосини ташкил қилувчи гендер стереотипларини фольклор матнлари шифрланган, кодланган шаклда узатади, деб тахмин қилиш мантиқан тўғри. Ушбу мақолада турли жинс вакиллари томонидан амалга оширилган функционал хатти-ҳаракатлар архетиплар тарзда тадқиқ этилади.*

**Аннотация.** *Персонажи фольклорных текстов схематичны и шаблонны, а различия между «мужественностью и женственностью» весьма очевидны. Информация о гендерных нормах и стандартах, принятых в определенной культуре, отражена в фольклорных текстах, логично предположить, что фольклорные тексты передают в зашифрованном, закодированном виде гендерные стереотипы, которые являются основой процесса создания различий между полами. В данной статье в качестве архетипов исследуются функциональные модели поведения представителей разных полов.*

**Annotation.** *The characters of folklore texts are schematic and stereotyped, and the differences between “masculinity and femininity” are very evident. Information about gender norms and standards accepted in a certain culture is reflected in folklore texts, it is logical to assume that folklore texts transmit gender stereotypes in an encrypted, coded form, which are the basis of the process of creating differences between the sexes. In this article, functional behaviors performed by representatives of different genders are explored as archetypes.*

**Калим сўзлар:** фольклор, архетип, гендер роллари, маросим қўшиқлари, дискурс.

**Ключевые слова:** фольклор, архетип, гендерные роли, обрядовые песни, дискурс.

**Key words:** folklore, archetype, gender roles, ritual songs, discourse.

**Қириш.** Кўпинча, инсон ҳаётининг дастлабки йилларида энг ўқиладиган ва долзарб бўлган фольклор матнлари болалик давридаги адабий таълим асосини ташкил қилади. Шу билан бир қаторда, бугунги кунда халқларнинг рефлексив бўлмаган хатти-ҳаракатлар, маълум бўйсунилиши керак бўлган маданий стереотипларнинг ташувчилари айнан фольклор матнлари эканлиги аксиомадир. Ушбу аксиомадан кўра, эртак сюжет ва мотивларини кўплаб тадқиқотларда ўз аксини топади, фольклор матнлари, биринчидан, ўз шакллари билан уларни талқин қилишга ундайди, ик-

<sup>1</sup> [https://superinf.ru/view\\_helpstud.php?id=227](https://superinf.ru/view_helpstud.php?id=227)

<sup>2</sup> Солижонов Й. Адабиёт хиёбони. “Фарғона”, 2020, 133-бет.

кинчидан, улар кўпқирраликнинг ёрқин намунасидир. Муайян маданиятнинг деярли ҳар бир вакилига таниш бўлган сюжет ва хулқ-атвор тузилмалари, ушбу сюжетларни яхши билиш ва тушуниш ҳаёлини яратади ва ниҳоят, учинчидан, фольклор матнлари шахснинг келажакдаги дунёқарабини белгилайдиган ва хулқ-атвор намуналарини белгиловчи кўрсатмалар тўпламини намойиш этади.<sup>1</sup>

Шахснинг шаклланишида фольклор матнларининг ролини Э.Берн ҳам таъкидлаб, у эртакларда бола, кейинчалик, ўз ҳаёт йўлиги белгилаб берадиган қадриятлар, меъёрлар ва ҳаётий ролларни англашини таъкидлайди.<sup>2</sup>

5–7 ёшдан бошлаб бола эртакда ўзига мос сюжет ва қаҳрамонни кидира бошлайди, шундай қилиб, қуйидаги элементларни ўз ичига олган ўзига хос ҳаёт сценарийсининг “скелети” шаклланади:

1. Бола ўхшашга интиладиган қаҳрамон.
2. Болага доим салбий ўрнак бўладиган ёвуз қаҳрамон.
3. Сюжет – бир фигурадан иккинчисига ўтиш имконини берувчи воқеалар модели.
4. Саргузаштга туртки бўлган белгилар рўйхати.
5. Ғазабланиш, хафа бўлиш, ўзини айбдор ҳис қилиш ёки ғалаба қозонишни белгилайдиган ахлоқий меъёрлар тўплами.<sup>3</sup>

Мактабгача ёшдаги болада характери билан идентификация қилиш механизмлари мавжуд бўлиб, улар унга нафақат қаҳрамоннинг позицияси ва нуқтаи назарини эгаллашга, вазиятни баҳолашга, унга қаҳрамон кўзлари билан қарашга, балки ҳаракат қилишга ҳам имкон беради. Шундай қилиб, фольклор матнлари фарзанд идентификацияси жараёнидаги асосий манбалардан бири бўлиб, болага субъективликни эгаллаш учун асос бўлиб хизмат қилади.<sup>4</sup>

**Тадқиқот методологияси.** М.Киммелнинг фикрича, фольклор сюжетларининг тасвирлари боланинг турли жинс вакиллари ҳақидаги шахсий ғояларни шакллантиришнинг муҳим омилига айланади. Хуллас, фольклор матнларида гавдаланадиган эркаклик ва аёллик архетиплари гендер стереотипларининг асосини ташкил қилади. Архетип (юнонча “archetypos – prototip”) – бадий универсал хусусиятга эга бўлган ҳар қандай умумий ва фундаментал мотив ва образларнинг ифодаланиши. У моҳиятан образ (ёки мотив)нинг ўзи эмас, балки унинг схемаси бўлиб, ўтмиш ва ҳозирги, универсал ва хусусий, бўлиб ўтган ёки эҳтимоли бўладиган универсаллик сифатига эга, у, асосан, бадий (архаик маросим ва афсоналардан тортиб, энг сўнгги санъат асарларигача), шунинг инсоннинг кундалик ақлий фаолиятида (тушлари ва фантазиясида) ўзини намоен қилади.<sup>5</sup>

Маросим қўшиқларидаги турмушдан, адолатсизликдан норозилик, аччиқ қисматдан нолиш вафот этганларга бериладиган йиғи-йўқловга ўхшаб кетади. Бу хотин-қизларнинг тақдири билан боғлиқдир, албатта. Кундошлик, кўнгил ғашлиги бахтга етаклайдиган, хурсандликка чорловчи, хижронга сабаб бўлган зўравонликларни акс эттирадиган қўшиқлар бор:

*Мен бу ерга келмас эрдим,  
Ёр келтирди мени.  
Ўтга тушсам куймас эрдим,  
Ёр куйдирди мени.*

*Ғўзапоянинг ўтини,  
Бўрқсиб чиқар тутуни.  
Ҳеч бандага солмасин,  
Кундошликнинг ўтини (296 э)*

*Том айланиб сув тутдим,  
Ёр келар деб кўз тутдим.*

<sup>1</sup> Люсин В.Н. Особость архетипов женского-девичьего успеха в русской сказке. Общественные науки и современность. 2000, № 4, с. 88 – 89.

<sup>2</sup> Берн Э. Игры, в которые играют люди. Психология человеческих взаимоотношений. Люди, которые играют в игры. Психология человеческой судьбы. СПб., “Лениздат”, 2008, с. 142 – 145.

<sup>3</sup> Берн Ш. Гендерная психология. М., 2004, с. 320.

<sup>4</sup> Бездидко А.В. Книга като психологически компонент в изграждането на образа на света на субекта на действието. “Светът на психологията”, 2003, № 4, с. 133 – 138.

<sup>5</sup> Киммел М. Гендерное общество. Пер с англ. О.А.Оберемко, И.Н.Гартаковской. М., “РОССПЭН”, 2006, с. 60.

*Кундошликнинг дастидан,  
Коса-коса қон ютдим (297 э).*

Қуйидаги қўшиқни эса аёллар бешик бошида айтадилар. Гўё бу билан она ўзига насиб бўлмаган бахтга боласи эришишини тилаб, уни аллалагандай бўлади.

*Қизил гул гунча-ю гунча,  
Юракда дарду гам анча.  
Келиб ёнимга ўлтиргин,  
Менинг баҳрим очилгунча.*

Лирик қаҳрамон аёлнинг вазифаси катта ва бениҳоя. Шу билан бирга, турмуш ва табиат деталларининг аҳамияти зўрдир.

*Дарду алам келибдир,  
Менинг бечора бошимга.  
Сойда ўрдак сузадир  
Кўздан оққан ёшимга.  
Ўрдаклар сузади.*

“Кўздан оққан ёшга ўрдаклар сузади” гипербола қўшиққа алоҳида руҳ беради. Бу ўша турмуш, ўша айтувчи, тингловчиларга мосдир. Унинг мазмуни меҳнат ва ижтимоий турмуш тарзи билан боғлангандир.

*Сен қачон келдинг эшикка,  
Мен билиб оҳ урмадим,  
Чиққали хилват тополмай,  
Ўлтириб қон йиғладим.*

*Боришингни боғда кўрдим,  
Келишингни кўчада.  
Арзи ҳол айтай десам,  
Учрамадинг тор кўчада.*

Ушбу шеърнинг лирик қаҳрамони эрки кўлида бўлмаган, севгани билан очиқ гаплашиши ва кўриниши мумкин бўлмаган бир мунтазир маъшуқанинг руҳий ҳолати жуда содда ва аниқ ифодаланган. Умуман олганда, шуни ишонч билан айтиш мумкинки, хўрланган аёл архетипи аёллар фольклор дискурсига хос.

Шуни таъкидлаш керакки, иккала жинсга мансуб фольклор дискурсида сиёсий (танқидий) муҳит ҳам тилга олинади.

*Самарқанддан чиққан от ем талашур,  
Ёрим сизга алвон кўйлак ярашур,  
Алвон кўйлак енги тор, ечилмайди,  
Подшо золим, орзулар ушалмайди.*

**Таҳлил ва натижалар.** Подшонинг золимлиги, адолатсизлиги, орзуга эришишга йўл қўймаслиги қўшиққа хос ҳаққонийлик, самимийлик билан тараннум этилган.

Айнан таҳлиллардан “подшоҳ – золим” архетипини тадқиқ этиш мумкин:

*...Тапара-тапар от келди.  
От устида ким келди?  
–Халқни қийноққа солган  
Амир Олимхон келди,  
Қовогидан қор ёққан  
Даюс золим хон келди,  
Катта бошин силкитиб,  
Кўзи тўла қон келди (213 э).*

Фольклор матнларида аниқланган эркаклар архетиплари қуйидагидан иборат:

Турли нарраторлар фольклор матнларида “Ўғил фарзанд-ор/пахлавон/ватанпарвар-ҳарбий/насл давомчиси” архетиплари фаол:

Paul Jones  
Lesley Nelson

*It's of an American frigate the "Richard" by name  
Mounted forty-four guns, and from New York she came.*



*A-cruising down the channel of Old England's fame  
With a noble commander, Paul Jones was his name.*

*We had not cruised long before two sails we espies  
A large forty-four and a twenty likewise,  
Some fifty bright shipping, well loaded with store,  
And the convoy stood in for the old Yorkshire shore.*

Шуни таъкидлаш керакки, инглиз лингвофольклор маданиятида иккала жинс дискурсида ху-  
дуд жуғрофиясини дарҳол англаш мумкин. Буюк Британия сув ресурслари ўнга яқин дарё ва кўл-  
лардан иборат бўлганлиги боис ҳарбий флотларда хизмат шарафли ҳисобланади.

*Алла, болам, алла-ё,  
Кўрар кўзим, алла.  
Йиғиларинг бор бўлсин,  
Шу ўғлим шунқор бўлсин.  
Яхши-ёмон кунларда  
Билгинг номус-ор бўлсин.  
Алла, болам, алла-ё, алла!*

*Кечалари мижджа қоқмай чиқаман, алла-ё, алла,  
Кўкрак сутим билан сени боқаман, алла-ё, алла.  
Катта бўлиб зўр паҳлавон бўларсан, алла-ё, алла,  
Сен туфайли ишқимга ўт ёқарман, алла-ё, алла.*

*Кўз тутар халқ, бутун ўлка, алла,  
Келажасим, орзуим деб, алла.  
Ўсиб, бурка уни гулга, алла,  
Катта бўлгач, шу қарзим деб, алла (39).*

“Ўғил фарзанд – ватанпарвар, ҳарбий” архетипи фольклор дискурси эркак нарраторлар ре-  
пертуарида учради.

*Майда-майда мойбосар,  
От ўрнини той босар,  
Отадан ўғил қолса,  
Ўлмаса ўрнини босар (191а).*

“**Фарзанд – арзанда, зурёд, она бахти/боласиз уй мазор**” архетипи, асосан, ўзбек лингво-  
маданиятида оила давомийлигини таянч омили ҳисобланади. Ушбу тушунча шарқ маданиятининг  
патриархал оламига қатъий равишда илдиз отиб кетган, бундан аёлниг оиладаги бахти давомий-  
лиги фарзанд билан деган миллий-маданий стереотип ҳам юзага келади.

*Ота айтадики:  
“Белгинамнинг қуввати”.  
Онаси айтадики:  
“Ўйгинамнинг сараси”.  
Акаси айтадики:  
“Тилла пичогим дастаси”,  
Тоғаси айтадики:  
“Адрас тўнимнинг киссаси”,  
Опаси айтадики:  
“Юраккинамнинг қуввати”,  
Аммаси айтадики:  
“Юраккинамнинг қуввати”,  
Аммаси айтадики:  
“Эшиккинамнинг тамбаси”,  
Холаси айтадики:  
“Рўмолгинамнинг нусхаси”,  
Амакиси айтадики:  
“Жигаримнинг боласи” (54).*

Юқоридаги банддан ўзбек фольклор маданиятида фарзандни бешикка солиш ва бешик ас-  
боблари келтирилганлигидан ўзбек анъана ва урф-одатларидан бахраманд бўлиш мумкин.

*Эркалайман мен ҳар маҳал,  
Аллалайман саҳар вақти.  
Биринг қандим, биринг асал.  
Она бахти – бола бахти, алла, алла-ё, алла.*

*Алла, алла, алла жон,  
Алла жоним, меҳрибон.  
Ҳозир ишга қарай-о, алла,  
Ишларни тамом қилай-о, алла,  
Кейин қиламиз-о, ялла.  
Алла-ё, алла.  
Алла, алла, алла жон,  
Алла жоним, меҳрибоним.  
Сабр қил, жоним қурбон,  
Тугайди ишим шу он.*

*Фарзандлик уйга ёғар раҳмат, алла,  
Фарзандсизлар чекар заҳмат, алла.  
Фарзандликнинг уйин кўрсанг- гулистон, алла,  
Бефарзанднинг уйин кўрсанг- чўлистон, алла (44).*

Шарқ фольклор маданиятидаги “арзанда/ўқишга ихлосманд қиз” архетипи ҳамда ғарб мада-  
ниятидаги “фаол/амазонка қиз” архетиплари эркак нарраторлар нуқтаи назардан аёлларга ўтмишда  
кенг имкониятлар берилганидан далолат беради. “Хотин/қизлар – қурбон” архетипи ўзида феми-  
нин фольклор лингвомаданиятини акс эттириб юқоридаги ҳар иккала маскулин архетипларга зид  
келади.

*Отамнинг шўх қизиман-  
Отам мени ўқитди,  
Қирқ ҳунарга ўргатди,  
Рўмолчалар тўқитди.  
Рўмолчани бераман,  
Ўзим ўқишга кетаман.  
Алла-ё, алла,  
Оппоқ қизим, алла.  
Қаймоқ қизим, алла,  
Гўзал қизим, алла.  
Асал қизим, алла.  
Оқча қизим, алла,  
Зогча қизим, алла.  
Санам қизим, алла.  
Тамтам қизим, алла,  
Эрка қизим, алла.  
Серка қизим, алла,  
Чаман қизим, алла.  
Саман қизим, алла.  
Шакар қизим, алла,  
Дакар қизим, алла.  
Ботмон қизим, алла,  
Шодмон қизим, алла.*

*Алла қилсин, овунчоғим, алла,*  
Юқоридаги тўртликдан ўзбек маданиятига хос бўлган гендер муносабатларни тартибга со-  
лувчи совчилик анъаналарига гувоҳи бўлиш мумкин.

“Фаол/амазонка қиз” архетипи патриархал фольклор маданиятига хосдир.

*Captain Wedderburn's Courtship*  
*Ron Clarke*  
*Then said the pretty lady,*  
*I pray tell me your name.*  
*My name is Captain Wedderburn,*  
*A soldier of the king.*  
*Though your father and all his men were here,*  
*I would take you from them all,*  
*I would take you to my own bed*  
*And lay you next the wall.*

*Босма тиккан ботир қиз,*  
*Жамалай тиккан чевар қиз.*  
*Санам тиккан сардор қиз,*  
*Илма тиккан илгор қиз (314).*

“Хотин/қизлар – қурбон” архетипи инглиз ва ўзбек фольклор матнларининг аёл нарраторлари репертуарига хосдир. Аёл нарраторлар кўпроқ хокисор ва камситилган аёлларни қаҳрамон қилиб бўрттиришга мойилроқ, деган хулосага келиш мумкин.

*Lucy Wan*  
*John Renfro Davis*

*Fair Lucy she sits at her father's door,*  
*A-weeping and making moan,*  
*And by there came her brother dear:*  
*'What ails thee, Lucy Wan?'*

*'I ail, and I ail, dear brother,' she said,*  
*I'll tell you the reason why;*  
*There is a child between my two sides,*  
*Between you, dear Billy, and I.'*

*And he has drawn his good broad sword,*  
*That hung down by his knee,*  
*And he has cutted off Lucy Wan's head.*  
*And her fair body in three.*

*'Oh, I have cutted off my greyhound's head,*  
*And I pray you pardon me.'*  
*'Oh, this is not the blood of our greyhound,*  
*But the blood of our Lucy.'*

*Булбул сахар сайрайдир,*  
*Модасидан айрилиб.*  
*Қиз болалар йиғлайдир,*  
*Суйганидан айрилиб (33 а).*

*Қизил гул ўймоқ-ўймоқ,*  
*Ким экан ёрга тўймоқ.*  
*Қайси номарднинг иши,*  
*Қиз олиб жувон қўймоқ (49).*

**Хулоса.** Фольклор матнларида реаллик омили у қадар юқори бўлмаса-да, у фактик элементлари ҳисобига яққол кўзга ташланади. Шунинг учун ҳам фольклор матнларининг баъзилари стандарт тарихий хроникаларни ўз ичига олса, қолганлари эса шакли ўзгарган қайта ҳикоя қилинган материаллар кўринишида намоён бўлади. Умуман олганда, фольклор дискурси тарихий нарративлар сифатида ўтмишнинг субъектив тасвири ҳисобланади. Айнан улар нарраторларининг услуби-

дан инсон қайси замон ва маконга тегишли эканлиги ҳамда қандай тарихий воқеаларни кўздан кечириётганлиги, қандай ижтимоий муҳит билан ҳамнафас бўлаётганлигини англаб олиш мумкин. Айнан нарраторлар гендер омилига қараб, қаҳрамонлар ва уларнинг феъл-атворини танлаш, ўзгартириш хусусиятига эгадир.

**Samandarova Nigora Erkinovna (UrDU mustaqil tadqiqotchisi)**  
**ADABIY QAHRAMON XARAKTERINING EKSTREMAL VAZIYAT-HOLATLARDA**  
**OCHILISHI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada taniqli romannavis Erkin Samandarning “Quyun izlari yoxud Ogahiy” tarixiy-biografik romani adabiy qahramonlar xarakterining ekstremal vaziyat-holatlarda ochilishi nuqtayi nazaridan O.Yoqubov tarixiy romanlari bilan qiyosiy tadqiq etilgan.*

***Аннотация.** В данной статье историко-биографический роман известного романиста Эркина Самандара «Следы сильного сворачиваемого ветра или Агахи» сравнивается с историческими романами О.Якубова с точки зрения раскрытия характера литературных героев в экстремальных ситуациях.*

***Annotation.** In this article, the historical and biographical novel of the famous novelist Erkin Samandar “Traces of a strong folding wind or Agahi” is compared with the historical novels of O. Yakubov in terms of revealing the character of literary heroes in extreme situations.*

***Kalit soʻzlar:** tarixiy-biografik roman, adabiy qahramon, xarakter, ruhiy tahlil, mavzu, gʻoya, kompozision yaxlitlik, poetik mahorat, ijodiy prinsip.*

***Ключевые слова:** историко-биографический роман, литературный герой, характер, духовный анализ, тема, идея, композиционная целостность, поэтическое мастерство, творческий принцип.*

***Key words:** historical and biographical novel, literary hero, character, spiritual analysis, theme, idea, compositional integrity, poetic skill, creative principle.*

Taniqli shoir, dramaturg va nosir Erkin Samandar (Samandarov Erkin, 1935) oʻzining “Daryosini yoʻqotgan qirgʻoq” (1988), “Tangri qudugʻi” (1994), “Sulton Jaloliddin” (2007) romanlari bilan ilmiy-adabiy jamoatchilik eʼtiborini tortdi. Shunday boʻlsa-da, adibning “Quyun izlari yoxud Ogahiy” nomli tarixiy romani nisbatan kam tahlil va tadqiq etilgan.<sup>1</sup> Bizningcha, asarning genetik asaoslari, mavzu va gʻoyasi, obrazlar olami, kompozision yaxlitligi, ijodkor poetik mahorati singari turli rakurslardan oʻrganish mumkin.

Maʼlumki, romanda chor Rossiyasi bosqinining kelib chiqish sabablari, Turkiston, Xorazm va Buxoro hukmdorlari-yu ziyolilarining quyidagi ikki xil tipining hayoti, aqidalari, surati-yu siyrati, qismati qalamga olingan:

a) jaholatga qarshi maʼrifatni qurol qilgan toj-u taxt sohibi Muhammad Rahimxon II (Feruz), amir-zoda Abdumalik toʻra, Muhammadrizo Ogahiy;

b) Turkiston harbiy okrugi qoʻshinlari qoʻmondoni, Turkiston general-gubernatori general-adyutant Konstantin Petrovich fon Kaufman, amir Muzaffar, Shomurod inoq, Malangxon.

Roman markazida Muhammadrizo Ogahiy obrazi turadi. Muallif “Jaloliddin Manguberdi” (“Yot hujra”) dramasi hamda “Sulton Jaloliddin” romanida Jaloliddin, “Ajodlar qilichi” dramasi va “Tangri qudugʻi” romanida Arabmuhammadxon, Abulgʻozi Bahodirxon singari tarixiy shaxslar hayotining oʻtkir dramatismga boy davrlarini qalamga olib, obrazlarni chegara vaziyat – ekstremal holatlarda ochish tajribasiga sodiq qoldi. Yaxlit ijodida amal qilib keluvchi bu ijodiy prinsip asosida bu gal ham ulugʻ maʼrifatparvar shoir, tarjimon, muarrix va davlat arbobi Ogahiy (1809–1874) hayotini yaxlit emas, balki soʻnggi kunlarini bayon qildi. Qahramon hayotining eng murakkab davri, xususan, soʻnggi kunlarini asos qilib olish tajribasi Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov (1926–2009)ning “Ulugʻbek xazinasi” (1974) romanidagi ulugʻ oʻzbek astronomi Ulugʻbek, uning isteʼdodli shogirdi, mashhur alloma Ali Qushchi, Qalandar Qarnoqiy singari ulugʻvor siymolar va ular qarshisida turuvchi kuchlar mutaassiblar taʼsiriga tushib qolgan, tabiatan shubhakor shahzoda Abdullatif oʻrtasidagi ziddiyatlarni koʻrsatilishda, yaʼni, ziyolilarni nurli siymolar hamda jaholat botqogʻiga botganlar tarzida keskin qutblantirishida koʻzga tashlangan edi.

<sup>1</sup> Erkin Samandar. Quyun izlari yoxud Ogahiy. Tarixiy roman. “Mumtoz soʻz”, Toshkent, 2009, 252-bet.

Ma'lumki, Odil Yoqubov "Ko'hna dunyo" (1982) tarixiy romanida yurtimizning ikki buyuk alomati Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino hayoti va fojiali taqdiri bilan Sulton Mahmud G'aznaviy siyosini zidlantirib tasvirladi. To'g'ri, adib asarda ikki buyuk olimning bolaligi, ular yashagan ijtimoiy muhit, yoshlik yillari, ilk sevgisidan tortib, daho ijodkorga aylanguncha bo'lgan davrlarni ham jonli va rangli bo'yoqlarda tasvirlashni unutmagan. Ularning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan buyuk ishlarini umumlashtirishga harakat qilgan. Ammo ushbu tarixiy romanning leytmotivi har ikki ulug' ajdodimiz fojiali taqdiri tasvirlari bilan bog'liqlikda yorqin ochiladi. Binobarin, O.Yoqubov o'z ijodiy prinsipiga sodiq qolgan.

Odil Yoqubov uzoq o'tmishning eng shiddatli va keskin davri voqealariga murojaat qildi. U real voqealar, ya'ni, moddiy dunyo ne'matlariga ortiqcha maftun bo'lmay, ilm-fan saltanati taqdiri va istiqboli bilan bog'liq nurli lavhalar izladi. Ma'rifat xazinasini avaylab, asrashga davat etuvchi ibratli poetik xulosalar chiqardi. Bizningcha, yozuvchi romanda tarixda qachonlardir bo'lib o'tgan voqealarni qayd etishga emas, balki tarixiy shaxslarning ma'naviy-ruhiy olamini ochishga e'tibor bergani uchun ham "Ulug'bek xazinasini" romani umumturkiy romanchilikning muhim yutug'i bo'la oldi.

Tahlikalar girdobida qolgan Sulton Mahmud G'aznaviy ham muayyan jihatlari bilan shahzoda Abdullatifga yaqin turadi. Ammo "Ko'hna dunyo" O.Yoqubov ijodining o'ziga xos bosqichini tashkil qiladi. Adib G'aznaviyning ruhiyatida mehr-shafqat va jaholat kurashi davom etayotgan inson sifatida keskin dramaturgiya girdobida tasvirladi. Uning ruhiy olami va qalb dramalarini teran ochishga erishdi. Taqdiri azalning ne-ne donishmandlar ham yechishi mahol bo'lgan ajab jumboqlaridan hayrat tuygan yozuvchi ruhiy holatlarga xos sirlilik, jumboqlilik, hatto tushunarsizlik holatlarini o'ta shiddat bilan o'zgartirib bordi. Bu kayfiyat-holatni tarixiy romanning yetakchi pafosi darajasiga ko'tardi.

Ustozlar sabog'ini ijodiy o'zlashtirgan va o'z ijodining tadrijiy takomiliga sodiq qolgan E.Samandarning "Quyun izlari yoxud Ogahiy" tarixiy romani arxitektonik jihatdan muqaddima, ikkita katta qism, ular tarkibida keluvchi o'n ikkita bob va so'ng (ya'ni xotima)dan tarkib topgan. Asar 1873-yilning ko'klamiga xos noxush voqealari bilan boshlanib, 1874-yilning qahraton qishi tasviri bilan tugaydi. Romandagi bahor va qish tasvirlari bahoriy gullari so'ldirilgan, navosoz bulbullari o'ldirilgan qadrdon yurtning achchiq qismati va inson umri fasllarini ham tamsil qilib keladi.

Yozuvchi romanda mustamlakachi zolimlar toptagan, obrazli qilib aytganda, "Kelgindi qarg'azog'lar cho'qilagan va hamon titkilab turgan zaminda ozod so'z qanot qoqa olgaymi?!<sup>1</sup> degan masalani badiiy tahlil va tadqiq obyektiga aylantiradi. E.Samandar kitobxonni hayotda "zori noshod" o'tgan ulug' shoir Ogahiyning el-yurt ustiga yog'ilgan "g'am tosh"lari zalvarini ko'tarishga bardoshi yetarmikin? degan savol girdobiga tashlaydi:

*Boshimg'a yog'g'on g'am toshi yuzdin biricha bo'lmag'ay,  
Gardun agar ming besutun yog'dursa Farhod ustina...  
Ne jur'at ila Ogahiy ochg'ay og'iz so'z dergakim,  
Yuz xayli g'am qilmish hujum ul zor-u noshod ustina.*

Adib butun roman davomida bot-bot Ogahiy g'azallari o'qilgan onlar va ular kuyga solinib qo'shiq qilib kuylangan damlarni tasvirlashga urinadi. Shu orqali shoir bitiklari ko'ngli o'ksik xalq dardiga darmon bo'lgani, uning ko'zini ochish, uyg'otish va jipslashtirishga xizmat qilganini uqdirishga intiladi hamda buning uddasidan chiqadi. Kitobxonning diliga ham iliq bir harorat olib kiradi.

*Fano qasrig'a yetkur, Ogahiy, jahd aylabon o'zni,  
Agar istar esang bo'lmoq jahon anduhidin ma'mun.*

Ammo turmush musht, deganlaridek, adib real hayot ritmi bu she'ru qo'shiqlardan balandroq pardalarda yangraganini ham ro'yi-rost ko'rsatadi. O'tkir ijtimoiylik, ijtimoiy davr va shu muhitda yashayotgan insonning psixologik dramalarini, qismat yetovidagi intellektual shaxsni nozik badiiy tadqiq etish romanning xarakterli fazilatidir.

Romanchilikda ham, dramaturgiyada ham muvaffaqiyatli qalam tebratib kelayotgan E.Samandar bu adabiy turlarga xos fazilatlarini uyg'unlashtirishga intiladi. Tafakkuriy va taxayyuliy sintez natijasida bu gal u yangi bir shakl – roman-drama yaratishga muvaffaq bo'ladi.

Bu jarayonda adibga, bir jihatdan, fojialarga to'la hayot materialining o'zi, ikkinchidan, romaniy tafakkur kengliklari yaqindan yordam beradi. Muallif romanda goh dramaturg, goh shoir, gohida roman-navis sifatida bo'y ko'rsatadi. Muhimi, bunday serqirralik va serjilolik epik ko'lamdorlikka asoslangan romanning o'qishli bo'lishini ta'minlab, kitobxonni ham ergashtiradi.

<sup>1</sup> Erkin Samandar. O'sha joyda. 246-bet.

Har bir adabiy qahramonning haqiqiy xarakteri uning oqilona mantiqiy qaror qabul qilish haqida o'ylashga-da yetarli vaqti bo'lmagan chegara vaziyatlarda, ya'ni ekstremal holatlarda to'liq namoyon bo'ladi. Chunki aynan shu vaziyat-holatda u o'zining ko'ngil tilaklari tanloviga, vijdon amriga ergashadi. Shu tariqa o'zining ichki "men"ligini to'laqonli namoyon etib, shaxslik maqomiga ega bo'ladi.

"Quyuni izlari yoxud Ogahiy" romaniga Muhammadrizo Ogahiyning Mavlon bobo qabristoniga qo'yilishi voqeasi va mahzun navolar bilan so'nggi nuqta qo'yiladi. Moddiy dunyo g'am-anduhidan forig' bo'lgan shoirning g'azallaridan keltirilgan uzundilar asarga shoir Ogahiyning vidolarini olib kiradi. Adib marhum shoir janobi Haqning lutf-marhamatiga nozil bo'lganiga ishonch tuyg'ularini mustahkamlashga erishadi. Bu hol ulug' mutafakkir Ogahiyning dono o'git-nasihatlari, da'vat-chorlovlari kelajak nasllarga ham yetib borishiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Shuning uchun ham E.Samandar bu ulug' mujdani Ogahiy bog'i uzra uchib, charx urayotgan qushlar zimmasiga yuklaydi. Zotan, bu hol yozuvchi xayoloti va tasavvurlari nainki ulug' shoirning ruh qushlari, balki uning millionlab shogirdi muxlislari ko'ngil qushlari bo'lib ham parvozga shaylangan, degan xulosaga kelishga imkon beradi.

**Норов Отажон (филология фанлари бўйича фалсафа доктори, КДУ тадқиқотчиси)  
ИСЛОМИЙ ЛИРИКАДА МОДЕРН ИФОДА ЎЗИГА ХОСЛИГИ**

***Аннотация.** Мазкур мақолада модернизм шеърятнинг шаклий-услубий, гоҳвий-бадий хусусиятлари ҳақида сўз юритилади. Жумладан, XX аср интиҳоси ва янги аср остонасида юзага келган бадий тафаккурдаги мисли кўрилмаган ўзгаришлар фалсафий қамров даражасини тубдан ислоҳ қилиш имконини берди. Натижада шеър ва шоирлик улкан масала, масъулият эканлиги борасида атрофлича мушоҳада юритилди.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются формально-методологические, идейно-художественные особенности модернизмской поэзии. В частности, беспрецедентные изменения в художественном мышлении, произошедшие в конце XX века и накануне нового века, позволили коренным образом реформировать уровень философского освещения. В результате было подробно отмечено, что поэзия и быть поэтом – это огромная проблема, ответственность.*

***Annotation.** This article deals with the formal-methodological, ideological-literary features of Islamic poetry. In particular, the unprecedented changes in artistic thinking that took place at the end of the twentieth century and on the eve of the new century made it possible to radically reform the level of philosophical coverage. As a result, it was observed in detail that poetry and being a poet is a huge issue and a responsibility.*

***Калим сўзлар:** модернизм, сўз, руҳ, поэтика, моддият, фалсафа, структура, ахлоқ, композиция, кечинма.*

***Ключевые слова:** модернизм, слово, дух, поэтика, материальность, философия, структура, этика, композиция, опыт.*

***Key words:** word, spirit, poetry, materialism, philosophy, structure, ethics, composition, experience.*

Модерн шеърларда исломий ғояларнинг акс этиши ҳамма замонларда бир хил кечадиган лирик жараён эмас. У даврларга қараб турланиб, тусланиб турган. Бугун эркин ва фаровон ҳаёт кечираётган эканмиз, унда шеърятнинг жуда катта бир ўзгаришлари юзага келиши, табиий. Чунки инсон Ҳақни таниши шарт! Ҳақни танишнинг турли усуллари бор. Буларнинг энг таъсирчани исломий лирикадир. Оят ва ҳадисларни ихчам шеърга сингдириб тушунтиришга киришиш керак. Айни шу тушунча бугун ҳам ҳар биримизга йўл кўрсатмоқда. Ният ва амал бир бўлган тақдирда ҳақиқий Аллоҳни куйлаш ва унинг измида юриш тушунилади. Бугун-чи? Унинг моҳиятида нималар бор: биз бугун дунёга юз очдик. Ҳар бир соҳада ривожланиш босқичларини бошлаб юбордик. Шу босидан ҳам ҳар биримиз айни шу жараёнга интилиб қадам ташлаш пайида умр кечирмоқда. Нафс ва унинг изидан эргашиб кетаётган одамзод насли алалоқибатда гуноҳ қилишга мойил бўлиб бормоқда. Исломий ғоялар қайсидир маънода одамлар орасида қийин ва тушунилиши оғир бўлган диний илмларни шеърӣ йўсинда тушунтиришга ҳаракат қилмоқда. Шоирлар XX аср бошида кўрган-кечирганларини бизнинг бугунги авлод ҳали тасаввурига ҳам сиғдира олгани йўқ. Тасаввур эса ўзгарувчан нарса.

Тарих – фактларга таянади. Адабиёт эса фантазия, бадий тўқима маҳсули. Бироқ бадий тўқиманинг моҳиятида эса асл ижод соғинчи туради. Фромм тўғри тушунтирган. Масалан, гуноҳ қилиб, мен "ҳақман" дейишнинг ўзи катта гуноҳ эканлигини тушунтирмоқда. Шунинг учун Чўлпон,

Рауф Парфи, Шавкат Раҳмон сингари шоирлар ижоди жуда қийин вазиятлардаги тузум кайфиятини ифода қилади. Туркигўй шоир Шавкат Раҳмон ижоди бўйича сўз борганда шуни қайд этиш лозимки, ўша даврнинг 70-йилларида кириб келган авлод ичида ниҳоятда тўғрисўз, тўғригўй ва иймонли, эътиқодли шахс эди у. Шунинг учун ҳам унга атрофидагилар кўп азият етказди. Собик тузумга бўйсунмаган шоир ҳеч қачон эркидан, ўз озодлигидан кечмайди. У ҳамиша ўз табиатига содиқ қолади.

*Кимдир от етаклаб ўтар азонда,  
узилар кўчанинг саҳарги туши.  
тўсатдан от кишнаб юборган онда  
шошилиб эшикни очди бир киши.  
Тонгда то етаклаб ўтиб борар ким,  
қоп-қора оловдай ловиллаб ёллар.  
кампирлар аланглаб қулоқ солди жим,  
бир сесканиб кетди нуроний чоллар.<sup>1</sup>*

Мазкур шеърнинг моҳиятига назар ташлайдиган бўлсак, шоир ўтган асрнинг одамзод бошига солган ташвишларини тасвирлайди. “Кимнинг от” етаклаши бу ерда муҳим эмас. Муҳими, ўша кўрқув ва ҳадикнинг нима эканлигини кўрсатишдир. Кампирлар билан чолларнинг сесканиб кетиши – нимадан дарак беради? Мана шу манзара, рамз ва метафора шоирга ўтган аср бошларида катагон қурбонларини ёдимизга солади. Айни бир пайтда, шоир мустабид тузум ваҳимасидан боболару момолар ҳали ҳам кўрқув исканжасида яшаётганини изоҳлайди. Мана шу кўрқув бизга отабоболаримиздан ўтиб келаётган бир иллат эканини изоҳлайди. Шоирни ўйлашга ундаган асл масала ҳам, манзара ҳам шу эди. Демак, шоир ҳар бир шеърда ўзига хос адабий бир ходисани тушунтирганки, ҳар бир шоирнинг ботинида улғайган ҳақиқатлар ўзига тан бир концепцияни илгари суради. Шавкат Раҳмон ҳалол яшади. Унинг ҳар бир шеърда миллатни севиш, ислом ғояларини маҳкам ушлаш, отабоболаримизга муносиб авлод бўлиш масаласи қабаиб кўринади. Шуни қайд этиш жоизки, шоир ҳар бир шеърда туркийларнинг тақдири, орзу-умидларини амалга оширишга қаратилган ўткир фалсафасини ифодалайди. Бундай ифодада шоир ҳеч қачон ўзини кам кўрмайди. Кучли ва мағрур қалб эгаси давр ва тузум иллатларидан баланд чиқа олган шоирни қадрлашини жуда яхши билади.

Айрим даврнинг мадҳиябоз шоирлари Шавкат Раҳмоннинг жаҳлини чиқарарди. У ҳамиша ҳалоллик ва поклик туғини ушлаб шеър битди. Мана шу изтироблар шоирни тезда улғайтирди. Бунинг натижасида шоир ҳеч қачон ранжиш билмади. Йўқотганлари ва топганларининг ҳаммасини адабиёт бағрига жойлади.

Анъанавий йўлда поэтик кашфиётлар қилишнинг ҳам чексиз имкониятлари бор. Бу йўналишда ижод қилиб, бадий муъжизалар яратилаётгани ҳам тўғри. Уларни илмий таҳлил этиш, ютуқ ва камчиликлар илдизини топишга ҳеч ким қарши ҳам эмас. Тан олишни истамай, ҳақиқатдан кўз юмган билан янги ўзбек шеърятининг йўлини тўсиб бўлмайди. Бугунги миллий шеърят янгиланди, ингичкалашди, нозиклашди, ҳаётнинг нусхаси бўлиб, қарорларни қофияга солиш, одамларга қандай яшашни ўргатиш, ҳаётини йўриқномалар бериш жўнлигидан қутулди. Минглаб йиллик поэтик тажрибани ўзида мужассамлаштирган ўзбек шеърятини бугун янги йўлдан шиддат билан кетмоқда.

Анъанавий йўлда ижод қилаётган шоирларга модерн йўналишда ёзаётганларни қарама-қарши қўйиш, модерн поэзияни қабул этаётган танқидчиларга анъанавий йўсиндаги шеърят муаммоларини текшираётганларни қарши қўйиб тезлаш эса сувни лойқалатиб, балиқ тутишдир.<sup>2</sup> Айни пайтда, бадий шакл, хусусан, шеърини манзумалар тадрижи ўзининг катта бир йўлини босиб ўтаркан, шоирларнинг асл ва ҳаққоний сўзлари бугунгача етиб келгани сир эмас. Мана шу жараёнда ҳар бир ижодкор учун катта бир илгарилаш рўй беради. Ҳаётда ҳамма адашади, бироқ шеър шахсиятга боғлиқ бўлса, у ёлғон гапирмайди. Чўлпон, Рауф Парфи, Шавкат Раҳмон айни шундай катта ижодкорлар эди. Уларнинг мана шу изланишлари XX аср адабиётида исломий ғояларнинг модерна талқини тўғрисида тўлақонли тасаввур беришга имкон беради. Шоирлар ҳар бир чиқишларида Ўзбекистонни улуғлайди, уни хотирлайди. Тузум иллатларидан муҳофаза қилишни мақсад

<sup>1</sup> Раҳмон Ш. Абодият оралаб. Т., “Муҳаррир”, 2012, 93-бет.

<sup>2</sup> Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. Т., “Янги аср авлоди”, 2006, 152-бет.

қилади. Лекин уларга бу тузум ҳеч имкон бермайди. Бундай пайтда санъат модернлашади. Санъат рамз ва метафорага шўнғийди.

“Шавкат Раҳмон, аслида, фасоҳатли лирик шоир эди. Аммо умрининг охириги йилларида у бутун истеъдод ва иқтидорини сиёсий шеърларига қаради. Рўй бераётган воқеа-ҳодисалар, аслида, гўзаллик ва нафосатнинг теран шайдоси бўлган шоир тилини аччиқ ва шафқатсиз мажозлар тилига айлантиради. Киноя, гротеск. Ошкора норазилик, ўрни-ўрни билан аёвсиз ҳақорат шоир шеърларининг ижтимоий таъсирини ошириб юборди. Шоирнинг пиёз пўстидек юпқа китобларини одамлар қўлма-қўл қилиб ўқий бошладилар. Кутилмаган ташбихлар ижодкори саксонинчи йилларда энг оммавий шоирларимиздан бирига айлангирди. Баёнчилик ва қуруқ сўзамоллик шеърляти табиатига батомом ёт Шавкат Раҳмон китоблари, ҳарчанд оғир, мураккаб ва воқеабандликдан иборат бўлсақ-да, халқимизнинг мингбари бўлиб қолди”<sup>1</sup>.

Асқар Маҳкамнинг ушбу фикр-мулоҳазалари ҳақиқат эди. Шавкат Раҳмон умр бўйи адабиётга садоқат билан хизмат қилди. У 70-йиллар авлоди ичида энг бир кўзга кўринган, ҳақиқатпараст, чин инсоний фазилатлари билан шуҳрат қозонганди. Унинг шеърларида миллат вижоди акс этганди. Шуни қайд этиш лозимки, исломий лирикада модерн талқинлар изчиллиги 70-йиллардан кейин яна-да кучайди. Бу ёқда миллий истиқлолга ташналик, унинг ҳақиқатларини акс эттириш, ўзбек тилининг нуфузини ошириш масаласи кўндаланг бўлиб турган бир паллада шоирлардан катта ғояларни тарғиб қилишни ҳаётнинг ўзи кўндаланг савол қилиб қўймоқда эди. Шундай экан, Ш.Раҳмоннинг ҳар бир сатрида миллий истиқлолга ташналик сезилиб турар, туркий миллатни нуфузини кўтаришга ошиқар, адолатли бир жамият тузиш истагида яшашга интиларди. Шундай экан, унинг ҳар бир асарида туркий халқлар адабиётининг тарихи ёритилиб, мустабид тузум кирдикорлари аёвсиз танқид қилинарди. Шавкат Раҳмон ҳеч қачон бирога қарам бўлишликни истамас эди. Унинг сатрларида ана шу мезон ярқ этиб турарди. Масалан, “Туркийлар” шеърини олиб кўрганимизда ҳам “Ёвга терс қараган мусулмон эмас!” дея беш маротаба такрори мусулмоннинг фарзларини бажариб яшашга даъват сифатида янграрди. Айниқса, собиқ иттифоқ даврида бундай шеърларни ёзиш учун шоирдан катта жасорат талаб қилинарди. Шавкат Раҳмон буларнинг барчасидан ўтиб, уддасидан чиқа олганди. Ҳеч иккиланишсиз айтиш мумкинки, XX ўзбек шеърлятида 5 та шоир бўлса, сўзсиз, биттаси Шавкат Раҳмон бўлиб қолди. У ҳамиша асрлароша муаммони куйлаган, разолатдан қочиш, адолатли миллатни тарбиялш бош мезон бўлиб қолганди. Ана шу мезонлар ила бир умр қисқа вақт ичида юзлаб дилбар шеърлар ёзиб қолдирди. Бундай пайтда ҳамма ўзини пана-панага олиб қочади. Лекин Шавкат Раҳмон ҳеч қачон бундай йўл тутмади:

*Табора яқиндир  
жасорат они –  
мингта қуёши бор гўзал дақиқа –  
Менга ҳам бир кун бўлур намоён  
кўпга насиб бўлган буюк ҳақиқат.*

Мана шеър! Мана ҳақиқат! Бундан ошириб яна қандай ҳақиқатларни шеър қилиш мумкин? Шавкат Раҳмон умид қилган, орзу қилган жасорат они нима эди? Уни ўйга чўмдирган фалсафа нималардан иборат эди? Бунинг ёрқин рангларда билиш керак. Шавкат Раҳмон ҳамиша ҳаёт билан ҳамнафас яшади. Унинг ботинидаги улкан дард – миллат дарди бўлиб, кейинчалик, жисм дардига айланди. Ўша дард билан ўн йиллар битта тўшакка миҳланиб яшади. Лекин иродаси шу қадар мустаҳкам эканми, ундан ҳеч қачон хафа бўлмади. Аллоҳ берган дардни гўзал табассум билан кутиб олди. Ўша гўзаллик унинг шеърлий манзумаларида манаман деб, ярақлаб турибди. Шоирнинг ҳар қандай сўзга ташналиги, ҳар қандай кечинмага мойиллиги у яшаган муҳит ва унинг ижтимоий тутумлари билан белгиланади. Ҳақиқий ижодкор муҳитни йўриғида ижод қилмайди. Ҳақиқий шоир миллатини сотмайди. Ҳақиқий истеъдод асрлар оша эскирмайди. Шунинг учун ҳам тобора яқинлашиб келаётган нурга талпинган шоир – мустақилликни қўмсаганлиги яққол намоён бўлиб турганлигини ҳис қилиш мумкин:

*Мен севган дарёлар шундоқ қолурми,  
мени ўйлатган йўл қолурми шундоқ?  
Мен суянган тоғлар шундоқ қолурми,  
шундоқ қолармикан юракларда доғ?*

<sup>1</sup> Асқар Маҳкам. Ваҳдат куйи. Т., “Nurafshon business”, 2021, 338-бет.



Шоирнинг яна бир тасвирларига эътибор берамиз: шоир нега изтироб чекмоқда. Шоир нега куйинмоқда: “Мен севган дарёлар шундоқ қолурми”, дея ўзининг тарихига, унинг энг қадмимий асотирларига мурожаат қилади. Шоир севган дарёлар – туркий халқларнинг тарихи эди. Ана ўша тарих измида ростлик бўлишини истарди. Майли, бугун ҳам шундай манзарали шеърлар топилар, лекин Шавкат Раҳмондек ижодкорлар яратган асарлар деярли топилмайди:

*Ногаҳон*

*хаёлим ёришиб кетар,*

*эслаб келажакнинг улуғларини–*

*Мен сочиб кетаман кўҳна бағрингга*

*ўлмас ғояларнинг уруғларини.<sup>1</sup>*

Шоир келажакка ўлмас ғояларнинг уруғларини сочиб кетишни пок ният билан тилга олади. Бу ният шоирни жуда катта тайёргарлик билан ўлим сари бораётганини, Аллоҳ олдида юзи ёруғ бўлишни истайди. Майли, у ўзининг ҳар бир шеърида ўша фалсафани акс эттирсин, бироқ бунга ҳамшиша катта ғамли қўшиқни сингдирмаслиги керак. Яхши ва ёмонга ҳам фаришталар, омин, дейиши ҳақ гап. У ўз ўлимини, кўп яшамаслигини билганлигини пайқаш қийин эмас. Шундай шеърларига катта маъно юклаган шоир ҳамшиша ўзини жисм ўлишига тайёрлайди. Бунинг учун шоирда катта жасорат бўлиши лозим. XX аср ибтидосида даврнинг энг илғор шоирлари майдонга чиқди. Улар турли шаклларда бадиий асарни талқин қила бошладилар. Биринчи жаҳон уруши йилларида шеърят тамомила ўзгарди. У янгиланди. Шакл ва услуб жихатидан янги-янги марраларни қўлга киритди. Бу қўлга киритишлар шоирга катта бир илҳом ва ижод манбаи бўлиб хизмат қилди. Шундай экан, исломий ғояларнинг ижтимоийлашганлиги ва такомиллашуви шеърятда ҳам яққол юзага чиқди.

**Қаршибаева Улжан Давировна (СамДЧТИ Француз тили ва адабиёти кафедраси профессори в.б.)  
ШОН О'КЕЙСИНИНГ “БАРАБАНЛАР ДЕРАЗА ТАГИДА” РОМАНИНИНГ БАДИИЙ  
ХУСУСИЯТЛАРИ**

**Аннотация.** Ушбу мақолада “Барабанлар дераза тагида” романи таҳлил қилинган. Романда Ирландиядаги инқилоб воқеалари тасвирланган. Роман теран халқчиллиги билан ажралиб туриши, унда халқ ҳаёти ва унинг озодлик ҳамда адолат йўлидаги кураши акс этгани ўрганилган.

**Аннотация.** В статье анализируется роман «Барабаны под окном». В романе описываются революционные события в Ирландии. Роман даёт характеристику высокому патриотизму, который отражает жизнь народа и его борьбу за свободу и справедливость.

**Annotation.** This article analyzes the novel “Drums under the window”. The novel describes the events of the revolution in Ireland. The novel describes the characteristics of high nationalism, which reflects the life of the people and their struggle for freedom and justice.

**Калим сўзлар:** автобиографик, субъектив, ижтимоий-сиёсий, инқилоб, роман жанри, мемуар.

**Ключевые слова:** автобиографический, субъективный, социально-политический, революция, жанр романа, мемуары.

**Key words:** autobiographical, subjective, socio-political, revolution, novel genre, memoir.

Машхур ирланд драматурги Шон О'Кейси 1880 йилнинг 30 мартада Дублиннинг шимолида камбағал инглиз оиласида дунёга келади. У ўз ижодини 1918 йилда “Томас Эшнинг қурбонлиги” номли асари билан бошлайди. 1945 йилда ёзган “Барабанлар дераза тагида” романининг марказида – 1913 йил Дублиндаги синфий кураш ва 1916 йили Дублинда рўй берган “пасха” кўзғолони<sup>2</sup> каби икки тарихий воқеа акс этади. О'Кейси романида инқилобий воқеаларнинг кучайиб бораётганига “барабанлар уруши” тимсолий образи орқали урғу берилади. Ирланд ишчиларининг уйлари деразаси тагида барабан садолари эшитилади. Уларнинг курашга чорловчи шовқини озод Ирландия учун курашаётганларнинг биринчи қаторида жаранглайди. “Барабанлар жанги кичик уйларда

<sup>1</sup> Раҳмон Ш. Абадият орааб. Т., “Муҳаррир”, 2012, 93-бет.

<sup>2</sup> Аникин Г.В. Героическое начало в романе Шона О'Кейси “Барабаны под окном”. Вопросы зарубежной литературы и искусства. Сб. 2, Свердловск, 1972.

акс садо бериб, уларни қилич излаб топишга мағрур эҳтирос билан чорлайди”.<sup>1</sup> Шунингдек, “ёруғлик қиличи” – Ирландия инқилобий кўтарилиш тимсоли ҳам бутун роман бўйлаб ўтади.

“Барабанлар дераза тагида” романи бош қаҳрамон Шон Кессиденинг Ирландияда инқилобий ҳаракат ривожини билан боғлиқ равишда шаклланган ғоявий йўли тасвири сифатида қурилган. Бу асарнинг бошида Шон миллатчи Гель лигаси фаолиятига берилгани кўрсатилади. Бироқ озодлик ҳаракати кучайиб бориши баробарида, у лиганинг миллатчилик дастури тор қараш эканига, шинфейнерларнинг меҳнаткаш халқдан узилиб қолганига ишонч ҳосил қилади. Романнинг иккинчи ярмида Шон энди онгли пролетарга айланади, кучни пролетар бирдамлигида, ишчиларнинг жипс-лашувида кўради. Шон Кессиди инқилобий, озодлик ҳаракатида ҳақиқий реал кучни кўради, бу куч халқни озодликка олиб келишга қодир – ишчилар синфи. Мазкур янги позицияга ўтгунига қадар умумхалқ ва пролетар ҳаракатининг кенгайиб кетишидан чўчиган Ирландия буржуа миллатчиларидан Шоннинг ҳафсаласи пир бўлади.

Ирланд халқининг британ ҳукмронлигига қарши норозилиги навбатидаги сахнада ифодаланган. Шон ва Милли кўчада, ёмғир тагида, бойлар учун серҳашам фойтун ишлаб чиқарадиган Хаттон фирмаси дарвозаси олдида туришибди. Дарвозанинг устида Англиянинг буюклиги тимсоли сифатида ҳайвонлар – арслон ва яккашоҳ (нарвол) ҳайкаллари ўрнатилган. Ноҳақликка қарши чиққан Милли уларга шиша идишни улоқтиради. Милли, кимки ирланд халқи манфаатини камситса, ўшанга нафрати сочади. Милли образи фольклор образ, Холиэннинг қизи Кэтлинга қиёсланади. “Барабанлар дераза тагида” романида бу образ ватан, Ирландия, ирланд халқининг ватанпарварлик тимсоли сифатида майдонга чиқади. Милли образи ҳақида муаллиф шундай дейди: “У Кэтлинни, Холиэннинг қизини, ўз-ўзича, беғам, беташвиш Кэтлинни яхши кўради. Қайсидир маънода унинг ўзи Кэтлин, Холиэннинг қизи, олов ёнган кўзларини водийга тиккан Кэтлин”.

“Барабанлар дераза тагида” романида муаллиф озодлик ҳаракатининг кўплаб иштирокчилари ҳаракатидаги майда буржуага хос хусусиятларни очган. Майда буржуазияга хос бидъатлар шунда кўринадикки, ҳаракатнинг бир қатор иштирокчилари ишчилар кучи ва қувватидан фойдаланмасликка қарор қилади, ваҳоланки, ишчилар миллий курашга чин дилдан ёрдам берган бўларди.

Муаллиф асарда бутун Ирландия халқининг Англияга қарши курашида давлат ичидаги майда буржуа вакиллари билан ишчилар синфи ўртасида ҳамжиҳатликда миллий-озодлик ҳаракатида иштрок этишга ҳам норози кучлар мавжудлигини кўсатади. Асарда О’Кейси буржуа миллатчисининг сатирик образини ҳам яратади.

В.И.Ленин ишларида нафақат ирланд халқининг инглиз ҳукмронлигига қарши миллий-озодлик ҳаракатининг батафсил таъриф-тавсифи, шунингдек, Ирландиядаги синфий кураш, ирланд буржуа миллатчилари билан ирланд пролетариати ўртасидаги курашлар тавсифи ҳам мавжуд. В.И.Ленин “Дублинда синфий уруш” мақоласида ёзишча, бу шаҳарда синфий кураш 1913 йилги “...синфий урушгача кескинлашди. Полиция ошқора қутурган, маст-аласт полициячилар тинч ишчиларни калтаклашмоқда, уйларга бостириб кириб, қарияларни, аёллар ва болаларни қийнаб азобламоқда... Ишчиларнинг барча атоқли йўлбошчилари қамоққа олинган”.<sup>2</sup> Шу мақоласида В.И.Ленин полициянинг жазолашлари, ишчилар орасидаги қурбонлар ҳақида сўз юритади.

“Барабанлар дераза тагида” романида трамвай ишчиларининг норозилик намойиши, порт ишчи-юкчиларининг полиция билан тўқнашуви тасвирланган. Бу воқеалар тасвири давомида доимий равишда жағини қилич тилиб кетган ишчи образи пайдо бўлади. Шунингдек, полиция ўлдирган ишчини дафн этиш маросими ҳақида ҳам ҳикоя қилинади.

Роман сюжети инқилобий ҳаракатнинг кучайиши ва ҳақиқий йўлбошчинини, инқилоб Прометейини кутишга қараб ривожланади. Романнинг жўшқин, кўтаринки руҳдаги бошланмасидаёқ Ирландия озодлиги учун ҳақиқий курашчининг пайдо бўлиши олдиндан билинади. Бу ўринда ёзувчи фикри олдинга ўтиб, воқеаларнинг галма-гал баёнини ортда қолдириб, келажакка интилади ва ишларнинг бугунги ҳолати келажак нуқтаи назаридан баҳоланади. Машҳур миллий арбоблардан бирортаси – на Жеймс Конноли, на Уильям Батлер Йетс, на Патрик Пирс – ирланд инқилобининг Прометейи бўла олмади. Жим Ларкиндан бошқа ҳеч ким ирланд халқининг қалбида аланга ёқа олмади.

<sup>1</sup> O’Casey Sean. Drums under the Windows. N.Y., 1950, p. 40.

<sup>22</sup> Ленин В.И. Полн. собр. соч., т. 23, с. 400.

О'Кейси романида инқилоб Прометейи Жим Ларкинга бағишланган махсус боб бор. У ҳақда муаллиф эпик поэмалар ёхуд инжил ривоятларига хос тантанавий усулда ёзади. Жим Ларкин Ирландия халқини курашга чақирган.

Шон ишчилар иттифоқига аъзо бўлиб киради. Шу тариқа, у Гэль лигасининг яшил байроғи остидан чиқиб, ишчилар ҳаракатининг қизил байроғи остига ўтади. У Ларкиннинг халққа, оммага муурожаат қилган маърузаларини эшитади ва халқ унинг маърузаларига ҳозиржавоб муносабатини билдиради.

Шон О'Кейси ишчиларининг байналмилал бирдамлиги мавзусида сўз юритади. Англиялик ишчилар Ирландияга, иш ташлаган ирланд ишчиларига ёрдам сифатида кемада озик-овқат жўнатишади. Жим Ларкин бандаргоҳда бу кемадан юкларни туширишда қатнашади. Ирландияда иш ташлаш вақтида инглиз ишчилари оч ирланд болаларини уйларига олиб боради.

Романда 1916 йилги “пасхал” қўзғолони кутилган вазият кўрсатилган, кейин қўзғолоннинг бориш шарт-шароитлари тасвирланган. Қўзғолон ҳолатида юз бераётган воқеаларни қатнашчиларни ёшига қараб фикр юритишлари, қари инсонлар образлари орқали тасвирланган. Бир тарафдан, бу кекса, етмиш яшар, тор фикрли одам идрокдан ўтказиб берилган, бу воқеалар ҳақида, уларнинг ўрни ва аҳамиятини тушунмай, ўзича қўшиб-чатиб гапиради. Бироқ, бошқа тарафдан, қўзғолон инқилобий руҳдаги Шоннинг қарашлари орқали кўрсатилган, у воқеаларни тўғри баҳолайди. Бу қўзғолоннинг мураккаб вазиятини турли томондан ёритишга ва турли синфлар вакилларининг унга ҳар хил муносабатини тавсифлашга ёрдам беради.

О'Кейси романда қўзғолонга тайёргарлик қандай кетаётганини кўрсатади. Шон миллий ҳаракатнинг фаол иштирокчисига айланади, ишчилар ҳаракати билан мустаҳкам алоқа боғлаган фуқаролар армиясини ташкил этишга ёрдам беради. У қўзғолонни тайёрлаш қўмитаси ва марказий штаб мажлисларида қатнашади. Шон бу ташкилотларнинг фаолияти жўнлигини, улар бўлажак қўзғолоннинг мазмун-моҳиятини чуқур тасаввур этолмаганини афсус билан қайд этади. Уларнинг тасаввурчи, бу полиция билан тўқнашувга ўхшаган ҳодиса бўлиши керак. Марказий штабнинг мажлисларида, афсуски, инқилобий чиқишларга тайёргарликнинг амалий ва реал чора-тадбирлари муҳокама қилинмаган. Бу эса Шонни қаттиқ ташвишга солади, у қўзғолон фақатгина романтик орзулар ва романтик жазавани кўрсатишдан иборат бўлиб қолганини, инқилобга нисбатан бундай муносабатни маъқуллай олмайди. Шон инқилобнинг усти ялтироқ ичи қалтироқ нарса, ранг-баранг шарлар ва чиройли тасмалар жилваси деб эмас, балки жиддий синфий кураш сифатида тасаввур этади. Шон О'Кейси асарида миллий-озодлик курашини ижтимоий кураш ғояси билан боғлаган.<sup>1</sup>

Шон попнинг, кимки хусусий мулк қонунларини бузса ва нимагаки муҳтож бўлса, ҳаммасини ўз қўли билан олса, бундай кишилар гуноҳи азимга йўл қўйган бўлади, деган сафсаталарини халқ унутганидан хурсанд бўлади.

Таъкидлаш лозимки, Шон синфий курашлар шароитида қўлланиши зарур бўлган инқилобий курашни қўллаб-қувватлайди. Пировард натижада, халқ ҳокимият тепасига келгач, асосий иш меҳнат, ҳаётни қуришдан иборат бўлади. Роман теран халқчилиги билан ажралиб туради, унда халқ ҳаёти ва унинг озодлик ҳамда адолат йўлидаги кураши акс эттирилган, муаллиф ҳар доим халқ томонида, айниқса, оддий халқ ишчилар синфи манфаатлари ҳимоячиси бўлган; роман услуби халқ ҳаётининг маънавий ва жўшқин томонлари билан боғланган, романнинг образлар тизимига фольклор мотивлар табиий тарзда сингдирилган.

---

<sup>1</sup> Costello Pater. Heart Grown Brutal. The Irish Revolution in Literature. From Parnell to the Death of Yeats. 1891, Totowa, N.Y., 1978.

Suyunova Matluba Abdusaidovna (Termiz davlat Pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi)  
**INNOVATSION PEDAGOGIK TADQIQOTLAR LOGISTIKASI ASOSIDA ILG'OR  
PEDAGOGIK TAJRIBALARNI AMALIYOTGA JORIY ETISH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada innovatsion ta'lim muhitida ilg'or pedagogik tajribalarni tashkil etish bosqichlari, ularning amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik tajriba almashinuvining ta'lim jarayonidagi o'rni ochib berilgan.

**Аннотация.** В данной статье анализируются этапы организации передового педагогического опыта в инновационной образовательной среде, их практическое значение, а также раскрывается роль обмена педагогическим опытом педагогов в образовательном процессе.

**Annotation.** This article analyzes the stages of organizing advanced pedagogical experiences in an innovative educational environment, their practical significance. Also, the role of teachers' exchange of pedagogical experience in the educational process is revealed.

**Kalit so'zlar:** pedagogik tajribalar, amaliyot, o'qituvchi, malaka, tahlil, jarayon, innovatsion g'oyalalar, bosqich, resurs, natija.

**Ключевые слова:** педагогический опыт, практика, педагог, квалификация, анализ, процесс, инновационные идеи, этап, ресурс, результат.

**Key words:** pedagogical experiences, practice, teacher, qualification, analysis, process, innovative ideas, stage, resource, result.

**Kirish.** Ta'limning zamonaviy sharoitda innovatsion ijodiy faoliyatning roli ortib bormoqda, chunki ta'lim mazmunini sezilarli darajada yangilash, ta'lim faoliyatining ustuvor yo'nalishlarida innovatsion tashabbuslar va ijodkorlik asosida yangi sifatga erishish zarurati paydo bo'la boshladi.

Ilg'or innovatsion pedagogik tajribalar ko'rinishida elektron darslik, elektron qo'llanma va boshqa elektron nashrlarga talabning kuchayib borayotganligi ilm-fan taraqqiyotini yana chuqur egallash uchun yaratilayotgan qulay imkoniyatlardir. Ilg'or pedagogik tajriba ko'rinishida ommalashib kelayotgan elektron adabiyotlar va ularning tatbiqi davr talabi hisoblanadi.

Ilg'or pedagogik tajriba bu hozirgi davr va rivojlanishning dastlabki bosqichida o'qituvchilar nazariyasi va amaliyotining eng yaxshi yutuqlarini amaliy pedagogik faoliyatda qo'llashdir. Innovatsion pedagogik tajriba – ta'lim faoliyatini tashkil etishning zamonaviy ta'lim vositalari va innovatsion g'oyalari, usullari va texnologiyalaridan foydalanish. Bu, albatta, yangi, ilg'or, mualliflik kashfiyotlari, yangi ishlanmalar, ixtirolarni o'z ichiga oladi. Ilg'or pedagogik tajriba ostida eng yuqori va sifat jihatidan yangi natijalarga erishish imkonini beradigan tajriba tushuniladi.

Yangilik nuqtayi nazaridan, ilg'or pedagogik tajribaning har xil turlari ajratiladi:<sup>1</sup>

◆Reproduktiv xarakterdagi tajriba (ommaviy tajriba). O'qituvchining ma'lum bo'lgan pedagogik amaliyotga yangilik elementlarini kiritishi, buning natijasida pedagogik tajribani moslashtirishi bilan qimmatlidir.

◆Izlanish tajribasi. O'qituvchi yoki pedagogik jamoaning pedagogik jarayonning kelajakdagi sifatini modellashtirishi, ya'ni tadqiqot faoliyatini amalga oshirishi bilan qimmatlidir.

◆Ilg'or pedagogik tajribani joriy etish, uning asosiy ko'rsatkichlaridan ta'lim muassasasining ommaviy amaliyotida foydalanish hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishdagi eng muhim vazifa uning ilmiy, kognitiv va amaliy ahamiyatini aniqlash bilan bog'liq vazifadir. Buning uchun o'rganilayotgan pedagogik obyektning qandaydir oldindan ishlab chiqilgan mezonlarga mos kelishini tahlil qilish kerak. Pedagogik tajribani o'rganish bir necha bosqichlardan o'tadi va majburiy ravishda kuzatish, tajribani o'rganish, birlamchi manbalar, hujjatlarni tahlil qilish, suhbatlar kabi boshqa an'anaviy usullar bilan bir-lashtiriladi.

Pedagogik tajribani tushunish va tahlil qilish chuqurligiga qarab aniqlaymiz va o'rganamiz. Bu borada o'rganishning bir necha bosqichlaridan foydalaniladi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Fine T. Pedagogik tajribani aniqlash, o'rganish va taqdim etish. 2005, 7-son, 6 – 9-betlar.

<sup>2</sup> Yodgorova A.A. Pedagogik tajribani o'rganish va amalga oshirish jarayonini tashkil etish xususiyatlari. "Yosh olim", 2017, 153-bet.

Ilg'or pedagogik tajribalarini amalyotga joriy etish o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'lgan quyidagi 5 bosqichda amalga oshiriladi:

- 1-bosqich. Ilg'or tajribalarni aniqlash.
- 2-bosqich. Ilg'or tajribalarni o'rganish,
- 3-bosqich. Ilg'or tajribalarni umumlashtirish,
- 4-bosqich. Ilg'or tajribalarni ommalashtirish.
- 5-bosqich. Ilg'or tajribalarni targ'ibotini tashkil qilish.

1-bosqich. Ilg'or tajribalarni aniqlash quyidagi me'zonlar asosida amalga oshiriladi:

- natijaviyligi, o'quv-tarbiya natijalarining samarasi muntazam va yuqori darajada ekanligi;
- amaliy ahamiyati va dolzarbligi, o'quv-tarbiya vazifalarining samarali bajarilishi, boshqaruv faoliyati mazmunining takomillashtirilishi;
- pedagogik amaliyotda zarurligi, faolligi va istiqbolliligi;
- yangiligi, amaliyotdagi metodikaga qo'shgan yangi usullari;
- pedagogik jarayonda yangi qonuniyatlarni kash etishga ta'siri, pedagogika va metodikadagi erishilgan natijalar zamonga mosligi;
- isbotlanganligi, yuqori natijaviyligi va samaradorligi;
- o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi sifat ko'rsatkichlarining yuqori natijaviyligi va ilg'or tajriba shaxsni rivojlanish va tarbiyalanish darajasiga yo'naltirilganligi;
- barqarorligi, bir necha marta yuqori natijaga erishganligi, har xil sharoitda sinab ko'rilganligi;
- ommaviy ravishda amaliyotda tajribani ijodiy qo'llash imkoniyati mavjudligi (maxsus sharoitda mo'ljallangan tajribalar ommalashtirilmaydi);
- optimalligi, minimal vaqt, sharoit va vositalarda yuqori darajaga erishganligi;
- butunligi, tajriba o'quv jarayonining qisi sifatida ko'rilishi;
- istiqbolliligi, ilg'or ish tajribalarni rivojlantirish va ulardan amaliyotda foydalanish istiqbollari-ning borligi.

2-bosqich. Ilg'or pedagogik tajribalarini o'rganishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

- ta'lim jarayonidagi zamonaviy muammolar yechimini aks ettiruvchi tajribani tanlashi;
- aniqlangan tajribani uzoq vaqtga mo'ljallab ishlab chiqilgan dastur asosida ta'limning butun ko'lamini qamrab olgan holda o'rganishi;
- tajribani o'rganish jarayoniga o'qituvchilarni, imkon darajasida, ko'proq jalb etish, ularning taq-rizlari, fikr va mulohazalarining e'tiborga olinishi;
- o'rganilayotgan ish tajribaning muammolarga ta'sir qiluvchi va tuzatuvchi xarakterga ega ekan-ligining e'tiborga olinishi;
- o'rganilayotgan ish tajribaga samarali ilg'or pedagogik texnologiyalarning olib kirilganligi;
- o'qituvchining 3 yillik faoliyati davomida talabalar o'zlashtirish natijalarini tahlil qilishi;
- ilg'or tajribani rivojlanib borish jarayonida o'rganish.

3-bosqich. Ilg'or pedagogik tajribani umumlashtirishda (amaliyotda foydalanish imkoniyatlari, taq- dim etilgan joyni hisobga olgan holda) quyidagi ishlarni amalga oshirish keak:

- o'qituvchi haqidagi ma'lumotlar umumlashtiriladi;
- o'rganilgan yo'nalish bo'yicha o'qituvchining amalga oshirgan ishlari to'plam holatiga keltiriladi;
- o'qituvchining ilg'or ish tajribasiga aniq xulosalar qilinadi;
- o'qituvchining ta'lim-tarbiya sohasidagi bajargan ishlari, bildirilgan taklif va mulohazalar yuzasi- dan mukammal tavsiyalar yaratiladi;
- materillar kerakli miqdorda ko'paytiriladi.

Pedagogik tajribani umumlashtirish har doim o'rganish natijasida olingan ma'lumotlarni tahlil qi- lish va sintez qilishdir; uning tanlanishi, tasnifi; asosiy, asosiyini tanlash; o'rganilayotgan tajribadagi xusu- siyatlarni aniqlash, tadqiqotning asosiy natijalarini tavsif yoki og'zaki taqdimot shaklida ifodalash.

4-bosqich. Ilg'or pedagogik tajribani ommalashtirishda quyidagi shakllarda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- pedagogik kengash, anjumanlarda so'zlab berish yoki "Mahorat darslari"ni tashkil etish;
  - ommaviy axborot vositalarida maqolalar, tavsiyalar shaklida berish.
- 5-bosqich. Ilg'or pedagogik tajribani targ'ib qilish quyidagi tartib asosida amalga oshiriladi:
- ilg'or ish tajribasi o'quv seminarlar orqali;
  - ochiq darslar tashki etish orqali;
  - konferensiyalar orqali;

- ko‘rik-tanlovlar orqali;
- internet ta‘lim saytlariga joylashtirish orqali.

Pedagogik tajribani tahlil qilish mezonlari orasida quyidagilar ajralib turadi. Pedagogik tajribaning ijtimoiy talablarga, jamiyat tartibiga majburiy muvofiqligi. Pedagogik jarayon ijtimoiy rivojlanish tendensiyalariga moslashishi, o‘qituvchining faoliyatini ijtimoiy talablar va ta‘lim va tarbiya usullarini takomillashtirish zarurati asosida qayta yo‘naltirilishi kerak.

**Natijalar.** Pedagogik faoliyat jarayonida ilg‘or pedagogik tajriba faol qo‘llaniladi. Undan foydalanish ko‘rsatilayotgan ta‘lim xizmatlari sifatini oshirishga, o‘quv faoliyatini tashkil etishni soddalashtirishga, pedagogik samaradorlikni oshirishga va kasbiy pedagogik muhitda jamoaviy munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi. Ilg‘or pedagogik tajriba tashuvchilar bevosita o‘qituvchilardir. Ular jarayonga innovatsion g‘oyalarni joriy etishlari, ta‘lim sifatini oshiradigan o‘quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning usul va uslublarini taklif qilishlari mumkin.

Ilg‘or pedagogik tajribalarni aniqlash o‘qituvchining darslarini kuzatish va tahlil etish jarayonida ma‘lum bo‘ladi. So‘nggi yillarda ochiq darslarni rejalashtirish o‘qituvchi uchun shart bo‘lgan me‘yorga aylanib bormoqda. Shunga ko‘ra, har bir o‘qituvchi mutaxassis sifatida, o‘z sohasining malakali va bilimdon fidoyisi sifatida ilmiy asoslangan dars tahlili va uning metodikasini bilmog‘i lozim. Dars tahlillari jarayonida o‘qituvchi tomonidan ko‘tarib chiqilgan yangiliklar, yangicha yondashuvlar, innovatsion metodlar tatbiqi va uning samaradorligiga ko‘ra ta‘lim mazmunidagi ijobiy o‘zgarishlarga qarab ilg‘or pedagogik tajriba umumlashtiriladi va ommalashtiriladi.

Pedagogik mahorat o‘quv va tarbiyaviy faoliyatning muvaffaqiyatli borishi uchun katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘z faoliyatida innovatsion usullardan foydalanmasligi mumkin, lekin pedagogik jarayonni tashkil etishning mavjud tamoyillari va texnologiyalarini mohirona qo‘llash o‘qituvchi ishini birinchi darajaga olib chiqish va uni namuna sifatida tasdiqlash imkonini beradi.

**Muhokama.** Pedagogik faoliyatni monitoring qilish, uning sifati va samaradorligini baholash, ilg‘or pedagogik tajribani aniqlash va asoslash ta‘lim faoliyatining turli obyektlari va jarayonlarining belgilarini, ularning namoyon bo‘lish darajasini va xususiyatlarini aks ettiruvchi ma‘lum parametrlarni, ko‘rsatkichlarni o‘rnatishni talab qiladi. Ushbu parametrlar optimal va ishonchli mezonlarni shakllantirishga imkon beradi, ularsiz faoliyatning pedagogik tajribasini tahlil qilish muhim emas. Pedagogik jarayon yuqori sifatli, samarali bo‘lishi va jamiyat va ta‘lim tizimi uchun zarur bo‘lgan natijalarga erishishi kerak.

O‘quv faoliyati kursining natijalari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:<sup>1</sup>

- ta‘lim va tarbiyaning ko‘zlangan maqsadiga erishish;
- ta‘limning yuqori sifati, shaxsning rivojlanish darajasini oshirish;
- bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish sur‘atlarini tezlashtirish.

Ilg‘or pedagogik tajriba – bu pedagogik faoliyat natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni aniqlash, saqlash va uzatish vositasi. Zamonaviy sharoitda ta‘lim sifatini oshirishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Pedagogik tajriba keng ma‘noda o‘qituvchilarning shunday mahorati bo‘lib, o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashda, muayyan o‘qituvchining rivojlanishida, ta‘lim muassasalarining ta‘lim xodimlarining kasbiy va pedagogik malakasini o‘z-o‘zini takomillashtirishda izchil yuqori natijalar beradi. Bunda o‘qituvchining pedagogik faoliyati prinsipial jihatdan yangilik emas, balki yuqori reproduktiv kasbiy mahorat bilan ajralib turadi.

Tor ma‘noda pedagogik tajriba deganda nazariyaning barcha eng yaxshi jihatlaridan ijodiy foydalanadigan, yangilik kiritadigan va noma‘lum narsalarga yo‘l ochadigan, ta‘lim faoliyati sifati va natijalarini oshirishga imkon beradigan pedagogik amaliyot tushuniladi.

**Xulosa.** Pedagogik jarayon yuqori sifatli, samarali bo‘lishi va jamiyat va ta‘lim tizimi uchun zarur bo‘lgan natijalarga erishishi kerak. O‘quv faoliyati kursining natijalari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak: ta‘lim va tarbiyaning ko‘zlangan maqsadiga erishish, ta‘limning yuqori sifati, shaxsning rivojlanish darajasini oshirish, bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish sur‘atlarini tezlashtirish.

Mavjud resurslarni takomillashtirish va pedagogik jarayonni optimal tashkil etish orqali eng yaxshi natijalarga erishiladigan shunday pedagogik tajribani biz eng yaxshi pedagogik tajriba deb bilamiz. U, asosan, pedagogik faoliyatning asosiy yo‘nalishlari – o‘quv jarayoni, ta‘lim jarayoni va boshqalarni aks ettiradi. Tajriba manbai sifatida alohida o‘qituvchi yoki o‘qituvchilar guruhi, fan uslubiy birlashmasi, butun pedagogik jamoa bo‘lishi mumkin. Pedagogik jarayon rivojlanib, zamon bilan hamnafas bo‘lishi kerak. Shuning uchun o‘qituvchi yangilik, innovatsion g‘oyalar, ilmiy kashfiyotlar va unda ijodiy tarkibiy

<sup>1</sup> Боровская Л. Педагогический опыт: мастерство плюс практика. Управление школой, 2007, № 13, с. 24 – 26.

qism mavjudligi bilan tavsiflangan tajribani qo‘llashi kerak. Pedagogik tajriba ma’lum bir davrda dolzarb bo‘lishi va kelajakda qo‘llanilishi mumkin bo‘lishi kerak. Bu esa ta’limdagi ijobiy natijalarni kelgusi avlodga yetkazish uchun juda muhim hisoblanadi.

***Ключевые слова:** учебно-исследовательская деятельность, исследовательские навыки, юридические науки, уголовное право, проблемная ситуация, состав преступления, наказание.*

***Key words:** educational and research activities, research skills, legal sciences, criminal law, problematic situation, crime composition, punishment.*

Jahon mamlakatlari o‘z taraqqiyot yo‘llarini belgilab olishda ta‘lim tizimiga jiddiy e‘tibor qarashmoqdalar. Ta‘lim mamlakat kelajagini ta‘minlashdagi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida davlat siyoatida muhim o‘rin egallamoqda. Barcha ilg‘or mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy-madaniy sohaning rivojini raqobatbardosh kadrlar ta‘minlashini inobatga olib, ta‘limga o‘qitishning zamonaviy va ijodkorlikka asoslangan usullarni joriy etish yo‘lidan bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda xorij tajribalari asosida olib borilayotgan ta‘lim islohotlari oliy ta‘limda innovatsion yondashuvlarga asoslangan muhitni yaratishga yordam bermoqda. Ta‘lim tizimida yillar davomida to‘planib qolgan muammo va kamchiliklar zamonaviy ta‘limga ijodkorona yondashuvni zaruratga aylantirmoqda. Mazkur sohada chuqur ilmiy tadqiqot ishlari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular yuksak kompetentli kadrlar tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni tadqiq etishga yo‘naltirilgan.

<sup>1</sup> Ярашев К.Д. Теоретическое обоснование проблемы подготовки будущих специалистов к управленческой деятельности в сфере физической культуры и спорта. “Фан – спортга”, 2020, 6-сон, 61 – 62-бетлар.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini oshirish imkonini beradi. Huquqshunoslik fanlarini o'qitilishida huquqiy tadqiqot olib borish ham ushbu jarayonning isboti sifatida namoyon bo'ladi.

Qonunni takomillashtirish va liberallashtirish uchun yuridik soha bo'yicha kengroq bilimlarga ega bo'lgan kadrlarning huquqiy bilimlarini oshirish talab qilinadi. Pedagogik oliy ta'lim tashkilotlarida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, talabalar jinoyat huquqi masalalariga huquqning boshqa sohalariga qaraganda ko'proq qiziqadi.

Huquqshunoslik fanlari o'qitiladigan ta'lim yo'nalishlaridagi Jinoyat huquqi kursi ham talabalarda huquqiy tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishda katta imkoniyatga ega fanlar qatoriga kiradi. "Jinoyat huquqi o'zining maxsus vazifalari, o'rganadigan sohasi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari jihatidan boshqa huquq tarmoqlaridan farq qiladi".<sup>1</sup> Mazkur fan qilmishni jinoyat sifatida e'tirof etish, javobgarlik va jazoni belgilash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq tarmog'i hisoblanadi.

Jinoyat huquqi fanidan talabalarning o'quv-tadqiqiy faoliyati ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida maxsus muammoli vaziyatlar hamda boshqa tadqiqiy masalalar bilan qo'shimcha ishlash orqali amalga oshiriladi. Zero, fanning o'zi ham tadqiqotlarni rag'batlantiradi. Xususan, huquqshunos olim M.Rustamboyev ham jinoyat huquqi fanining vazifalariga ma'lum bir ijtimoiy shart-sharoitlarga ta'sir qiluvchi amaldagi jinoyat qonunlari hamda uning normalari bo'yicha tizimli va kompleks tadqiqotlar o'tkazish ham kirishini e'tirof etgan.<sup>2</sup> Muammoli vaziyatlar ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb topish yoki javobgarlik va jazodan ozod qilish bilan bog'liq muammoli holatlardir. Muammoli vaziyatlar talabalarni fikrlashga, jinoyat huquqiy normalardagi gipoteza va dispozitsiyani sinchkovlik bilan o'rganishni talab qiladi.

Pedagogik oliy ta'lim tashkilotlarida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, talabalar jinoyat huquqiga doir masalalarga huquqning boshqa sohalariga qaraganda ko'proq qiziqadi. Mazkur fan pedagogika oliy o'quv yurtlarida yuridik kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotlariga qaraganda kamroq auditoriya soatiga ega. Binobarin, bo'lajak pedagog kadrlar bu fanni chuqurroq o'zlashtirish imkoniga ega bo'lmaydi. Shuningdek, pedagogika oliy o'quv yurtlarida jinoyat huquqi fanidan dars beradigan makalali pedagog-yuristlar ham yetarlicha emas. Bularning barchasi pedagogika oliy o'quv yurtlarida mazkur fan bo'yicha o'quv-tadqiqiy ishlarni samarali yo'lga qo'yishni talab qiladi.

Talabalarning jinoyat huquqi fanidan o'quv-tadqiqiy faoliyati mazkur fanning normalarini o'rganish, jinoiy holatlarning obyektiv va subyektiv tomonlarini ajratish, yengillashtiruvchi holatlarini tahlil qilish, kelib chiqadigan huquqiy oqibat haqidagi xulosalarga kelishda ifodalanuvchi faoliyat hisoblanadi.

Jinoyat huquqi fanidan talabalarning o'quv-tadqiqiy faoliyati ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida maxsus kazuslar hamda boshqa tadqiqiy masalalar bilan qo'shimcha ishlash orqali amalga oshiriladi. Kazuslar ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb topish yoki javobgarlik va jazodan ozod qilish bilan bog'liq muammoli holatlardir. Muammoli vaziyatlar talabalarni fikrlashga, jinoyat huquqiy normalardagi gipoteza va dispozitsiyani sinchkovlik bilan o'rganishni talab qiladi.

Jinoyat huquqining ayrim nazariy masalalari borki, ularni tadqiq etish huquqiy normalar bilan chuqurroq tanishishni taqozo etadi. Masalan, ikki obyektli jinoyatlarni aniqlash, formal tarkibli jinoyatlarni kesik tarkibli jinoyatlardan farqlash, faktik xato va yuridik xato o'rtasidagi o'xshashlikni topish, jinoyat tarkibini kvalifikatsiya qilish, egri va to'g'ri qasdni ajratish kabi masalalar talabaning nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Talabalar tomonidan jinoyat huquqi asoslarini o'rganishning tahlili o'quv-tadqiqiy faoliyatning zarur ekanligini isbotladi. O'quv-tadqiqiy faoliyat talabalaridagi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan boyitishi aniqlandi. Amaliyot mazkur faoliyatni quyidagi hollarda tashkil etish maqsadga muvofiqligini isbotladi:

- qilmishning jinoyat yoki jinoyat emasligini aniqlashda;
- bir jinoyatni ikkinchisidan farqlashda;
- jinoyatlar majmuyi tarkibidagi qilmishlarni ajratishda;
- takroriy yoki davomli jinoyatligini belgilashda;
- qilmish egri yoki to'g'ri qasd bilan amalga oshirilganligining kvalifikatsiyalanishida;
- jinoyatning tarkibini aniqlashda;

<sup>1</sup> Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. Darslik, T., "Yangi asr avlodi", 2010, 10-bet.

<sup>2</sup> Rustamboyev M.H. Jinoyat huquqi. Darslik, T., "Ilm – ziyo", 2006, 33-bet.

- ijtimoiy xavfli qilmishni tasniflashda;
- ishtirokchilik shakllarini tavsiflashda;
- jinoyatda aybning mavjud yoki mavjud emasligini belgilashda;
- javobgarlikni qo‘llash yoki qo‘llamaslikni aniqlashda;
- jazo qo‘llash yoki undan ozod qilish qilish masalasini hal qilishda;
- jinoyatning og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarini belgilashda;
- jazo yengillashtirilishi muddatlarini aniqlash va boshqa hollarda.

Talabalar o‘quv-tadqiqiy faoliyatini yo‘lga qo‘yishda yuqoridagi holatlarga mos ravishda muammoli vaziyatlarni topish o‘qituvchidan mahoratni talab qiladi. Zero, har qanday kasusli vaziyat ham o‘quv-tadqiqiy faoliyat uchun to‘la mos kelmasligi mumkin. O‘qituvchi ayrim hollarda talabalarga o‘zlari guvoh yoki bevosita ishtirokchi bo‘lgan vaziyat haqida ma‘lumot berishni, uni birgalikda kvalifikatsiyalashni taklif etishi ham maqsadga muvofiqdir. Bunday taklif talabalarni darsga bo‘lgan e‘tiborini yanada oshishiga xizmat qiladi. Muammoli vaziyat o‘rtaga tashlangach, pedagog o‘quv-tadqiqiy ko‘nikmalarni rivojlantirib borish uchun quyidagi harakatlarni amalga oshirishi lozim:

- vaziyatning muammoli tomonlariga talabalarning e‘tiborini jalb qilish;
- talabalar tomonidan jinoyatning to‘g‘ri kvalifikatsiya qilinishiga yo‘naltirib borish;
- munozaralar keskinlashib ketishining oldini olish;
- talabalarning aniq yechim yo‘nalishidan chetlashib ketishini nazorat qilish;
- aniq yechim borasidagi xulosalarni umumlashtirib, faol talabalarni rag‘batlantirish.

Vaziyatning muammoli tomonlariga e‘tiborni qaratishda muayyan kasus o‘rtaga tashlanadi. Shundan so‘ng jinoyatning turli elementlari, tarkibi, kvalifikatsiyalanishi bilan bog‘liq masalalar oydinlashtirilishi zarur. Masalan, quyidagi kasusni talabalar e‘tiboriga havola etamiz.

“O‘zbekiston fuqarosi ishlash uchun Rossiya Federatsiyasiga borib, Tojikiston fuqarolari bilan bir joyda yashab turgan vaqtida Turkiya davlatidan turib, odamlarni jihodga da‘vat qilayotgan millati o‘zbek, Qirg‘iz Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lgan, shartli ismi Abdulloh nomli kishi bilan tojikistonliklar orqali internet vositasida tanishgan. Uning telefon orqali jo‘natgan ekstremistik g‘oyalar aks etgan fayllarni Qozog‘istondagi tanishlariga ijtimoiy tarmoqlardan jo‘natib turgan”.

Mazkur muammoli vaziyatga huquqiy baho berish talabadan birmuncha ijodkor bo‘lishni talab qiladi. Bunda jinoyatning tarkibi sifatida uning obyekt, obyektiv tomoni, subyekt va subyektiv tomoni ko‘plab elementlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu kasusdan talabaning o‘quv-tadqiqiy faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi bosqichlar tavasiya etiladi:

1. Umumiy tushuncha hosil qilish. Jinoiy holat haqida eng zarur tushunchalar oddiyroq savollar yordamida talabalar tasavvuri boyitiladi. Bunda masalani soddalashtirish uchun jinoyat tarkibini tashkil etuvchi quyidagi savollarga javob izlash vazifasi topshiriladi:

- jinoyatning obyekt qaysi davlatning munosabatlarini o‘z ichiga oladi?
- jinoyatda gumon qilinuvchi qaysi davlat qonunchiligi bo‘yicha javobgarlikka tortilishi kerak?
- ushbu jinoyat uchun O‘zbekiston fuqarosi yurtimizga kelgach, milliy qonunchiligimiz bilan javobgarlikka torta olamizmi?
- ayblanuvchi O‘zbekiston JKning qaysi moddalarini buzgan?
- ijtimoiy xavfli qilmish qanday tarkibli jinoyat hisoblanadi?

2. Kengroq mushohada qilishga undash. Talabaning o‘quv-tadqiqiy faoliyatiga turtki berish uchun muayyan ma‘lumotlarni tahlil qilishni talab qiluvchi quyidagi topshiriqlar beriladi:

- jinoyatning predmeti va vositalarini bir-biridan ajratib ko‘rsating.
- jinoyatning sodir etish joyi, vaqti, usuli, ijtimoiy xavflilik darajasi bo‘yicha ma‘lumot bering.
- ushbu qilmishning og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlari haqida tushuncha bering.
- mazkur holat bo‘yicha ishtirokchilikning shakllari va turlarini ajrating.
- jinoyatning qasd yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilish vaziyatlariga oydinlik kiriting.

3. Mustaqil izlanishga rag‘batlantirish. Bunda talabalar mustaqil harakat qilishga yo‘naltiriladi. Buning uchun quyidagi topshiriqlar berilishi kerak:

- ayblanuvchiga mos keladigan moddani toping va qilmishga yarasha tayinlanadigan jazo turini belgilang;
- aybdorga beriladigan jazoni asoslantiring;
- jazoning yengillashtirish yoki reabilitatsiya asoslarini taqdim eting;
- mahkumning jazoni o‘tashi lozim bo‘lgan muassasasini aniqlang;

–mahkumning Jinoyat-ijroiya kodeksida belgilangan huquq va majburiyatlarini tushuntirish va hokazo.

Jinoyat huquqi fanidan darslarni tashkil etishda ushbu usullardan foydalanish talabalarning faqat bitta fan bilan cheklanmasdan, boshqa o'quv kurslari bilan tanishishga rag'batlantiradi. Xususan, muammoli vaziyatlarni taqdim etish orqali jinoyat-protsessual va jinoyat-ijroiya huquqi sohalariga yo'naltirish talabalarning o'quv-tadqiqiy faoliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Shamiyeva Oybahor Ravshanovna (Navoiy davlat Konchilik va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi; shamievaor@mail.ru),  
Ochilov Elbek Yunusovich (Navoiy davlat Konchilik va texnologiyalar universiteti, Mashinasozlik texnologiyasi kafedrasida assistenti; elbekoch@mail.ru)**  
**TA'LIM MAZMUNINI MODERNIZATSIYALASH VA UNING SAMARADORLIGINI  
TA'MINLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI AMALIYOTGA TATBIQ  
ETISHNING IMKONIYATLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurati, uning ilmiy asoslari, ta'lim mazmunida innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarining ahamiyati haqida so'z boradi.*

***Аннотация.** В данной статье говорится о необходимости использования инновационных технологий в образовательном процессе, его научных основах, важности возможностей применения инновационных технологий в содержании образования.*

***Annotation.** This article discusses the need to use innovative technologies in educational processes, its scientific basis, and the importance of possibilities of applying innovative technologies to the education content.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim jarayonlari, ta'lim samaradorligi, innovatsion usullar.*

***Ключевые слова:** образовательные процессы, эффективность обучения, инновационные методы.*

***Key words:** educational processes, learning efficiency, innovative methods.*

Ta'lim tizimining modernizatsiyasi–jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, uning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olish bo'lgan talabini qondirish, ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi.

Mazkur modernizatsiya shaxsni o'qitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi an'analarni saqlab qolgan va boyitgan holda majmuaviy xarakter kasb etib, ta'lim tizimining barcha sohalarini to'la qamrab oladi va jamiyatda qaror topgan malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.<sup>1</sup>

Bugungi kunda ta'lim mazmuni o'quvchining ham individual ham umumiy taraqqiyotini ta'minlovchi jarayon sifatida namoyon bo'lmog'i kerak. Shuning uchun ham o'quv fanlari mazmunini belgilashda turli yoshdagi o'quvchilarning aqliy-ma'naviy, jismoniy rivojlanish dinamikasini hisobga olish kerak. Ta'lim jarayoni o'quvchining bilish faoliyati, ta'lim olishi va rivojlanishi, muayyan kasb-hunarga qiziqishini ta'minlashga yordam berishi lozim. Bu holatni ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda aniq hisobga olish kerak.

Yangi sharoitda optimal rivojlanish – bu o'quvchining o'ziga xosligini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash, unga maqsadga muvofiq ta'lim mazmunini taqdim etish, yangi o'quv modellari orqali ta'sir qilish nazarda tutiladi. Agar o'quvchiga ta'lim berish va uni rivojlantirish muammosi ta'lim mazmunida o'z yechimini topsa, u pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlovga ega bo'ladi.

Didaktik va psixologik talablarni hisobga olgan holda, muayyan o'quv predmeti doirasida maxsus tashkil etilgan individual hamda alohida guruhlarda, jamoa bo'lib olib boriladigan ishlar orqali hamda turlicha murakkablik darajasida bo'lgan topshiriqlarning har tomonlama o'ylab ishlab chiqilgan tizimi har bir mavzuning taqdim etilishi muayyan pedagogik shart-sharoitlarni talab qiladi. Bunday sharoitda ta'lim jamiyat hayotiga nisbatan ilgarilab boradi va xuddi shu jamiyat hayotini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

<sup>1</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-tom. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va b. T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002, 28 – 29-betlar.

Ijodiy tafakkur, aqliy qobiliyatning taraqqiyoti o'quv predmetiga nisbatan bilimdonlik, aqliy qobiliyat hamda ijodiy tafakkurning rivojlanishi, hissiyotni tarbiyalash, jamoa hayoti va o'quv-tarbiya jarayoniga ijtimoiy psixologik jihatdan moslashish, o'z zimmasiga javobgarlikni olish, mustaqil qarorlar qabul qilish va unga mos harakatlarni bajarish, jamoa orasida ishlashga odatlanish, tengdoshlari kabi kattalarga ham murojaat qila olish, tanqidga toqatli bo'lish hamda dadil tanqid qila olish, boshqalarga yordam ko'rsatish, shaxsiy fikrini asoslash va isbotlash, jismoniy madaniyat elementlarini namoyon qila olish, sog'lom turmush tarzining qimmatli ahamiyatini anglab yetish, estetik didga ega bo'lish, atrof-muhit go'zalligini his etish, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ko'nikmalarini namoyon qila olish, tahlil qilish, farqlash ko'nikmalariga ega bo'lish, boshqalarning fikrlarini hurmatlash, jamiyat a'zolari bilan muloqot qilish madaniyatiga ega bo'lish kabilar o'quvchilarda ta'lim mazmuni vositasida hosil qilinadi. Shuning uchun ham ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda xuddi shu talablarni hisobga olish alohida pedagogik ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda pedagogik tizimga ko'plab o'zgartirishlar kiritilayotganligiga guvohmiz. Misol uchun yangi konsepsiyalar, innovatsiyalar va investitsiyalar, DTS, muqobil o'quv rejaları, yangi turdagi ta'lim muassasalari kabilar.

Komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy ehtiyojning samarali qondirishi respublika uzluksiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llashni taqozo etmoqda.

“O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi”.<sup>1</sup>

A.I.Prigojinning fikriga ko'ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg'un elementlar bilan boyitib borish tushunilishi lozim.<sup>2</sup> Bu o'rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda, har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o'ziga xos innovatsion faoliyatni tashkil etadi.

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan, imkon qadar, eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari quyidagilar sanaladi:

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;
- ilg'or ish uslublari.<sup>3</sup>

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur. Ta'lim innovatsionlari quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:

- pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi;
- o'quv jarayonining o'zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o'zgarishi;
- o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi;
- talaba faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o'zgarishi;
- ta'lim mazmunining yangilanishi;
- o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi;

<sup>1</sup>O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-tom. Bosh tahrir hay'ati a'zolari, M.Aminov va b., T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002, 169-bet.

<sup>2</sup> Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Toshkent, “Sano standart” nashriyoti, 2015, 41-bet.

<sup>3</sup> Shu manba. 48-bet.

- ta’lim tizimi boshqaruvning o’zgarishi;
- ta’lim maqsadi va natijalarning o’zgarishi.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an’anaviy me’yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g’oyalarning mavjud g’oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualii muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.<sup>1</sup>

Innovatsion ta’lim texnologiyalarining asosiy maqsadi insonni doimiy o’zgarib turadigan dunyoda hayotga tayyorlashdir. Kasb-hunar ta’limidagi innovatsion texnologiyalar universitetda ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi va shuning uchun kelajakda kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligiga ta’sir qiladi.<sup>2</sup>

–ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali mezonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- darsni to’g’ri rejalashtirish;
- o’quvchilar qiziqishini orttirish;
- fanlararo bog’liqlik;
- barcha o’quvchilarning faolligi;
- usullar rang-barangligi;
- hayotiy ko’nikmalarni shakllantirish;
- bolaga do’stona muhit;
- darsning natijali bo’lishi.

1. Darsni to’g’ri rejalashtirish – bu darsning bosqichlarini taxminan to’g’ri taqsimlanganligi, darsga qo’yilgan maqsadlarning “Samarali maqsad mezonlari”ga asoslangan bo’lishi bilan belgilanadi.

2. O’quvchilarning qiziqishi darsga motivatsiyani yuzaga keltira olgan bo’lishi.

3. Fanlararo bog’liqlikda – barcha fanlarning o’zaro integratsiyasi (bog’lanishi)ni ko’rsata olishi va o’quvchilar tomonidan anglanishi.

4. Barcha o’quvchilarning faolligini oshirish uchun butun sinf bilan bir vaqtning o’zida ishlanishi, ya’ni faol o’quvchilar bilan past o’zlashtiruvchi, passiv, kamgap, tortinchoq o’quvchilarning jalb etilishi.

5. Usullar rang-barangligini o’qituvchining bir ish turidan ikkinchi ish turiga o’zgartirib borishi, turli metodlarni maqsadli qo’llay bilishda namoyon bo’ladi.

6. Hayotiy ko’nikmalar – bu kundalik hayotda har bir inson uchun zarur bo’ladigan ijobiy xatti-harakatlar majmuyi. Bular:

- muloqot qilish;
- shaxslararo munosabatlar;
- hamdardlik;
- qaror qabul qilish;
- muammolarni hal qilish;
- stress holatlarni yenga olish;
- tanqidiy fikrlay olish;
- jodiy fikrlay olish;
- o’z-o’zini tahlil qilish;
- his-tuyg’ularni jilovlay olish.

7. Bolaga do’stona muhit – bu o’zaro ishonch muhiti yaratilgan bo’lishi demakdir.

8. Natijali demak, rejada belgilangan maqsadlarga erishilganlik bilan asoslanadi. Bu esa “kafolatlangan” yakuniy natijaga erishiladigan pedagogik texnologiyaning to’g’ri tuzilganligini ko’rsatadi. Asosiysi ham shu, darsga kelgan har bir o’quvchi biror yangi ma’lumot (ta’limiy maqsad bo’yicha) bilim olishi, olgan bilimni qayerda qo’llay olishini tushunishi, (rivojlantiruvchi maqsad bo’yicha) ko’nikma va malakaga ega bo’lishi, shaxs sifatida nimagadir yoki kimgadir nisbatan munosabati o’zgarishi (tarbiyaviy maqsad bo’yicha), ya’ni kechagidan bir pog’ona yuqoriga ko’tarilib, darsdan chiqib ketishi zarur.

Ta’lim texnologiyasi talablari bo’yicha ta’lim jarayonida ta’lim beruvchi “ta’lim oluvchi – ta’lim jarayoni – ta’lim beruvchi” an’anasiga muvofiq olib boriladi. Mazkur an’anaga muvofiq, ta’lim beruvchi avvalgidek tayyor bilimlarni ta’lim oluvchiga yetkazib beruvchi shaxs sifatida emas, balki yo’llanma beruvchi, boshqaruvchi, maslahat beruvchi, baholovchi shaxs sifatida faoliyat olib boradi. Ammo ta’lim ja-

<sup>1</sup> Innovatsion texnologiyalar. Ilmiy-texnik jurnal. QarMI, 2019, 2, 95-bet.

<sup>2</sup> Шамиева О.Р. Инновационные обучающие технологии в профессиональной подготовке современного специалиста. Материалы международной научно-практической конференции «Активные вопросы социальных и гуманитарных наук в инновационном развитии» (Джиззак, 20 ноября 2020), с. 95.

rayonini avvalgidek ta'lim beruvchi hamda ta'lim oluvchi faoliyatlarining o'zaro aloqadorligi, bog'liqligi hamda teskari ta'sir xususiyatini saqlab qoladi. Murakkab vaziyatlarda o'zlashtirilishi jihatidan qiyin bo'lgan nazariy ma'lumotlarni ta'lim beruvchi tomonidan bayon etib berilishi maqsadga muvofiqdir.

**Muminova Dilafro'z Akbaraliyevna (Namangan davlat universiteti Boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; dilbarxon2008@mail.ru)**

### **KITOB – XAZINALAR KALITI, FIKRLAR QUROLI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobga muhabbat uyg'otish, kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, mutolaa madaniyati, kitob insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbasi ekanligi, kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbasi bo'lgani, to'g'ri o'qish qoidalari, badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga doir pedagogik-psixologik ma'lumotlar keltirilgan.

**Аннотация.** В данной статье речь идёт о привитии младшим школьникам любви к книге, развитию навыков чтения, культуры чтения, книга – лучший друг и советчик человека, источник ума и знаний, книга – инструмент мышления, ключ к сокровищам. Автор рассуждает о книге как об источнике информации, правилах правильного чтения, повышении интереса к художественной литературе.

**Annotation.** In this article, instilling a love of books in elementary school students, developing reading skills, reading culture, the book is man's best friend and advisor, a source of intelligence and knowledge, a book is a tool for thinking, a key to treasures, thinking. Pedagogical-psychological information about the source, correct reading rules, increasing interest in fiction.

**Kalit so'zlar:** kitob, bola, inson, axborot texnologiyalari, millat, talabalar, g'oya, faraz, o'quvchilar, shaxs, kitobxonlik, ko'nikma, mutolaa, nutq, badiiy adabiyot, ta'lim, savodxonlik, o'qish, texnologiya, mutolaa madaniyati.

**Ключевые слова:** книга, ребенок, человек, информационные технологии, нация, учащиеся, идея, гипотеза, учащиеся, человек, чтение, умение, чтение, дискурс, художественная литература, образование, грамотность, зима, технология, культура чтения.

**Key words:** book, child, human, information technology, nation, students, idea, hypothesis, students, person, reading, skill, reading, discourse, fiction, education, literacy, o winter, technology, reading culture.

Kitob maslahatchi, sadoqatli hamroh, eng yaqin do'st va bebaho boylik hisoblanadi. Bola tarbiyasida uning o'rni muhim. Millatning ma'naviy-ruhiy dunyosini kitobga munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash mumkin. Jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz erishgan betakror yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasidir. Shu bois yurtimizda aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Kitob – insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbasi. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbasi bo'lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo'tabar deb hisoblagan. Shuning uchun kitobta muhabbat, uni qadrlash, o'qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Kishining madaniyati uning kitobida aks etadi. Kitob – inson ma'naviyati va dunyoqarashini yuksaltiruvchi muhim manba hisoblanadi. Kitob o'qigan inson mulohazali, bilimli bo'lib, yuksak tafakkuri ila boshqalardan o'zining dunyoqarashi va fikrlashi bilan ajralib turadi. Kitob bilan oshno bola yaxshi inson bo'lib ulg'ayadi. Shuning uchun ham oilada, bog'cha va maktablarda bolalarning kitobga mehri, adabiyotga qiziqishini oshirish ota-onalarning, o'qituvchilarning vazifasi.

Har qanday taraqqiyot ijtimoiy rivojlanishga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan mavjud sharoitda shaxs ehtiyojlarini qondiruvchi ma'lumotlarni tarqatuvchi OAV soni, turining ko'payib, ular qamrab olgan ko'lamning tobora kengayib borayotganligi kitob va kitobxon mavzusining yanada dolzarblashayotganligida ikki jihatni ko'rish mumkinligini tasdiqlaydi: "yaxshi tomoni, mutolaa ehtiyoji yuksalib, shaffoflashib borayotganligi, xavotir tarafi ommaviy kitobxonlik susayib, betiyiq kitoblarning rastalarda ko'payotganligi".<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Nima uchun kitoblarni o'qish tinglashdan yaxshiroq?//<https://kun.uz/news/2018/10/16/nima-ucun-kitoblarni-ukis-tinglasdan-yahsirok>.



M.Y.Gudovanning yondashuviga ko'ra, kitob o'qishni uch holatga ya'ni, faoliyat, ijtimoiy institut hamda madaniy amaliyot sifatida o'rganish kerak.<sup>1</sup> Bizning fikrimizcha, kitob o'qish jarayon hamda shaxs faoliyatining muayyan ko'rinishi, kitobxonlik esa kitob o'qish faoliyatini maqsadli, izchil va samarali tashkil etish asosida o'zlashtirilgan sifat sanaladi. O'z mohiyatiga ko'ra, jarayon va faoliyat uni tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri, oqilona, tizimli tashkil etishni taqozo qiladi.

Talabalarni ijtimoiy faolligini oshirishda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish muammosining umumiy mohiyatini yoritishda dastlab tayanch tushunchalarni ajratish hamda ularning mazmunidan xabardor bo'lish tadqiqiy xarakterga ega pedagogik faoliyat yo'nalishini to'g'ri belgilash, sinovdan o'tkaziladigan nazariy g'oya va farazlarni aniq ifodalash, kutiladigan natijani oldindan to'la tasavvur etish imkoniyatini ta'minlaydi. Shu sababli ilmiy tadqiqotni olib borishda muammo asosini tashkil etuvchi, uning mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib olish va ularni pedagogik nuqtayi nazardan yoritishga e'tibor qaratildi.

Kitoblar orasida bolalar uchun mo'ljallangan kitoblar o'ziga xos o'rin tutadi. Bu turdagi adabiyotlar ham boshqa turdagi kitoblar kabi borliq to'g'risidagi axborotlarni jamlovchi, kishilik taraqqiyoti tajribasini o'zida jamlovchi manbadir. Shu sababli talabalarni ham kitobga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishlariga erishishda bolalar adabiyotlarini shunchaki ermak, o'yinchoq deb emas, balki ularni intellektual, hissiy, axloqiy madaniyatini shakllantirishning eng samarali vositasi sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Zero, kitob va kitob o'qish "yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va san'atimizni yanada rivojlantirish, yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash"da o'ziga xos o'rin tutadi.<sup>2</sup> Kitob "bolalarni qiziqitira olishi, zavqlantirishi, hayratlantirishi, to'liqlantirishi kerak".<sup>3</sup>

Bolalar adabiyotlari (bolalar uchun mo'ljallangan badiiy asarlar)ning eng muhim didaktik ta'sirlaridan yana biri – bolalarda estetik dunyoqarash (estetik ong, his-tuyg'u, did, ideal, sezgi, tasavvur, tafakkur hamda qarash)ni shakllantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Estetik dunyoqarashning shakllanishi hamda rivojlanishi bolalarning hissiy jihatdan kamol topishiga yordam beradi. Hissiyot rivojlanishining eng muhim jihati – bolalar atrofdagilarga, borliqqa, tabiatga nisbatan befarq, loqayd bo'lmaydi. Ming afsuski, "bugungi kunda o'qish umummadaniy, estetik, hissiy ehtiyojlarni qondirishga emas, balki eng oddiy axborot olish ehtiyojini qondirish"ga yo'naltirilmoqda.

Talabalarning kitob bilan muloqoti uni o'qishda ko'rinadi. Mohiyatan o'qish "ijtimoiy ahamiyatli axborotlar, kasbiy va kundalik faoliyatni tashkil etishda zarur bo'lgan bilimlar, avval va hozirda madaniy jihatdan qadrli bo'lgan tarixiy hamda zamonaviy voqealar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zlashtirishning muhim usuli"dir.<sup>4</sup>

Xalqaro o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash dasturi – PISA (Programme for International Student Assessment) jamoasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar jarayonida kitobxonlik kompetentligi negizida g'oyasi, maqsadli va rasmiy tuzilishiga ko'ra, turli xarakterdagi matnlarni tushunish, ular o'rtasida aloqani bir qadar kengroq hayotiy tajriba bilan bog'lay olish, ulardan o'quv faniga muvofiq turli maqsadlar uchun foydalanish imkoniyatiga ega, shuningdek, muhim bo'lsa-da, biroq qo'yilgan maqsadga mos kelmaydigan axborotlarni matndan chiqarib tashlash qobiliyati tushuniladi.

Pedagogik sohadagi tadqiqotlarda "kitobxonlik madaniyati" tushunchasi ham faol qo'llaniladi. Kitobxonlik madaniyati – kitobxonlik ko'nikmasi, ehtiyoji va dunyoqarashi: o'qish va kitobga bo'lgan barqaror qiziqish, kitobxonlik zakovati, matnni ifodaviy va tushungan holda o'qitish ko'nikmasi, turli janrdagi asarlarni o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyat, zaruriy nazariy-badiiy bilimlar, o'qilgan asarlarni bibliografik, nutqiy va talqiniy bilimlar, o'qilganlar bilan bog'liq holda o'z fikri va tuyg'ularini ifodalovchi nutqiy, shuningdek, muallifning pozitsiyasini tushunish malakasi rivojlanganligining muayyan darajasi hisoblanadi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, "kitobxonlik madaniyati" negizida tegishli sifatning muayyan darajasi emas, balki yuqori darajasi aks etadi. Zero, "madaniyat" tushunchasi turli zamona va makonlarda ham yuqorilik, ustuvorlikni anglatishga xizmat qilgan.

<sup>1</sup>Хафизов Д.М. Социокультурные практики повышения читательской активности молодежи: стимулирующие возможности моды. Автореф.дис... канд.наук. культурологии, Челябинск, 2017, с. 15.

<sup>2</sup> Sayyid S. Kitobsiz kelajak yo'q//<http://uza.uz/oz/society/kitobsiz-kelazhak-y-16-01-2017.133>

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., "O'zbekiston", 2014, 72-bet.

<sup>4</sup> Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. Минск, "Народная асвета", 2001, с. 287.

“Mutolaa” tushunchasi arab tilidan tarjima qilinganda “diqqat bilan o‘qish”, “o‘rganish” ma’nolarini anglatadi. Nazariy jihatdan ushbu tushuncha “diqqat bilan o‘qish, o‘qib tushunib olish”ni anglatadi. Shuni unutmaslik zarurki, kitob o‘qish – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mashaqqatli mehnat sanaladi. V.A.Suxomlinskiyning fikricha, “kitob o‘qish aqlli, fikrlovchi tarbiyachi uchun bolaning yuragiga yo‘l topishga yordam beradigan so‘qmoq yo‘lga o‘xshaydi” So‘qmoq yo‘ldan yurish esa har doim ham oson kechmaydi. Shu sababli bu jarayonni asta-sekin, biroq izchil tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda kitob – insonning qalb gavhari, tafakkur xazinasi. Biz shunga erishishimiz kerakki, farzandlarimiz uchun kitob eng bebaho sovg‘a bo‘lsin. Shundagina farzandlarimiz biz orzu qilgandek, ma’naviy yetuk, teran fikrlay oladigan, katta va kichikka mehribon, Vatanga sodiq, insofli, diyonatli va oliyjanob insonlar bo‘lib kamol topadilar.

**Ataxonov Jaloliddin Faxriddin o‘g‘li (Urganch davlat universiteti uchinchi bosqich talabasi),  
Allaberganova Barnoxon Ulugbekovna (TTA Urganch filiali akademik litseyi fizika fani o‘qituvchisi)  
“ELEKTROMAGNIT INDUKSIYA QONUNI” MAVZUSINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY  
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI**

**Annotatsiya.** Bu ishda o‘quvchilarga “Elektromagnit induksiya” qonunini tushuntirishda yangi pedagogik texnologiyalardan, xususan, ma’ruza mashg‘ulotlarida “Insert” va amaliy mashg‘ulotlarda “Galereya bo‘ylab aylanish” va “Har kim har kimga o‘rgatadi” laboratoriya mashg‘ulotlarida “Bumerang” interfaol metodidan foydalanish mumkin. Ma’ruza mashg‘ulotlarida “Insert” interfaol metodini qo‘llash orqali talabalar mavzuning tub mohiyatini tushunib yetishi mumkin. Xususan, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarda “Galereya bo‘ylab aylanish” va “Har kim har kimga o‘rgatadi”, “Bumerang” interfaol metodlaridan foydalanish talabalarda mavzuni to‘liq o‘zlashtirish imkonini beradi.

**Аннотация.** В данной работе используются новые педагогические технологии для объяснения студентам закона «Электромагнитной индукции», в частности, на лекционных занятиях метод «Insert», на практических занятиях метод «Galereya bo‘ylab aylanish» и на лабораторных занятиях метод «Har kim har kimga o‘rgatadi». А также можно использовать интерактивного метода «Bumerang». Студенты используя интерактивный метод «Insert» во время лекций, могут понять суть темы. В частности, использование интерактивных методов «Galereya bo‘ylab aylanish» и «Har kim har kimga o‘rgatadi», «Bumerang» на практических и лабораторных занятиях позволяет студентам полностью освоить предмета.

**Annotation.** In this research new pedagogical technologies can be used to explain the law of “Electromagnetic induction” to students, in particular, the interactive method “Bumerang”, in lecture, “Insert” in practical classes, “Galereya bo‘ylab aylanish” and “Har kim har kimga o‘rgatadi” in laboratory classes. Students will be able to understand the essence of the topic by using the interactive method “Insert” in lectures.. In particular, the use of interactive methods “Galereya bo‘ylab aylanish”, “Har kim har kimga” and “Bumerang” in practical and laboratory classes allows students to fully master the topic.

**Kalit so‘zlar:** induksiya, elektromagnit induksiya qonuni, magnit maydoni, Lens qoidasi, magnit oqim.

**Ключевые слова:** индукция, закон электромагнитной индукции, магнитное поле, правило Ленца, магнитный поток.

**Key words:** induction, law of electromagnetic induction, magnetic field, Lenz’s rule, magnetic flow.

Ta’lim jarayoniga interfaol metodlar bilan birgalikda, axborot texnologiyalarini foydalanib o‘qitish metodlarining samaradorligini oshirishga, o‘qituvchilar mehnat faoliyatining o‘zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarining takomillashuviga olib keladi.

Hozirgi kunda jamiyatning har bir a‘zosi, o‘zining kundalik faoliyatida uzluksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qiladi. Zamon talabi shunday ekan, o‘qituvchi ham o‘z kasbiy va pedagogik mahoratini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida oshirib borish mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalari o‘z muhitida axborot obyektlarini ularning o‘zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to‘plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek, axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlantiradi.<sup>1</sup>


<sup>1</sup> Mahamatrasul Jo‘rayev. Fizika o‘qitish metodikasi. Toshkent, “Abu Matbuot-Konsalt”, 2015, 2-bet.

Boshqa ijtimoiy-gumanitar, tabiiy va umumkasbiy fanlar qatori, “Fizika” fanini ham o‘qitishda foydalaniladigan interfaol metodlar guruhiga o‘qitishning muammoli – izlanish metodlari, mantiqiy metodlar, mustaqil ishlash metodlari, talabalar faoliyatini rag‘batlantirish va asoslash metodlari, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari kiradi.<sup>1</sup> Shuning uchun “Elektr va magnetizm” kursining muhim va qiziqarli mavzularidan “Elektromagnit induksiya qonuni” mavzusidan ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasini yaratish ishning maqsadi hisoblanadi. Ushbu mavzu bo‘yicha ma’ruza mashg‘uloti quyidagi reja bo‘yicha o‘qitiladi: 1. Elektromagnit induksiya hodisasi. 2. Induksiya–elektr yurituvchi kuch. 3. Faradey qonuni. 4. O‘z-induksiya hodisasi. 5. O‘zinduksiya E.Y. 6. Induktivlik.

An’anaviy ta’limdan farqli zamonaviy ta’limni tashkil etishdan maqsad ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyati, bilimni nazorat qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash fizika fani o‘qituvchisidan katta pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga yangicha yondashishni talab etadi. Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida o‘quvchilarning ilmiy faoliyatini, ijodkorligini oshiruvchi, shu bilan bir qatorda, ta’lim-tarbiya jarayoninig samaradorligini kafolatlovchi yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan. Shu tajriba asosini tashkil qiluvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilib, bu metodlarni dars jarayoniga qo‘llay bilish bugungi zamon fizika o‘qituvchisi zimmasiga yuklatilgan yuksak vazifadir. Pedagogik texnologiyaning muvaffaqiyatli loyihalaniishi va yakuniy natija(samara)ning kafolatlanishi o‘qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab yetish darajasi va darsda ularni to‘g‘ri baholay olishiga bog‘liqdir. Har bir o‘tiladigan darsda ta’limning aniq maqsadining belgilanishi o‘qitish texnologiyasini loyihalashda muhim shartlardan biri sanaladi.<sup>2</sup>

Dars davomida Internet tarmog‘idan foydalanib, elektromagnitning magnit induksiya chiziqlarining yo‘nalishi, “Berk konturda yuzaga keuvchi IEYK”ni aniqlash imkonini beruvchi animatsion fayldan foydalanish mumkin (1-rasm). Ushbu animatsion faylda doimiy magnitni turli xil yo‘nalishda harakatga keltirish va berk konturning o‘ramlari sonini o‘zgartirib berk konturdagi induksiya elektr yurituvchi kuchni hamda induksion tok miqdorini aniqlash imkonini beradi.

Ma’ruza mashg‘uloti davomida talabalarga “Insert” (belgi qo‘yib o‘qish) metodidan foydalanishni taklif qilsa bo‘ladi. “Insert” metodi bu matnni belgi qo‘yib o‘qishdir.



1-rasm. Elektromagnit induksiya qonuni uchun Faradey tajribasi.

Belgilar quyidagi tartibda qo‘yiladi. O‘qish davomida tugallangan ma’lum mazmunga ega bo‘lgan gap oxirida (qator oxirida) qo‘yiladi. Belgilar quyidagicha tanlanadi.

“+” belgisi qo‘yiladi agar o‘qiganlari tushunarli bo‘lsa. Yangilik ola bilgan bo‘lsa “V” belgisi qo‘yiladi. Agar o‘qiganlari tushunarsiz, fikriga qarshi bo‘lsa, “?” belgisi qo‘yiladi. Agar o‘qiganlari yuzasidan savoli bo‘lsa, tushunmasa “–” belgisini qo‘yadi.

O‘qitish davomida talaba quyidagi jadvalni daftariga chizib matn bo‘yicha mos qismiga yozishi lozim.

<sup>1</sup>Abdullayev G.A. Fizika. “O‘qituvchi”, 1989.

<sup>2</sup> Shu manba.

+	V	?	-

Insert metodidan darsning yangi mavzuni o‘rganish bosqichida foydalanish lozim. Ushbu metodni o‘zlashtirish uchun quyidagi tayanch atamalar va iboralar qo‘llanilishi mumkin: elektromagnit induksiya xodisasi, induktivlik, magnit oqim, Lens qoidasi, magnit induksiya, elektromagnit induksiya qonuni, induksion tok,

“Elektr va magnetizm” kursidan taqvim rejada ushbu mavzudan amaliy mashg‘ulotlariga 2 soat ajratilgan.

1-amaliy mashg‘ulot. 1. Qur‘a tashlash yo‘li bilan guruh har bir guruhchada 6 o‘quvchidan 4 ta kichik guruhchalarga ajratiladi.

2. O‘quvchilar har biri 6 ta masaladan iborat variant savollarini olishadi.

3. Har bir kichik guruh o‘quvchilari bir xil ruchkada javob beradilar.

4. Har guruhning varaqlarida sana, guruhning nomeri, pedagogik texnologiya nomi, shu guruhda ishtirok etadigan o‘quvchilarning ismi, sharifi yoziladi.

5. Har bir guruh 50 daqiqa davomida o‘z savollariga o‘zlarining ruchkalarida javob beradilar.

6. Har bir guruh oldingi guruh javobini baholaydi, agar javob to‘la bo‘lmasa, javobni o‘z ruchkasi bilan to‘ldiradi yoki javob noto‘g‘ri bo‘lsa, o‘zining o‘z variantini taklif etadi. Bu bosqichga ham 10 daqiqa vaqt beriladi.

7. Nazorat tugagach, jami 60 daqiqadan keyin varaqlarda har xil rang bilan yozilgan javoblar bo‘ladi va ishlar o‘qituvchiga topshiriladi.

8. O‘qituvchi hamma qatnashchilar natijalarini umumlashtiradi va o‘quvchilar ishlarini baholaydi. Kamchiligi guruhlar bir xil kuchli bo‘lmasligi mumkin.

Amaliy mashg‘ulotlarda “Har kim har kimga o‘rgatadi” metodi o‘quvchilarga o‘qituvchiga aylanish ma‘lum bilimlarni o‘zlashtirgach, o‘rtoqlari bilan baham ko‘rish imkonini beruvchi o‘qitish usuli hisoblanadi. Bu usul yordamida o‘quvchini o‘qishga bo‘lgan qiziqishi oshadi va olgan bilimlarini yanada mustahkamlab oladi. Bu metoddan biz amaliy mashg‘ulotlarida qo‘llasak dars samaradorligi oshadi. Amaliy mashg‘ulotlarida yaxshi biladigan o‘quvchilarga o‘zlashtirishi qiyinroq yoki sekinroq bo‘lgan o‘quvchilar birlashtiriladi va o‘quvchilar bir-birlariga amaliy mashg‘ulotdagi masalalarni yechishni o‘rgatadilar. Amaliy mashg‘ulotlarda yechiladigan masalalar fizikaning boshqa bo‘limidagi masalalarga qaraganda bu bo‘limida ko‘roq va murakkabroq. Shuning uchun o‘quvchilar birgalikda ishlasa, dars samaradorligi oshadi.

Shunday qilib, “Elektromagnit induksiya” qonunini mavzusini o‘qitishda maruza mashg‘ulotlarida “Insert” metodini, amaliy mashg‘ulotlarida esa “Galereya bo‘lyab aylanish”, “Har kim har kimga o‘rgatadi” va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun “Bumerang” interfaol metodlarini qo‘llash o‘quvchilarga mavzuni tub mohiyatini tushuntirishda yaxshi samara beradi.

O‘qituvchi va o‘quvchilarning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tamonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi.

Mavzuni o‘quvchilarga yetkazib berish uchun, ya‘ni, natijaga erishish uchun kompyuter yordamida turli dasturlar bilan ishlash, tarqatma material, chizma va plakatlarni, turli adabiyotlardan va turli animatsion madellardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

**Turdiyev Elmira Djurayevich (Qarshi DU Texnologik ta‘lim kafedrasida dotsenti;**

**e-mail: [eturdiyev@gmail.com](mailto:eturdiyev@gmail.com)**

**KATTA YOSHLILAR TA‘LIMIDA ANDRAGOGIK YONDASHUV**

***Annotatsiya.** Maqolada katta yoshlilar ta‘limi, andragogika va adragogik ta‘lim tushunchalari, andragogik ta‘limning ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik xususiyatlari yoritilgan.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются понятия образование взрослых, андрагогика и андрагогическое образование, а также социально-психологические и педагогические аспекты андрагогического образования.*

***Annotation.** The article is dedicated to andragogics, education of adragogics. As well there is considering the issues of social-psychology and pedagogical aspects of andragogics.*

***Калум so‘zlar:** katta yoshlilar ta‘limi, andragogika, andragogik ta‘lim, adragog, kompetentlik, kasbiy rivojlanish.*

**Ключевые слова:** образование взрослых, андрагогика, андрагогическое образование, компетентность, андрагог, профессиональное развитие.

**Key words:** andragogy, providing andragogical education, competence, creativity, adult educators, professional development.

Har qanday mamlakatning barqaror rivojlanishi uning raqobatbardoshligini ta'minlash ishchi kuchi bozorining tez o'zgaruvchi ehtiyojlarini hisobga olgan holda, aholini, ayniqsa, katta yoshlilarni doimiy ravishda kasb-hunarga o'qitish va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq. Shu sababli bugungi kunda O'zbekiston uchun katta yoshdagi aholini o'qitish va unga ta'lim berishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston faqat ta'limni rivojlantirib, eng muhimi, bunga aholining barcha qatlamlarini jalb qilish orqali yuksak marralarga erishish mumkinligini inobatga olib, 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri Prezident tomonidan imzolandi va kuchga kirdi. Mazkur qonunning 2-bob (Ta'lim tizimi, turlari va shakllari) 19-moddasi "Katta yoshlilarni o'qitish va ularga ta'lim berish" deb nomlangan bo'lib, unga ko'ra, katta yoshlilarni o'qitish va ta'lim berish butun umr davomida o'qitishning markaziy tarkibiy qismi ekanligi ta'kidlandi. Ta'lim berish va o'qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshlilarning ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha shakllarni o'z ichiga oladi, shuningdek, rasmiy, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarining butun majmuyini qamrab oladi.

Katta yoshlilar kimlar? Ma'lumki, raqobatga asoslangan bozor munosabatlari aholining ish bilan band bo'lmagan qatlamini vujudga keltirib chiqaradi. Kuzatish natijalari shuni ko'rsatadiki, aholining ish bilan band bo'lmagan qatlamining aksariyatini katta yoshli kishilar tashkil etadi. Katta yoshli deganda yoshi 30 dan oshganlar, nafaqadagilar nazarda tutiladi. Ammo hozirgi kunda bu qatlamga o'rta ma'lumotga ega bo'lgan va mustaqil pul topishni boshlagan har qanday inson katta yoshli hisoblanadi, ya'ni, bu toifaga ishni endigina boshlamochi bo'lgan yoshlar ham, ma'lum bir mutaxassislikka ega o'rta yoshlilar ham, yangi kasb-hunarni o'rganishni, garchi oliy ma'lumotli bo'lsa-da) yoki o'z kasbini o'zgartirish (masalan, karyera uchun)ni xohlovchilar ham, shuningdek, aholining zaif qatlamlari, xususan, ijtimoiy himoyaga muhtojlar, mehnat muhojirlari, mahkumlar, nogironlar, qariyalar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va boshqalar kirishi mumkin.

Katta yoshlilarni o'qitish boshqalardan farq qiladi. Shu soha mutaxassislarining fikricha, inson psixologiyasi va falsafiy qarashlar hamda kattalarni o'qitish bo'yicha o'sib borayotgan ilmiy izlanishlar va nazariyalarga asoslanib, katta yoshlilarni o'qitishda quyidagi omillarni hisobga olish lozim.

*Psixofiziologik omil.* Ba'zi yoshi katta odamlarda yangi bilimlarni o'zlashtira olishi borasida shubha bo'ladi. Bu shubhalar yosh ulg'ayishi bilan insonda aqliy salohiyat sekinlashishi, xotiraning pasayishi haqidagi qarashlar bilan bog'liq. Lekin olimlar tomonidan hamma yoshda ham o'qish, o'rganish mumkinligi isbotlangan.

*Ijtimoiy-psixologik omil.* Katta yoshlilarning ta'lim jarayonidan kutayotgan natija va maqsadining aniq bo'lishi, ularda o'qish o'rganishga bo'lgan motivatsiyaning kuchliligini ko'rsatadi, ammo ba'zilar qaytadan "o'quvchilik" maqomiga tushish layoqatsizdek ko'rinib qolishdan qo'rqishadi. Ular bu jarayonlarga har doim ham ruhiy jihatdan tayyor bo'lmaydilar.

*Ijtimoiy to'siq omili.* Katta yoshli odam ta'lim jarayonida ishtirok etar ekan, u ta'limning sifatli bo'lishiga nafaqat jiddiy e'tibor qaratadi, balki o'zi uchun qiziqarli yoki kerak bo'lmagan bilimlarni ochiqlik bilan rad etadi, o'z munosabati yoki noroziligini ochiq bildiradi, chunki o'rganilayotgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishdan uning o'zi manfaatdorligini yaxshi tushunadi. Bu esa ta'lim sifatiga yangi talablarni qo'yadi. Shu sababli katta yoshlilar ta'limi bilan shug'illanuvchi – andragog (referent, tashkilotchi yoki trener) ta'lim berish jarayonida katta yoshli o'quvchining o'ziga xosligi, dunyoqarashi, ijtimoiy maqomi, hayotiy tajribaga ega ekanligi va boshqa jihatlariga e'tibor qaratishi zarur.

*Psixologik-pedagogik omil.* Ba'zida odamlarda umr bo'yi o'qib-o'rganishi karakligi haqidagi qarashlarning shakllanmaganligi yoki inson o'zini umr bo'yi o'qib-o'rganishga, yangiliklarni qabul qilishga layoqatli ekanligini to'g'ri baholay olmasligi kuzatiladi. Shuning uchun ham katta yoshlilar ta'limi jarayonida ularning o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon etishlari uchun qulay shart-sharoit yaratilishi lozim. Bunda jarayon erkin, interfaol muloqot maydoni muvaffaqiyatga yo'naltirilgan bo'lishi, o'qitishda amaliy ishbilarmonlik o'yinlari, terninglar, debatlar keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Yuqorida qayd etilgan omillar katta yoshlilar ta'limiga boshqacha yondashishni taqozo etadi. Jahon tajribasida katta yoshlilarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti bilan andragogika (adult education) shug'ullanadi. Andragogika fan sifatida shakllanganigacha qadar bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. Xususan, XIX asrning 30-yillaridan boshlab Yevropa va Amerikaning ko'pgina davlatlarida bu davrda ishlab chi-

qarishning tez o'sishi, jamiyat va ijtimoiy hayotning rivojlanishi negizida kattalarni o'qitishning dastlabki tajribalari to'plana boshladi.

XX asr boshlarida katta yoshlilarni o'qitish muammosi olimlar tomonidan insonni o'rganuvchi fanlar tizimiga kiritilgan. Birinchi navbatda, bu insonning turli yosh davrlaridagi ruhiy rivojlanishi jarayonlari bilan bog'lanadi. Ammo bu vaqtda inson hayotining hamma bosqichida ham ta'lim olish mumkinligi haqidagi qarashlarni asoslash zarurati vujudga keldi.

1950–1960-yillarda bir qancha xorijiy mualliflarning ishlarida kattalarni o'qitishning didaktik va metodik yondashuv muammolari ko'rib chiqilgan. Jumladan, aksariyat xorijiy tadqiqotchilar katta yoshlilarni o'qitishning pedagogik tamoyillar asosida talqin etib, kattalarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini “kattalar pedagogikasi” deb ataganlar.<sup>1</sup>

1960–1970-yillarda bir qancha olimlar (M.Ogrizovich, F.Peggeler, G.Xonselmana va boshqalar)<sup>2</sup> ilmiy ishlarida “andragogika” iborasi paydo bo'ldi. Bu mualliflar andragogikaning pedagogikadan farqlarini aniqlashga harakat qildilar. Andragogikaning alohida fan sifatida shakllanishi va tanlanishi 1970-yilga to'g'ri keladi, aynan shu yili kattalar ta'limining amerikalik nazariyachi va amaliyotchi olimi M.Sh. Noulzning “Kattalar ta'limining zamonaviy amaliyoti. Andragogika yoki pedagogika” nomli fundamental ishi chop etildi.

1981-yilda Nobel mukofoti laureati, amerikalik Robert Sperry tomonidan “Split Brain Theory” (miyaning ikki yarim sharlari nazariyasi)ning yaratilishi katta yoshlilar ta'limi jarayoniga boshqacha yondashishga turtki bo'ldi. Sperry konsepsiyasiga ko'ra, miyaning ikki yarim sharlari turli funksiyalarga ega bo'lib, o'ng va chap yarim sharlar fikrlash holatida turli xil jarayonlarga asoslanadi.

Ta'lim olish mobaynida yangi bilimlarni o'rganishda insonlar bir qator bilish jarayonlariga murojaat qilishlari, tabiiy. Bu jarayonlar inson yosh xususiyatlariga qarab takomillashib boradi. Shu sababli ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi bu jarayonlardagi o'z vazifalarini aniq bilib olishlari lozim.

Inson voqelik to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni sezgilar orqali oladi. Sezgilar insonni voqelik bilan bog'lovchi vosita hisoblanadi. Bu bog'lanish sezgi turlarini o'rniga qarab, bir necha turga bo'linadi. Ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri – tuyish sezgilari aynan bilishni boshlang'ich vositalari hisoblanadi. Sezish hali ma'lumotlarni o'zlashtirish degan so'z emas, bunda sezgilar orqali ma'lumotlar bir necha xususiyatlariga ko'ra, yaxlit holga olib kelinadi. Bu esa ma'lumotlarni idrok qilish deyiladi. Idrok qilingan ma'lumotlar xotiradagi oldingi ma'lumotlar bilan sentez, analiz qilinib, guruhlanadi, yaxlitlanadi va tizimga solinadi. Bu ma'lumotlar inson miyasida qayta ishlanadi, ta'savvur qilinadi va ma'lum bir xulosaga, natijaga keladi.

Umuman olganda, o'zlashtirish murakkab jarayon bo'lib, uning natijasi bilim olishda sezgi turlarining ishtirokiga bog'liq bo'ladi. Shu soha mutaxassislari, psixolog olimlarning fikricha, verbal (og'zaki) o'qitish usullaridan (ma'ruza, hikoya, tushuntirish) foydalanilganda ta'lim oluvchilarda ma'lumotlarning 5% o'zlashtirishlari isbotlangan.

Kitob o'qish orqali ma'lumotlarning 10% o'zlashtirish imkoni mavjud. Videofilm, rasm, ko'rgazmali qurollarni ko'rish, ko'rgan ma'lumotlarning 20%ni o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Loyihalash usuli, turli xil harakatli o'yinlar, mashq va mustaqil ishlarni bajarish (masalalar yechish) o'rganilayotgan ma'lumotning 75%ni, o'quv amaliy mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarning bevosita ishtirok etishi undan ko'ra samarali hisoblanadi. Masalan, mustaqil dars o'tish yoki boshqalarni o'qitish orqali 90% ma'lumot o'zlashtirilishi e'tirof etilgan.

Katta yoshlilar ta'limi jarayoning o'ziga xos jihatlaridan biri bu o'zlashtirilayotgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar tizimining kasbiy yoki hayotiy jarayonda o'z o'rnini topishga qaratilganligining ongli ravishda anglanishi, maqsadning aniqligi, o'qish-o'rganishga bo'lgan motivatsiyaning kuchliligi bilan tavsiflanadi. Bu esa ta'lim jarayonida o'ziga xos differensial yondashuv, andragogik tamoyillar, zaruriy pedagogik shart-sharoitlar hamda o'qitish texnologiyalarini talab qiladi.

Katta yoshlilar ta'limi bilan shug'ullanuvchi andragog (referent, tashkilotchi, trener)ning faoliyati quyidagi tamoyilga asoslanadi.

*Tenglik tamoyili.* Bu yerda katta yoshlilar ta'limi bilan shug'ullanuvchi andragog yoki referent o'zi ham boshqalar kabi guruh ishrokhisi ekanligini ko'rsatishi kerak. Buning uchun auditoriyada shunday

<sup>1</sup> Колесникова И.А. Основы андрагогики. М., «Академия», 2007, с. 120.

<sup>2</sup> Poggeler F. Einführung in die Andragogik. Düsseldorf, 1957; Xonselmana G. Andragogik: Wesen, Möglichkeiten, Grenzen der Erwachsenenbildung. Zürich, 1951.

shart-sharoit yaratilishi kerakki, u yerdagi barcha ishtirokchilar o'zlarini shu muhitda erkin, faol va hamkordek his etsinlar.

*Faol ijod tamoyili.* Har birimiz ega bo'lgan tajribalar, qoliplashgan tasavvurlar (steriotiplar) yaratishga olib keladi va istalgan yangi narsani biz "eskichasiga", ya'ni, o'zimiz o'rganib qolganimizdek, tushinishga hamda bajarishga harakat qilamiz. Bu steriotipni o'zgartirish va miyamizni yangi bilimlarni qabul qilishga, g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorlash uchun guruhda maxsus muhitni yaratish kerak.

*Shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish tamoyili.* Ta'lim jarayonida ishtirokchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, har bir kishiga uning barcha injiqliklariga qaramasdan hamdard bo'la olish (impatiya) kabilar nazarda tutiladi.

*Qulaylik tamoyili.* Uzoq vaqt harakatsiz o'tirish, faqat bitta mashg'ulot bilan band bo'lish hayolning buzilishiga olib keladi. Shuning uchun vaqti-vaqti bilan kichik tanaffuslardan, qo'l-oyoqning chigalidan foydalanish yaxshi natija beradi. Katta yoshli insonga refleksiya (yaxshi axborotni o'ylash) uchun pa-uza kerak, shunday ekan, tanaffusni bekorga yo'qotilgan vaqt deb o'ylamaslik kerak.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillar katta yoshlilar ta'limini boshqaruvchi andragog referentning faoliyatini belgilab beradi.

Jamiyat taraqqiyotida katta yoshlilarni o'qitish va ularga ta'lim berish dolzarb masala sifatida qaralayotgan bo'lsa-da, bu sohada qilinishi kerak bo'lgan ishlar yetarli darajada ko'p. Jumladan:

1) ratta yoshlilarni o'qitishni va ularga ta'lim berishni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish zarur;

2) ratta yoshlilarni o'qitish va ularga ta'lim berish bilan shug'ullanuvchi andragog-pedagoglarni tayyorlash yo'lga qo'yilmagan. Respublikamizdagi birorta OTMlari va boshqa tashkilotlarda soha bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmaydi (vaholanki, kasbiy ta'lim va texnologik ta'lim yo'nalishlari bazasida katta yoshlilar ta'limi bilan shug'ullanuvchi andragog (referent, trener, tashkilotchi)larni tayyorlash uchun imkoniyat mavjud;

3) norasmiy (nodavlat, notijorat ta'lim va informal o'qitish natijalarini tan olish, tasdiqlash va sertifikatlashni tashkil etish;

4) onlayn (masofadan o'qitish) ta'limini kengaytirish uchun shart-sharoit yaratish maqsadga muvofiq.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda katta yoshlilarni o'qitish va ularga ta'lim berishda andragogik yondashuv to'laqonli amalga oshirilsa, aholining eng katta qatlamini jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishini ta'minlash bilan bir qatorda, shaxsning har tomonlama kamol topishi, uning turli sohalardagi tezkor o'zgarishlarga va jamiyat talablariga moslashuvi hamda ularning dunyoqarashi va faol hayotiy pozitsiyasining mustahkam rivojlanishida o'zining ijobiy natijalarini beradi.

**Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li (Guliston davlat Pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: [xayrov@mail.ru](mailto:xayrov@mail.ru))**

### **BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

***Annotatsiya.** Maqolada pedagog olimlarning ushbu muammo bo'yicha faoliyati tahlil qilingan va ilmiy ahamiyati ko'rsatilgan. Kasbiy-metodik tayyorgarlik strukturasi ta'lim jarayonida tabaqalashtirilgan ta'lim, individual yondashuv, "Muvaffaqiyat qozonish" holatini yaratish, kompyuter grafikasidan foydalanish zaruriyati ilmiy asoslangan.*

***Анотация.** В статье проанализирована деятельность ученых-педагогов по данной проблеме и показывается ее научная значимость. Научно обоснована необходимость дифференцированного обучения, индивидуального подхода, создания состояния «Ситуации успеха», использования компьютерной графики в учебном процессе в структуре профессионально-методической подготовки.*

***Annotation.** The article analyzes the activities of scientists-teachers on this issue and shows its scientific significance. Scientifically substantiated is the need for differentiated learning, an individual approach, the creation of a state of "Success Situation", the use of computer graphics in the educational process in the structure of professional and methodological training.*

***Kalit so'zlar:** bo'lajak o'qituvchi, tasviriy san'at, kasbiy, metodik, tabaqalashtirish, kompyuter grafikasi, o'quvchi.*

***Ключевые слова:** будущий учитель, изобразительное искусство, профессиональный, методический, дифференциация, компьютерная графика, ученик.*

**Key words:** *future teacher, fine arts, professional, methodical, differentiation, computer graphics, pupils.*

Bolonya jarayoni doirasida ta'limning faol va interfaol shakllari variativligini ta'minlash, kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kreativligini rivojlantirish muammosini tadqiq etishga e'tibor kuchaytirilgan.

Mamlakatimizda ta'lim va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida talabning faolligiga asoslangan metodlarni qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "O'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan.<sup>1</sup>

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash nazariyasi masalalari bo'yicha milliy pedagogikamiz va xorijiy mamlakatlar pedagogikasida ozmi-ko'pmi birmuncha ilmiy ishlar olib borilgan. Xususan, oliy ta'limda kasbiy-metodik tayyorgarlik bo'yicha rivojlangan AQSH, Fransiya, Germaniya, Angliya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya va Estoniya kabi mamlakatlarda katta ijobiy tajriba to'plandi. Xorijlik olimlardan P.Adler, M.Bennett, W.Deming, D.Lebrun, T.Mathai, L.C.Vigotskiy, V.A.Adolf, V.A.Slastenin, V.A.Suxomlinskiylar ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borishgan.<sup>2</sup>

Respublikamizda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligini oshirishda O'.Tansiqboyev, Ch.Ahmarov, A.Abdullayev, M.Nabiyev, R.Hasanov, N.Abdullayev, B.Oripov, B.Jalolov, B.Boymetov,<sup>3</sup> S.Bulatov, N.Tolipov, H.Egamov, S.Abdirasilov, A.Sulaymonovlarning ilmiy-metodik ishlari diqqatga sazovordir.<sup>4</sup>

Shunga qaramasdan, ayni paytda, mazkur masala tasviriy san'at o'qitish metodikasida takomillashtirilgan yo'llarni tadqiq etishni talab etmoqda. Tasviriy san'atdan kasbiy-metodik tayyorgarlik – ta'lim oluvchilarning muayyan ish yoki ishlar majmuyini bajarish uchun zarur malakalarni jadal egallash, amaliy va nazariy bilimlarni o'zlashtirish, o'rgatish, o'rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo'l-yo'riqlar, usullar majmuyi va maqsadini nazarda tutadigan pedagogik jarayon.

Yuqoridagi ta'rifdan kelib chiqib, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi kasbiy ko'nikma va malakalarni – maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ta'lim jarayonida kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun kasbiy-nazariy bilimlar majmuasi hamda amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan shaxsning jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlar asosidagi pedagogik faoliyatiga layoqatli ekanligini anglatadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha kuzatuv ishlari 2021–2022-o'quv yilida Guliston davlat universiteti, 2022–2023-o'quv yilida esa Guliston davlat pedagogika institutida olib borilmoqda. Muammoga oid adabiyotlar o'rganildi, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlandi. Bunda bitiruvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish usullari, shakllari va didaktik imkoniyatlari o'rganildi. Ushbu ehtiyoj va talablar asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini tashkil etdi.

**1. Kasbiy-nazariy bilim berish.** Tasviriy san'atning asoslari bo'yicha pedagogik, nazariy va kompetensiyaviy bilimlar majmuyi, pedagogik meros va uning asosiy manbalarini chuqur o'qitish. Tasviriy san'at ta'limiga doir Sharq va G'arb pedagogik tajribalari hamda ilg'or individual pedagogik texnologiyalar bilan bo'lajak o'qituvchilarni chuqur tanishtirish.

**2. Kasbiy-metodik tayyorgarlik bilan qurollantirish.** Tasviriy san'atga doir iqdidorini maqsadli rivojlantirish. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni qo'llay olish malakasini shakllantirish hamda ularning kasbiy ko'nikmasi, malakasi va faolligini uyg'un ravishda

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси Lex.uz. 2020.

<sup>2</sup> Жабборова О.М. Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини касбий тайёрлаш назарияси.//ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2|ISSUE 3|2021. 1053 p.

<sup>3</sup> Хайров Р.З. Тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларга индивидуал ёндашув. Монография, 2021, Тошкент, 2021, 120-бет.

<sup>4</sup> Хайров Р.З. Создание ситуации успеха для каждого ученика на уроках изобразительного искусства. "Современное образование", 2021, №12 (109), с. 57.



amaliyotga yo'naltirish. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining ijodiy layoqatini o'stirish va ularda ijodkorlik tajribasini tarkib toptirish.

**3. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga nazariy bilim berish didaktikasi.** Mutaxassislik fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o'qitish, umumpedagogik fanlarining tasviriy san'at asoslariga yo'naltirilgan tarzda o'qitish. Mustaqil ta'lim va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanib, qo'shimcha mashg'ulotlar, treninglar va ijodiy ishlar tahlillarini o'tkazish. Ilmiy-kasbiy to'g'araklar vositasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining pedagogik ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

**4. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining professiogrammasi masalasi.** Tasviriy san'at asoslari bo'yicha nazariy, amaliy va kompetensiyaviy bilimlarga ega bo'lish. Tasviriy san'at ta'limi, didaktikasi va amaliyotini chuqur bilish. Ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishi, iqtidori va xohishlarini aniqlash, ularni rivojlantirish bo'yicha ko'nikmaga, pedagogik ijodkorlik kompetensiyaga ega bo'lishi.

**5. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-nazariy tayyorlash manbalari.** Bu manbalarga milliy pedagogik meros, tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashga doir ilmiy, pedagogik va amaliy tadqiqotlar, ta'limga oid hujjatlarda tasviriy san'at o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar kiradi. Bunda mutaxassislik va umumpedagogik fanlarni o'qitishda mavzular bo'yicha professiogramмага doir tushunchalar, ko'nikmalar va malakalar berib borish taqozo etiladi.<sup>1</sup>

Shu bilan birga, V.A.Adolf<sup>2</sup> va V.A.Slasteninning<sup>3</sup> fikriga ko'ra, kasbiy-metodik tayyorgarlik aniq ifodalangan amaliy xususiyatga ega, o'z mohiyatiga ko'ra, u yoki bu fanni o'qitishning aniq qurish masalalari bo'yicha kengaytirilgan bilimlartizimini aks ettiradi. Biz, o'qitish metodikasini yaxshi egallagan, metodikada o'zining individual uslubiga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchini kasbiy-metodik kompetentli, deb hisoblaymiz. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligi strukturasi tabaqalashtirilgan ta'lim, individual yondashuv.<sup>4</sup> "Muvaffaqiyat qozonish"<sup>5</sup> holatini yaratish masalasi ham keng o'rinni egallaydi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi:

–kichik maktab yoshi davridagi 1–4-sinflar, o'rta maktab yoshi davri 5–7-sinflardagi har bir o'quvchining individual tasvirlash layoqati, qobiliyati va qiziqishlaridandan kelib chiqib taqsimlab, vazifalarni tabaqalashtirib berishi;

–o'quvchilarni o'zing kuchi va qobiliyatiga ishonmasa, o'qituvchi uni qo'llab-quvvatlashi hamda o'quvchini tasviriy san'atdan ijodkorligi darajasini rivojlantirishda "Muvaffaqiyat qozonish" holatini yarata olishi zarur.

Bu o'ziga xos usullar bo'lib, uni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashda o'quvchini tasviriy san'atdan faolligini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligiga kompyuter grafikasi sohasidagi kompetentlikni kiritish maqsadga muvofiq. Biz kompyuter grafikasidan o'qituvchining kompetentligi deganda, nafaqat kompyuter grafikasi sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi, balki grafik ma'lumotlarning zamonaviy axborot oqimida harakatlana olishi, tanlashga tayyorligi, dasturiy ta'minoti, kompyuter grafikasining zamonaviy vositalaridan pedagogik faoliyatida qo'llay olishini tushunamiz. Tasviriy san'at o'qituvchisining kompyuter grafikasi kompetentligi tarkibida kompyuter grafikasidan kompetentlik mazmunini bilish (kognitiv aspekt), har xil standart va nostandart vaziyatlarda kompyuter grafikasi sohasida malakaning mavjudligi (xulq-atvor jihati), kompyuter grafikasi sohasida (motivatsion va qiymat-semantik jihatlari) kompetentlikni namoyish eta olishi.<sup>6</sup>

<sup>1</sup> Жабборова О.М. Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини касбий тайёрлаш назарияси//ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2|ISSUE 3|2021, 1053 p.

<sup>2</sup> Адольф В.А. Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя. Дис. докт. пед. наук, 13.00.01. М., 1998, с. 357.

<sup>3</sup> Сластенин В.А. и др. Педагогика. Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений, М., издательский центр "Академия", 2013, с. 576.

<sup>4</sup> Хайров Р.З. Тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларга индивидуал ёндашув. Монография, 2021, Тошкент, 2021, 120-бет.

<sup>5</sup> Хайров Р.З. Создание ситуации успеха для каждого ученика на уроках изобразительного искусства. "Современное образование", 2021, №12 (109), с. 57.

<sup>6</sup> Гулямов К.М., Икромов М.А. Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини компьютер график моделлаштириш асосида касбий тайёрлаш модели. "Муаллим", "Учитель", 2022, № 4, 22-бет.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonlarini isloh qilish uchun quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

1. Oliy o'quv yurtlarida o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalashni "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kredit-modul tizimi" asosida ishlab chiqilgan davlat talablariga muvofiq tashkil etish.

2. Kasbiy-metodik tayyorgarlikni talabalarining faol ishtiroki hamda pedagogik texnologiya va innovatsion tajribalar asosida amalga oshirish.

3. Oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali olimlar, metodistlar, mualliflar, ijodkor professor-o'qituvchilar ishlashiga erishish; Kasbiy-metodik tayyorgarlik diagnostikasini o'tkazish, bunda innovatsion metodlardan foydalanish.<sup>1</sup>

Bunda oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonining asosiy yo'nalishi bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy, irodaviy-axloqiy sifatlari va kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilishi lozim. Bu ularning shaxsiy, irodaviy-axloqiy sifatlari va kasbiy faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari kasbiy-metodik tayyorgarligini oshirish tizimi ularning ijodiy imkoniyatlari, shaxsiy sifatlari va kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirib, kelajakda o'quvchilar ta'lim-tarbiyasining sifati ko'tarishga erishishdan iboratdir.

**Aytkulova Guljavxar Shekerbaevna (Termiz Muhandislik-texnologiya instituti**

**O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi)**

### **DIDAKTIK VA ETNOGRAFIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH ASOSIDA TALABALARNING O'QUV VA KOGNITIV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Annotatsiya.** Maqolada oliy ta'lim tizimining talabalarida etnografik va didaktik materiallardan foydalanish orqali o'quv va kognitiv faoliyatni tashkil qilish va takomillashtirish masalalariga oid fikr-mulohazalar, manbalar tahlili, metodologik va empirik tadqiqotlar bayon etilgan bo'lib, pedagogik faoliyat jarayonini tashkil qilishda ushbu manbalarning o'rganilishi nechog'liq muhim ekanligi alohida parametrlar bilan izohlangan.

**Аннотация.** В статье описаны мнения, анализ источников, методологические и эмпирические исследования по вопросам организации и совершенствования учебно-познавательной деятельности с использованием этнографических и дидактических материалов среди студентов системы высшего образования, а также использования этих источников в организации процесса педагогической деятельности. Насколько важно учиться, объясняется особыми параметрами.

**Annotation.** The article describes opinions, analysis of sources, methodological and empirical research on the issues of organizing and improving educational and cognitive activity by using ethnographic and didactic materials among students of the higher education system, and the use of these sources in organizing the process of pedagogical activity. How important it is to study is explained by special parameters.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, talaba, didaktik materiallar, etnografik materiallar, kognitiv faoliyat, innovatsion dunyoqarash, pedagogik texnologiyalar, o'quv faoliyati.

**Ключевые слова:** высшее образование, студент, дидактические материалы, этнографические материалы, познавательная деятельность, инновационное мировоззрение, педагогические технологии, воспитательная деятельность.

**Key words:** higher education, student, didactic materials, ethnographic materials, cognitive activity, innovative outlook, pedagogical technologies, educational activities.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasining taraqqiyoti va istiqbolini ta'minlash iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarida katta o'zgarishlar bo'lishi bilan bog'liq. Bunday o'zgarishlarda ishtirok etish uchun jamiyatimiz a'zolaridan maxsus hamda kasbiy bilimlar, yuksak madaniyat, ma'naviyat va keng dunyoqarash talab etiladi. Ana shu talablar asosida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimida yuksak malakali, ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, yangi texnika va texnologiyalarga tez moslashishga layoqatli kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayonini zamonaviy o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega

<sup>1</sup> Власова Н.В. Профессиональная подготовка будущих учителей изобразительного искусства в педагогическом вузе: эстетический аспект. "Мир науки, культуры, образования", № 6 (73), 2018, с. 373.

**Adabiyotlar tahlili.** Talabalarning o'quv va kognitiv faoliyatini takomillashtirishda, avvalo, materiallar, metodlar, tahlil va muhokamalarning ahamiyati katta. Ushbu materiallar yordamida tashkil qilinadigan ta'lim texnologiyasining muhim jihatlaridan biri – bu talabalarning o'quv va kognitiv faoliyatini boshqarish. V.P.Simonov o'quv jarayonining boshqaruvchisi sifatida o'qituvchi faoliyatida 4 ta funktsiyani belgilaydi<sup>1</sup>:

- ◆ maqsadni belgilash yoki faoliyatni loyihalash;
- ◆ muloqot o'rnatish;
- ◆ faoliyatni mazmunli tashkil etish;
- ◆ faoliyatni tahlil qilish orqali samarali natijaga erishish.

Uning fikriga ko'ra, pedagogik boshqaruv doimiy rivojlanayotgan jarayon, faol, dinamik tizim sifatida qaraladi, u nafaqat boshqariladigan, balki o'z-o'zini boshqarish, o'zini-o'zi takomillashtirish, o'z-o'zini boshqarish ta'sirida va ishtirokida rivojlanish... Oliy ta'lim muassasasida talabning faoliyati ke-lajakdagi kasbiy faoliyat asoslarini egallashga qaratilgan bo'lib, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini takomil-lashtirish ko'nikmalarini olish bilan bog'liq.<sup>2</sup>

**Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.** Masalaga tor doirada emas, balki ushbu tasnifdagi materiallarining turli ilmiy manbalarda belgilanishi va joylashtirilishining tizimini tahlil qilish orqali nazar solish ma'qul deb hisoblaymiz. O'quv adabiyotlarining tasnifi "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiyasi"ga muvofiq, quyidagi tartib va mazmunda ifodalana-di:<sup>3</sup>

Darslik – davlat ta'lim standartida belgilangan asosiy o'quv materialini qamrab olgan holda, bilim-larni talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtirib olishga, ularda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, kerakli o'quv materialini mustaqil izlash va topishga, amaliy faoliyatda qo'llashni o'rgatish va ijodiy qo-biliyatlarni rivojlantirishga hamda yoshlarning ma'lum fazilatlarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

O'quv qo'llanma – muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o'zlashtirili-shini ta'minlovchi, darslikni qisman to'ldiruvchi, ayrim bob va bo'limlarning keng tarzda yoritishga yoki laboratoriya va amaliy (seminar) mashg'ulotlar va mashqlar yechimiga mo'ljallangan nashr.

O'quv qo'llanmaning har bir bobi yoki mavzusi bo'yicha o'quv maqsadlari keltirilishi muhim aha-miyatga ega. Uquv maqsadlari ta'lim oluvchining ushbu mavzu bo'yicha egallashi lozim bilim, ko'nikma va malakalar tavsifini belgilaydi.

Optimallashtirilgan fan dasturlari asosida o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda ijtimoiy-iq-tisodiy sohalaridagi islohotlar, ilm-fan va texnologiyalar yutuqlarini namoyon etishga erishishni taqozo etadi. Chunki ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchi-talabalarda amaliy ko'nikma hosil qilish, bilimlarini yagona tizim asosida baholash mexanizmini joriy etish tayyorlangan kadrlarning mehnat bozo-rida o'z o'rnini topa olishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy darslik – DTS, fan dasturi, metodikasi, didaktik talablar, pedagogik texnologiya va majmuyi (sistemali) yondoshuvga muvofiq yaratilgan, iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi yangiliklar joriy etilgan, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari to'liq yoritilgan, ta'lim oluvchilar tomo-nidan tegishli fan asoslarining mukammal o'zlashtira olish imkonini beruvchi hamda turdosh ta'lim yo'-nalishlarida ham foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr hisoblanadi.

Talabalarning kognitiv faoliyati mohiyati ilmiy tadqiqot institutida ilmiy xodimlarning ishiga o'x-shash bo'lishi kerak bo'lgan kasbiy bilim, mahorat va ko'nikmalarining matematik jihatdan o'zlashtirishga asoslanadi: "Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonining samaradorligi talabalar faoliyatida tadqiqot daraja-sidan sezilarli darajada ustunlik mavjud bo'lgandagina kuchayadi va o'qitish metodlari talabalarni ilmiy bilimlar bilan qurollantirib, izlanish qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi".<sup>3</sup>

Albatta, didaktik va etnografik manbalarning faqat DTS talabidagi shakili va ilmiy taminoti hozir-gi kundagi dolzarb muammolardan ekanligi bizga sir emas. Kundalik madaniyatni etnografik o'rganish-ning asosiy usullari kuzatuv va suhbatdir. Etnografik manbalarning to'planish jarayoni nechog'lik ma-

<sup>1</sup> Sayidahmedov N.S., Abdurahimov S.A. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. T., O'zR OO'MTV TDTU qoshidagi Oliy injenerlik pedagogika instituti, 2010, 224-bet.

<sup>2</sup> Mahmudova Dilfuza Meliyevna. Informatika darslarida talabalar kreativ faoliyatini rivojlantirishda muammoli ma-salalarning ahamiyati. Образование и инновационные исследования. 2022, №3, с. 208.

<sup>3</sup> M.Tojiboyeva. "Yoshlar intellektual kamolotida ijodiy tafakkur va kreativlikning o'rni. Yangilanayotgan jamiyat-da yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar" mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi maqo-lalar to'plami. Toshkent, "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020, 52-bet.

shaqqatli jarayon ekanligini soha olimlari ko'p bora takidlaydilar.<sup>1</sup> Ushbu manbalar orqali xalq va jamiyatning tarixi, diniy va sotsial hayotidan boxabar bo'lish, shuningdek, milliy tarix va qadimiy davlatchilik asoslari haqida tasavvurlarni yuzaga chiqarish mumkin.

Ular ekspeditsiyalar davomida etnograflar etnografik material to'plashning quyidagi usullaridan foydalanadilar:

1. Bevosita (shaxsiy) kuzatish (obyektni, informatorni, marosim, jarayonlarni).
2. Intervyu, so'rov (dastur yoki anketa bo'yicha so'rov, chuqur, ochiq, intervyu, anketa).
3. Moddiy manbalarni aniqlash.
4. Hujjatli materiallarni aniqlash va qayta ishlash.

Yuqorida etnografik materiallarga qisqacha to'xtalib o'tildi. Endilikda mavzuning ikkinchi qismi bo'lgan didaktik materiallar haqida ham so'z yuritsak. Didaktik materialning xususiyatlari maqsadlarga, talabalarning xususiyatlariga va o'qish sharoitlariga, shuningdek, infratuzilmalar va texnologiyalarga kirish imkoniyatlariga qarab farq qilishi mumkin. Masalan, matematika sohasi uchun o'quv materialini san'at tarixi kabi tayyorlab bo'lmaydi.

Ba'zi xususiyatlar qatorida didaktik material:

- U o'qituvchi yordamida yoki yordamisiz foydalanishga moslashtirilishi mumkin;
- uni alohida yoki guruhlarda ishlatish mumkin;
- bu ko'p qirrali va tarkibiy material turli xil sharoitlarda ishlab chiqilishi mumkin;
- bu ma'lumot manbai hisoblanib ko'p informatsiyani o'z ichiga oladi;
- didaktik material talaba yoki o'quvchining kognitiv rivojlanishi, qobiliyatlari, qiziqishlari va boshqa jihatlaridagi rivojlanish yoki taraqqiyot darajasini belgilashi mumkin;
- talabaga o'z bilimlarini baholash, rejalashtirish va tashkil qilish strategiyasini ishlab chiqish imkoniyatini beradi;
- o'z bilimlarini ko'rib chiqish yoki aks ettirishni taklif qiladi, doimiylik sxemalarini o'zgartiradi.

Har qanday boshqa texnologiya kabi ushbu ikki turdagi materiallar va interfaol yoki muammoli o'qitish texnologiyasi talabaning kognitiv faoliyatini tashkil etish va o'quv jarayonini nazorat qilishdan iborat bo'lgan bikomponentli hamda mazkur texnologiyaga asoslangan ko'p komponentli innovatsiya oliy ta'limga xos bo'lib, quyidagicha shakllantiriladi: "ta'lim maqsadlari, ta'lim mazmuni, motivatsiya va o'qitish vositalari, o'qituvchi va talabalar, yakuniy ta'lim natijalari".<sup>2</sup>

**Natijalar va muhokamalar.** Zamonaviy o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarining yangi avlodini yaratishga qo'yiladigan didaktik talablar:

1. Mazmuni, ilmiyligi va tuzilmasi DTS, o'quv reja va fan dasturlariga mos, mavzular va boblar orasidagi bog'liqlik, majmua (sistemali) yondashuv tamoyiliga to'la rioya qilish.

2. O'quv material i mazmunida kasb bo'yicha faoliyat turlarining (texnologik jihozlarning tuzilishi va ishlash tamoyillari, ulardan foydalanish qoidalari, texnologik jarayonlarning bajarilishi) keng yoritilgan bo'lishi.

3. Ilm-fan, texnika va texnologiyalarning so'nggi yutuqlaridan foydalanilgan holda material bayon etilishining ilmiy-uslubiy jihatdan to'g'ri va jozibali bo'lishi va b. Zamonaviy o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarining yangi avlodini yaratish bosqichlari:

1. Zamonaviy o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratuvchi muallif va mualliflar jamoasini tanlov asosida shakllantirish.

2. Zamonaviy o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlash va uning sifatini nazorat qilish bosqichi .

3. Yozilgan qo'lyozmaning sifatini aniqlash bosqichi.

4. O'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarining sifatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari. Demak, yangi o'quv adabiyotlarni yaratishda yuqoridagi tamoyillarga e'tibor qaratish lozimdir.

Intellektual ravishda talabaning kognitiv faoliyati maqsadli bo'lishi, o'qituvchi tomonidan rejalashtirilishi, ro'yobga chiqarish jarayonini muvofiqlashtirishi va tegishli nazoratni amalga oshirishi kerak. O'qituvchi tomonidan kognitiv faoliyatni boshqarish juda mas'uliyatli va mashaqqatli vazifa, chunki bu,

<sup>1</sup> Максетов Кутлымурат Максет улы. Дала этнографик материалларини йиғиш ва қайта ишлашда замонавий технологиялардан фойдаланиш. "Та'лим фидойлари" 2022, №5. URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/dala-etnografik-materiallarini-yi-ish-va-ayta-ishlashda-zamonaviy-tehnologiyalardan-foydalanish>(дата обращения: 15.11.2022).

<sup>2</sup> Murdock M.C., Ganim R.M. 1993. Creativity and humor: Integration and incongruity. Journal of Creative Behavior, 27, p. 57 – 70. <http://dx.doi.org/10.1002/j.2162-6057.1993.tb01387>

birinchi navbatda, talaba tomonidan bilimlarni o'zlashtirishni o'z ichiga oladi va o'qituvchidan yuqori ilmiy professionallik talab etiladi.

O'qitish muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'rganish motivatsiyasiga, uning talaba uchun shaxsiy ma'nosiga bog'liq. Shaxsga yo'naltirilgan didaktika o'zi bergan savolga javob olishga qiziqqan talabani individual izlashni ta'minlashga asoslanadi.

Talabalarining o'quv va kognitiv faoliyatining tashkiliy asoslari, avvalo, yangicha yondashuvga asoslanga interfaol pedagogik va didaktik metodika orqali yuzaga chiqdi. Shu bois talaba oddiy mantiqiy xulosalardan jiddiy xulosalar tomon harakat qiladi. Talabalar faoliyatini boshqarish uchun bunday yondashuv o'qituvchidan mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun ko'p vaqt talab qiladi, albatta, bunday ta'lim turini tanlash shaxsiy qiziqishga bog'liq. Agar talabalar faoliyatini boshqarish o'qituvchi ilmiy ishining tarkibiy qismi bo'lsa, bu borada katta samaraga erishiladi. Talabaning kognitiv faoliyatini boshqarishning yana bir muhim jihati shundaki, talaba nafaqat muammolarni muvaffaqiyatli hal qiladi, balki o'zi yangi va qiziqarli muammoli vazifalarni qo'yishni o'rganadi. Boshqaruv tadqiqot ishlarining yo'nalishlaridan biri – bu o'qituvchilarning auditoriyada kognitiv faoliyatni boshqarishdagi amaliy qiyinchiliklarini aniqlash va ularni engish mexanizmlarini ishlab chiqish. Bu esa talabalarining o'quv va kognitiv faoliyatini boshqarish usullarini aniqlashga imkon beradi. Ulardan ba'zilari:

♦talabalarni idrok etish bosqichida faollashtirish va o'rganilayotgan materialga qiziqishning paydo bo'lishi;

♦o'quv materiallari tarkibiga qiziqarli ma'lumotlar, faktlar, tarixiy ma'lumotlarni kiritish;

♦amaliy qiymati bilan bog'liq holda materiallarni o'rganish ehtiyojiga munosabatni shakllantirish;

♦talabalar o'z mulohazalarini isbotlash va asoslash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida qiyin va munozarali masalalarni muhokama qilish;

♦talabalar muammoli masalalarni yechishga asoslangan xulosalarini shakllantirishlari kerak.

**Xulosa.** Jahon tajribasidan ma'lumki, kognitiv faoliyatni takomillashtirish va boshqarishda mantiqiy masalalar, nostandart savollar, muammoli vaziyatlar hosil qiluvchi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarining o'quv faoliyatida kreativlik, kompetentlik, kommunikativlik, kognitivlikni rivojlantirish maqsadida ushbu muammoli topshiriqlar va keyslar yordamida aqliy faoliyatni rivojlantirish, kreativ va mantiqiy fikrlash, xotira mustahkamligini rivojlantirishga erishiladi. Bir so'z bilan ta'kidlash mumkinki, talabalarining etnografik va didaktik materiallarni tahlil qilishi va o'rganishi keng dunyoqarash va kasbiy faoliyatda muhim omil hisoblangan pedagogik mahoratni shakllantiradi. Buning isboti yuqoridagi tahlillar va texnologik misollarda ham o'z aksini topgan.

**Холмирзаева Зохида (Наманган вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази Аниқ ва табиий фанлар методикаси кафедраси катта ўқитувчиси; Zohida01211971@gmail.com)**

## **“КИМЁ ТАРИХИ” КУРСИНИ ИНТЕГРАТИВ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ**

**Аннотация.** Мазкур мақолада университетлар “Кимё тарихи” курсини интегратив такомиллаштиришнинг долзарб масалалари, талабаларнинг касбий компетентлигини шакллантириши ҳамда замонавий талаблари асосида ўқитишнинг самарали инновацион технологияларидан фойдаланиш усуллари, интеграцион ўқув жараёнининг энг юқори самараси ҳамда натижавийлигини таъминлаш йўллари ва “Кимё тарихи” курсини ўқитишнинг инновацион усулларида фойдаланиш жараёнидаги вазифалари ёритилган.

**Аннотация.** В данной статье освещаются актуальные вопросы интегративного совершенствования университетского курса “история химии”, методы формирования профессиональной компетентности студентов и использования эффективных инновационных технологий обучения на основе современных требований, способы обеспечения наивысшей эффективности и результативности интегрированного учебного процесса, а также задачи в процессе использования инновационных методов обучения

**Annotation.** This article covers the current issues of integrative improvement of the university course “history of chemistry”, methods of formation of professional competence of students and the use of effective innovative technologies of teaching on the basis of modern requirements, ways to ensure the highest efficiency and effectiveness of the integrated learning process, as well as tasks in the process of using innovative methods of teaching

**Калим сўзлар:** таълим жарёни, билим, интеграция, билиш фаолияти, муаммоли усуллар, инновация, интеграция методи, анъанавий таълим, инновацион таълим.

**Ключевые слова:** образовательный процесс, познание, интеграция, познавательная деятельность, проблемные методы, инновация, метод интеграции, традиционное обучение, инновационное обучение.

**Key words:** educational jargon, knowledge, integration, cognitive activity, problem methods, innovation, integration method, traditional education, innovative education.

Шарк донишмандлари айтганидек, “Энг катта бойлик – бу ақл-заковат ва илм, энг катта мерос – бу яхши тарбия, энг катта қашшоқлик – бу билимсизликдир!” Шу сабабли ҳаммамиз учун замонавий билимларни ўзлаштириш, чинакам маърифат ва юксак маданият эгаси бўлиш узлуксиз ҳаётий эҳтиёжга айланиши керак.

Ҳар бир ўқитувчи ўз олдига талабаларни ўз фанига қизиқтириш ва уларнинг билиш жараёнини фаоллаштириш мақсадини қўяди. Ушбу мақсадга эришиш учун ўз фанини ўқитишда муаммоли усуллар ва инновациялардан фойдаланиши тақозо этилади.<sup>1</sup>

Бугун таълим жараёнини талабаларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришга имкон берувчи янги самарали технологияларни излашсиз тасаввур қилиб бўлмайди.

Университетлар “Кимё тарихи” курсини дидактик таҳлил қилиш, айрим мавзуларнинг мазмуни фақат эслаб қолишга йўналтирилган бўлиб, у талабаларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантирмайди.<sup>2</sup> Бундай шароитда ўқитувчи талабаларнинг билиш мотивациясини оширдиган ва уларнинг бўлғуси касбига тайёрлаш жараёни сифатини оширадиган инновациялардан фойдаланиши керак.

Инновацияларга интеграция методи ҳам киради. Интеграция қуйидаги даражаларда амалга оширилиши мумкин: кузатиш кўникма ва малакалари; талабаларни ривожлантириш ва “Кимё тарихи” курсига қизиқишини ортишига олиб келувчи интеграция қилинган машгулотлар (айни мавзу муҳокамасида айна курсни бакалаврлар тайёрлаш намунавий режасида белгилаб берилган фанлар ва ўрта мактаб кимё курсидаги тарихий материаллардан фойдаланиш), кўшимча тарихий материаллар билан ишлаш олиш кўникма ва малакаларини шакллантириш.

Интеграция ўқув жараёнини оптималлайди ва унинг энг юқори самараси ҳамда натижавийлигини таъминлайди. Бундай тарихий материаллар кўплаб мавзуларни ўрганишда самарали бўлиши мумкин.<sup>3</sup>

Келтирилган фикримизни қадимги “Маиший кимё” мисолида тушунтирамиз. Археологларнинг тадқиқотлари туфайли ҳозирги Ўрта Осиё ва Эрон, Миср, Месопотамия, Ғарбий Европа, Осиё ва Марказий Америка ерларида икки дарё оралиғида яшаган қадимги халқларнинг ҳаёти ва турмуш тарзи ҳақида кўп маълумотлар аниқанди. Қизиғи шундаки, дастлабки маиший кимёвий воситаларни яратувчилари кўпчилик ҳолларда тасодифий кашфиётчилар бўлган. Уладан кимдир биинчи бўлиб матони пурпур билан бўяган, кимдир рангли лой ва минерал топиб, биринчи расми чизган, кимдир шамни кашф қилган ва ҳоказо.

Тош асридан бизга кам бўлса-да, маиший турмушда кимёвий моддалардан анча аниқ фойдаланилганлиги ҳақидаги маълумотлар етиб келган. Айниқса, улардан фойдаланиш инсоният деҳқончилиги, чорвачилиги, терини ошлаш билан шуғуллана бошлаган неолит асрида сезиларли даражада ортди. Анорганик пигментлар (сурик-тўқ сарик, қизғиш ёки қизғиш-жигар ранг, охра-сарик ёки қизил тусли минерал бўёқлар)ни Сибирь ва Африкада тошли қояларга, Ғарбий Европанинг қадимий маиший маданият намуналарига расм чизишда бундан 30 минг илгари қўлланилгани ҳақида ишончли далиллар бор.

VII–X минг йилликлар мобайнида неолит инсоният маиший турмушда табиий органик келиб чиққан моддалар – ҳайвон ёғлари, мўмлар ва минерал табиий моддалар – пигментлар, бўр, дарё ва денгиз куми, ош тузи, лойдан фойдалана бошлади. Кейинчалик, уларга битумлар, турли хил смолалар, бальзамлар, оксил моддалар, эфир мойлари, табиий минерал моддалардан сода қўшилди.

Қадимги римликлар хонадонларида ҳам ёқимли ҳид тарқалишини хоҳлаганлар. Бунинг учун

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. «Халқ сўзи», 2018 йил 29 декабрь, 271 – 272-бетлар.

<sup>2</sup> Баксанский О.Е. Проблемное обучение: обоснование и реализация. «Наука и школа», 2000, № 1, с. 19 – 25.

<sup>3</sup> Университетлар “Кимё тарихи” курси намунавий дастури. Тошкент, 2018.

улар столларини ялпиз билан артганлар, уй девори ва полга ялпизнинг сувли дамламасини пуркаганлар. Тропик иқлимда ўсувчи имбирлар оиласига мансуб ўтсимон ўсимлик (куркумлар) илдиизидан – полинезийлар терини бўйаш учун сариқ бўёқ олганлар, ёқимли ҳидга эга бўлган йўғон илдиизидан дезодорант (зарарсизлантирувчи) модда сифатида қўлланилган. Масалан, олтингугурт ёқилганда сульфит ангидрид гази, ёғочдан ёғоч мойлари ва формальдегид, эфир мойларидан маҳсулотлар олинган.

Клейлардан фойдаланиш эрамиздан аввалги XV асрга тўғри келади, мисрликлар томонидан ҳайвон клейи, тухум, суюқ смола ва бошқалардан эрамиздан 100 аввал ёғоч буюмларни фанерлаш учун фойдаланилгани маълум.

Биз “Кимё тарихи” курсини ўқитишда талабаларни бўлажак ўқитувчилик касбига тайёрлаш мақсадида интегратив усул асосида уларда мактаб кимё предметидаги тарихий материаллардан фойдаланиш кўникма ва малакаларини шакллантиришни асосий мақсад қилиб олган эдик. Талабалар мустақил иш жараёнида мактаб кимё курсидаги материалларни тарихийлик тамойили асосида таҳлил қилдилар, уларга танкидий муносабатда бўлган ҳолда, эгалланган билим, кўникма ва малакалардан ижодий фойдаланишга муяссар бўлдилар.

*1-жадвал*

**Анъанавий таълим ҳамда инновацион таълим технологияларининг қиёсий таҳлили**

Тушунча	Анъанавий ўқитиш	Инновацион таълим технологияси орқали ўқитиш
Мақсад	Масалаларни ишлаш, назария ва қонунларни ўрганиш ҳамда қоидаларни ёд олиш	Амалиёт назария каби муҳим эканини исботлаш
Мотивация	Билим олишга рағбат	Билимларни реал ҳаётда қўллай олиш, янгилик яратиш
Бошқарув	Жараёни ўқитувчи бошқаради	Ўз-ўзини бошқариш
Таълим олувчининг ёндашуви-га кўра	Тингланг, эслаб қолинг, қайтаринг ва бажаринг	Билинг, бажариб кўринг, қўлланг, тақдим этинг, янги ишлаб чиқинг
Шакл	Синф дарс тизими, индивидуал	Жамоавий, гуруҳий ва ҳамкорликка, шахсга йўналтирилган узок муддатли тадқиқотлар
Бошқариш	Ўқитувчи қарор қабул қилади	Ўқитувчи ва ўқувчи қарор қабул қилади
Когнитив фаолият	Атамалар ва фактларни ёдлаб олади	XXI аср малакалари ва кўникмаларини ўзлаштиради
Методлари	Тўғридан-тўғри таълим	Замонавий инновацион технологиялар
Ёндашув шакли бўйича	Синф-дарс тизими	Интеграциялашган таълим, креатив ёндашув, ижодкорликка йўналтирилган
Воситалар	Босма, техник, макетли ва реал воситалар	Контесктлар, ҳақиқий табиий ашёлар, ўлчаш анжомлари, лаборатория жиҳозлари
Ташхис турлари	Оғзаки сўров, тестлар, амалий машғулот	Рефлексия, қайтар алоқа
Баҳолаш	Эслаб қолган билимлар ҳажмини аниқлаш	Талабаларда шаклланган кўникмаларни баҳолаш

Ҳар йили ўқув жараёни замонавий инновациялар ва технологиялар билан тўлдирилмоқда. Инновациялар туфайли одатдаги дарс материаллари талабаларга ўрганилаётган мавзуга қизиқиш уйғотадиган қизиқарли тарзда тақдим этилиши мумкин. Ҳеч бир фан, шу жумладан, кимё ҳам янгиликсиз ривожланмайди. Тақдим этилган кимё ўқитишнинг ўқув жараёнини оптималлаштирадиган, унинг сифатини яхшилайдиган ва назария ва амалиёт интеграциясини рағбатлантирадиган инновацион усулларни яратиш бизнинг асосий мақсадимиз ҳисобланади (жадвал).

“Кимё тарихи” ни ўқитишда инновацион усулларнинг мақсади ўқув жараёнини самаралироқ қилишдир. Фанни ўқитишда инновацион усуллардан фойдаланиш билим ва фаолиятнинг турли соҳаларидаги илмий ишланмаларни ўқув жараёнига жорий этиш имконини беради.

“Кимё тарихи”ни ўқитишнинг инновацион усулларидан фойдаланиш жараёнидаги вазифалар:

- интерфаол таълим режимини қўллаш;
- талабаларнинг ўрганилаётган фанга бўлган қизиқишини ошириш;
- тренинг сифатини ошириб юбориш;

– мулоқот кўникмаларини такомиллаштириш.

Ўқитишдаги инновацион усул ва технологиялар ўқитувчига қўйилган вазифаларни ҳал қилишда ёрдам бера олади.

Ушбу мақсадларга эришиш учун ўқитишнинг турли усуллари, шакллари ва воситаларидан фойдаланилади. Сўнги пайтларда кимё ўқитувчиларининг фаол ўрганишга катта эътибор қаратилмоқда. Унинг вазифаси ўқитувчи томонидан ўқув жараёнини шундай ташкил этишки, ўқитувчи ўз талабаларининг фаолиятини моҳирона ташкил этиб, уларни мустақил равишда билим олишга йўналтирадиган қилиб, тингловчиларга билимларни узатмайди.

Билим ва кўникмаларни эгаллаш учун “Кимё тарихи” дарсларида ўқитишнинг қуйидаги инновацион усулларида фойдаланиш таклиф этилади: аклий ҳужум, индивидуал ҳаракатлар ва техникани намойиш этиш, семинарлар, маъруза-матбуот анжумани, гуруҳ фаолияти технологиялари, ўйин технологиялари.

“Кимё тарихи” дарсларида фойдаланадиган технологиялар. “Баҳс-мунозара” технологиясининг тузилиши: “мунозара” ўйинида ҳар бир жамоада учтадан бештагача ўйинчидан иборат икки жамоа қатнашади. Жамоадаги футболчилар спикерлар деб аталади. Шунга кўра, улар тасдиқловчи жамоанинг биринчи, иккинчи, учинчи сўзловчилари – 1-, 2-, 3-, инкор жамоанинг эса биринчи, иккинчи, учинчи сўзловчилари: О1, О2, О3 деб аталади.

Ўйин иштирокчиларига мунозара учун мавзу ҳақида маълумот берилади ва аргументация базасини тайёрлаш учун 5–7 дақиқа вақт берилади ва уни тезис билан бажариш, фақат асосий фикрларни қоғозга чизиш (протоколни тўлдириш). Жамоа ўз ёзувларини сиёсий маслаҳатчига етказилади.

Ҳар бир жамоанинг ўз сиёсий маслаҳатчиси бор, у ўз жамоасининг позициясининг далиллари аниқлаштириш учун исталган вақтда бир дақиқа вақт ажратиш ҳуқуқига эга.

Ўйин давомида маърузачилар навбатма-навбат ҳакамларга рақибларининг позициясига нисбатан ўз жамоасининг позициясининг ишончилигини намойиш этиш учун нутқ сўзлайдилар. Маърузачиларнинг нутқидан ташқари, ўйинда ўзаро боғлиқ саволлар мавжуд, қачонки рақиб жамоанинг маърузачиси маърузачига нутқнинг исталган нукталарини аниқлаштириш ёки берилган далилларни камситиш учун саволлар беради. Бу ҳаракатлар ортида кимё тарихини ривожлантириш ва келажак авлод учун қолдирилажак илмий билимларнинг истиқболи асосий ўринни эгаллайди.

Ушбу кичик тадқиқотни асосий мақсади кимё тарихи курсини интегратив такомиллаштириш ҳолатни баҳолашнинг кўрсаткич (индикатор)ларининг шаклланиши ва илмий тадқиқотчи мутахассислар учун имкон даражасида ягона тизимини ривожлантириш учун хизмат қилиши мумкин.

**Umirov Habibullo (QarMII akademik litseyi o‘qituvchisi)**

## **AKADEMIK LITSEY TALABALARIGA FIZIKADAN MASALALAR YECHISHNI O‘QITISHDA DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH METODIKASI**

**Аннотация.** *Ushbu maqolada ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar sifatida dasturiy vositalardan foydalanishning ta'lim va tarbiya jarayonidagi muvaffaqiyatini ta'minlash samaradorligi fizika fanining “Molekular fizika va termodinamika asoslari” bo'limi misoli yordamida yoritib berilgan. Bundan tashqari, ta'lim jarayonida MathCAD matematik dasturiy paketidan va Borland C++builder6 vizual dasturlash tilidan foydalanish metodikasi keltirib o'tilgan.*

**Аннотация.** *Данная статья иллюстрирует эффективность использования программного обеспечения как инновационной технологии в учебном процессе для обеспечения успешности обучения на примере основы “Молекулярной физики и термодинамики”. Кроме того, в учебном процессе упоминается методика использования математического программного комплекса MathCAD и визуального языка программирования Borland C++ builder6.*

**Annotation.** *This article illustrates the effectiveness of using software as an innovative technology in the educational process to ensure the success of training on the example of the basics of “Molecular physics and thermodynamics”. In addition, the educational process mentions the method of using the Mathcad mathematical software complex and the Borland C++ builder6 visual programming language.*

**Kalit so‘zlar:** *innovatsion faoliyat, tabaqalashtirish, interfaol metodlar, dasturiy vositalar, ideal va real gazlar, modulli ta'lim, ta'limning uzluksizligi, ta'lim oluvchilar, multimedia, ijodiy yondashish, tanqidiy fikrlash.*



**Ключевые слова:** инновационная деятельность, дифференциация, программные средства, интерактивные методы, идеальные и реальные газы, модульное обучение, непрерывность обучения, учащиеся, мультимедиа, творческий подход, критическое мышление.

**Key words.** innovative activity, differentiation, software, interactive methods, ideal and real gases, modular training, continuous learning, students, multimedia, creativity, critical thinking.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.<sup>1</sup>

Oliy ta’lim muassasalarida ta’limning shakl va mazmunidan kelib chiqib, yangidan yangi metodlarni joriy etishni keng ko‘lamda amalga oshirish zarurati yaqqol namoyon bo‘lib bormoqda. Shuning uchun o‘qituvchining tashabbuskor, yangilikka intiluvchan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq eta olishi ta’limda sifat va samaradorlikka erishishdagi asosiy omil hisoblanadi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati quyidagilarni talab etadi:

- ◆o‘quv tarbiya faoliyatini tabaqalashtirish;
- ◆talabalar qiziqishini oshirish uchun kerakli sharoit yaratib berish;
- ◆ta’lim-tarbiya faoliyatining qulayligini ta’minlash;
- ◆talaba shaxsining aqliy qobiliyatlari va imkoniyatlariga ishonish;
- ◆ta’lim-tarbiya muvaffaqiyatini ta’minlash.<sup>2</sup>

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, fizika fanidan ta’lim jarayonida dasturiy vositalarni qo‘llashni keltirib o‘tamiz.

Real gaz molekulari absalyut qattiq sharchalar sifatida qaraladi va ular o‘rtasida ishqalanish va o‘zaro ta’sir kuchlari mavjud bo‘ladi. Real gaz holatini ifodalochi tenglamani keltirib chiqarish uchun Van–der–Vaals, ideal gazning holat tenglamasi bo‘lib hisoblangan Klapeyron-Mendeleyev tenglamasiga molekularning o‘lchamini va o‘zaro ta’sir kuchlarini hisobga oluvchi tuzatmalarni kiritdi.

Real gazning har bir molekulasini idish ichida  $V' = \frac{1}{6} \pi d^3$  hajmini egallab harakatlanadi. Real gaz molekularining ideal gaz molekulariga o‘xshab erkin harakatlana olmasligini hisobga olib, Mendeleyev-Klapeyron tenglamasi  $pV_{\mu} = RT$  ga  $V_{\mu}$  o‘rniga  $V_{\mu} = V'_{\mu} + b$  tuzatma kiritamiz. Bu yerda  $b$  – erkin hajmini hisobga oluvchi Van–der–Vaals tuzatmasi bo‘lib hisoblanadi. U 1 mol gazda xususiy hajmi bo‘lib hisoblanadi va quyidagiga teng bo‘ladi:

$$b = 4N_A V' \quad (0.1)$$

Bu yerda  $N_A$ –Avogadro doimiysi,  $V'$ –bitta molekulaning hajmi. Bunda molekular o‘rtasida juda qisqa o‘zaro ta’sir kuchlari yuzaga keladi, shuning uchun ham molekula o‘zidan  $r = 10^{-9}$  m masofadan uzoq bo‘lmagan zarralar bilan to‘qnashadi. Shu masofni molekularning ta’sir chegarasi deb yuritiladi.<sup>3</sup>

Idish sirtidan ichkariroqdagi qatlamlarda harakat qilayotgan molekular o‘rtalaridagi o‘zaro ta’sir kuchlari muvozanatlashib turadi, gazning chegara qatlamlaridagi, ya’ni, idish sirtiga yaqin sohalarda mo-

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги фармони. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. Т., 2017, 39-бет.

<sup>2</sup>Байденко В.И. Болонский процесс: результаты обучения и компетентностный подход. М., Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. 2009, с. 482–492; Беспалько В.П. Бумажная версия электронного учебника. Школьные технологии. М., «Народное образование», 2007, № 2, с. 54 – 55.

<sup>3</sup> Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University: 2019. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol11/iss10/55>

lekularlar o'rtasidagi ta'sir kuchlar movozanatda bo'lmaydi va ularning harakat yo'nalishi idish ichiga tomon yo'nalgan bo'ladi.

$$P_{id} = P + P^* \quad (0.2)$$

Bu yerda  $P^*$  – o'zaro ta'sir kuchlariga asoslangan Van–der–Vaals tuzatmasi bo'lib, u ichki bosim deb ataladi. Ichki bosim gaz hajmining kvadratiga teskari proporsional bo'ladi.

$$P^* = a/V_{\mu}^2 \quad (0.3)$$

Bunda  $a$  – Van–der–Vaals koeffitsiyenti. Shunday qilib, 1 kilomol gaz uchun Van–der–Vaals tenglamasini quyidagi ko'rinishda yozamiz:


$$\left(P + \frac{a}{V_{\mu}^2}\right)(V_{\mu} - b) = RT \quad (0.4)$$

Ixtiyoriy massali gaz uchun Van–der–Vaals tenglamasi  $\nu$  – modda miqdorini hisobga olganda, quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\left(P + \frac{m^2}{\mu^2 V_{\mu}^2}\right)\left(V_{\mu} - \frac{m}{\mu}b\right) = \frac{m}{\mu}RT \quad (0.5)$$

Agar ideal gazda molekularlar o'rtasida ishqalanish kuchlarining hisobga olinmasligini nazarda tutsak, ya'ni,  $V_{\mu} \gg b$  va  $P^* \ll P$  ekanligini e'tiborga olsak, Van–der–Vaals tenglamasi Mendeleyev-Klapeyron tenglamasiga aylanib qoladi. Shularni inobatga olib, dasturiy vositalardan foydalanib, ikki xil uslubda grafiklarni hosil qilamiz.<sup>1</sup>

**1-uslub.** Van–der–Vaals tenglamasidan bosim va hajmning o'zaro bog'lanish grafisini hosil qilishda MathCAD matematik dasturiy paketinig ishchi oynasiga kattaliklar ( $a1, a2, b1, b2, T, R$ ) kiritilgandan so'ng quyidagicha (1-rasm) grafik hosil bo'ladi:



1-rasm. MathCAD matematik dasturiy paketida grafik tasvir.

**2-uslub.** Borland C++ dasturlash tilida taqsimot funksiya grafisini quyidagicha hosil qilamiz: <sup>2</sup>


1. Borland C++ builder dasturlash tilini ishga tushiramiz.
2. Formaga komponentalar palitrasidan quyidagi komponentalarni joylashtiramiz.
3. System tarkibidan PaintBox komponentasini formaga joylashtiramiz.

<sup>1</sup> Тураев С.Ж. Формирование научно-практических навыков студентов с привлечением к научному проекту №1/1-Ф и применением технологий программирования. Преподаватель XXI век. М., 2018, с. 88–92. <http://prepodavatel-xxi.ru/sites/default/files/10.pdf>; Смолкин А.М. Методы активного обучения [Метод. пособие для преподавателей и организаторов проф. и экон. обучения кадров]. М., “Высш. шк.”, 1991, с. 175.

<sup>2</sup> Смолкин А.М. Методы активного обучения. Метод. пособие для преподавателей и организаторов проф. и экон. обучения кадров. М., “Высш. шк.”, 1991, с. 175.

4. Standart tarkibidan Button komponentasini formaga joylashtiramiz.
  5. Button tugmachasini OK nom bilan belgilaymiz.
- OK (Button) tugmachasiga sichqonchani chap tugmachasini ketma-ket ikki marta bosamiz va quyidagi dastur kodlarini kiritamiz:

Kompilatsiya jarayoni amalga oshirilgach quyidagicha grafik tasvir kelib chiqadi:



**2-rasm. Borland C++ dasturlash tilida grafik tasvir.**

Funksional komponentlarini ro‘yobga chiqarish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda axborot tahlil qilinadi va qayta ishlanadi. Ikkinchi bosqichda muammoni shakllantirish, maqsadni aniqlash, maqsadga erishish sharoitlarini aniqlash va muammoni mumkin bo‘lgan yechimlaridan kelib chiqadigan oqibatlarini baholash, vazifalarni hal etish tartibi va metodlarini ishlab chiqish natijalarini baholash yuzasidan qaror qabul qilinadi.

Ta’limda dasturiy vositalardan foydalanishning eng asosiy jihatlari deb quyidagilarni belgilash mumkin:<sup>1</sup>

- fizika fanidan amaliy mashg‘ulotlar jarayonida talabalarga S++ dasturlash tilida hodisa va jarayonlarni vizuallashtirishni o‘rgatish metodikasini ko‘rsatib o‘tamiz. Amaliy mashg‘ulotlarda talabalarni hodisa va jarayonlarni dasturlash tillari yordamida vizuallashtirishga o‘rgatishda FSMU metodidan foydalanish samarali natijalar beradi. Bunda talabalar:

- kompyuter texnologiyalari dasturlari modulli ta’lim asoslari negizida quriladi. Ta’lim oluvchilar, ya’ni, talabalar tomonidan alohida-alohida o‘zlashtirilgan har bir o‘quv fani doirasida amalga oshiriladi;

- talabalar o‘quv jarayonidan so‘ng, o‘ziga qulay vaqtda, ish jarayonidan uzilmagan holda foydalanish mumkin. Ta’limning uzluksizligi ta’minlanadi;

- talabalar ta’lim muassasasidan qanchalik uzoqda joylashishidan qat’iy nazar, o‘quv jarayonini tashkil qilinishiga, teskari aloqa o‘rnatilish imkoni bo‘ladi;

- ta’lim oluvchilar, ya’ni, talabalarning soni jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmasligi uchun “ommaviy jalb” etiladi;

- kompyuter texnologiyalarining barcha yangi dasturlaridan, kompyuter tarmoqlaridan, multimedia tizimi kabilardan oqilona foydalaniladi.

Ta’lim jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan pedagogik dasturiy vositalar, matematik dasturiy paketlar va dasturlash tillarining turlari bugungi kunda yetarlicha ko‘p, shunga qaramay ulardan foydalanish imkoniyati ham chegaralanmagan. Matematik va tabiiy-ilmiy fanlarning har bir bo‘limiga ijodiy yondashgan holda, metodik nuqtayi nazar bilan zamonaviy dasturiy vositalarning imkoniyatlaridan foydalanib, ilmiy-amaliy, ijodiy ishlarda uzluksiz ravishda foydalanish zamonaviy ta’lim metodikasi va zamonaviy dasturlash tillarining bir xilda rivojlanishini ta’minlaydi.

<sup>1</sup> Абдуқодиров А.А., Турсунов С.Қ. Таълимда ахборот технологиялари. Дарслик, Т., “Адабиёт учкунлари”, 2019.

Сайидова Мухаббат Гаффаровна (Навий Давлат Кончилик ва технологиялар университети Кимё-металлургия факультети Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси катта ўқитувчиси;  
e-mail: jayronmalika@mail.ru)

**МАНГИТЛАР УРУҒИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ, УЛАРНИНГ ШАЖАРАСИ  
ТЎҒРИСИДАГИ МАНБАЛАР ВА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР**

***Аннотация.** Ушбу мақолада ўзбек уруғларининг тарихи, хусусан, мангит қабилаларининг ижтимоий турмуши ва ҳўжалик фаолияти ҳақида тарихий, илмий маълумотлар келтириб ўтилган.*

***Аннотация.** В статье приведены исторические, научные факты узбекских племен, в том числе социальная жизнь и хозяйственная деятельность мангитских племен.*

***Annotation.** This article presents the historical, scientific facts of the Uzbek tribes, including the social life and economic activities of the Mangit tribes.*

***Калим сўзлар:** тарих, мангитлар, ўзбек уруғлари, Ўрта Осиё, мўғуллар, нўғойлар, иқтисод, Хоразм, Бухоро хонлиги.*

***Ключевые слова:** история, мангиты, узбекские племена, Центральная Азия, монголы, ногой, экономика, Хорезм, Бухарское ханство.*

***Key words:** history, mangits, Uzbek tribes, Central Asia, Mongols, foot, economy, Khorezm, Bukhara khanate.*

Мангитлар, уларнинг келиб чиқиши ва Бухоро тахтига эгалик қилиши тўғрисида тарихий манбааларда жуда кўп маълумотлар учрайди. Айниқса, Мирзо Абдулазим Сомий, Муҳаммад Ёқуб Бухорий, Аҳмад Дониш, В.В.Бартольд, С.Айний, А.Муҳаммаджонов, М.Ғ.Ваҳобов, Т.И.Султонов ва қатор тарихчи ҳамда турли соҳа мутахассисларининг асарларида мангитлар, мангит амирлари уларнинг Ўрта Осиё ижтимоий-сиёсий ҳаётида тутган мавқеи ҳақида айрим маълумотларни топиш мумкин.

“Мангитлар – халқ қабиланоми” деб ёзади В.В.Бартольд. Чингизхон даврида мангит сўзи мўғул халқларидан бирининг номини ифодалар эди. Шу даврдан бошлаб мангит сўзи турк ёки турклашган қабилаларининг номини билдирадиган бўлди.

“Зафарнома”га мувофиқ, мангитлар Олтин Ўрда қабилаларидан бири эди, бу қабиладан таниқли амир Эдигу (рус солномаларида Эдигей) етишиб чиққан. Эдигу Темур ва Тўхтамишнинг замондоши ва рақиби бўлган...».<sup>1</sup>

Шу ўринда, Эдигу (кўпинча, Идикубий деб ҳам юритилади) тўғрисида академик А.Муҳаммаджонов қуйидагича таъкидлайди: «...Мангитлар 92 боғли ўзбекларнинг энг йирик нуфузли уруғларидан ҳисобланган.

XIV асрда уларнинг ёзги яйловлари Ишим дарёсидан ғарбга Урал дарёсининг шарқий соҳилларигача чўзилган ерда бўлган.

XIV асрнинг 70–80-йилларида мангитлар уруғини рус солномаларида Эдигей номи билан машҳур бўлган Идикубий бошқарган. У ниҳоятда жасур ва доно бўлиб, рус князлари уни қаттиқ ҳурмат қилганлар. Темурнинг Олтин Ўрдага юриши даврида Идику бошлиқ мангитлар соҳибқирон кўшинининг сўл қанотида Тўхтамишга қарши жанг қилган. Сўнгра Идику Хоразмга ҳукмрон бўлган. Шохруҳ билан куда-андачилик муносабатларини ўрнатган.

XVI асрнинг бошларида Шайбонийхоннинг Ўрта Осиё томон юришида мангитлар фаол қатнашиб, Зарафшон водийсига келиб ўрнашганлар...».<sup>2</sup>

В.В.Барлоўднинг юқоридаги фикрига чуқурроқ ёндашадиган бўлсак, унинг таъкидлашича, рус солномаларида нўғойлар деб аталган халқ Абулғозихон даврининг бошқа манбаларида «мангитлар» деб аталган. Нўғойлар карнўғой, ачиқулоқ, нўғой каби этнографик гуруҳларга бўлинган. Улар XIII асрдан бошлаб, мўғулларнинг юришида қатнашган. Дашти Қипчоқда қипчоқлар билан аралашиб, турк тилини қабул қилган. XIV аср охири ва XV аср бошларида вужудга келган Нўғой Ўрда феодал давлатида аҳолининг асосини мангитлар ташкил қилган. XVI асрнинг иккинчи ярми-

<sup>1</sup> В.В.Бартольд. Мангиты. Сочинение в 9-и томах. Т. 5, с. 556 – 557.

<sup>2</sup> А.Муҳаммаджонов. Ҳасратли тарих. «Ўзбекистон адабиёти ва санъати», 1992, 8 май.

да Нўғой Ўрда бир неча бўлакка ажралгач, манғитларнинг анчагина қисми Ўрта Осиёга кўчган.<sup>1</sup> Ҳозирги кунда нўғойлар халқ сифатида яшаб келмоқда.

Маҳмуд ибн Валининг «Баҳр ул-асрор»<sup>2</sup> асарида манғит ва қўнғирот қабилалари ўзбекларнинг иккита энг йирик нуфузли қабилалари деб тилга олинган. Манғит қабилалари Бухородаги сингари Хоразмнинг сиёсатида ҳам муҳим роль ўйнаганлар, бироқ фақат Бухородагина ҳокимиятни ўз қўлларига олишга муваффақ бўлишган, холос.

Манғитлар Хивада Нукузлар билан бирлашиб, ягона нукуз-манғитлар қабиласини ташкил қилишган (худди уйгур-найманлар, хитой-кипчоқлар, қиёт-қўнғиротлар сингари). Манғит шаҳри эса 1215 йилнинг ҳижрий ражаб ойида (1800 йил ноябрь-декабрь) туркман ёвмутлар томонидан шарққа сиқиб чиқарилган манғитлар томонидан барпо қилинган.

XIX асрнинг охирида Бухорода 99200 манғит яшаган. Улардан 44000 таси Бухоро атрофида истиқомат қилган. Хивадаги манғитлар сони 10300 тани ташкил этган...<sup>3</sup> Ўзбек миллатининг ташкил топиши тўғрисидаги кўплаб маълумотларни йиғиб, хулоса чиқарган олим М.Г.Ваҳобовнинг ҳам асарида манғитлар тўғрисида айрим маълумотлар келтирилган.<sup>4</sup>

XIX аср боши ва XX аср охиридаги манғитларнинг ижтимоий ҳаёти бутун Марказий Осиё халқлари каби, феодал муносабатларга асосланган эди. Бироқ манғитлар ўртасидаги феодал муносабатлар уруғ-аймоқчилик анъаналарининг қусурлари билан чамбарчас боғланиб кетган эди. Бундай муносабатларнинг белгилари уруғларга бўлинишлар, маълум уруғларга тегишли экин майдонлари ва яйловлар ҳудудидларини уруғнинг номи билан аташ, маълум уруғга тегишли яйловларда фақатгина ўша уруғ вакилларига тегишли бўлган чорвани боқиш учун бирлашиш каби муносабатлар негизда намоён бўлган.

Юқорида кўрсатиб ўтилган даврда манғитларнинг ижтимоий муносабатлари патриархал-феодал муносабатларнинг уруғ-аймоқчилик анъаналари билан чамбарчас боғланган, феодал иқтисодий муносабатларга ҳамда патриархал уруғ-аймоқчиликка асосланган.

Ташқарида қараганда, уруғ ўзининг бирдамлигини йўқотмагандек таассурот қолдирса ҳам, тобора чуқурроқ намоён бўлаётган ижтимоий тенгсизлик таъсирида ич-ичидан емирилиб борган. Юқорида таъкидланганидек, бирор-бир уруғга тегишли бўлган катта экин майдонлари ва чорва яйловлари манғит бойлари томонидан назорат қилинган. Дала ишларининг асосий оғирлигини ўзининг елкасига олган уруғ деҳқонлари ва чўпонлари эса жуда кам миқдордаги ерга ёки чорвага эгалик қилган. Бойларнинг ҳукмронлиги эса маҳаллий ҳукмдорлар, беклар ва давлат ҳокимияти томонидан қўллаб-қувватланиб келган. Мехнаткаш кенг омма эса ўз ҳақ-ҳуқуқларидан мосуво қилиниб, уруғларининг бой вакиллари томонидан бошқарилган. Катта маблағга эга бўлган бойлар камбағал аҳолининг ерларини ва чорва яйловларини сотиб олиб, уларни сиқиб чиқарган ёки катта қарз бериш эвазига уларни қарамликда ушлаб турган.

Маълумки, Ўрта Осиё чегарасига бир неча бор кўчманчи чорвадорлар келиб қўшилиб, ўтроқлашиб кетишган. VI асрда турк тилида сўзловчи қабилаларнинг Тошкент, Фарғона, Зарафшон, Хоразмга келиб ўрнашишлари авж олди ва бу жараён XIII асргача давом этди. Бу кўчманчи турклар ерли Шарқий Эрон тилида сўзлашувчилар билан аралашиб кетадилар.<sup>5</sup> XI – XII асрда қорахонийлар ва хоразмшоҳлар давлатига кўчманчи қабилаларнинг кириб келиши авж олди. Кўчманчилар, асосан, Марказий Осиёдан ва Дашти Қипчоқдан кириб келишар эди.

XIII – XIV асрларда кўчманчи чорвадорлар янги тўлқин бўлиб Ўрта Осиёга кириб келишди, ҳамда, Шош, Фарғона, Зарафшон, Қашқадарё, Сурхондарё, Ҳисор ва Амударёнинг чап қирғоғига ўрнашдилар. Улар ерли аҳоли билан аралашиб кетганлар. Муаллифнинг таъкидлашича, ўзбекларнинг келиб чиқиши худди шу жараёнлар билан боғлиқ.

Шайбонийхоннинг барча жангчилари ўзбеклар деб ном олган эди. Ўзбеклар Ўзбекистондагина эмас балки бутун Ўрта Осиёда, Семиречьеда ҳам макон тутишди. Булар ўзбекларнинг сўнгги учинчи гуруҳига мансуб бўлиб, XX асрнинг бошларига қадар ҳам ўзларининг кўчманчиларга хос урф-одатларини сақлаб қолган эдилар. Манғитлар ҳам айнан шу тоифага – кўчманчи ўзбеклар то-

<sup>1</sup> Народы Кавказа. Том 1, Москва, 1960, с. 52 – 64.

<sup>2</sup> Махмуд ибн Вали. «Баҳр ул-асрор фи минақаб ул-ахер». Море тайн относительно доблестей благородных./ 1050/1640-41.

<sup>3</sup> Бартольд В.В. Мангиты. Сочинение, том 5, с. 556 – 557.

<sup>4</sup> Вахобов М. Г. Формирование узбекской нации. Т., 1961, с. 18 – 54.

<sup>5</sup> Толстов С.П. Древняя культура Узбекистана. Т., 1943.

ифасига мансуб, деб ёзади М.Ғ.Ваҳобов (худди қўнғиротлар, найманлар, сарой, кенагас, катагон ва хоказо).

Манғитлар XX асрда, асосан, Зарафшон водийсида, қисман Хива хонлигида, Бухоро амирлигининг алоҳида жойларида яшаган. Хива хонлигида – Гурлан ва Манғит оралиғини макон тутишган. Шунингдек, Қарши воҳасида, Амударёнинг чап қирғоғида, Чоржўй яқинида ҳам манғитларни учратиш мумкин.<sup>1</sup> “Манғит” этноними Олтойдан Қримгача чўзилган, мўғуллар истилосидан кейин вужудга келган кўпгина турк тилида сўзловчи қабила-уруғларида учрайди. Шунингдек, Забайкалье–Приамурье оралиғидаги тангус-маньчжурларда ҳам манғит этнонимини учратиш мумкин”.

XX асрнинг бошларидаги маълумотларга кўра, манғитлар Ўзбекистонда 132324 кишини ташкил этган.<sup>2</sup>

Муҳаммад Солиҳнинг “Шайбонийнома” асарида келтирилишича, Шайбонийхоннинг Мовароуннаҳрга юриши даврида (1500–1510) жуда кўп уруғ-қабилалар унинг қўшини таркибида бўлган. Муҳаммад Солиҳ уларнинг тўлиқ рўйхатини келтиради. Шайбонийхоннинг 1503 йилдаги мўғул хонлари билан бўлган жангини ёритар экан, унинг 10 000 жангчиси борлигини қайд этади. Улар орасида манғитлар ҳам кўпчиликти ташкил қилган бўлиб, уларга Ҳожи Ғозли бошчилик қилган. Манғитлар Шайбонийхон қўшинининг ўнг қанотида жанг қилишарди.

Шу ўринда В.В.Бартольднинг, дастлаб, ўзбек қабилалари кам сонли бўлган, деган фикрини ҳам келтириш лозим. Масалан, 1756 йили манғитлар сулоласининг илк вакили Муҳаммад Раҳимхоннинг тахтга ўтиришидан олдин 32 та уруғ саналган (улардан 3 таси, баъзан 7 таси алоҳида олиб кўрсатилади, бу кучли қабилалар орасида манғитлар ҳам бор бўлган, деган хулосага келади).

Шундай қилиб, манғитлар ўзбек уруғларидан бири эканлиги, улар Марказий Осиёнинг турли жойларида макон топганликлари, ниҳоят, Бухоро амирлигини бир ярим асрдан кўпроқ бошқарганликлари тарихий ҳақиқатдир.

**Qurbanbaeva Dilaram Muxamovna (Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi),  
Abdalieva Periюза Isaevna (Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi,  
Nukus davlat Pedagogika instituti)**

**TASHABBUSKOR, IZLANUVCHAN PEDAGOG**

***Annotatsiya.** Maqolada N.A.Urumboyev semantikani qoraqalpoq maktablarida rus tilida o‘quvchilarga, guruhlarga samarali yetkazish va tushuntirish uchun bir asosiy mezon sifatida ishlatgan.*

***Аннотация.** В статье рассказывается о том, как Н.А.Урумбаев использовал семантику в качестве основного критерия при разделении методов обучения русскому языку в каракалпакских школах на группы, раскрыты методы, как эффективно донести и объяснить учащимся новый учебный материал.*

***Annotation.** The article speaks about N.A.Urumbaev used semantics as the main criterion in dividing the methods of teaching Russian in Karakalpak schools into such groups, that is, how to effectively convey and explain a certain concept to learners.*

***Kalit so‘zlar:** pedagogika, sinf, dars, grammatika, maktab, metod, darslik, lug‘at, morfologiya, nutq.*

***Ключевые слова:** педагогика, класс, урок, грамматика, школа, метод, учебник, речь.*

***Key words:** pedagogics, class, lesson, grammar, school, method, textbook, dictionary, morphology, speech.*

**Kirish.** O‘qitish metodikasi pedagogika fanining muhim va murakkab sohalaridan biridir. U o‘quvchilarga ta‘lim berish jarayonini o‘z ichiga olib, pedagogik tamoyillar va metodlardan ijodiy va unimli foydalanishni ta‘minlaydi va o‘quvchilarga samarali ta‘lim berishda “Nimaga o‘qitish kerak?” ta‘lim mazmunini aniqlash “Nima uchun o‘qitish kerak?” ta‘lim berishning maqsad va vazifasini belgilash “Qanday qilib o‘qitish kerak?” ta‘lim uslublarini ishlab chiqish hamda “O‘zlashtirilgan ta‘lim sifatini qanday aniqlash, nazorat qilish kerak?” ya‘ni, baholash mezonlari va metodlarini aniqlash degan asosiy to‘rtta vazifani bajarishi lozim.

Qoraqalpog‘istondagi taniqli metodist olimlardan yana biri Nag‘met Asqarovich Urumboyevdir. Pedagogika fanlari doktori, professor N.A.Urumboyev o‘zining pedagogik faoliyatini o‘qituvchilik qilish-

<sup>1</sup> Материалы по районированию Средней Азии. Кн. 1, Т., 1926, с. 219; ч. 11, с. 96 – 101

<sup>2</sup>Муҳаммад Солиҳ. Шайбани-наме. СПб, 1908.

dan boshlab, keyinchalik, rus tilini o'qitish metodikasi sohasida yetuk olimlardan biri bo'lib yetishdi. N.A.Urumboyev O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston filialining Tarix, til va adabiyot instituti terminologik sektorining boshlig'i sifatida faoliyat yuritib, Qoraqalpog'istonda ilk bor qoraqalpoq-rus hamda qoraqalpoq tili lug'atini ishlab chiqib, unga muharrirlik qildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, urushdan so'nggi yillarda yoshlarga umumiy o'rta ta'lim berish zaruriyati tufayli maktablarda barcha fanlarni o'qitishning samarali metod va usullarini yaratish talabi paydo bo'ldi. 1970–80-yillarda Rus tili va adabiyoti fani Respublikadagi 640 ta umumta'lim maktabining barchasiga o'quv fani sifatida kiritildi. Rus tili va adabiyoti fanini o'qitishda qoraqalpoq bolalariga nima va qanday o'rgatish kerak, degan muammo ko'ndalang turgan bir vaqtda, olim N.A.Urumboyevning 1963-yili «Qoraqalpoq maktablarida rus tilidagi ot turlarini o'rgatish» kitobi chop etilib, unda qoraqalpoq o'quvchilari uchun rus grammatikasining eng murakkab bo'limlarini oson o'zlashtirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

**Metodologiya.** 1964-yildi esa olimning «Qoraqalpoq maktablarining boshlang'ich sinflarida rus tilini o'qitish metodikasi masalalari» nomli kitobi chop etilib, unda qoraqalpoq maktablarining boshlang'ich sinflarida rus grammatikasi elementlarini o'rgatish metodikasi tadqiq etilgan bo'lib, u yuqoridagi savollarga ilmiy-pedagogik asoslangan javob bo'ldi.

1969-yil «Qoraqalpoq o'rta maktablarida rus tili morfologiyasini o'qitish metodikasi asoslari. Metodikaning umumiy masalalari» nomli fundamental tadqiqoti e'lon qilindi. Olimlarning ushbu monografiyasi rus va milliy maktablarda o'qitish usullari haqidagi pedagogik fikrlarning rivojlanish yo'llari, qoraqalpoq maktablarida rus tilini o'qitishning mazmuni bilan bog'liq masalalar, qoraqalpoq bolalariga rus tilini o'qitish usullarining lingvistik, psixologik va pedagogik asoslari mantiqiy ketma-ketlik asosida tadqiq etilgan. Maskur tadqiqot asosida milliy maktablarda rus tilini o'qitishdagi muallifning boy amaliy-pedagogik tajribalaridan kelib chiqqan xulosalariga asoslanib, ilmiy konsepsiyalar yaratilgan. Mazkur monografiyadagi o'qitish usullaridan nafaqat qoraqalpoq o'lkasida, balki undan tashqarida ham metodologik tadqiqot ishlarida andoza sifatida foydalanib kelmoqda.

1979-yilda esa «Qoraqalpoq maktablarida rus tili metodikasi asoslari» nomli kitobini e'lon qilib, uning «Qoraqalpoq maktablarida rus grammatikasi (morfologiyasi)ni o'qitish metodikasining ayrim masalalari» nomli birinchi bo'limda muallif rus grammatikasini o'qitish metodlari, tamoyillari va shakllari haqida ma'lumot beradi.<sup>1</sup> Olim qoraqalpoq maktablarida rus tilini o'qitish metodikasini ikki guruhga ajratadi.

1. Asosiy metodlar. Bularga:

- a) to'g'ri va natural metodlar;
- b) tarjima yoki qiyosiy metod;
- d) aralash yoki kombinatsiyalangan metodlarni kiritadi.

2. Xususiy metodlar.

N.A.Urumboyevning Qoraqalpoq maktablarida rus tilini o'qitish metodlarini bu kabi guruhlarga ajratishida semantatsiyani, ya'ni, ma'lum tushunchani o'quvchilarga qanday yo'l bilan samarali yetkazish, tushuntirish mumkinligini asosiy mezon sifatida qo'llagan. Shular orasida olim aralash metodga alohida to'xtalib o'tadi. Ushbu metod natural va qiyosiy-tarjima metodlarining umumiy sintezi sifatida vujudga keluvchi va qoraqalpoq maktablarida rus tilini o'rganishda samarali hisoblangan metod ekanligini ta'kidlaydi hamda uning rus bo'lmagan maktablarda rus tilini o'rganishga yo'l ochib beruvchi tamoyillarini ham belgilab beradi. Ular quyidagilardir:

- rus tilini o'rganishda o'quvchilarning ona tili grammatikasi oid bilimlariga suyanish tamoyili;
- o'quvchilarning ona tilidagi nutqi tuzilishining o'ziga xos jihatlarini inobatga olish tamoyili;
- grammatikani o'rganishning bosh maqsadi – nutqni rivojlantirish tamoyili;
- turli xil uslublardan foydalanish tamoyili.

Shunga qaramasdan, olim aralash metod metodika sohasida hali o'zining to'liq ilmiy-nazariy asosiga ega bo'lmaganligi va uning boshqa biron-bir metod bilan qiyosiy o'rganilmaganligini ta'kidlaydi, shuning uchun ham uni eng mukammal metod deb qarash mumkin emasligini e'tirof etadi.

Qoraqalpoq maktablarining o'rta va yuqori sinflarida rus tili morfologiyasini o'qitish metodikasi ham metodist-olim N.A.Urumboyevning diqqat-e'tiboridan chetda qolmadi. Olim qoraqalpoq bolalarining ruscha so'zlarining morfologik tarkibini o'rganishi uchun ularni o'zlashtirishda uchraydigan qiyin-

---

<sup>1</sup>Урумбаев Н.А. Основы методики русского языка в каракалпакской школе. Н., «Каракалпакстан», 1979, с. 84.

chiliklarni aniqlab, soʻz tarkibini oʻrganish metodikasini ishlab chiqdi. Soʻz tarkibini oʻrganish asosida oʻquvchilar nutqini rivojlantirish yoʻllarini aniqladi. Oʻz ona tilini yaxshi bilish, ona tilida toʻgʻri yozish va oʻqish – bu inson madaniyatining birinchi belgisi. Shunga koʻra, XX asrning boshida Qoraqalpogʻistonda ona tili, yaʼni, qoraqalpoq tilini ilmiy asosda rivojlantirishga, milliy yozuvning takomillashuviga hamda xalqimiz farzandlarini ona tilida oʻqishi va yozishiga katta eʼtibor qaratildi.

Rus tilining qoraqalpoq tili bilan oʻzaro taʼsiri asosida ikki tillilik intensiv ravishda rivojlanib, ushbu tillarni binar tahlil asosida qiyoslab oʻrganish zaruriyati tugʻilib, u qoraqalpoq yoshlariga ham rus tilida, ham ona tilida mukammal va toʻgʻri oʻqish imkonini beradi. Ushbu maqsadda N.A.Urumboyev rus va qoraqalpoq tillarini amaliy metodik hamda nazariy-lingvistik yoʻnalishda ilmiy jihatdan oʻrganib chiqqan. «Ikki tili uchun ham umumiy, universal boʻlgan kategoriyalarni hamda ularning oʻziga xos xususiyatlarini qiyosiy oʻrganish qoraqalpoq maktablarida rus tili morfologiyasini oʻqitishning ilmiy-lingvistik asosi» hisoblanadi, deya taʼkidlaydi olim. Bunday qiyosiy tahlil oʻquvchilarning rus tili boʻyicha bilim darajasini oshirib, mahalliy (rus boʻlmagan) maktablarda rus tilini oʻqitish sifatida yaxshilaydi. Oʻzining ilmiy izlanishida olim, asosan:

1. Qanday kategoriyalar ham mazmunan, ham shaklan ikkala til (qoraqalpoq va rus) uchun ham birdek xos.

2. Ikkala tilga ham xos boʻlgan qanday kategoriyalar mazmun va shakl jihatdan toʻliq mos kelmaydi?

3. Rus tilidagi qaysi kategoriyalarning ona (qoraqalpoq) tilidagi analogiyasi yoʻq? degan uchta savolga javob izlagan.<sup>1</sup>

Buning uchun u rus va qoraqalpoq tillarida tub, affiks, suffiks, son, feʼl va olmoshlardan foydalanib, ikkala (rus va qoraqalpoq) tilidagi soʻz turkumlarini qiyosiy tahlil etish orqali ularning oʻziga xos jihatlarini ilmiy asoslab bergan.

**Natija va muhokama.** Rus va qoraqalpoq tilini mukammal bilgan olim N.A.Urumboyev nafaqat qoraqalpoq maktablarida rus tilini oʻqitish metodikasini yaratuvchi, balki Qoraqalpogʻistondagi ilk metodist-olim, qoraqalpoq tili boʻyicha darsliklar muallifi sifatida ham pedagogika ilmini rivojlantirishga oʻz hissasini qoʻshdi. Uning rus maktablarining 3–4-sinflari uchun yaratgan «Qoraqalpoq tili» darsligi 70–80-yillardan mustaqillik yillarigacha boʻlgan davrlarda qayta-qayta chop etilib, rus bolalarining qoraqalpoq tilini oʻrganishlari uchun ham xizmat qildi. Shuni alohida taʼkidlash joizki, olimning rus sinflarida qoraqalpoq tili alifbosini oʻrgatishga doir yaratgan darsliklarida boshlangʻich sinf bolalarining yoshi va psixologiyasi mos turli xil rasmlardan foydalanilgan, bolalar uchun misollar bilan mustahkamlangan. Darsliklarda lugʻatlardan, hikoya, naql-maqol va topishmoqlardan keng foydalanilgan.

**Xulosa.** Shu bilan birga, metodist-olim ularni oʻzlashtirish jarayonida oʻquvchilar uchun qiyinchilik tugʻdiradigan jihatlarini ham aniqlab, ularni oʻrganish metodikasini yaratib berdi. N.A.Urumboyev maktab amaliyotini chuqur biluvchi metodist-olim sifatida qoraqalpoq bolalariga rus tilini oʻrgatishda didaktikaning asosiy tamoyiliga, yaʼni, bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olishga jiddiy eʼtibor qaratgan. U qoraqalpoq maktablarining boshlangʻich, oʻrta va yuqori sinflarining har biri uchun alohida-alohida rus grammatikasini oʻqitish metodikasini tavsiya etadi.

Shunday qilib, metodist-olim N.A.Urumboyev taʼlim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar-da rus tilini oʻqitishning samarali yoʻllarini tahlil etib, Qoraqalpogʻistonda pedagogik fikrlarning rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan olimdir.

**Shaymanova Adiba Ergashevna (falsafa fanlari nomzodi, dotsent,**

**Qarshi DU; [adibashaymanova76@gmail.com](mailto:adibashaymanova76@gmail.com))**

## **KAMBAGʻALLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA UNI QISQARTIRISH YOʻLLARI**

***Annotatsiya.** Maqolada kambagʻallik tushunchasi, uning mohiyati va kelib chiqish sabablari hamda uni bartaraf qilishning oʻziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.*

***Аннотация.** В статье анализируется понятие бедности, ее природа и причины, а также особенности ее ликвидации.*

***Annotation.** The article analyzes the concept of poverty, its nature and causes, as well as specific features of its elimination.*

<sup>1</sup>Utebayev T.T. Qoraqalpogʻistonda XX asr ikkinchi yarmi–XXI asr boshida taʼlim-tarbiyaviy fikrlarning rivojlanishi. Nukus, “Bilim”, 2015, 41-bet.



**Kalit soʻzlar:** kambagʻallik, qashshoqlik, mutlaq va nisbiy kambagʻallik, kambagʻallik darajasi, kambagʻallik bilan kurash dasturi, kambagʻallikni qisqartirish.

**Ключевые слова:** бедность, бедность, абсолютная и относительная бедность, уровень бедности, программа борьбы с бедностью, сокращение бедности.

**Key words:** poverty, absolute and relative poverty, poverty rate, poverty alleviation program, poverty reduction.

Maʼlumki, bozor iqtisodiyoti insoniyat taraqqiyotida mavjud boʻlgan eng ilgʻor va istiqbolli tizimlardan biri boʻlib, u osonlik bilan amalga oshmaydi. Bozor iqtisodiyotiga oʻtish mamlakatlarda ishlab chiqarish va aholi turmush farovonligining pasayishi, aholi oʻrtasida ijtimoiy tabaqalanishning kuchayib borishi, ishsizlik darajasining ortishi kabi qiyinchiliklar bilan birga kechadi. Bu kabi muammolarning oldini olish va uning salbiy oqibatlarini yumshatish boʻyicha mamlakatlarda qator tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Ammo koʻrilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, oʻtish davriga xos boʻlgan muhim muammolardan biri kambagʻallik muammosi ahamiyatligi jihatidan ajralib qolmoqda.

Darhaqiqat, “kambagʻallik” va “qashshoqlik” bular umumbashariy global muammolar boʻlib, uzoq davrlardan buyon dunyo ahlini, olim-u fuzalolarni, yetuk mutaxassislarni oʻylantirib kelayotgan masalalardan biridir. Zero, “buyuk izlanishlar, inqilobiy ixtirolar yoki madaniyat va jamiyatning rivojiga katta hissa qoʻshganligi uchun har yili taqdim etiladigan eng nufuzli xalqaro mukofotlardan biri boʻlgan Alfred Nobel mukofoti 2019-yilda iqtisod fanlari boʻyicha “Global qashshoqlikka qarshi kurashdagi eng yaxshi yoʻllar boʻyicha ishonchli javoblarni olishda yangicha yondashuv” ishlab chiqilganligi uchun berilganining oʻzi ham qashshoqlik masalasi jahoniy muammo ekanidan va unga boʻlgan eʼtibor, also, susaymayotganidan dalolat beradi”.<sup>1</sup>

BMT maʼlumotlariga koʻra, bugungi kunda 54 mamlakat, 1990-yilga nisbatan kambagʻal holda yashaydi, 21 mamlakatda aholining koʻpchilik qismi ochlikdan azoblanadi, 12 mamlakatda bolalarni boshlangʻich taʼlim bilan qamrab olish pasayib bormoqda, 34 mamlakatda umr davomiyligi qisqardi, 800 mln.dan ortiq kishi oziq-ovqat yetishmasligidan qiynaladi.<sup>2</sup> Bu kabi maʼlumotlar “kambagʻallik” va “qashshoqlik” muammolarining dolzarbligicha qolayotganligini koʻrsatmoqda.

Hatto dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari boʻlmish Xitoy (mamlakat aholisining 65 foizini) va AQSHda (16 foiz) ham qashshoqlik mavjud ekanligi, iqtisodiy qudrati boʻyicha jahonda uchinchi oʻrinda turuvchi Yaponiyada har oltinchi Yapon kambagʻal hisoblanadi va ularning asosiy sababi ishsizlikdir.<sup>3</sup>

Zero, bugungi kunda koʻpchilik mamlakatlarda ochlik va qashshoqlik, ishsizlik va savodsizlik, davlatlar oʻrtasidagi siyosiy ixtiloflar, yuqumli kasalliklar, ayniqsa (COVID-19), ekologik ofatlar (azon qatlaminin yemirilishi, haroratning koʻtarilishi) va boshqa tahdidlar kuchaymoqda. Bu kabi zamonaviy xavf-xatarlar kambagʻallikning global muammo sifatida yanada kuchayishiga olib kelmoqda.

Maʼlumki, kambagʻallik yoki qashshoqlik oʻzi nima, u nima bilan belgilanadi, degan savol barchani qiziqtirib kelmoqda. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida “kambagʻallik” soʻzi kam, yetishmaydigan, hayotiy tirikchilikka zarur narsalarning yetishmaslik holati, yoʻqchilik yoki muhtojlikda yashamoq maʼnolari qayd etilgan.<sup>4</sup> Shuni alohida taʼkidlash kerakki, oʻzbek tilida “kambagʻallik” soʻzi bir qancha soʻzlar bilan ifodalanadi. Jumladan, qashshoq, faqir, nochor, kam taʼminlangan, muhtoj, bechora, ijtimoiy himoyaga muhtoj kabilar bilan ifodalanadi. Ushbu soʻzlar maʼlum maʼnoda bir-biridan farq qilib, oʻzining qoʻllaniladigan joylari mavjuddir. Yuqoridagidan kelib chiqib, “kambagʻallik” tushunchasiga yagona taʼrif mavjud emasligini taʼkidlash oʻrinlidir.

Shuningdek, BMTning taʼrifiga koʻra, qashshoqlik – bu insonning hayot kechirishi uchun zarur boʻlgan daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va toʻyib ovqatlanmaslik, sogʻliqni saqlash, taʼlim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklovlarining mavjudligi, turar joyning yoʻqligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytiladi (BMTning “Ijtimoiy himoya borasidagi yuqori darajadagi Butunjahon sammiti”dan).<sup>5</sup>

<sup>1</sup> Mirziyoyev.Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. T., “Oʻzbekiston”, 2021, 435-bet.

<sup>2</sup> Глобальные цели тысячелетия. Доклад. Узбекистан. “Экономическое обозрение”, 2004, №10.

<sup>3</sup> Королёва Н.В., Чинишвили В.В. Бедность как социально-экономическая проблема. The scientific heritage № 43 (2020).

<sup>4</sup> A.Madvaliyev. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. T., 2006 – 2008.

<sup>5</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. T., “Oʻzbekiston”, 2021, 436-bet.

Kambag'allik esa bir kishi yoki oilaning daromadi hayot faoliyati uchun ijtimoiy-zaruriy iste'mol darajasini ta'minlashga yetarli emasligini, jamiyatda to'laqonli ishtirok etishi uchun to'siqlarning mavjudligini ko'rsatadi. Kambag'allikning ikki mutlaq va nisbiy ko'rinishlari mavjud. Mutlaq kambag'allik – bu fiziologik ehtiyojlar, oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joyga bo'lgan ehtiyojlarni (ular "iste'mol savati" deb ham ataladi) qondirishdagi to'g'ridan to'g'ri yetishmovchilik hisoblansa, nisbiy kambag'allik esa insonning mamlakatdagi daromadlarning umumiy darajasiga nisbatan (sifatli ta'lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, kredit olish imkoniyatining cheklanganligi va hokazo) yomon holatini belgilaydi. Shu bilan birga, kambag'allikning kundalik, ya'ni, ma'lum bir vaqtdagi hamda doimiy, uzoq vaqt davom etuvchi ko'rinishlari ham mavjud.

Bundan tashqari, Jahon banki tomonidan 2015-yildagi 115 ta mamlakatda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida taklif etilgan uslubiyotga ko'ra, barcha mamlakatlar uchun 2011-yildagi narxlarda xarid qobiliyati pariteti bo'yicha qashshoqlik chegarasi 1,9, kambag'allik chegarasini esa mamlakatlar aholisi daromadlarining past, o'rt va yuqori darajalaridan kelib chiqib, 1,9; 3,2; 5,5 va 21,7 AQSH dollari etib belgilash tavsiya etilgan.<sup>1</sup>

Yuqoridagi ta'rif va uslubiyotlardan kelib chiqib, alohida qabul qilingan kambag'allikni aniqlash uslubiyoti asosida jami daromadi (yoki xarajati) belgilangan kambag'allik chegarasiga yetmagan aholi qatlamini kambag'al, hayot kechirishi uchun zaruriy ehtiyojlarini mutlaqo qondirish imkoniyati bo'lmagan qatlamni esa qashshoq aholi deb e'tirof etish mumkin. Yoki qo'shimcha qilib, kambag'allik chegarasi kunlik eng kam miqdordagi oziq-ovqat va zaruriy mahsulotlarni sotib olish uchun sarflangan xarajatlar yoki olingan daromadlar hamda oilaning ma'lum bir guruhdagi tovar va xizmatlardan foydalana olish imkoniyatini baholash orqali belgilanadi.

Shuningdek, mutaxassislarining fikriga ko'ra, kambag'allik darajasi, birinchidan, aholining umumiy sonida kambag'allar ulushining qanchaligi bilan, ikkinchidan, kambag'allikni tavsiflovchi daromad miqdori bilan, uchinchidan, kambag'allikning chuqurlashuv darajasi kabi ko'rsatkichlar yordamida o'lchanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, kambag'allik muammosi sho'rolar davrida ham mavjud bo'lib, ammo hukmron mafkura ushbu hodisani to'liq tan olishga imkon bermasdi, bu bo'yicha ma'lumotlar maxfiy hisoblanardi. Faqat 80-yillarning oxiridagina kambag'allikning mavjudligi tan olindi va minimal ish haqidan kam daromadga ega bo'lgan odamlar kambag'allar sifatida turkumlashtirildi. Unga ko'ra, nafaqaxo'rlar, bevalar, yolg'iz onalar, nogironlar kambag'al hisoblandi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda kambag'al aholi mavjudligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida birinchi marta rasman qayd etildi. Zero, mamlakatimiz rahbari, "har qanday mamlakatda bo'lgani kabi, bizda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, ular taxminan 12–15 foizni tashkil etadi. Bu o'rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4–5 millionlik vakillari haqida bormoqda",<sup>2</sup> deb ta'kidlaydi.

Bugungi kunda turli mamlakatlarda kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha turli xil amaliy ishlar va strategik taraqqiyot dasturlar amalga oshirilmoqda. Kambag'allikning oldini olish yoki unga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan oldin uni keltirib chiqaradigan asosiy sabablarni o'rganish lozimdir. O'rganishlar natijalariga ko'ra, kambag'allikni keltirib chiqaruvchi sabablar turlicha bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy omillar (ishsizlik, ish haqining kamligi, mehnat unumdorligining pastligi, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardosh emasligi);
- ijtimoiy-tibbiy omillar (aholining ba'zi qatlamlarida boqimandalik kayfiyatining yuqoriligi, milliy urf-odatlarda ortiqcha sarf-xarajatlarning mavjudligi, nogironlik, keksalik, surunkali kasallik holatining mavjudligi);
- demografik omillar (oilaviy holati, to'liq bo'lmagan oilalar, oilada boqimandalarning ko'pligi);
- ijtimoiy-iqtisodiy omillar (ijtimoiy kafolatlar darajasining pastligi);
- ta'lim-malaka bilan bog'liq omillar (ta'lim darajasining pastligi, kasbiy tayyorgarlikning yetarli emasligi);
- siyosiy omillar (harbiy mojarolar, majburiy migratsiya);
- mintaqaviy jo'g'rofiy omillar (mintaqalarning bir xil rivojlanmaganligi, resurslarning cheklanganligi). O'z o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, kambag'allikni keltirib chiqaruvchi sabablarni puxta o'r-

<sup>1</sup> <http://rueconomics.ru/106180-vsemirnyiy-bank-povyisil-porog-bednosti/>

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T., "O'zbekiston", 2021, 438-bet.

ganib, so'ngra unga qarshi kurashishning aniq dastur va mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Zero, bugungi kunda har bir jamiyatda kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan oldin kambag'allik toifasiga kiradigan aholini aniqlash ko'rsatkichlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kambag'al aholi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga qarab turlicha tavsiflanadi. Masalan oila tarkibi, erkak va ayollar soni, bolalar soni, oila boshlig'ining yoshi, ma'lumoti, qaramog'idagi bolalar va qariyalar soni, o'zi va ularning sog'ligi, ish faoliyati turi va oylik maoshi, mulki, turar joyi, kommunal xizmatlardan foydalanish imkoniyati, tibbiy xizmatdan foydalanishi, maktab va bog'chadan foydalanish imkoniyatlari, bozor va savdo do'konlaridan foydalanish imkoniyatlari, yo'l-transport infratuzilmasi va hokazolar. Agarda jamiyat a'zolari ushbu me'yorlardan qancha foydalanish imkoniyatlaridan mahrum bo'lsa, ularning kambag'allar toifasiga tushib qolish ehtimoli shunchalik yuqori bo'lib qolaveradi. Shuningdek, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar tajribasining tahlili, ushbu tushunchaga nisbatan ikki xil yondashuvni taqozo etmoqda.

Birinchisi, "kambag'allarga yordam" shu onda hayotiy vositalarga muhtoj bo'lganlarni kundalik qo'llab-quvvatlash bo'lib, muhtojlarga yordamning samaraliroq dasturlarini ishlab chiqish bilan milliy daromadning bir qismini tegishli maqsadlarga ajratishdir. Bunda bosh vazifa barcha imkoni bor manbalar (davlat, nodavlat, xalqaro) hisobidan zarur mablag'ni izlash va yordam ko'rsatishning eng arzon maqsadli yo'llarini topishdir. Bu orqali ochlar va nochorlar sonini minimal darajada kamaytirishga erishish mumkin. Biroq bu yerda jiddiy muammolardan biri resurslarning cheklanganligidir.

Ikkinchisi, "kambag'allikka qarshi kurashish" degan tushuncha bu esa kambag'al aholi sonini kamaytirish va uning ko'payishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iboratdir. Bu kabi tadbirlar davlatlar iqtisodiy siyosatining ijtimoiy asosini tashkil etib, ular aholi asosiy qismining daromadini oshirishga, milliy ishlab chiqarishni jonlantirish asosida kam ta'minlanganlar sonini, imkon qadar, kamaytirishga harakat qiladi.

O'zbekistonda ham kambag'allikni qisqartirish va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish borasida borasida ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda kambag'allik to'g'risida Respublikamiz Rahbari 2020-yilning 27-fevralida tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzalarida kambag'allik muammosi eng og'ir bo'lgan hududlar va ulardagi mavjud kambag'allar sonini ko'rsatib o'tdi. Bu hududlar Qashqadaryo viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Namangan, Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridir.<sup>1</sup>

Ma'lumki, mamlakatimizda kambag'allikka qarshi kurashish dasturi qabul qilingan bo'lib, uning asosida quyidagi samarali tadbirlar tashkil etilmoqda:

– mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Buning uchun, avvalo, narxlarning uzil-kesil barqarorlashuviga va yaratilayotgan YIM hajmining yanada jadalroq o'sishiga erishish zarur;

– mehnat qilish sohasini kengaytirish, iqtisodiyotning samaraliroq tarmoqlarini (tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar sohasini) rivojlantirish. Bu samarasiz tarmoqdagi mehnat resurslarining samaraliroq tarmoqlarga, ayniqsa, agrar sektordan faoliyatning boshqa sohaslariga o'tishga olib keladi;

– tadbirkorlikni, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini va o'zini-o'zi band etish shakllarini kengaytirish va shu asosda aholi daromadlarini oshirish uchun imkoniyatlar yaratish;

– kichik tadbirkorlikning rivojlanishi aholiga, ayniqsa, kambag'al va kam daromadli aholi qatlamiga katta imkoniyatlar beradi;

– aholi o'rtasida keng tushuntirish va targ'ibot ishlari olib borilmoqda, jumladan, aholining ba'zi qatlamlarida uchraydigan boqimandalik kayfiyatidan xalos etish hamda milliy urf-odatlar (to'y, hashamlar)da ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirish orqali;

– jamoa shaklidagi ishlarni tashkil etish, ijtimoiy infratuzilmaga jalb qilinadigan investitsiyalarning ortishiga, mamlakatda iqtisodiy ahvolning yaxshilanishiga va bandlik darajasining jiddiy oshishiga yordam beradi. Bu kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali aholining o'rtacha daromadlarining doimiy ko'payishiga hamda kambag'allikning o'sishini oldini olishga erishiladi.

O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurash shakllari va usullarining boshqa mamlakatlardan farq qiladigan xususiyati shundaki, bu jarayonda nafaqat davlat, balki korxonalar, jamoat tashkilotlari shu jumladan, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari mahallalar ham ishtirok etadi. Davlat aholi turli

<sup>1</sup> Xalqimizga baliq emas, qarmoq berishimiz kerak – Prezident//<https://kun.uz/news/2020/02/27/xalqimizga-baliq-emas-qarmoq-berishimiz-kerakprezident>

guruhlari tomonidan olinayotgan daromadlarini tartibga soladi, norizoliklar paydo bo'lish xavfini bartaraf etadi. Jumladan, "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va hokazolarning joriy etilganligi.

Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish demakdir. Shuning uchun Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birga Kambag'allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqishni taklif etaman. Bu borada xalqaro me'yorlar asosida chuqur o'rganishlar o'tkazib, kambag'allik tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash usullarini qamrab olgan yangi metodologiyani yaratish lozim"<sup>1</sup> deb ta'kidlagan edi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo, shu bilan birga, aholining yetarli bilim va malakaga ega emasligi ularning mehnat bozorida raqobatga dosh berolmasligi, ayrim hududlarda ishsizlikning yuqori darajada ekanligi, yangi ish o'rinlari tashkil etilishdagi muammolarning mavjudligi, boqimandalik kayfiyatining yuqoriligi, milliy urf-odatlardagi ortiqcha sarf-xarajatlar, ta'lim tizimidagi salbiy holatlar va hududlarda tibbiyot sifatining pastligi kabilar kambag'allikka yetaklovchi asosiy sabablar sifatida saqlanib qolmoqda.

Shunday ekan, bu borada quyidagi ishlarni amalga oshirish kambag'allikni qisqartirishga olib kela-di. Birinchidan, jamiyatda kambag'allar toifasiga kiruvchilarga ishlab pul topishi hamda to'q yashashiga shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish kerak. Ikkinchidan, davlatning va korxonalarining ushbu qatlamga kiruvchilarga moddiy va ma'naviy yordam berish tizimini tashkil etish lozim. Ammo moddiy yordam haqiqiy adresiga yo'naltirilishi lozim. Sababi, jismonan baquvvat, sog'lom kishilarni doimiy moddiy yordam bilan ta'minlab turish ularning faolligini pasayishiga, boqimandalik kayfiyatining kuchayishiga olib keladi. Shuningdek, mamlakatimizda kambag'al va ishsizlarni kasb-hunarga va tadbirkorlikka o'qitishning yangi tizimi joriy qilingan bo'lib, ularni kasb-hunarga o'qitishda xususiy sektor bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, bunda asosiy e'tiborni ehtiyojmand aholi va nogironlarni ish bilan bandligini ta'minlashni inobotga olish kerak. Bu kabi vazifalarning amalga oshirilishi mamlakatimizda ishsizlikning oldini olishga, kambag'allikni qisqartirishga olib keladi.

#### **Ashurova Zulxumor Shodiyevna (SamISI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi) ZAMONAVIY BOLALAR SHE'RIYATI VA UNING LINGVOPOETIK TAHLILI**

***Annotatsiya.** Maqolada bolalar she'riyati va uning lingvopoetik tahlili xususida fikr yuritilib, bolalar adabiyoti she'riyatining badiiy jihatlarini stilistik va lingvopoetik aspektda yaxlit tadqiq etish, zamonaviy o'zbek adabiyoti, xususan, she'riyatimizda yuz berayotgan shakliy-mazmuniy o'zgarishlar, lisoniy-uslubiy jihatlar, uning badiiyati borasida fikr yuritilgan.*

***Аннотация.** В статье рассматривается детская поэзия и ее лингвопоэтический анализ, комплексное исследование художественных аспектов детской литературы поэзия в стилистическом и лингвопоэтическом аспекте, современная узбекская литература, в частности, формальные и содержательные изменения, произошедшие в нашей поэзии, лингвистический и стилистический аспекты, и его художественность.*

***Annotation.** The article discusses children's poetry and its linguopoetic analysis, comprehensive research of the artistic aspects of the poetry of children's literature poetry in the stylistic and linguopoetic aspect, modern Uzbek literature, in particular, the formal and substantive changes that have occurred in our poetry, linguistic and stylistic aspects and its artistry.*

***Kalit so'zlar:** lingvopoetik aspekt, pragmatik tahlil, poetik matn.*

***Ключевые слова:** лингвопоэтический аспект, прагматический анализ, поэтический текст.*

***Key words:** linguopoetic aspect, pragmatic analysis, poetic text.*

Mamlakatimiz istiqloqligiga qadam qo'ygan kundan e'tiboran, til va adabiyot, san'at madaniyatni rivojlantirish asnosida, xalqimizning boy adabiy-badiiy xazinasini til nuqtayi nazaridan tadqiq qilishning yetakchi tamoyillarini ishlab chiqdi. Bu borada juda ko'plab xayrli ishlar qilindi. Anglashiladiki, til estetikasi ham mohiyatda badiiyat manfaatlariga xizmat qilishga da'vat qilinmoqda. Hozirgi kunda o'zbek tili hayotimizning barcha jabhalarida, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda. Shu ma'noda, har bir ijod-

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/>.

kor yaratqilarini lingvopoetik qirralarini tizimli tadqiqi qilish kun tartibidagi dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Ijodkorlar asarlari tilini tahlil qilish ona tilimizni chuqur o'rganish yo'llaridan biridir. O'tgan asrning 30–40-yillarda boshlangan bu xayrli ish bosib o'tgan yo'lga nazar tashlasak, sohaga oid tadqiqotlarning ko'payganini ko'ramiz. Bola dunyosi shu qadar pok, shu qadar beg'uborki, har xil xatoliklar bilan ichi qoralangan inson bolaning beg'ubor olamini ochishga har qanday ijodkor ham oqsaydi. Ayniqsa, bolalar adabiyoti uchun xoslangan har qanday asarning tilida ham soddalik, ham g'oyaning bola ruhiyatiga moslanganligi alohida ahamiyatga egadir. Bolalar adabiyoti she'riyatining badiiy jihatlarini stilistik va lingvopoetik aspektida yaxlit tadqiq etish uning o'zbek milliy va badiiy tafakkuri taraqqiyotida tutgan o'rni haqida fikrlashga yordam beradi.

Mustaqillikdan keyin boshqa sohalar kabi adabiyotda ham mavzuviy, ham g'oyaviy, ham tuzilish jihatidan yangilanishlar kuzatildi. Xususan, bolalar adabiyotida ham bu o'zgarishlar ro'y berdi. Bolalar adabiyotiga nazar tashlar ekanmiz, uning matnidagi tub burilishlarga nazar tashlaymiz, shuningdek, uning lingvopoetik xususiyatlari qay darajada talqin qilindi? Bizningcha, filologiya doirasida fonetik, morfologik va sintaktik jihatlarini ko'p o'rganilgan bo'lsa-da, adabiyot, xususan, bolalar adabiyotining lingvopoetikasi bo'yicha yetarli ilmiy-amaliy ishlar qilinmagan.

Badiiy matnda muallifning mazmuni shaklga solishdagi mahorati, bundagi individual xususiyatlar alohida qimmatga ega. O'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida ham matn bilan bog'liq masalalarning aksariyati allaqachon stilistikaga bag'ishlangan ishlarda u yoki bu darajada o'rganilgan. Ularda matnga lingvopoetik va lingvosotsiologik jihatlardan yondashilgan hamda uning har bir jihati o'ziga xos tarzda tadqiqot obyekti bo'lgan. Zamonaviy o'zbek adabiyoti, xususan, she'riyatimizda yuz berayotgan shakliy-mazmuniy o'zgarishlar, lisoniy-uslubiy jihatlar, uning badiiyati, emotsional-ekspressivligi, estetik ta'sir kuchini ta'minlovchi omillar va vositalarni aniqlashda yangicha yondashuv – pragmatik tahlil asosida tadqiq qilish lingvopragmatik masalalarni yoritishda keng qamrovli imkoniyatni yuzaga chiqarishi shubhasizdir. Poetik matn, avvalo, obrazli, tasviriy vositalarga boyligi bilan xarakterlanadi. Undagi har bir so'zning ma'lum bir pragmatik yuki bor.

M.Yo'ldoshevning ta'kidlashicha,<sup>1</sup> badiiy matnning lingvopoetik tahlilida, eng avvalo, shakl va mazmun birligi birlamchi tamoyil sifatida qaralishi lozim. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, zamonaviy bolalar adabiyotida, xususan, biz o'rganish obyekti qilgan Anvar Obidjon, Olqor Damin, Dilshod Rajab ijodining shakliy va mazmuniy til xususiyatlari va g'oyaviy tadriji haqida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

◆ mustaqillikkacha bo'lgan adabiyotdan farqli ravishda keyingi bolalar adabiyotida asosiy mavzu endi erkinlik va ozodlik emas, balki asriy va abadiy mavzular mehr-muhabbat, ezigulik kabi mavzular bo'ldi;

◆ Adabiyotga modernistik she'riyatning kirib kelishi bolalar adabiyotiga kirib kelmay qolmadi, ya'ni, shaklda endi oldingiday qoliplarga va qofiyalarga asoslangan she'riyat emas, asosan, mazmun saqlangan shakl asosiy o'ringa ega bo'lmagan, puntkuatsion va sintaktik qoidalarga bo'ysunmaydigan modernistik she'riyat kirib keldi.

Lingvopoetikaning ikkinchi tamoyili bu undagi har bir til hodisasiga makon va zamon birligi tushunchasi hisobga olinadi. Zamonaviy bolalar adabiyotiga nazar tashlar ekanmiz, tarixiy mavzudagi she'riy matnlar, asosan, doston, ertak-doston shaklida yozilgan bo'lib, o'sha davrni yoritish uchun davrda qo'llanilgan leksik-grammatik vositalardan foydalanilgan, abadiy mavzularda yoziluvchi she'riy matnlar asosan, to'rtlik tarzda ifodalangan va o'zbek tilidagi so'zlar bilan birgalikda Yevropa tillaridan kirib kelgan leksikadan unumli foydalanilgan.

Lingvopoetikaning uchinchi tamoyili sifatida badiiy adabiyot tilining, xususan, tahlil etilayotgan matn tilining umumxalq tili, uning turli xil ko'rinishlari va adabiy tilga munosabatini nazarda tutish lozim.<sup>2</sup> Biz yuqoridagi tahlillarimizda, ayniqsa, Dilshod Rajab va Anvar Obidjon ijodida o'zbek xalq maqollaridan, asriy birikmalaridan unumli foydalanganini guvohi bo'ldik. Olqor Damin ijodida esa umumxalq leksikasining g'aroyib yangilangan ma'nolarini ko'rdik.

Lingvopoetik tahlilning keyingi tamoyilida badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik, butunlik sifatida yondashiladi. Bunda badiiy matnning asosiy konsepti aniqlab olinadi. Badiiy matnning shakllanishida asosiy komponent sanaluvchi har bir til birligi, salbiy va ijobiy ma'no ifodalovchi leksika bilan birgalikda

<sup>1</sup> Курбонова М., Йўлдошев М. Матн тилшунослиги. Т., “Университет”, 2014, 67-бет.

<sup>2</sup> Йўлдошев М. Бадий матн лингвopoетикаси. Тошкент, “Фан”, 2008, 35-бет.

uning janr xususiyatlari birikib asosiy konseptni shakllantiradi. Badiiy asar tilini o'rganish keng qamrovli jarayon bo'lib, nafaqat adabiyotshunoslikka oid badiiy g'oya, fikr, umumiy obrazlilik, individuallik, badiiy mahorat, shuningdek, tilshunoslikka oid semiotika, konnotatsiya, pragmatika kabi tushunchalarni umumlashtiradi, kognitiv fan sohalari bilan ham bog'lanib, o'zining tahlil doirasini bilish, tushunish, idrok etish, tahlil qilish, lisoniy tafakkur, lisoniy ong, lisoniy faoliyat, lisoniy shaxsiyat kabi tushunchalar bilan ham kengaytirib boradi. Ishga mana shu tarzda kompleks yondashish lingvopoetika uchun kutilgan natijalarni beradi.<sup>1</sup>

Xulosa qilib aytganda, lingvopoetikaning har bir tamoyilida badiiy matnni tashkil etuvchi har bir unsur va komponentning o'z o'rni bor. Xususan, bolalar adabiyotining o'ziga xos tomonlarini ochib berishda lingvopoetik tahlilning o'rni beqiyosdir. Badiiy til materiallari, yuksak darajadagi poetik dalillar asosida bugungi o'zbek she'riyatida lisoniy omillarning voqelashuvi va badiiyatni ta'minlashdagi o'rni ilmiy-tanqidiy tahlil qilish hamda baholash zarurati ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.<sup>2</sup> She'riy nutqda badiiy mazmunning original bo'lishiga erishish uchun ijodkor yangicha ifoda usullarini topishga intiladi. Ayni shu ijodiy-ruhiy ehtiyoj tufayli turlicha ifoda usullari yaratiladi va she'riyatning ifoda imkoniyatlari rivojlanib boradi.<sup>3</sup> Usulni tanlash masalasini har bir ijodkor adresatga aytmoqchi bo'lgan gapi, yangicha fikr-o'yi, o'z oldiga qo'ygan g'oyaviy-badiiy maqsadidan kelib chiqib, mustaqil hal qiladi. Ijodiy jarayondagi rang-baranglilik, jozibadorlik, kutilmagan originalliklar shundan kelib chiqadi. Obrazli poetik tili bilan serqatlam ma'nodorlikka erishishga intilgan shoirlar hayot haqiqatlarini badiiy haqiqatga aylantirishda badiiylikning muhim omillaridan unumli foydalanadi. Mustaqillik davri bolalar adabiyotining o'ziga xos tomonlari, balki, uning mazmun va g'oyasida, shakliy, poetik va lingvistik tomonlarida hamdir.

**Оразбаев Эргаш Юлдашевич (ҚҚДУ ўқитувчиси)**

## **ТУРКИЙ ТИЛЛАРДАГИ АРАБЧА ЎЗЛАШМАЛАРНИНГ ЎЗЛАШИШ ЙЎЛЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ**

**Аннотация.** Мақолада туркий тиллар, хусусан, ўзбек, қорақалпоқ, туркман тилларидаги арабча ўзлашмаларнинг ушбу тилларга ўзлашиши йўллари, тамойиллари, усуллари ёритилган. Шу билан бирга, тилларнинг ўзаро таъсирлашиши, бир тилдан иккинчисига сўзлар ўзлашиши тиллар табиатига хос қонуният эканлиги аниқ мисоллар билан очиқ берилган. Ўзлашма сўзларнинг ўзлашган тилда фаол лексикасига айланиши учун зарур бўлган лингвистик шартлар кўрсатилади.

**Аннотация.** В статье описаны особенности заимствованных слов арабскими языками из тюркских языков, в частности узбекского, каракалпакского, туркменского. В то же время наглядные примеры показывают, что взаимодействие языков, усвоение слов из одного языка в другой – это закон, заложенный в самой природе языков. Указываются лингвистические условия, необходимые для того, чтобы усвоение слов стало активным лексиконом усваиваемого языка.

**Annotation.** The article describes the features of the borrowed words of the Arabic languages of the Turkic languages, in particular Uzbek, Karakalpak, Turkmen. At the same time, illustrative examples show that the interaction of languages, the assimilation of words from one language to another is a law inherent in the very nature of languages. The linguistic conditions necessary for the assimilation of words to become an active vocabulary of the acquired language are indicated.

**Калим сўзлар:** арабча ўзлашма сўзлар, ўзлашма сўзлар, сўз ўзлашиши йўллари, фаол сўзлар, нофаол сўзлар, туркий тиллар, ўзбек, қорақалпоқ, туркман тиллари.

**Ключевые слова:** арабские заимствованные слова, заимствованные слова, способы заимствования слов, активно употребляемые слова, пассивно употребляемые слова, тюркские языки, узбекский, каракалпакский, туркменский языки.

**Key words:** arabic borrowed words, borrowed words, methods of borrowed words, actively used words, passively used words, Turkic languages, Uzbek, Karakalpak, Turkmen languages.

<sup>1</sup> Ҳасанов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол. фан. номз... дисс. автореф., Т., 2010, 10-бет.

<sup>2</sup> Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик. Самарқанд, 2019, Филол. фанлари бўйича фалсафа док. автореферати, 15-бет.

<sup>3</sup> Кўчибоев А. Матн прагматикаси. Самарқанд, 2015, 43-бет.

Тиллараро алоқа табиий ва зарурий жараён бўлиб, тил ва жамиятнинг ўзаро муносабатини намоён этувчи омил ҳисобланади. Бир тилдан бошқасига сўз ўзлашиш ҳодисаси қадимги даврлардан бери инсоният ҳаёти, тил ва жамиятнинг ички ва ташқи қонуниятлари асосида юз берадиган жараёнدير. Айниқса, мазкур омил замонавий глобаллашув асрида умумий тилшуносликнинг асосий қонуниятига айланди. Яъни, маълум бир лисоний ҳамжамятда техник-технологик, спорт, маданият, санъат ва бошқа соҳага оид кашфиёт ёки ихтиро асосида қайсидир бир тилда пайдо бўлган сўз иккинчи бир тилга ўша предмет, тушунча номи билан бирга кириб келмоқда (личка, тренд, бодибилдинг, сёрфинг ва х.к.).

Дарҳақиқат, “жамият ҳаётига кириб келган янги тушунчалар, воқеа-ҳодисалар жамиятнинг лингвوماданий концептосферасидан жой олиши учун ўз тил захираси билан бир қаторда, ўзга тилларга ҳам мурожаат қилинади ва сўзлар ўзлашади. Бу эса, ўз навбатида, тилнинг луғат қатлами янги лексик (фразеологик) бирликлар билан бойишини ҳамда унинг лингвوماданий муҳитда бекам кўст тараққий этишини таъминлайди. Шунингдек, сўз ўзлаштириш тил соҳибларининг тасавуридаги лисоний лакуна тўлишига ва оламнинг концептуал манзарасини бениҳоя аниқ ва равшан англашига кўмаклашувчи асосий воситалардан бўлиб хизмат қилади”.<sup>1</sup>

Шуниси муҳимки, тилшуносликда ўзлашма сўзларнинг номлашдан тортиб, унинг турли луғатларда изоҳланишигача тартибга солиниши, мутлақо ўз маъносига мос ҳолда қўллашга эришиши зарур. Дастлаб, бундай луғавий бирликларнинг номланишига эътибор қаратамиз.

Ўзбек тилшунослигида бошқа тиллардан кирган сўзларга нисбатан бир-биридан фарқланувчи атамалар қўлланилади. Жумладан, “ўзлаштира сўз”, “ўзлашма(лар)”, “олинма сўз”, “янги пайдо бўлган сўз (неологизм)” атамалари кўринишидан терминологик вариантлик каби таассурот пайдо қилса ҳам, улар маъновий фарқланишга эга. Демак, бир тилдан иккинчи тилга тил элементларининг қабул қилиниши ўтиши ўзлаштириш деб юритилади. Ўзлаштириш туфайли бир тилдан иккинчисига ўтган тил элементлари ўзлашмалар деб юритилади.<sup>2</sup>

Бу борада профессор Н.Маҳмудов қуйидаги фикрларни билдиради: “Тилшуносликдаги “олинма сўз” ва “ўзлаштира сўз” терминларининг параллел қўлланилиши кузатилади. Аслида, бу терминларни бир-биридан фарқлаган ҳолда ишлатиш мақсадга мувофиқ. Агар хорижий сўз берувчи тилда қандай бўлса, олувчи тилда ҳам ўшандай бўлса, бундай хорижий сўзни “олинма сўз” термини билан номлаш тўғри бўлар, чунки хорижий сўз айнан олинган. Агар хорижий сўз олувчи тил фонетик қонуниятларига мослаштириб (ёки аслан фонетик таркибига уйғун) олинган бўлса, “ўзлаштира сўз” терминини қўллаш ҳодиса моҳиятига мос келади, чунки хорижий сўз бундай ҳолатда ўзлаштирилган, яъни олувчи тилнинг ўзиники қилиб олинган бўлади. Хорижий сўз айни шу иккинчи ҳолатдагидай ўзлаштирилса, тилнинг яхлит миллий табиати заҳа емайди, тил луғат бойлигининг умумий миллий тусига катта таъсир бўлмайди, тилнинг миллий таровати соғлом сақланади.<sup>3</sup> Шунингдек, “янги сўзлар (неологизм)” термини, умуман, маълум бир тилда пайдо бўлган сўзларга нисбатан қўлланилиб, ҳам чет тиллардан ўзлашган сўзларга, ҳам миллий тилнинг ички имкониятлари асосида ясалган (сўз ясовчи қўшимчалар орқали, диалектлардан сўз олиш ёки семантик сўз яшаш (сиҳатгоҳ) сўзларга нисбатан ҳам ишлатилади.

Уқордаги фикрлардан келиб чиққан ҳолда, ўзбек, қорақалпоқ, туркман тилларидаги арабча ўзлашмаларни ўзлаштира сўз атамаси билан истифода этиш мумкин. Чунки ушбу тиллардаги арабча ўзлашмалар уларнинг лексик фондига сингиб бўлган, айрим сўзларнинг эса ўзлашма эканлиги ҳам сезилмас даражага келиб қолган. Аммо арабча ўзлашмаларнинг туркий тилларга ўзлашиш йўллари, усуллари, тамойиллар, омиллари бир хил эмас. Арабча луғавий бирликлар айрим туркий тилларга ёзма манбалар орқали ўзлашган бўлса, баъзилари оғзаки шаклда ўзлашган, айримлари эса ҳам ёзма, ҳам оғзаки усулда ўзлашган, дейишимиз мумкин. Бу жиҳатдан миллий тилнинг тарихан марказлашган давлат тили мақоми, тўла маънодаги адабий тил, давлат тили сифатидаги шакллаганлиги омили асосий ўрин эгаллайди. Бинобарин, тарихан марказлашган мамлакат, давлат бошқаруви билан боғлиқ қарор, фармон ва бошқа ҳуқуқий ҳужжатлар орқали расмий услуб, тарих ёзиш, илм-фан соҳалари билан шуғулланиш орқали илмий услуб, бадиий ижод орқали бадиий услуб ривожланиши том маънодаги ёзма адабий тилнинг юзага келишига, такомиллига, бу-

<sup>1</sup> Сирожиддинов Ш. Сўз ўзлаштириш омиллари хусусида. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2017, 4-сон, 83-бет.

<sup>2</sup> Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент, «Фан», 1981, 83-бет.

<sup>3</sup> Маҳмудов Н. Ўзбек тилида ўзлашма сўзлар: меъёр ва миллийлик. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2010, 6-сон, 4-бет.

лар эса, ўз навбатида, адабий тил ривожига хизмат қилади. Мазкур масалалар билан боғлиқ ҳолда туркий тиллардаги арабча ўзлашмаларнинг ўзлашиш тамойиллар, усуллари, омиллари турличалиги билан эътиборни тортади.

Сўз ўзлашиш йўллари ва усуллари бир-биридан фарқланади. Маълумки, тилшуносликда сўз ўзлаштиришнинг икки йўли бор:

1. Жонли сўзлашув орқали сўз ўзлаштириш.
2. Босма манбалар орқали сўз ўзлаштириш.<sup>1</sup>

Жонли сўзлашув орқали сўз ўзлаштириш турли лисоний ҳамжамиятга оид инсонларнинг умумий бир маконда, ҳудудда истиқомат қилиши ва уларнинг иқтисодий, савдо-сотик, маданий алоқалари асосида ёки воситачи тил орқали ўзлашиши мумкин. Шунингдек, ушбу йўл орқали расмий, илмий, диний матнларга хос нарса-буюм отлари, мавҳум тушунчаларни билдирувчи луғавий бирликларнинг воситачи тил луғат фондидан мустаҳкам ўрин олиши ва ўша тил орқали иккинчи тилга сўзлашув йўли билан ўзлашиши, ўзлашган тил оғзаки фонетик қоидаларига бўйсундирилиши мумкин. Туркий тилларга ўзлашган бир қанча арабча ўзлашма сўзларни ана шу йўл билан ўзлашган, дейишга тўла асос бор. Жумладан, қорақалпоқ тилида: *адам, ар, жуўан, дэўлет, ҳаўа, қала, жетим, пикир, пайда, хабар, самал* ва б.; туркман тилида: *ar, adam, edep, eziz, döwlet, ýetim, jogaar, peýda, habar, zetel* ва бошқалар айнан сўзлашув йўли билан ўзлашган.

Босма манбалар орқали сўз ўзлаштиришда, номидан ҳам маълум бўлганидай, расмий, илмий, бадиий, диний матнларга хос луғавий бирликлар ёзма манбалар ёрдамида бир тилдан иккинчи тилга ўзлашади. Шу билан бирга, босма манбалар орқали сўзлар ўзлашишида таржима матнларнинг ўрни ҳам алоҳида. Айниқса, туркий тилларга, аниқроғи, ўзбек тилига кейинги даврдаги замонавий ўзлашмалар турли тиллардан айнан таржима матнлари орқали ўзлашмоқда.

Сўз ўзлаштиришнинг мазкур йўлида аслият тилдаги сўзнинг фонетик-морфологик структураси ўзлашма тилда кўпроқ сақланишига эътибор қаратилади, асл шакли деярли ўзгартирилмайди. Бунда асосий шартлардан бири сифатида сўз ўзлашаётган тилда адабий тилнинг ёзма шакли қанчалик ривожланганлиги етакчи омил саналади. Жумладан, ҳозирги ўзбек адабий тили луғат фондида арабча ўзлашмаларнинг барқарор қўлланилиши ва уларнинг кўпчиликини ташкил этиши бу тилнинг узоқ даврлардан бери ёзма адабий тил мақомига эга бўлиши билан асосланади. Ўзбек тили қорахонийлар даври адабий тили ва Ўрта Осий адабий тили дея эътироф этиладиган чигатой тилининг бевосита меросхўри сифатида XI–XII асрлардан бери ёзма шакли ривожланган ва луғат фонди тараққий этган.

Маълумки, Ўрхун-Энасой обидалари, турк-уйғур ёзувидаги қадимги туркий тилга оид манбалар лексикасида арабча ўзлашмалар учрамайди.<sup>2</sup> Араб тилига хос луғавий бирликларнинг қўлланиши қорахонийлар даври адабий тилига оид “Қутадғу билиг” асарида кўзга ташланади. Ундан кейинги даврларда яратилган “Ҳибат ул-ҳақойиқ”, Яссавий ҳикматлари, “Қиссаси Рабғузий” ва бошқа адабий-бадиий манбалар лексикасида арабча сўзларнинг анча фаол қўлланилишини кўришимиз мумкин. Дарҳақиқат, Фуад Кўпрулузода Яссавий ҳикматлари тилининг қорахонийлар сулоласи давридаги умумтуркий тилга яқинлигини қайд этади.<sup>3</sup> Зотан, юқоридаги бадиий асарларнинг панднома, диний ривоятлар мазмунида ёзилганлиги ҳамда маҳаллий туркий тилли халқлар орасида кенг оммалашиши натижасида арабча ўзлашмаларнинг ушбу тиллар фаол лексик қатламдан ўрин олишига сабаб бўлади.

Таъкидлаш жоизки, ушбу анъана, кейинчалик, ўзига хос умумтуркий ёзма адабий тилнинг шаклланишига ва бу тилда сўзлашув тилидан фарқли лексик қатлам, луғавий фонд, синтактик қоллиплар, гап структурасининг юзага келишига замин ҳозирлади. Мазкур анъана беосита Ўрта Осий адабий тили сифатида эътироф этиладиган чигатой адабий тилида ҳам давом этди.

Исломи динининг туркий халқлар маънавий ҳаётида мустаҳкам ўрин олиши, мадрасаларда араб тилининг махсус ўрганилиши, давлат бошқарувидаги ёзишмаларнинг, илмий адабиётларнинг араб тилида амалга оширилганлиги, бинобарин, ўрта асрларда илм тили араб тили бўлганлиги сабабли, арабча луғавий бирликларнинг ўзлашиши ва қўлланилиши фаоллашди. XIX аср охирилари–XX аср бошларидаги матбуот ривожига, маҳаллий тиллардаги газета-журналларнинг нашр этилиши,

<sup>1</sup> Jamolxonov N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Talqin”, 2005, 196-bet.

<sup>2</sup>Киличов Н.Р. Қадимги туркий тил лексикаси тараққиёт тамойиллари. Филол.ф.ф.д. автореферати, Нукус, 2020.

<sup>3</sup>Қодиров П. Тил ва эл. Тошкент, «Маънавият», 2010, 37-бет.



театрнинг пайдо бўлиши, оммавий саводхонликнинг ошиши туркий тилларда вазифавий услубларнинг шаклланишига, бу эса адабий тил меъёрларининг тараққий этишига олиб келди.

Айниқса, XX асрнинг 20–30-йилларида тил, имло, терминология масалаларини илмий асосда ўрганиш ва меъёрларини ишлаб чиқишни кун тартибига кўндаланг қўйди. Ўша давр талабларидан келиб чиққан ҳолда, замонавий илм-фан, таълим, маданият, давлат бошқарувига оид илмий, расмий, публицистик, бадий услубга хос бир қанча рус-европа тилларидан ўзлашаётган сўзларнинг муқобили сифатида туркий тилларда арабча ўзлашмалар термин сифатида қабул қилиниши кучайди. Бу эса замонавий туркий тилларнинг лексикасида арабча ўзлашмаларнинг мустаҳкам ўрин олишига сабаб бўлди.<sup>1</sup>

Истиқлол йилларидаги атамашунослик соҳасидаги ислохотларнинг натижасида ҳам арабча ўзлашмаларнинг термин сифатида туркий тиллар луғат фондидан ўрин олиши кузатилади (*печат* сўзи ўрнида ўзбекча *муҳр*, туркманча *möhür* каби).

Босма манбалар орқали ўзлашган сўзлар, жумладан, арабча ўзлашмаларни туркий тиллар лексикасидаги мавқеига, қўлланилиш частотасига кўра икки гуруҳга ажратиш мумкин:

1. Фаол лексик қатламдан ўрин олган, бир вақтнинг ўзида, ҳам китобий услубда, ҳам сўзлашувда фаол қўлланиладиган фаол семали ўзлашмалар (*мактаб, китоб, одам, аёл, қалам* кабилар).

2. Нофаол семали ўзлашмалар, яъни, фақат китобий тилда фаол қўлланилади, сўзлашувда бошқа вариантга эга бўлган ўзлашмалар (*масх, рукн, радиф, баҳр* кабилар). Ислом дини билан боғлиқ матнларда қўлланилувчи сўзлар, бадий услубга хос сўзлар, расмий услубга хос қолиплар шундай луғавий бирликларга мисол бўла олади ва улар луғатларда *китобий лексика, диний лексика* каби изоҳлар билан берилгани мақсадга мувофиқ саналади.

Умуман, туркий тиллардаги арабча ўзлашмаларни қиёсий ўрганиш асосида ушбу тиллар луғавий қатламидаги ўзлашмалар маъновий ва семантик қўлланиши ҳақидаги маълумотларга эга бўлиш баробарида, уларнинг амалий тилшунослик доирасидаги муаммоларнинг бартараф этилишига имкон беради. Шунингдек, уланинг луғавий қатламидаги ўрнини аниқлаш, ўзлашмаларнинг ўзлашиш йўллари, усуллари, тамойиллари, омилларини аниқлаш асосида тилларнинг ўзаро таъсир масалалари, тараққиёт босқичларига ойдинлик киритилади. Ўзлашмалар таркибидаги ўхшаш ва фарқли семаларни матн доирасида таҳлил қилиш ва тавсифлаш, замонавий туркий тиллар, хусусан, ҳозирги ўзбек тили лексикаси асосида қиёсий ўрганиш натижасида туркий тиллар луғат таркибининг бойиб бориш омиллари аён бўлади.

**Хабилова Риванна Абдуллаевна (Қорақалпоқ Давлат университети)**  
**ТРАНСФОРМАЦИЯ АМАЛЛАРИДАН СИНТАКСЕМ ТАҲЛИЛ ЙЎНАЛИШИДА КЕНГ**  
**КЎЛАМДА ФЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ**

**Аннотация.** Ушбу мақолада лингвистик тажрибалар методи, жумладан, моделлаштириш методи татбиқида гапнинг юнкцион, компонент ва синтаксем моделларининг тузилиши, гап бўлақларининг ўзаро боғланишини таъминловчи синтактик алоқалари кўрсатилган. Шунингдек, синтактик бирликларнинг табиати ва семантик мундарижасини аниқлаштириш учун моделлаштириш усули етарли эмаслиги ушбу метод татбиқида турли трансформация амалларини бажариш ҳақида сўз боради.

**Аннотация.** В данной статье методом лингвистических экспериментов, в том числе методом моделирования, показана структура соединительной, компонентной и синтаксической моделей предложения, а также синтаксические отношения, обеспечивающие взаимосвязь фрагментов предложения. Также говорится, что метода моделирования недостаточно для выяснения сущности и смыслового содержания синтаксических единиц при применении этого метода.

**Annotation.** In this article, by the method of linguistic experiments, including the modeling method, the structure of the connecting, component and syntactic models of a sentence, as well as the syntactic relations that ensure the interconnection of sentence fragments, are shown. It is also said that the modeling method is not enough to clarify the essence and semantic content of syntactic units when using this method.

<sup>1</sup> Янгибаева Н.Г. XX асрнинг 20-йилларида ўзбек тилшунослиги жараёни («Маориф ва ўқитғучи» журнали материаллари асосида). Филол. ф.ф.д. дисс., Қарши, 2019, 92 – 93-бетлар.

**Калим сўзлар:** лингвистик метод, инструменталлик, лисоний, агглютинатив тиллар, субкатегория, каузаллик, юнкцион, компонент, агентив.

**Ключевые слова:** лингвистический метод, инструментальный, сравнительный, агглютинативные языки, субкатегория, каузальный, юнкцион, компонент агентивный.

**Key words:** linguistic method, instrumental, comparative, agglutinative languages, subcategory, causal, junction agentive.

Тил бирликларининг синтактик-вазифавий номуносаблигини намоён қилувчи лисоний тажриба ўтказиш, яъни, турли трансформация амалларини бажариш методидан синтаксем таҳлил йўналишида ҳам кенг қўламда фойдаланилмоқда. Фикримизча, А.М.Мухин томонидан таклиф қилинган лингвистик тажрибалар методи инструменталлик синтактик-семантик белгисига эга бўлган бирликларни бошқа ёндаш ҳодисалардан фарқлашда ҳам қўл келади.<sup>1</sup>


Маълумки, инструменталлик маъноси ёки муносабати мақсади ҳаракат пайтида предмет ёки жараён бажарадиган вазифани лисоний воқелантириш билан боғлиқ. Бунда ҳаракат қуроли ёки воситаси ушбу ҳаракат ижросини таъминловчи субстанция бўлса, тарз мазмунидаги бирлик эса ҳаракатнинг қандай бажарилишига ишора қилади. Инструменталликнинг мазкур субкатегорияларини инглиз матнларида фарқлаш жуда қийин кечади. Чунки уларнинг ҳар иккаласи ҳам with+S, by+S каби предлогли бирикмалар ёрдамида ифода топади. Агглютинатив тиллар гуруҳига кирадиган қорқалпоқ тилидаги ҳолат бир оз бошқачарок. Бу ерда баъзи пайтларда келишик шакллари мурожаат қилиш мумкин. Аммо ушбу тил тизимида ҳам кўмакчи ва послелоглар ёрдамида ҳосил бўладиган тузилмалар масалани анча қийинлаштиради.

Инструменталликнинг турли субкатегорияларини ажратишда “қандай?” ва “қай йўсинда?” саволларини бериш усулини қўллаш анъанага айланган. Бироқ бу усулнинг камчилиги ўтган асрнинг бошларидаёқ таъкидлаб ўтилган эди. Рус тилшуноси А.А.Потебня “как?” ва “каким образом?” саволларига жавоб ҳаракат макони, замони ва воситаси кабиларга бир хилда ишора қилади. Масалан, “писать как?” (қандай чизиш керак?) саволига “маслеными, сухими, водяными красками” деб жавоб бериш мумкин.<sup>2</sup>

Ҳол туркумига кирувчи синтактик бирликлар тадқиқи билан машғул бўлганлар турли ёрдамчи сўзлар, келишик шакллари ва бошқа сўз ўзгартувчи кўшимчалар иштирокида юзага келадиган маъно оттенкаларни чегаралашда қийналишлари, табиий. Ушбу бирликлар маъно хусусиятларини аниқлаш билан шуғулланиш лозимлигини қайд этаётиб, инструменталлик белгисини тавсифлашда қатор омилларни инобатга олиш ва муносаиб методларни танлаш муҳимлигини қайд этиб ўтказмоқчимиз. Бундан ташқари, инструменталлик, каузаллик, ҳаракат тарзи ва бошқа шу каби тушунчаларнинг ўзаро муносабати, интеграциялашув шартларини ҳам назардан қочирмаслик талаб қилинади.

Олимлар қайд этганидек, таҳлил методининг танлови тадқиқ предмети ва қўйилган мақсад билан боғлиқ.<sup>3</sup> Жумладан, моделлаштириш методи татбиқида гапнинг юнкцион, компонент ва синтаксем моделлари тузилиб, гап бўлақларининг ўзаро боғланишини таъминловчи синтактик алоқалар гуруҳи аниқланади. Синтактик ва синтактик-семантик белгиларнинг чегараланиши, ўз навбатида, синтаксемаларни ажратишга имкон яратади.

Масалан, *He was slicing them ...with a black handed knife* гапнинг сиртки структураси қуйидаги юнкцион ва компонент моделларида тасвирланади:



Ушбу гапнинг ботиний (ички) структураси унинг синтаксем моделини ҳосил қилади:


**SbAg·PrAc·SbOb·QlfQlt·QlfQlt·SbIns**

Навбатдаги *He did it through an agent* гапининг сиртки тузилиш моделлари аввалгиникидан унчалик фарқ қилмайди:

<sup>1</sup> Мухин А.М. Лингвистический анализ. Теоретические и методологические проблемы. Ленинград, “Наука”, 1976, с. 282.

<sup>2</sup> Потебня Н.А. Из записок по русской грамматике. Москва, Харьков, 1988, с. 483.


<sup>3</sup> Алпатов В.М. Лингвистическое описание и языковая компетенция лингвиста. Известия РАН, серия литература и языка, 2010, т. 69, №1, с. 20 – 27.



Аммо ушбу гапнинг ички структураси олдингисидан бошқача мундарижага эга, чунки бу тузилмада инструментал синтаксема ўрнига, медиатив, яъни, ҳаракатнинг қандай тарзда бажарилишини ифодаловчи синтаксема фаоллашган. Қиёсланг:


**SbAg · PrAc · Sbob · SbMdt**

Азат телефон арқали байланысты.



$NP_1 \cdot D_V \cdot NP_2$       *Sbfg · SbIns*


Мен орайлық парк арқали қайттым.



$NP_1 \cdot D_V \cdot NP_2$       *SbAg · QlfQlt · SbLcInsPrAc*

Келтирилган моделлар таҳлил қилинаётган бирликларнинг умумий белгига эга бўлиш билан бир қаторда, бир қатор қўшимча маъноларини ҳам ифодалаш салоҳиятига эга эканлигидан дарак беради. Уларнинг умумий хусусиятлари (D) ўрнига феъл ёки от билан ифодаланган компонент билан субординатив алоқа асосида боғланидиган ва предикатив алоқага киришадиган инструментал агентив синтаксема истисно:

Инг: The key opened the door.



**SbAg·PrAc·SbOb**

Синтактик бирликларнинг табиати ва семантик мундарижасига аниқлаштириш учун моделлаштириш усули етарли эмас, у лингвистик тажриба методи билан тўлдирилиши керак бўлади. Ушбу метод татбиқида турли трансформация амалларини бажариш назарга тутилади. Бу амаллар, юқорида айтилганидек, ягона бир формал структура ботинида яширинган номутаносибликларни юзага чиқаради. Трансформация методидан фойдаланишда структур ўзгаришларга гапнинг алоҳида бир бўлагидан кўра, тўлиқ тузилмани жалб қилган маъқулроқ, чунки синтактик алоқалар доирасидан четда қолган унсур синтактик мазмун ифодасидан йироқлашади. Жумладан, инглиз тилидаги *The servant looked up a tour approach* ва *He fired at the women's retreating figure* гапларини қиёсласак, дастлабки назарда *our* ва *figure* унсурлари ҳар иккаласи ҳам иш-ҳаракатни бажарувчига (агент) ишора қилувчи маънога эгадек туюлади. Агентивлик маъносига унсурлар, албатта, ҳаракат ифодаловчи бирликлар бирикиши зарурлигини биламиз. Бироқ ҳар қандай синтаксеманинг мазмуни унинг синтактик алоқалари тўпламига нисбатан шаклланади. Мавжуд синтактик алоқанинг тури ва унинг йўналишини аниқлаш учун, одатда, тушириб қолдириш трансформациясига мурожаат қилишади. Қиёсланг: *The servant looked up at our approach* → *The servant looked up at ...approach* трансформацияси *our* элементининг *approach* оти қошидаги тобе бўлак эканлигини исботлайди.

Худди шу йўсинда иккинчи гапдаги *woman's* ва *retreating* элементларини тушириб қолдирамиз: *He fired at the woman's retreating figure* → *He fired ...at the figure*. Ушбу структур ўзгартириш *woman's* ва *retreating* элементлари *figure* компонентига тобе эканлигидан дарак беради. Натижада ўрганилаётган бирликлар ўртасидаги синтактик муносабатлар бу икки гап қурилмасида бир хил эмаслиги маълум бўлади. Биринчи гапдаги *our* бўлаги *approach* отига нисбатан тобе ўринни эгаллайди ва агентив синтаксемани ифодалайди. Иккинчи гапдаги *figure* унсурини, предикатив алоқа негизида *fire* бўлаги билан муносабатга киришувини инобатга олиб, объект синтаксемалар қаторига киритишга мажбурмиз.

Шу ўринда трансформация амалларидан фойдаланишни қандайдир тартибсиз жараён сифатида тасаввур қилишдан сақланиш кераклигини эслатмоқчимиз. Трансформациялардан энг аввало, тизимли равишда, оқилона фойдаланиш талаб қилинади. Уларни алоҳида ҳодисаларга нисбатан қўллашдан кўра, яхлит тизимга (масалан, маълум бир синтаксеманинг барча фаоллашув ҳолатларига) нисбатан жорий қилиш самара келтиришига ишонса бўлади. Масалан, *with the help of va through the medium of* мураккаб таркибли предлоғларини ўзаро алмаштириш ҳеч қачон ўрганилаётган элементнинг бир турдаги синтаксемасини ифодалашидан дарак бера олмайди. Аксинча, ушбу бирикмаларнинг луғавий маъносининг номутаносиблиги уларнинг вазифаси бошқа-бошқа қатордаги, яъни, инструменталлик ва медиативлик белгиларига эга бўлган синтаксемалар фаоллашувига сабаб туғдиради.

Синтаксемаларни ажратиш жараёнида турли хил лингвистик ўзгартиришларга асосланган тажриба синовининг олиб борилиш шартларидан бири – трансформаларнинг грамматик қоидаларга мос келишига нисбатан қўйиладиган талаб. Грамматик норманинг бузилиши ёки луғавий маънонинг сақланмаслиги трансформанинг сунъий кўриниш олишига сабаб туғдиради.

Лисоний тажриба жараёнида қўлланиладиган трансформация гап таркибини изоҳлаш, у ёки бу синтактик-семантик белгининг мавжудлигини (ёки мавжуд эмаслиги) аниқлаш воситасидир. Ушбу воситадан фойдаланиш тадқиқотчидан эҳтиёткорликни талаб қилади. Бундан ташқари, инструментал тузилмаларнинг табиати мураккаб эканлиги ва уларнинг табиатини тадқиқ қилиш турлича ёндашувларни талаб қилишини унутмаслик керак.<sup>1</sup> Масалан, *Seymour sliced the salami with a knife* гапни *Seymour used a knife to slice the salami* тузилмасига айлантириш лингвистик тажриба шартларига унчалик мос келмайди. Луғавий қуршов қойдаси талабига риоя қилмаслик, трансформация самарасини камайтиради: *used a knife* бирикмасида *knife* бевосита тобе компонент ўрнини эгаллаб, объект синтаксемасини фаоллаштирмакда.

Ниҳоят, трансформация методи тил ҳодисалари моҳиятини аниқлашнинг универсал воситаси бўла олмайди, унинг жорий қилинишида тадқиқотчилар қатор тўсиқлар учрашини қайд этишган. Бундай чекловлар, жумладан, лексик қуршов, нутқий тузилманинг қайси функционал услубга оидлиги кабилар билан боғлиқ. Баъзи трансформация амаллари фақат тизимнинг алоҳида бир қисмига татбиқ қилиниши мумкин бўлиб, материални тўлиқ камраб ола олмайди. Мазкур чекловлар, шунинг билан биргаликда, лингвистик тажриба методининг синтактик бирликларнинг мундарижасини таҳлил қилишдаги самарадорлигига халакит бера олмайди.

**Tilavova Minavar Durdiyevna (UrDU Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi),  
Pirmatova Ozoda Saparboyevna (UrDU Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi),  
Matyakubova Nuriya Azimbayevna (UrDU Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi Boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi 2-bosqich magistranti)**

## **SHOLICHILIK TERMINLARI VA GURUCHLI TAOM NOMLARINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Maqolada sholichilikka oid terminlar va guruchli taomlarning lisoniy xususiyatlari, ularning turkiy, fors-tojik tillarida va o'zbek tilining o'g'uz lahjasida qo'llanishida yuz bergan fonetik hodisalar xususida fikr yuritilgan.

**Аннотация.** В статье говорится о лексических особенностях блюд из риса и терминах рисоводства, а также о фонетических явлениях, произошедших с ними в тюркском, персидско-таджикском языках и огузском диалекте узбекского языка.

**Annotation.** The article discusses the lexical features of rice dishes and the terms of rice-growing, as well as the phonetic phenomena that happened to them in the Turkic, Persian-Tajik languages and the Oguz dialect of the Uzbek language.

**Kalit so'zlar:** atiz, ko'lcha, xirmon, kafcha, belkurak, o'roq, o'rim, ildiz, o'toq, qipiq, boshqoq, boshqochi, ushr, palov, palovxo'r, xalta palov, qovurma palov, shavla, shirguruch.

**Ключевые слова:** атыз, маленький участок поля, урожай, совок, лопата, серп, жатва, корень, прополка, отруби, колос, колосник, десятина, плов, любитель плова, плов в мешке, жареный плов, шавля, молочная рисовая каша.

<sup>1</sup> Оганесян Н.С. Выражение инструментальных отношений в структуре простого предложения английского языка. Автореф. дисс...канд. филол. наук, Москва, 1985, с. 21.

**Key words:** *atyz* (small area of a field), harvest, scoop, spade, sickle, root, weeding, bran, ear, grate, tithe, pilaf, pilaf lover, pilaf in a bag, fried pilaf, shavlya, milk rice porridge.

Tilshunoslikning eng dolzarb, g'oyatda murakkab hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sohasi terminologiyadir. Ayni paytda, qishloq xo'jaligining ajralmas bir qismi bo'lgan sholichilik terminologiyasi singari kam o'rganilgan sohalarga jiddiy e'tibor qaratish zarurati ham kun tartibiga qo'yilmoqda.

Sholi ko'p yillik o'simlik bo'lib, mamlakatimizda qadimdan sholi mahsuloti yetishtiriladi va turli xil navlari yaratiladi. Insonlar sholi mahsulotini ekish, hosilni yig'ib olish, sholidan guruch mahsulotini ajratib olish ishlarida turli xil terminlardan foydalanishadi. Ushbu terminlar tilshunoslikda o'z tadqiqini kutayotgan sohalardan biri hisoblanadi.

Sholi ekishdan oldin ekin ekiladigan dala ekishga tayyorlanadi. O'zbek tilining o'g'uz lahjasida *dala atiz* leksemasi bilan yuritiladi. *Atiz* "ikki ariq orasidagi ekin". O'g'uz lahjasi va turkman tilida *atiz* ekin maydoni.<sup>1</sup>

*Ko'lcha* termini ham sholi ekish jarayonida faol ishlatiladi. Sholi ekiladigan yer maydoni kichik-kichik qismlarga ajratib chiqiladi. Bu qismlar esa *ko'lcha* deyiladi.<sup>2</sup>

*Kölechä* o'g'uz lahjasida "ekiladigan bir parcha yer", turkman tilida *kö:lche* "ko'lmak". Ammo turkman tilining yomut, taka, chovdur, arsari, To'rtko'l tumanidagi shevalarida *kö:lche* "ekiladigan kichkina dala" dala ma'nosida qo'llaniladi.<sup>3</sup>

Sholi o'simligi boshqa o'simliklar kabi bir nechta qismlarga ajratiladi. Jumladan, ildizi, poyasi, barglari. Shulardan *ildiz* "o'simlikning ozuqa va suv so'rib oluvchi yerosti qismi". Bu ot qadimgi turkiy tildagi *qimirlash*, *jilish* ma'nosini anglatgan *yil* otidan *-diz* (*-tiz*) qo'shimchasi bilan yasilib, asli, *ozuqa* va *suvni jildiruvchi qism* ma'nosini bildirgan; o'zbek tilida *yizdiz* shakli ishlatilib, keyinchalik, so'z boshlanishidagi *y* undoshi talaffuz qilinmay qo'ygan, i unllarning qattqlik belgisi yo'qolgan: *yil+diz=yildiz* > *ildiz* shakliga kelgan.<sup>4</sup>

Xorazm shevasida sholi hosili yig'ib olingach, hosil uyumi *xirmon* deyiladi. *Xirmon* leksemasiga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "fors-tojikcha so'z bo'lib, daladagi hosilni to'plash va tozalash uchun ajratilgan joy, maydoncha" deb izoh beriladi.<sup>5</sup> Shuningdek, "Bu ot forscha *xärmän* shaklida, tojikcha *xirman* shaklida keltirilgan; o'zbek tiliga tojikcha shakli tarkibidagi *a* tovushi *o(ä)* tovushiga almashtirib olingan. Bu leksema "yetilgan hosilni yig'ib to'planadigan joy" ma'nosini anglatadi", deyiladi.<sup>6</sup>

*Xirman* terminining birinchi komponent *xir-xar* kabi turli ko'rinishlarda, ikkinchi komponent esa deyarli barcha tillarda ikki variantda *mon-man* shaklida uchraydi. *Xirman* terminining birinchi komponenti *xar* bo'lib, u katta, buyuk ma'nosini bildiradi. Shu ma'nodagi *xar* so'zi fors-tojik tili tarixida ko'pgina yangi so'zlar, qo'shma so'zlar yasalişida birinchi yoki ikkinchi komponent bo'lib qatnashgan (*xarsang*, *xargo* 'sh va boshqalar). Ikkinchi komponent *mon-man* esa hozirgi eroniy tillarda mustaqil qo'llanilmaydi. Faqat tarixan qo'shma bo'lgan so'zlarning komponenti funksiyasida uchraydi. *Mon-man* morfe-masining leksik ma'nosi *uy*, *xona*, *turadigan*, *yashaydigan joy*, *to'planadigan o'rin* va boshqalardir.

Demak, *xirman* katta to'plam, bir turdagi narsa, predmetlarning uyumi, to'plangan joyidir.

Alisher Navoiy asarlarida ham *xirman* shaklida ishlatilgan:

*Xirman* ruxsorig 'a solmish mayi gulnori o't,

*Uylakim*, gul *xirmanig* 'a otashin ruxsori o't.

Sholi mahsulotini yetishtirishda turli xil ish qurollaridan ham foydalaniladi. Jumladan, sholi dalasini sug'orishda *kafcha* deb nomlanuvchi ish quroli ishlatiladi. O'g'uz lahjasida ushbu leksema *kafcha*, *kapcha* kabi fonetik o'zgarishlarga uchragan holatda ishlatiladi. Til tarixiga oid yodnomalarda *käfchä qo-shiq* ma'nosini ifoda qilgan. O'g'uz lahjasi va turkman tilida *käpchä* (*turkm. kepçä*) maxsus belkurak. Bu belkurak paxsa devorlarga loy uzatish ishlarida qo'llaniladi.<sup>7</sup>

Fors tilida *kafche cho'mich*, Qozog'istondagi turklar tilida ham *käpchä cho'mich*. Ovqat yeyishda ishlatiladigan bu so'z o'g'uz lahjasi va turkman tilida qurilish ishlarini bajarishda qo'llaniladigan qurol ma'nosini anglatadigan so'z bo'lib qolgan. Tojik tilida ham *kafcha belkurak*dir.

<sup>1</sup> Bafoev B. Ko'hna so'zlar tarixi. "Fan", 1991, 57-bet.

<sup>2</sup> G'ulomov Y. Xorazmning sug'orilish tarixi. Fanlar akademiyasi nashriyoti, Toshkent, 1959, 66-bet.

<sup>3</sup> Bafoev B. 98-bet.

<sup>4</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar). T., "Universitet", 2000 (I qism), 114-bet.

<sup>5</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.

<sup>6</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar). T., "Universitet", 2009, III qism, 239-bet.

<sup>7</sup> Saparov M. Xorazm vohasidagi turkiy tillarning o'zaro munosabatlari. T., "Fan", 1988, 88-bet.

O'zbek tilida *kafcha* belkurakdan kichik shakldagi ish qurolidir. Sholi dalalarini sug'orishda ishlatiladi.

Yer qazish, sochilgan narsalarni yerdan to'plab olish uchun dehqonchilikdan *belkurak* asbobidan foydalaniladi. Shuningdek, sholi dalasini bir xil jildirاتب sug'orish uchun yerni past va balandligi bir xilda tekislanadi. Ushbu jarayonda *belkurak*dan foydalaniladi. Bu qo'shma so'z o'zbek tilida *o'rta* ma'nosi bilan qatnashgan *bel* so'zini "surib to'plash asbobi" ma'nosini anglatuvchi *kurak* so'ziga birlashtirib hosil qilingan: *bel+kurak=belkurak*.

*Bel* – yer qazish, sochilgan narsalarni olib solish, to'plash uchun ishlatiladigan yog'och sopli temir qurol; *belkurak*. "Bel bilan yer kavlamoq" ma'nolarini bildiradi.

*Bel-kurak, belkurak* Alisher Navoiy asarlarida ham yerni kavlash va pushtalarni tekislashda ishlatiladigan asbob nomi sifatida keltiriladi.

*Ki bolchig' pushtasin no'gi itik bel,*

*Vayo poru bila qor aritur el.*<sup>1</sup>

Sholi o'simligi unib chiqib, hosil bergandan so'ng sholi poyasi o'roq yoki kombayn orqali o'riladi. *O'roq* "o'simlikni poyasi bilan kesish quroli". Bu ot qadimgi turkiy tilda *poyasi bilan kes* ma'nosini anglatuvchi *or-* fe'lining *takror* ma'nosini ifodalovchi *-g'a* qo'shimchasi bilan hosil qilingan shaklidan *-q* qo'shimchasi bilan yasalgan, keyinchalik, *g'* undoshi talaffuz qilinmay qo'ygan; o'zbek tilida *a* unlisi *ä* unlisiga almashgan: (*or-+g'a=org'a-*)+*q=org'aq>oraq>oräq* kabi fonetik o'zgarishga uchragan.<sup>2</sup>

Sholi hosili unib, hosilga kirgach yig'im-terim ishlari olib boriladi. Bu jarayon *o'rim* leksemasi bilan yuritiladi. *O'rim* "o'simlikni poyasi bilan kesib olish" ma'nosini beradi. "Hozir bedaning ikkinchi o'rimi boshlandi". Bu ot qadimgi turkiy tilda *o'simlikni poyasi bilan kes-* ma'nosini anglatgan *or-fe'*liga *-(u)m* qo'shimchasi bilan yasalgan. O'zbek tilida ikkinchi bo'g'indagi *u* unlisi *i* unlisiga almashgan: *or+um=orum>orim*. Ko'rinadiki, ushbu leksema turkiy tilga xos bo'lib, *o'rmoq, kesmoq* ma'nolarini anglatadi.

Sholi dalasida sholi nihollari qurib qolmasligi uchun suv turadi. Natijada turli begona o'tlar o'sadi. Shuning uchun tez-tez sholi dalasi begona o'tlardan tozalab turiladi. Bu jarayon *o'tamoq* leksemasi bilan yuritiladi. *O'tamoq* fe'li *chorva mollariga yemish bo'ladigan o'simlik* ma'nosini anglatuvchi "ot" otiga<sup>3</sup> *-a* qo'shimchasi bilan yasalgan; o'zbek tilida *a* unlisi *ä* unlisiga almashgan: *ot+a=ota->otä*.

*O'toq* leksemasi o'tamoq fe'lining o'zagiga *-q* qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. "Ekin orasidagi begona o'simlikni yulib tashlash". Bu ot eski o'zbek tilida *ekin orasidagi begona o'simlikni yul* ma'nosini anglatuvchi *ota-fe'*liga *-q* qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan; keyinchalik *q* undoshi oldidagi *a* unlisi *ä* unlisiga almashgan va *ota+q=otaq>otäq* shakliga kelgan.

*Qipiq* leksemasi "don qobig'ining to'poni", "yog'och, temir kabilarning to'poni"dir. "Men kraxmal o'rniga guruchdan chiqadigan qipiqni ishlatmoqchiman". Shunday ma'noni anglatuvchi so'z qadimgi turkiy tilda *qavuv, qaviq* tarzida talaffuz qilingan. Bu ot *-(i)q* qo'shimchasi bilan yasalgan. Yasash asosi bo'lib qadimgi turkiy tildagi *yotiq holatda kes* ma'nosini anglatgan *qiy-* fe'lining *qav-* shakli xizmat qilgan. Keyinchalik, *v* undoshi *p* undoshiga, *a* unlisiga *i* unlisiga almashgan, so'ngra *i* unlilarining qattqlik belgisi yo'qolgan va *qav+iq=qaviq>qapiq>qipiq* tarzida qo'llanilgan.

Sholi o'simligining hosilga kirgan qismi *boshog* leksemasi bilan yuritiladi. Ya'ni *Boshog* don o'simligining hosil beruvchi tepa qismi". Bu so'z asli *bash* so'zining *tik narsaning qismi* ma'nosidan kichraytirish ma'nosini ifodalovchi *-(a)q* qo'shimchasi bilan hosil qilingan bo'lib, dastlab *o'q va nayza uchidagi temir* ma'nosini anglatgan.<sup>4</sup>Hozirgi ma'nosi bu so'zni o'simlikning qismiga ko'chirish natijasida yuzaga kelgan, o'zbek tilida *a* unlilari *ä* unlilariga almashgan: *bash+aq=bashaq<bäshäq*.

*Boshogchi* leksemasi g'allasi o'rib olingan maydonda sochilib qolgan boshog'larni teruvchi, boshog teruvchi, mashogchi ma'nosini anglatadi. Bu leksema *boshog* leksemasiga *-chi* ot yasovchi qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan.

Alisher Navoiy asarlarida ham *boshog* leksemasi "o'simlikning tepa qismi" ma'nosida qo'llangan.

*Shajar yafrog'lari o'qdek qadingning hajrida bordur,*

*Bashoqlarkim, chaman ashki namidin bo'ldi zangori.*

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Toshkent, 1956, 116-bet.

<sup>2</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar). T., "Universitet", 2000, I qism, 488-bet.

<sup>3</sup> Devonu lug'otit-turk. "Fanlar akademiyasi" nashriyoti, Toshkent, 1960, 71-bet.

<sup>4</sup> Shu manba. 359-bet.

Dehqonlar sholi hosilini olishgandan keyin hosildan bir qismini ajratib muhtoj insonlarga tarqatishgan. Bu xalq orasida *ushr berish* deyiladi. *Ushr* leksemasi o'ndan bir, yilda bir marta ekin (don, meva)-larga solinadigan soliq nomi.

*Hisob ichra bu hechdin dag'i kam,  
Kishi ko'rmamish bo'lsa ushrini ham.*

*Poxol* leksemasi bug'doy, sholi kabi boshqoqli o'simliklarning doni yanchib olingandan keyin qolgan quruq poyasini anglatadi. *Poxol* yumshoq bo'lgani uchun to'shak o'rnida ham ishlatilgan.

Sholidan olinadigan guruch mahsulotidan turli xil taomlar tayyorlanadi. Jumladan, guruchdan eng ko'p tayyorlanadigan va sevib tanovul qilinadigan taom palovdir. Palov forscha *polou*, tojikcha *palav* shaklida keltirilgan; o'zbek tiliga tojikcha shakli *v* tovushi oldida kelgan *a* tovushini *o* (ä) tovushiga almashtirib olingan; "go'sht, piyoz, sabzini yog'da qovurib, qaynatib, guruch solib, yana biroz qaynatib, damlab pishiriladigan milliy taom" ma'nosini anglatadi. Asosiy masallig'i guruch, yog', go'sht va sabzidan iborat, qovurib, qaynatib va damlab tayyorlanadigan quyuvq ovqat; osh.

Palovning turlari ko'p bo'lib, jumladan, *ivitma palov* oldindan ivitib qo'yilgan guruchdan tayyorlangan yumshoqroq palov. *Samovar palov* esa choyxonada sara masalliqlardan yaxshi pazanda tayyorlangan palov. Shuningdek, palovning *xalta palov* degan turi ham mavjud bo'lib, guruchi alohida xaltada suvda qaynatib, pishirib olingan palov.

Qovurma palov esa masallig'i obdan qovurib, guruchi ivitmay tayyorlanadigan palov turidir. O'zbek tilida palovni sevib va ko'p tanovul qiladigan insonlarga nisbatan *palovxo'r* leksemasi ishlatiladi. Palovxo'rlik esa to'yib palov yeyish, palovga to'yishdir.

Guruchdan tayyorlanadigan taomlarning turlari ko'p bo'lib, jumladan, *shavla* guruchdan tayyorlangan yumshoq osh. Ya'ni, go'sht, sabzi-piyoz va guruch solib pishiriladigan bo'tqasimon ovqat.<sup>1</sup>

*Shirguruch* esa forscha sutli shavla ma'nosini bildiradi. Guruchni sutda pishirib tayyorlangan shavlasimon quyuvq taomdir.

Demak, o'zbek tilining qishloq xo'jaligiga oid sholichilik terminologiyasi tadqiq qilinishi lozim bo'lgan sohalardan biri bo'lib, ushbu terminlarning etimologiyasi biroz munozaralidir. Chunki sholichilik terminlarining aksariyati fors-tojik tilidan o'zlashgan. Shuningdek, ushbu terminlarning qo'llanilishi turkiy tillarda turlicha bo'lib, fonetik o'zgarishlarga uchragan. Guruchdan tayyorlanadigan taomlarning nomlari ham asosan fors-tojik tiliga oiddir. Shuning uchun ham lug'aviy ma'nolarini tahlil qilish biroz murakkablik kasb etadi. Shu jihatdan, sholichilik terminologiyasining leksik va grammatik xususiyatlarini o'rganish o'zbek tilshunosligining muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

**Nurjanov Oybek Erkin o'g'li (Qoraqalpog' davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti v.b.)  
QORAQALPOG'ISTONDAGI O'ZBEK SHEVALARI VA ETNOGRAFIK ZMMLARNING  
O'RGANILISH TARIXI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarining o'rganilishi haqidagi fikrlar aks etgan. Asosan, xalqning urf-odatlarini, yashash tarzi va udumlari asosida paydo bo'lgan etnografik zmmalar masalasi bayon qilinadi.

**Аннотация.** В данной статье отражены взгляды на изучение узбекских диалектов в Каракалпакстане. В основном исследовался вопрос этнографизмов, возникших на основе обычаев, образа жизни и культуры народа.

**Annotation.** This article reflects thoughts on the study of Uzbek dialects in Karakalpakstan. Basically, the issue of ethnografisms that arose on the basis of the traditions, way of life and traditions of the people was investigated.

**Kalit so'zlar:** til, lahja, sheva, ertak, maqol, afsona, matal, leksik, birlik, marosim, urf-odat, etnografiya.

**Ключевые слова:** язык, диалект, шева, сказка, пословица, легенда, поговорка, лексическая единица, ритуал, обычай, этнография.

**Key words:** language, dialect, fairy tale, proverb, legend, matal, lexical unit, ritual, tradition, ethnografism.

<sup>1</sup>O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent. [www.ziyo-uz.com](http://www.ziyo-uz.com) kutubxonasi.

Quy Amudaryo vohasida yashovchi xalqlarning tarixi, madaniyati, tili, urf-odatlarini, san'ati va amaliy san'ati ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun ham mana shu yuqorida sanab o'tilgan xalq turmushining qirralari ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishni talab etadi. Buning asosiy sababi bu mintaqa aholisining etnografik xususiyatining o'zgachaligidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bu yerda mavjud shevalar boshqa o'zbek xalq shevalaridan tubdan farq qiladi. Qadimdan to hozirga qadar olimlar bu vohaning etnotarixiy va lisoniy xususiyatlariga alohida e'tibor berib kelganlar. XIX asrdan boshlab, asosan, rus olimlari Xorazm vohasi tarixi, ilm-fani va madaniyatini keng o'rganishga harakat qilganlar. Bular jumlasiga N.A.Aristov, S.Volin, A.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, M.Sazonova, A.Freyman, Y.D.Polivanov kabi olimlarni kiritish mumkin.<sup>1</sup>

Bu zaminda qanchalik buyuk faylasuf va tarixchi olimlarning yetishib chiqqanligi ham fikrimizning dalilidir. Yevropa olimlaridan H.Vamberi, A.N.Samoylovichlar, hatto yerli aholi tilidan ertak, maqol, afsona va matallarni ham, imkon qadar, yozib olganlar.

Mustaqillik davridan boshlab, Xorazm vohasi aholisi tarixi, tili va boshqa sohaga doir muammolarni o'rganishga keng yo'l ochildi. Hudud shevalarini alohida semantik guruhlariga ajratib o'rganish, etnografik leksika qamrovini, ularning keyingi tarixiy jarayondagi o'zgarishlarini aniqlash tadqiqotchilar uchun keng imkoniyatlarni ochib berdi.

Keyingi davrlarda professor G'.O.Yunusov, F.Abdullayev, A.Ishayev, E.O'rozov, O.Madrahimov, Y.Jumanazarov, X.Boboniyozov kabi olimlar muhim tadqiqotlar olib borib, mavjud shevalarning lisoniy xususiyatlarini to'la o'rganishga harakat qildilar.

Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari o'ta murakkabligi nuqtayi nazaridan ham alohida lingvistik hodisa sanaladi. Chunki bu zaminda o'g'uz lahjasidan tashqari, qipchoq, qoraqalpoq, qozoq, turkman kabi til va lahjalar ham asrlar mobaynida birga rivojlanib, chatishib ketgan. Mana shunday bir sharoitda shevalar tarkibidagi etnografik leksik birliklarni ajratib olib, uning genezisi, tarixiy taraqqiyoti tufayli yuz bergan lisoniy xususiyatlarini aniqlash, mazkur guruhga kiruvchi so'zlarning hozirgi holati va tarixiy taqdiri haqida ayrim fikrlarni bildirish, shu bilan birga, ularning shu hudud aholisining tarixiy taqdiri bilan bog'liq holda shakllanganligini tarixiy lisoniy tadqiq qilib, bir to'xtamga kelish, o'ziga xos jihatlarni aniqlash mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Shuningdek, yana bir etnolingvistik holatga e'tibor berish lozim. Azaldan bu zaminda istiqomat qiluvchi aholi o'zga xalqlar bilan yaqindan madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqada bo'lib kelgan. Mana shuning natijasida yerli aholining urf-odatlarida, marosimlarining ko'rinishida turlicha o'zgarishlar yuz bergan. Bu o'zgarishlar etnografizmlarning hajman boyishi, semantik jihatdan turli xil siljishlarga olib kelgan. Mana shu siljish va boyishlarga lisoniy jihatdan qarab, ularni o'rganish va bu o'zgarishlarning omillari va sabablarini belgilash o'ta muhim ilmiy masaladir. Bunday jarayonlarning tezlashishi o'tgan asrdagi eski tuzum davrida ham, hozirda ham davom etmoqda. Bunday holatlar tilda o'z asoratini qoldirishi, shubhasiz. O'z navbatida, ularning beqaror va barqaror ko'rinishlarini kuzatib, tadqiq etish ilm-fan uchun doimo muhim sanaladi.

Mustaqillik mafkurasini yaratishda milliy qadryatlarga, ota-bobolarimiz muqaddas deb bilgan marosim, urf-odat va ma'naviy boylikka, birinchi navbatda, shevalar va ular tarkibida yashayotgan etnolingvistik omillarga ahamiyat berish tadqiqotimiz oldiga qo'yilgan muhim shartlardan biridir. Shunday ekan, tadqiqotimiz mavzusi bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda, bugungi siyosatimiz, mafkuramiz, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotimiz uchun dolzarb hisoblanadi.

Tadqiq qilinayotgan hududda yashovchi aholining etnik tarkibi, ularning urf-odatlarini, marosimlarini o'rganish, asosan, XIX asrning 2-yarmidan boshlangan bo'lib, bu ishga, dastlab, venger olimi H.Vamberi e'tibor qaratgan. XX asrning boshlarida rus olimi A.N.Samoylovich ham Xorazm aholisi tilidan ancha-muncha folklor materiallarini yozib olgan. Undan keyingi davrlarda, ya'ni, 30-yillarga kelib, S.P.Tolstov, T.A.Jdanko, G.P.Snesarev, K.L.Zadixina, Y.G'ulomov, G'.O.Yunusov, Y.D.Polivanov, keyinchalik, M.V.Sazonova, K.Shoniyozov, I.Jabbarov kabi tarixchi, etnograf va tilshunos olimlar bu sohada muhim tadqiqotlar olib borganlar. Ushbu zamin qadimdan boy madaniy merosga ega. Shuning uchun yer-

---

<sup>1</sup>Поливанов Е.Д. Избранные работы. Труды по восточному и общему языкознанию. Редколлегия: И.Ф.Вардуль (предс.), В.М.Алпатов, Ф.Д.Ашнин, Вяч.Вс.Иванов, Л.П.Концевич, А.А.Леонтьев; Институт востоковедения АН СССР. М., "Наука" (ГРВЛ), 1991, с. 624; Поливанов Е.Д. Этнографическая характеристика узбеков, вып. 1. Происхождение и наименование узбеков. Ташкент, 1926, с. 31; Его же. Некоторые фонетические особенности каракалпакского языка («Труды Хорезмской экспедиции»).



li aholining urf-odatlarini yillar davomida shakllangan marosimlari, turmush tarzida boshqa mintaqadagi o'zbeklardan farq qiladi va o'ziga xosliklarga ega.

Har bir millatning urf-odatlarini turli davrlarda, turli tarixiy sharoitlarda, madaniyatning turli bosqichlarida vujudga keladi. Jamiyat moddiy va ma'naviy hayotining o'sishiga qarab ular o'zgarib boradi.<sup>1</sup>

Umuman, o'zbek shevalari leksikasi tarkibidagi etnografizmlar o'rganilgan soha sanaladi. Turli dialektal lug'atlarda, monografik ishlarda yo'l-yo'lakay ma'lum bir o'rinlarda uchraydi. Ular maxsus tadqiq qilinmagan. Professor F.Abdullayev, O.Madrahimov, A.Ishayev, E.O'rozov, Y.Jumanazarov, M.Saparov kabi tilshunos olimlarning ilmiy ishlarida qayd qilingan o'rinlar uchraydi. Bu o'rinda o'zbek shevalari etnografik leksikasi mavzusida ish olib borgan A.Jo'raboyev hamda Z.Husainovalarning nomlarini ta'kidlash mumkin.<sup>1</sup> Bundan ko'rinadiki, uch tadqiqotdan ikkitasi Buxoro va Andijon to'y marosimlariga bag'ishlangan ishlar bo'lsa, N.Mirzayevning ishi ko'lami va obyektini jihatdan xalq shevasining ko'pgina tomonlarini qamrab olgan.<sup>2</sup> Tadqiqotchi Y.Bobojonov Janubiy Xorazm etnografizmlarini tadqiq qilgan.<sup>3</sup>

Bundan tashqari, T.Tursunovanning amaliy san'at leksikasiga, T.Dadajanovanning chevarchilikka oid, M.Asomiddinovanning kiyim-kechak leksikasiga oid ishlarida ham marosim leksikasiga oid fikrlar uchraydi.

Biz o'rganayotgan hudud etnografizmlari, umuman, o'zbek tilining etnografik leksikasi mintaqaviy asosda to'la tadqiq qilinmagan.

Bu muammoni to'la tadqiq etish xalq tarixining hamda tilimiz tarixining noaniq va mavhum jihatlari ochishga yordam beradi. Mazkur hududda ham turli millat vakillari yashaganligi sabab ularning til-larida ham o'ziga xos nomushtarak tomonlar mavjud. Bu holat ularning etnografik leksikasida ham ko'zga tashlanadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'pgina qipchoq shevalarida o'g'uz shevalari ta'sirida o'g'uzlashish holati kuzatiladi. Shuningdek j-lovchi shevalarning y-lovchi shevalarga o'tish holatlari ko'zga tashlanadi. Bu holat ularning urf-odat leksikasida ham uchraydi. Xullas, tarixiy jarayon ushbu hududdagi aholi tilida ham o'z aksini topgan.

**Allamberganova Muqaddas Ruslanovna (QQDU O'zbek tilshunosligi kafedrasini o'qituvchisi)  
O'RXUN-ENASOY OBIDALARINI MOBIL TADQIQ QILISH**

*Аннотация. Mazkur maqolada qadimgi yozma yodgorliklarni mobil o'rganish masalalariga e'tibor berilgan. Tavsiya qilingan ilovalar ketma-ketlikda yuklab olinishi va ishga tushirilishi haqida batafsil ma'lumot berilgan.*

*Аннотация. Данная статья посвящена вопросам мобильного изучения древних письменных памятников. Подробная информация о том, как последовательно загружать и запускать рекомендуемые приложения.*

*Annotation. This article focuses on the issues of mobile study of ancient written monuments. Detailed information on how to download and launch the recommended applications in sequence.*

**Kalit so'zlar:** mobil ilova, dastur, yuklash, qadimgi yozma yodgorliklar, lug'at, mobil tadqiqot.

**Ключевые слова:** мобильное приложение, приложение, загрузка, древние письменные памятники, словарь, мобильное исследование.

**Key words:** mobile application, application, download, ancient written monuments, dictionary, mobile research.

Hozirgi kunda Phonedan tortib, Android gadgetlargacha turmush tarzimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Deloitte tadqiqot markazining ma'lum qilishicha, smartfon foydalanuvchisi kun davomida o'rtacha 50 marotaba "aqlli telefon"ga nazar solar ekan. Ushbu jarayonni Respublikamizda ham kuzatish mumkin. Chunki hozirgi kunda aholi qatlamining barchasida: maktab izlanuvchilaridan tortib, katta yosh-gacha bo'lgan mobil operatorlar foydalanuvchilarida aqlli telefon va planshetlardan foydalanadi. Shu bilan bir qatorda, "aqlli" qurilmalaridan tadqiqot olishda va masofaviy tadqiqot tizimlarida foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Ammo Respublikamiz oliy tadqiqot muassasasi talabalarining aqlli qurilmalari uchun milliy tilimizda turli bilim sohalari bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlarini beruv-

<sup>1</sup> Хусайнова З. Ўзбек тилида тўй маросимлари атамаларининг ономасиологик тадқиқи (Бухоро шевалари материаллари асосида). Фил. фанлари номзоди дис., Тошкент, 1984.

<sup>2</sup> Мирзаев Н. Ўзбек тилининг этнографик лексикаси (Қашқадарё вилояти ўзбек шевалари материаллари асосида). Филол... фан... канд... дисс., Тошкент, 1971.

<sup>3</sup> Бобожонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси. Фил. фанлари номзоди дис., Тошкент, 1997.

chi dasturlarning kamligi ko‘rishimiz mumkin.<sup>1</sup> Shuning uchun ham oliy tadqiqot muassasi o‘rganuvchilariga turli fanlar bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan bepul mobil ilovalarni yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri. Oliy tadqiqot muassasalarida «Til tarixi», «Qadimgi turkiy til», «Turkiy tillarning qyosiy-tarixiy grammatikasi» fanlarini o‘qitishni takomillashtirish, fanni o‘rganishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, noan‘anaviy va interfaol usullaridan keng foydalalanish orqali tadqiqot samaradorligini oshirish ijobiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot sohasida mobil ilovalarning qadri o‘shib bormoqda. Bunga sabab esa u beradigan quyidagi qulayliklar: istalgan paytda topshiriq ustida ishlayotgan insonning hamkorlikdagi faoliyati.

- Fayllar almashish.
- Masofaviy tadqiqot tashkiloti va ota-onalarning o‘zaro harakati.
- Mobil tadqiqot vaqtga bog‘liq bo‘lmasligi.
- O‘rganish chegaralarini kengaytirish.

Mobil tadqiqot (M-Learning) – vaqt makondan qat‘iy nazar, mobil qurilmalar orqali o‘qish imkoniyatidir. Mobil tadqiqot – bu joylashgan o‘rindan yoki joylashuvning o‘zgarishidan cheklanmay mobil qurilmalar orqali elektron o‘qishdir. Shunday qilib, o‘quv jarayoni tashkiloti uchun zamon va makondan qat‘iy nazar, mobil tadqiqot mobil texnologiyani alohida hamda boshqa axborot va aloqa texnologiyalari bilan birgalikda qo‘llashni nazarda tutadi.

Mobil texnologiyalar to‘xtovsiz keng tarqalib bormoqda. Qurilmalar bozorida bunday qurilmalarning ko‘plab turlari namoyish etilgan (Play market). Odatda, mobil qurilmalar deganda cho‘ntak kompyuterlari, smartfonlar, planshetlar va mobil telefonlar tushuniladi, lekin odamlar kundalik faoliyatida ishlatuvchi boshqa har qanday ixchamlashtirilgan qurilmalar evaziga bu ro‘yxatni kengaytirish mumkin.<sup>2</sup>

Mobil ilovalar, odatda, “tarkib bo‘yicha yengil” deb hisoblanadi, ko‘proq izlanuvchilarga audio-materiallar yetkazib berishda, matnli xabarlar almashinuvida, so‘rovlarda qatnashishda, matnli chatlarda, yozib olish va o‘qishda ishlatiladi. Shuningdek, mobil tadqiqot tarkibiga quyidagi talablar qo‘yiladi: ixchamlilik – mobil tadqiqot tarkibiy qismlari aloqadagi ehtimolli uzilishlarni inobatga olgan holda, davomiylilik bo‘yicha qisqa bo‘lishi lozim. Mikroergonomikaning yuqori darajadali – kichik ekranda ovoz va rasmlarning kichik hajmda va yuqori sifatli bo‘lishi. Fayllarning kichik hajmdaligi yuklab olishning tezligini ta‘minlaydi. Har joydalik – mobil o‘qitish tarkibidagi materillarni joylashgan joyidan qat‘iy nazar, istalgan joyda olish mumkin. Mobil aloqa va mobil qurilmalar ta‘minotchilarining ulkan qamrovi mobil tadqiqot xizmatlaridan har joyda va siz uchun qulay paytda foydalanish imkoniyatini yaratib beradi. Talab bo‘yicha foydalanishga ruxsat – tabiatan mobil qurilmalar izlanuvchilar uchun talab bo‘yicha zarur paytda o‘zining maksimal yetkazib berish imkoniyatini ishga solib, zaruriy tarkibdan foydalanishni ta‘minlaydi.


**Mobil tadqiqot** bu faqatgina nazariy ehtimollik emas, ayni mavjud narsadir. Turli davlatlardan ishtirok etuvchilar va pedagoglar mobil qurilmalar yordamida keng ma‘rifiy resurslardan foydalanish imkoniga ega bo‘ladilar, axborotlarni muhokama qilish va axborotlarni boshqa izlanuvchilar bilan bo‘lishishlari mumkin, hamkasblardan va o‘qituvchilardan madad olishlari, shuningdek, samarali aloqani yo‘lga qo‘yishlari mumkin.

O‘rxun-Enasoy obidalarini o‘rganishni elektron tadqiq qilish maqsadida quyidagi mobil dasturlardan foydalanish tavsiya qilinadi:

**Turkiy bitik.** Mazkur dastur shunchaki O‘rxun alifbosi yoki qadimgi turkiy yozuv, ko‘kturk yozuvi yoki O‘rxun-Enasoy yozuvi, Enasoy yoki Sibir runlari, runik alifbosini targ‘ib qilish hamda o‘rganishga qaratilgan. Uni osonlik bilan o‘z smartfoningizga ko‘chirib olishingiz hamda turli matnlarni yozishda ishlatishingiz mumkin. Bu dastur 2016-yilda [newnomadsdev@gmail.com](mailto:newnomadsdev@gmail.com) dasturchilari tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>1</sup> Атамурадов Ж.Ж. Масофавий таълимда мобил иловалардан фойдаланиш. Аамалий математика ва ахборот технологияларининг замонавий муаммолари. 2021 йил 15 апрель, 441 – 443-бетлар.


<sup>2</sup> Nazirova E.Sh. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti “Ommaviy ochiq onlayn kurslarini yratish nazariyasi va amaliyoti” mavzusida respublika ilmiy-amaliy onlayn internet anjumani materiallari”. Oliy ta‘lim muassasalarida ochiq ta‘lim resurslaridan foydalangan holda, o‘quv jarayonini tashkil etish modellari”.



**Bitikchi (run converter).**


Mobil dastur har qanday matnni qadimiy turkiy runalarga tarjima qilishga imkon beradi. Turkiy bi-tik qadimgi turkcha (ko'kturk, O'rxun-Enasoy alifbosi, turkcha runlar) matnlarni yozishda qo'llaniladi.

Unga ko'ra, lotin harflarida matn kiritilsa, uni qadimgi turkiy runalar yordamida qadimgi turkiy matnlarga aylantirib beradi. Bu dastur ham [newnomadsdev@gmail.com](mailto:newnomadsdev@gmail.com) dasturchilari tomonidan ishlab chiqilgan va 2017-yil 13-oktabrda internetga joylangan.




**Göktürk Alfabeti Kılavuzu.**

Mazkur mobil dastur, Erkan TheCloud, [erkansivas58@gmail.com](mailto:erkansivas58@gmail.com) tomonidan ishlab chiqilgan. Dasturni telefon qurilmasiga saqlab olgandan keyin, unda ko'kturk yozuvini o'rganishda foydalanish mumkin.




Dasturda 6 ta bo‘lim mavjud bo‘lib, 1-bo‘limda O‘rxun-Enasoy yozuvlari alifbosi bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish mumkin. 2-bo‘limda alifbo yordamida yozish o‘rgatiladi, 3-bo‘limda matnlar berilgan, ya‘ni, mazkur alifbo yordamida matnlar yozish o‘rgatiladi, 4-bo‘limda unli va undosh tovushlar bilan ishlanadi, 5-bo‘limda namuna matnlar berilgan, 6-bo‘limda lug‘at shakllantirilgan. Dasturning qulayligi va afzalligi shundaki, undan foydalanish orqali ko‘kturk xati tovush tizimi va alifbosi haqida muammal ko‘nikma hosil qilish mumkin. O‘rganuvchilarga aynan ko‘kturk yozuvining alifbosini o‘rganish qiyinchilik tug‘dirishini hisobga olsa, dastur tadqiqot ishlarida juda katta amaliy yordam bera oladi.

**Göktürk Alfabeti Öğren.** Zehra Nihat Moraliog‘lu 2018-yili kökturk alifbosini o‘rganish va amaliyotga hissa qo‘shish maqsadida tayyorlangan.



Mazkur mobil ilova bilan, ko‘kturk harflarini o‘rganish uchun mashq qilish, harflar bo‘yicha bilimingizni harf testi bilan o‘lchash, misollarni ko‘rib chiqish orqali so‘zlarni shakllantirish haqida bilib olish, shuningdek, ko‘kturk alifbosi imlo qoidalarini o‘rganish mumkin.

**Törük bitig converter.** Mazkur dastur tarjimon dastur hisoblanadi.



Boshqa ko‘rsatilgan dasturlardan qator afzalliklar bilan ajralib turadi. Mazkur konvertorni kompyuterga yuklab olish shart emas. Dastur to‘g‘ridan to‘g‘ri matn va so‘zlarni kiritish bilan avtomatik ishlaydi. Shuningdek, ko‘k turk alifbosida yozilgan matnlarni turli shaklga, turli ranglarga bo‘yash imkoniyati mavjud. Konverter foydalanuvchining imkoniyatlarini yanada qulaylashtirib, matn o‘rniga rasm kiritish imkonini ham beradi. Bunda ko‘kturk alifbosida yozilgan rasmlarni joylash orqali uning mazmunini, tarjimasini ikkinchi grafikli qismda ko‘rish mumkin. Dasturga quyidagi havola orqali kiramiz: <http://www.tamga.org/2016/01/web-tabanl-gokturkce-cevirici-e.html>.

**Microsoft Word dasturida turkiy runalarini yozish. Multikey shrifti.** Bunga ko‘ra oddiy Times new roman shrifti kabi multikey shrifti kompyuterga yuklab olinadi va oddiy holatda matnlarni kiritish mumkin bo‘ladi.

Tadqiqot jarayoni nihoyatda murakkab va ko'p komponentlidir. Mazkur jarayon o'rganuvchining faolliligiga, zarur vositalarining mavjudligiga, tadqiqot jarayonining tashkiliy, ilmiy-metodik mukammalligiga, jamiyatda ilmi kishilarga bo'lgan ehtiyojga va boshqa hali aniqlanmagan ko'pgina omillarga bog'liq. Jamiyat o'zining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ehtiyojlari asosida bunday jarayonlarning yuqori bo'lishini talab etadi.<sup>1</sup> Tadqiqotning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u izlanuvchiga chuqur va asosli bilim berish bilan birga, keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Tadqiqot jarayonida o'rganuvchida mustaqil bilim olish ehtiyoji shakllanib borishi hozirgi kunning talabidir. Pedagogik amaliyot va tadqiqotlarda qator ish usullari qo'llab ko'rildi. Tadqiqotni muammoli tashkil etish, tadqiqotda izlanuvchilarni faollashtirish, hamkorlik pedagogikasi, tayanch bilimlarga asoslanish, tadqiqotni optimallashtirish va boshqalar tajribadan o'tmoqda. Lekin bu pedagogik vositalar ayrim o'rgatuvchilarda samarali natija bersa ham, uni ommaviy yo'sinda tadqiqot tizimiga kiritib bo'lmadi. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati va yutug'i shundan iboratki, tadqiqotda o'rganuvchilarni qiziqitirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Tadqiqot jarayonida berilayotgan bilimlarni o'rganuvchilarning aksariyat ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiyani joriy etishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Axbotot texnologiyalari asosida dars o'tishda eng asosiy talab o'rganuvchining hayotiy tajribasi, avval, o'zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko'zda tutadi.

Ma'lum o'rganilayotgan soha bo'yicha o'rganuvchilarda bilim yetarlicha bo'lmagan holda ham o'rganuvchida salbiy kechinmaga o'rin qoldirmaslikni, bu o'rganuvchining aybi emasligini tan olishni talab etadi. Faollik ko'rsatilsa, bilimlarni o'zlashtirib olishga o'rganuvchilarda ishonch paydo bo'lishiga erishish mumkin. Tadqiqotning ustuvor vazifalaridan biri, bu tadqiqot oluvchi ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga faol kirishib ketishiga munosabatini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifalar tadqiqot sifati darajasini yanada ko'tarishni, malakali, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashni hamda bu jarayonlarda AKTdan foydalanish darajasini oshirishni hamda buning natijasida tadqiqot va tarbiya tizimida tub sifat o'zgarishlari sodir etishni talab qiladi.

Yuqorida keltirilgan mobil ilovalar va turli elektron dasturlar qadimgi turkiy matnlar bilan ishlash jarayonini osonlashtiradi, foydalanuvchi qisqa muddat ichida yozuvlarni yozib hamda o'qib o'rganish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Buning uchun ko'p vaqt, ko'p xarajat ham talab qilinmaydi. Mobil telefonlarga oddiy Google play dasturi orqali kerakli ilovalar yuklanadi va odatiy dasturlar qatorida foydalaniladi. Ayniqsa, bugungi kunda masofadan o'qitish tizimini takomillashtirishda mazkur ilovalarning ahamiyati katta.

**Samandarova Nilufar Kodirovna (UrDU o'qituvchisi)**

## **FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA DIREKTIV FE'LLARNING LEKSIK-SEMANTIK, SINTAKTIK HAMDA QIYOSIY-TIPOLOGIK JIHLARI**

**Аннотация.** *Ushbu maqolada fransuz tilida direktiv (yo'naltirilgan harakatni ifodalovchi) fe'llar, ularning leksik-sintaktik va qiyosiy xususiyatlari haqida gap boradi. Ma'lum obyektдан uzoqlashish va obyektning subyektga yaqinlashishi ma'nolarini shallanishida ishtirok etadigan bu fe'llarning tahlili misollar yordamida keltiriladi.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматриваются директивные (выражающие направленное действие) глаголы во французском языке, их лексико-синтаксические и сравнительные особенности. Анализ этих глаголов, участвующих в спряжении существительных от определенного объекта к субъекту, представлен на примерах.*

**Annotation.** *This article discusses directive (expressing directed action) verbs in the French language, their lexical-syntactic and comparative features. The analysis of these verbs involved in the conjugation of nouns from a certain object to a subject is presented by examples.*

**Kalit so'zlar:** *obyekt, predmet, harakat, makon, harakat fe'llari, yo'naltirilgan fe'llar, intensivlik, konkretlashtirish, lokumga yo'naltirilganlik, obyektдан uzoqlashish, obyektga yaqinlashish.*

**Ключевые слова:** *объект, субъект, действие, пространство, глаголы действия, направленные глаголы, интенсивность, конкретизация, ориентация на место, расстояние от объекта, приближение к объекту.*

<sup>1</sup> Ўзбек педагогикаси антологияси. Т., 2010, 17 – 19-бетлар.

**Key words:** *object, subject, action, space, action verbs, directed verbs, intensity, concretization, orientation to the place, distance from the object, approach to the object.*

Direktiv fe'llar subyekt ta'sirida ro'yobga chiquvchi yo'naltirilgan harakatni aks ettirib obyektidan uzoqlashish va obyektning subyektga yaqinlashishi ma'nolarini shallanishida ishtirok etadi. Jumladan, *lancer* fe'li subyekt tomonidan obyektga qarab yo'naltirilgan harakatni aks ettirib, *otmoq, irg'itmoq, uloqtirmoq, tashlamoq, sapchimoq, chertmoq, tushirmoq, urmoq, zarba bermoq, kaltaklamoq, musht tushirmoq, shapaloq tushirmoq, uzatmoq, turtmoq, haydamoq, yo'rtirib ketmoq* kabi so'z leksik variantlariga semantik jihatdan xoslashadi. Albatta, bu variant ma'nolari nutq vaziyatlarida fe'lning zaruriy ifoda vositalari bilan birikuvi natijasida shakllanadi.

Ushbu fe'lda yo'naltirilgan harakatning turli qirralari nutq vaziyatida yuzaga keladi. Nutq vaziyatlarida kategorial jihatdan olislashgan, ya'ni, ajralgan yo'naltirishni anglatsa-da, lekin ifoda tutash yo'naltirilganlik ma'nosi bilan ham bog'liq bo'ladi. Ushbu ma'nolar ifodasida intensivlik, dinamik harakat ko'rsatkichi alohida ajralib turadi. Bu o'rinda quyidagi misollarni qiyoslab ko'raylik:

*Quelquefois il le prenait d'une main, il l'ôtait de ses lèvres, et du même coin d'où sortait la fumée lançait à la mer un long jet de salive brune* (Guy de Maupassant. *Une vie. L'humble vérité.* p. 37).

*Lastik amaki goho trubkani olar va tutun chiqib turgan joyidan dengizga tupugini uzunchoq qilib otardi* (Gi de Mopassan. *Hayot ayni haqiqat.* 38-bet).

*Il prit une pierre à portée de sa main, et, comme il était adroit, il tua net en la lançant, la volaille la plus proche de lui* (Guy de Maupassant. *Contes et Nouvelles. Le Gueux.* p. 234).

*U yonida yotgan toshdan olib, yaqinroqda yurgan tovuqqa qarab otdi. Juda ephil bo'lganidan tosh xato ketmadi* (Gi de Mopassan. *Hikoyalar. Gado.* 120-bet).

*Avec des gestes brusque et prompts elle s'était habillée, recoiffée et voilée: et comme il voulait la saisir elle lui lança, à toute volée un soufflet par la figure. Pendant qu'il demeurait étourdit, elle ouvrit la porte et s'enfuit* (Guy de Maupassant. *Bel ami.* p. 202).

*U tez kiyinib oldi, shlyapani kiydi, yuzidagi to'rni tushirdi, Jorj uni ushlab qolaman degan edi. Klotilda qulochkashlab shapaloq tushirdi va Jorj hali o'ziga kelmay turib, eshikni ochib tashqariga yugurib chiqdi* (Gi de Mopassan. *Azizim.* 288-bet).

*Tout à coup Carmen se retourne et me lance un coup de poing dans la poitrine, je me laissais tomber exprès à la renverse* (P.Merimée, *Nouvelles. Carmen.* p. 186).

*Qo'qqisdan Karmen menga o'girildi-yu ko'ragimga bir musht tushirdi. Men jo'rttaga yuz tuban yiqildim* (P.Merime. *Novella. Karmen.* 197-bet).

Yuqorida berilgan misollarda *lancer* fe'lining yuqori intensivlikda yo'naltirilgan aspekti o'z aksini topdi. Birinchi va ikkinchi misolda ajralgan yo'naltirilganlik namoyon bo'lsa, uchinchi va to'rtinchi misollarda tutash yo'naltirilganlik kuzatildi.

Birinchi misolda obyekt, ya'ni *un long jet de salive brune* lokumlashgan yo'nalish bilan bog'liq.

Buni obyekt bilan bog'langan *à la mer* ham aks ettirib turibdi. O'zbek tilida ushbu ma'no ko'rinishlari *qo'ng'irtus tupugini uzunchoq qilib otardi* hamda *dengizga* so'zlarida o'z aksini topgan.

Fransuz tilida lokumlashgan yo'nalish à predlogi+lokumlashgan ot *la mer* orqali beriladi. O'zbek tilida esa jo'nalish kelishigi qo'shimchasi olgan *dengizga* lokumlashgan otiga monandlashadi.

Fransuz tilidagi *un long jet* sifatlashgan ot birikmasi o'zbek tilida ravish funksiyasidagi ravishdan orqali uzunchoq qilib shaklida beriladi.

Ikkinchi misolda esa yo'naltirilganlik munosabati *en la lançant, la volaille la plus proche de lui* konstruksiyasida shakllangan. O'zbek tilida esa bu mazmun ko'rinishi *yaqinroqda yurgan tovuqqa qarab otdi* iborasida o'z aksini topgan.

Fransuz tilidagi *la plus proche de lui* o'zbek tilidagi yaqinroqda yurgan so'z birikmalari harakatning masofaviy yo'naltirilganligi yaqin joyga qaratilganligini ko'rsatadi.

Uchinchi misolda esa *elle lui lança, à toute volée un soufflet par la figure* jumlasida yo'naltirilgan harakatning kimga qaratilganligi, uning tutash ekanligi, yuqori intensiv ijroga ega ekanligi tutash harakat orqali lokumga borib tekkan obyekt harakteri ochib beriladi.

Fransuz tilida direktiv tutash dinamik lokumlashgan xususiyatlar o'z aksini ifodada to'liq topadi.

O'zbek tilida esa direktivlikda tutash dinamik ma'no alomatlarini kuzatiladi xolos. Bu nutq vaziyatida o'zbek tili ifoda me'yorida tejankorlik yo'lini topgan.

To'rtinchi misolda har ikki tilda yo'naltirilganlik harakatning direktiv tutash lokumlashgan dinamik aspektlari ifodada shakliy uyg'unligini topgan.

Ba'zi hollarda fransuz tilida yo'naltirilgan harakat yo'naltirilgan obyektning boshqa bir obyektga nisbatan konkretlashtirilgan holda yo'naltirilish nuqtalarini boshlanishi va tugal marrasini aniq belgilangan holda ifoda etadi.

*Et prenant la fleur de cassie qu'elle avait dans sa bouche, elle me la lança, d'un mouvement du pouce, juste entre les deux yeux (P.Mérimée. Nouvelles. Carmen. p. 504).*

U og'zidagi akatsiya gulini olib menga qarab chertib yubordi gul qansharimga kelib tegdi (P. Merime. Novella. Karmen. 33-bet).

Ushbumisolda fransuz tilida direktivlik ajralib yo'naltirilganlik, yaqin masofaga lokumga yo'naltirilganlik, dinamik yo'naltirilganlik alomatlari o'z ifodasini mujassam topadi. *Elle me lança* iborasi obyektning kim tomonidan kimga qarab yo'naltirilganligini ifoda etsa *d'un mouvement de pouce* yo'naltirilganlikning boshlang'ich nuqtasini *juste entre les deux yeux* esa yo'naltirilganlikni tugal murosasini, lokumning aniq nuqtasini belgilaydi.

O'zbek tilida esa *akatsiya gulini olib menga qarab chertib yubordi gul qansharimga kelib tegdi* jumlasini xoslashadi.

O'zbek tilida yo'naltirilayotgan obyekt *akatsiya guli* hisoblanib, qarab jo'nalish kelishigi olgan kishilik olmoshi hamda qarab ko'makchisi yo'naltirilgan harakatning yo'nalishini belgilaydi. *Qansharimga* jo'nalish kelishigi qo'shimchasiga esa ot yo'naltirilgan harakatning tugal ma'nosini aks ettiradi.

Ba'zi hollarda fransuz tilidagi tranzitiv yo'naltirilgan ish harakati o'zbek tilidagi intranzitiv yo'naltirilganlikka xoslashadi. Shubhasiz bu vaziyat tillar o'rtasidagi farqni aks ettiradi.

*Le comte, assis entre les deux chiens qui flairaient, le nez au vent, ramait; et chaque secousse de ses avirons soulevait la grande barque et la lançait en avant (Guy de Maupassant. Une vie. L'humble vérité. p. 119).*

*Graf hushyorlik bilan hid olib borishayotgan ikki it orasida o'tirgan holda eshkak eshardi. U har eshkak eshganida ulkan qayiq oldinga sapchirdi (Gi de Mopassan. Hayot ayni haqiqat. 125-bet).*

Nutq vaziyatlarida qiyoslanayotgan tillar o'rtasidagi farq obyektning subyektga munosabati ma'no aspekti doirasidagi tutash yo'naltirilgan harakat, ajralgan yo'naltirilgan harakat ma'no aspektlariga taalluqli bo'lishi mumkin. Jumladan, fransuz tilidagi ajralgan, lokumlashgan, dinamik, yo'naltirilgan harakat o'zbek tilidagi lokumlashgan, tutash, me'yoriy yo'naltirilgan harakatga xoslashishi mumkin:

*A cinq heures, Julien reçut une troisième lettre: elle lui fut lancée de la porte de la bibliothèque. (Stendhal. Le Rouge et Le Noir. p. 349).*

*Kunduzi soat beshda Jyulen uchunchi marta xat oldi: Madmuazel de Iya Mol uni yigitga uzatdi-da, yana qochib ketdi (Stendhal. Qizil va Qora. 320-bet).*

Ikki til o'rtasidagi farq vektorli munosabatlarni aks ettirishi mumkin. Ushbu munosabat yubormoq, olmoq munosabatini o'z ichiga oladi:

*On ne distinguait plus rien dans la voiture; mais tout à coup un mouvement se fit entre Boule de suif et Cornudet; et Loiseau, dont l'oeil foillait l'ombre, crut voir l'homme à la grande barbe s'écarter vivement comme s'il eût reçu quelque bon coup lancé sans bruit (Guy de Maupassant. Contes et Nouvelles. Boules de suif. p. 39).*

*Dilijonning ichida hech narsani ko'rib bo'lmay qoldi, lekin Do'ndiq bilan Korniyude birdan qimirlab qolishdi va qorong'ilikka tikilib qarab ketayotgan Luazo janoblarining nazarida uzun soqol Korniyude sekin-asta bo'lsa ham, qattiqqina turtki yeb, nariroq o'tirganday bo'ldi (Gi de Mopassan. Hikoyalar. Do'ndiq. 19-bet).*

Yo'naltirilgan harakatning intensivlik doirasidagi ma'no aspektlari o'rtasidagi farq ham tipologik allomorfozmni yuzaga keltiradi.

*Se jeune homme grimpa près de sa mère, et s'asseyant sur une seule cuisse faute de place, il lança au grand trot son cheval dont l'allure saccadée faisait sauter les deux femmes (Guy de Maupassant. Une vie. L'humble vérité. p. 184).*

*Yigit onasining yoniga chiqib, yakka kift bo'lib o'tirdida, otni haydadi. Ot ham bir tekisda yo'rtib borayotganida ikkala ayolni arava juda silkitardi (Gi de Mopassan. Hayot ayni haqiqat. 195-bet).*

Yo'naltirilgan harakatning har ikki tildagi baho kategoriyasiga munosabati analitik fe'llarni shakllantiradi.

*Alors la bohémienne lui lança un regard de profond mépris; puis, s'asseyant à la turque dans un coin de la chambre elle choisit une orange, la péla et se mit à la manger (P.Mérimée. Nouvelles. Carmen. p. 496 – 497).*

*Shundan keyin lo'li unga to'la nafrat, so'ng burchakka borib chordana qurib o'tirdi-da, apelsindan bitta olib archib eyishga kirishdi (P.Merime. Novella. Karmen. 26-bet).*

Fransuz tilidagi analitik fe'llar ba'zi hollarda o'zbek tilidagi sintetik formaga xoslashishi mumkin.

*Elle me lança un regard comme si elle me reconnaissait; mais elle dit air résigné marchons. Où est ma mantille? (P.Mérimée. Nouvelles. Carmen. p. 506).*

U xuddi meni taniganday bir qaradi-yu, lekin, itoat bilan dedi: “Yuring, ketdik. Mening mantilm qani?” (P.Merime. Novella. Karmen. 34-bet).

Lancer fe'li ko'chma ma'no ifodalab ham kelishi mumkin:

*Les deux femmes, maintenant, en lançaient de roides, Madame de Marelle avec une audace naturelle qui ressemblait à une provocation, Madame Forestier avec une réserve charmante, une pudeur dans le ton, dans le voix dans le sourire, dans toute l'allure, qui soulignait, en ayant l'air de les atténuer, les choses hardies sorties de la bouche (Guy de Maupassant. Bel ami. p. 64).*

Har ikkala xonim ba'zan-ba'zan qaltis gaplar ham qilib qo'yishar, bu hazillar de Morel xonimni tili botir, xonzodaxon ekanligidan darak bersa, Foreste xonim sipolik va bosiqlik bilan so'zlar, uning sipoligi o'ziga yaryashar, ovozida, gaplarining ohangida, tabassumida, qiliqlarida allaqanday ibo sezilib turar, lekin bu ibo uning ibosiz gaplarini yumshatmas, balki yanada o'tkiroq qilib ko'rsatar edi (Gi de Mopassan. Azizim. 80-bet).

*Loiseau, lancé se leva, un verre de champagne à la main: Je bois à notre délivrance! (Guy de Maupassant. Contes et Nouvelles. Boules de suif. p. 56).*

Juda ochilib ketgan Luazo qadah ko'tarib o'rmidan turdi.

–Halos bo'lishimizga ichaman! – dedi (Gi de Mopassan. Hikoyalar. Do'ndiq. 40-bet).

Direktiv fe'llarga mansub ba'zi fe'llarda harakatning yo'naltirilganligi ikki tomorlama sodir bo'ladi: obyektни sub'ektga tomon yaqinlashishi hamda obyektни subyektdan olislab ketishi yo'naltirilganlikning bunday xususiyati fe'l ifoda potensiyasining ko'lami kengligidan, serqirraligidan dalolat beradi. Shunday fe'llar toifasiga fransuz tilidagi *tirer* fe'li kiradi. Jumladan, *tirer* fe'li makonda harakatga keltirilayotgan obyektни subyektga yaqinlashib kelishi bilan bog'liq bo'lgan yo'naltirilganlikni yoxud uning aksini ifoda etadi.

*Dès que nous fûmes seuls, la bohémienne tira son coffre des cartes qui paraissent avoir beaucoup servi, un amant, un caméléon desséché et quelques autres objets nécessaires à son arts (P.Mérimée. Nouvelles. Carmen. p. 495).*

*Biz yolg'iz qolgach lo'li qiz sandiqdan, ancha uringan karta, ohangrabo qotirilgan buqalamun va folchilikka kerak bo'ladigan yana allanima balolarni oldi (P.Merime. Novella. Karmen. 24-bet).*

*...Un chasseur tire un coup de fusil dans une forêt, sa proie tombe, il s'élançe pour la saisir. Sa chaussure heurte une fourmilière haute de deux pieds, détruit l'habitation des fourmis, seme au loin des fourmis, leus oeufs (Stendhal. Le Rouge et Le Noir. 513).*

*...o'rmondagi ovchi miltiqdan o'q uzadi, uning o'ljasi qulab tushadi, ovchi o'sha o'ljasi tomon yugurib borar ekan, etigi bilan baland chumoli inini bosib yuboradi, natijada chumolilar va ularning tuxumlari har tomonga sochilib ketadi (Stendal. Qizil va Qora. 481-bet).*

Qiyosiy misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, birinchi misoldagi fransuz tili fe'li *tirer* subyekt tomon yo'naltirilgan harakatni ifoda etsa, ikkinchi misoldagi *tirer* fe'li subyektdan uzoqlashuvchi yo'naltirilgan harakatni ifoda etadi. Shu boisdan birinchi misoldagi *tirer* fe'li o'zbek tilida *olmoq* fe'li orqali berilgan, ikkinchi misoldagisi esa *otmoq* fe'li yordamida berilib, miltiqdan otilgan o'q subyekt tomonidan o'lja tomon yo'naltirilganligini aks ettiradi. Harakatlar yo'nalishidagi bu tafovut o'zaro farqlanuvchi binar xususiyatni aks ettiradi.

Miltiqdan, pistoletdan va boshqa qurollardan otish harakati yuqori intensivlik darajasida ro'yobga chiqadi. Shu boisdan ham *otmoq* ma'nosi bilan bog'liq. Yo'naltirilgan harakat yuqori intensivlik belgisini oladi, aksincha, *olmoq*, *sug'urmoq*, *tortmoq*, *cho'zmoq* ma'nosida *tirer* fe'li, garchi unda ham kuch ishlatish intensivligi u darajada yuqori bo'lmasa-da, ma'lum ma'noda kuzatiladi. Bu xususiyat ham yo'nalishlar o'rtasidagi farqni ifodalovchi ko'rsatkichlardan biridir.

*Julien ne la reconnaissait plus aussi bien; il tira sur elle coup de pistolet et la manqua; il tira un second coup, elle tomba (Stendhal. Le Rouge et Le Noir. p. 464).*

*Endi Jyulen bu ayolning o'sha o'zi sevgan xonim ekanligini aniq his etmay qo'ygandi. U tepkini bosgan edi, o'qi xato ketdi, u yana o'q uzdi – xonim yiqilib tushdi (Stendal. Qizil va Qora. 434-bet).*

*La colèrel'avait rendu brave; il avait tiré son couteau, moi le mien (P.Mérimée. Nouvelles. Carmen. p. 541).*



*G'azablangach, o'ktamligi turib ketdi; u pichog'ini sug'urdi, men ham (P.Merime. Novellalar. Karmen. 68-bet).*

Otmoq ma'nosi bilin bog'liq *tirer* fe'li, ko'proq gorizontol yo'naltirilganlikni aks ettirsa, unga qarama-qarshi yo'nalishdagi tortmoq ma'nosi bilan bog'liq *tirer* gorizontol va vertikal aralash yo'nalishlar tomonlarini aks ettiradi.

*Deux laquais voulurent défendre leur camarade; Julien reçut des coups de poing ; au même instant il arma un de ses petit pistolets et le tira sur eux; ils prirent la fuite (Stendhal. Le Rouge et Le Noir. p. 287).*

*Ikki malay o'rtog'iga yordamga tashlanib, Jyulenni mushtlay boshlagan edilar, yigit darhol o'sha kichkina to'pponchasini chiqarib, ularga qarata o'q uza boshladi: malaylar darhol qochib qolishdi (Stendal. Qizil va Qora. 259-bet).*

*Que fit cet infernal Garcia? Il tira un paquet de cartes de sa poche, et se mit à jouer avec le Dancaire à la lueur d'un feu qu'ils allumèrent (P.Mérimée. Nouvelles. Carmen. p. 531).*

*Do'zahiy Garsiya nima qildi deng? Cho'ntagidan karta olib, gulxan yorug'ida Dankayre bilan o'ynay boshladi (P.Merime. Novellalar. Karmen. 58-bet).*

*Le fureur me possédait, je tirai mon couteau (P.Mérimée.Nouvelles. Carmen. p. 552).*

*G'azabim jo'sh urib ketdi. Shartta pichoqni sug'urdim (P.Merime. Novellalar. Karmen. 79-bet).*

Yo'naltirilgan harakatni anglatuvchi fe'llarda vektor yo'nalishi fe'llar turkumi, jumladan, *battre-recevoir; envoyer-recevoir; attraper-lâcher; pousser-tirer; jeter-attraper* va boshqalar.

Shuningdek, bir tomonlama yo'naltirilgan fe'llar ajratiladi: *darder, mettre, introduire, bondir, jail-lir, ficher, flanquer, diriger* va boshqalar.

Ba'zi nutq vaziyatlarida vektor yo'naltirilganlik qiyoslanayotgan tillar o'rtasidagi tipologik alomorfizim ko'rsatkichiga aylanadi:

*Deux laquais voulurent défendre leur camarade; Julien reçut des coups de poing; au même instant il arma un de ses petits pistolets et le tira sur eux; ils prirent la fuite (Stendhal. Le Rouge et Le Noir. p. 287).*

*Ikki malay o'rtog'iga yordamga tashlanib, Jyulenni mushtlay boshlagan edilar, yigit darhol o'sha kichkina to'pponchasini chiqarib, ularga qarata o'q uza boshladi: malaylar darhol qochib qolishdi (Stendal. Qizil va Qora. 259-bet).*

Ushbu misolda tipologik farq shunda namoyon bo'ladiki, fransuz tili variantida zarbani qabkl qilish, o'zbek tili variantida esa zarbani uzatish, yo'naltirish ma'nolari o'z aksini topgan. Binobarin, tutash yo'naltirilgan harakat subyekt tomonidan qabul qilish hamda subyekt tomonidan yo'naltirib yuborish ma'nolari o'z aksini topgan. Tillar o'rtasidagi xoslashuv o'z ifodasini *recevoir – mushtlamoq* munosabatida topadi. Bu esa vektorlashgan harakatning ikki qutblashgan tomonini aks ettiradi, shubhasiz, semantik farqni shakllantiradi.

Fransuz tilida yo'naltirilgan harakatni anglatuvchi fe'llar bir tomonlama va vektorli yo'nalish xususiyatlarini aks ettiradi.

Ular to'g'ri va ko'chma ma'nolarda yo'naltirilgan harakat ifodasini saqlab qolish qurbiga egadir. Yuqorida qayd etilgan tipologik farqlar o'zbek tili qiyosiy materiallarining faktik asoslarida namoyon bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. А.Мадвалиев. Отв. ред. Русско-узбекский словарь в двух томах. Т., 2000.
2. Б.А.Успенский. Структурная типология языков. М., 1965.
3. Б.Ю.Городецкий. К проблеме семантической типологии. М., 1969.
4. В.Г.Гак, К.А.Ганшина, Новый французско-русский словарь. М., 2000.
5. J.B.Bo'ronov. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Tashkent, 1973.
6. М.В.Всеволодова. Способы выражения временных отношений в современном русском языке, М., 1975.
7. М.В.Всеволодова, З.Г.Паршукова. Способы выражения пространственных отношений. М., 1968.
8. М.В.Всеволодова, Р.Б.Потапова. Способы выражения временных отношений. М., 1973.
9. М.В.Всеволодова, Е.В.Владимирский. Способы выражения пространственных отношений в современном русском языке. М., 1982.
10. О.С.Ахманова и другие. Основы компонентного анализа слова. М., 1969.

11. Р.О.Якобсон. Типологические исследования и их вклад в сравнительно-историческое. сб.: «Новое в лингвистике», вып. III. М., 1963.
12. С.Рахимов. Вопросы структурно-типологической характеристики предложения. Т., 1978,
13. Ч.Е.Базелл. Лингвистическая типология. М., 1972.
14. Ю.В.Рождественский. Типология слова. М., 1969.
15. А.Ж.Креймс. Sémantique structurale. P. 1966.
16. В.Ротье. Linguistique générale. 1974; А.Саважот. Le portrait du vocabulaire français. 1964,
17. Тер-Авакян Г.А. Значение и употребление предлогов во французском языке. Пособие по грамматике ин-тов и фак. иностр. яз., М., 1983.
18. Тер-Авакян Г.А. Предлоги французского языка. Пособие по курсу нормативной грамматики. М., 1977; Морассан Ги де. Hayot. Azizim. Novellalar, Т., 1987.
19. Стендаль. Qizil va qora. Т., 1979.
20. Стендаль. Le Rouge et Le Noir. М., 1957.
21. Мопассан Г.де. Le Père Milon. P., 1899.
22. Мопассан Г.де. Bel Ami. М., 1981.
23. Мопассан Г.Де. Contes et nouvelles. М., 1976.
24. Мопассан Г.де. Une vie. L'humble vérité. P. 2000.
25. Мэрием П. Nouvelles. Carmen. М., 1976.
26. Мериме П. Karmen. Novella. Т., 1963.

**Бабаназарова Соҳиба (Алишер Навоий номидаги ТДЎТАУ)  
 КОНЦЕПТЛАРНИНГ ЎХШАТИШЛАР ОРҚАЛИ ВОҚЕЛАНИШИДА  
 ГЕШТАЛЬТНИНГ ЎРНИ**

***Аннотация.** Ушбу мақолада когнитив тилишуносликнинг асосий тушунчаларидан бири бўлган гештальт ва унинг таҳлили ҳақида сўз боради. Айни мавзуга оид турли қарашлар таҳлил қилинади. Ўхшатишлар мисолида гештальт таҳлили ва унинг моҳияти ёритиб берилди.*

***Аннотация.** В статье пойдет речь об одном из основных понятий когнитивной лингвистики – гештальте и его анализе. Анализируются различные взгляды на одну и ту же тему. На примере сравнения освещается анализ гештальта и его сущность.*

***Annotation.** This article discusses one of the main concepts of cognitive linguistics, gestalt and its analysis. Different views on the same topic are analyzed. On the example of similies, the analysis of gestalt and its essence are highlighted.*

***Калит сўзлар:** когнитив тилишунослик, антропоцентрик тилишунослик, гештальт, ўхшатишлар, турғун ўхшатишлар, ўхшатиш эталони.*

***Ключевые слова:** когнитивная лингвистика, антропоцентрическая лингвистика, гештальт, сравнение, устойчивые сравнения, эталоны сравнения.*

***Key words:** cognitive linguistics, anthropocentric linguistics, gestalt, similies, stable similies, components of similies.*

Ҳозирги кунда кўпчилик олимлар томонидан “сунъий интеллект”ни яратиш устида олиб борилаётган изланишларда когнитивизм йўналиши алоҳида ўрин тутди.

Когнитивизм шундай бир йўналишки, унда инсон ахборотни қайта ишловчи система сифатида ўрганилади. Инсон онгида ахборот қуйидаги босқичларни босиб ўтади: қабул қилиш, қайта ишлаш, сақлаш, нутққа татбиқ этиш. Ушбу жараён давомида инсон маълум бир мантикий муаммони ҳосил қилиб, уни ҳал қилишга интилади. Когнитивизм ўзининг асосий муаммосини ечишда тил ва онг устида иш олиб борар экан, уни нафақат ахборот назарияси, математика, фалсафа, психология, компьютер ва нейро фанларга, балки лингвистикага ҳам мурожаат қилишини назардан қочирмаслик лозим. Маълумки, оламни ўзлаштириш учун инсон тилдан кенг фойдаланади.<sup>1</sup>

Тадқиқотчилар томонидан “фанлар федерацияси” деб таърифланган когнитив тилишунослик учун энг муҳим вазифа тафаккур бирлиги бўлган концептнинг тилда (аниқроғи, нутқда) акс этишини таъминловчи структуралар, ҳаракатлар, қоидаларни аниқлашдир. Концептнинг лисоний воқеланишини таъминловчи бундай тузилмалар лингвокогнитологияда фрейм, скрипт, сценарий,

<sup>1</sup> Толипова Б. Оламнинг лисоний манзарасида индивидуаллик ва социаллик дихотомияси. “Ўзбек тили вав адабиёти”, Тошкент, 2009, 6-сон, 89-бет.

пропозиция, вазият модели, образ, схема, рамз каби номлар остида ўрганиб келинмоқда. Ана шундай ментал тузилмалардан бири лингвистик гештальт ҳисобланади.<sup>1</sup>

Психологияга доир адабиётларда гештальт ҳодисасини изоҳлаш учун, кўпинча, дарахт тушунчасидан фойдаланилади. Бунда дарахтни предмет сифатида идрок этувчи шахс уни қисмлар йиғиндиси, яъни, тана, илдиз, шохлар ва барглardan иборат ўсимлик сифатида эмас, шу қисмларга бўлинувчи яхлит жисм – дарахт сифатида идрок этиши муҳимдир.<sup>2</sup>

Ш.Сафаровнинг “Когнитив тилшунослик” асарида гештальтга шундай таъриф берилган: “Ушбу тушунча рухий тузилмалар, образларнинг ўзига хос яхлитликни таъминловчи белги ва хусусиятларининг умумлашмасини англатади”.<sup>3</sup>

Гештальт онгдаги индивидуал ҳодисаларнинг хилма-хиллигини ташкил қилувчи яхлит функционал психик тузилма. Гештальт – ҳиссий ва рационал элементларни ўзида мужассамлаштирган, шунингдек, кўрсатилган объект ёки ҳодисанинг динамик ва статик томонларини бирлаштирган яхлит образ.

Гештальт – концептуал тузилма, вазиятни табақалаштирилмаган идрок этиш натижасида ҳиссий ва рационал компонентларни бирлаштирган яхлит тасвир, дискрет бўлмаган энг юқори даражадаги мавҳумлик.<sup>4</sup> Гештальтни, бир томондан, билиш жараёнининг бошланғич босқичи сифатида кўриб чиқиш мумкин, бунда шахс фақат энг умумий билимларни шакллантиради. Масалан, университет гештальти ҳеч қачон университетда ўқимаган ва унинг тузилиши, таълим жараёни қандайлигини билмайдиганлар учун. Бошқа томондан гештальтни билишнинг энг юқори даражаси сифатида тушуниш мумкин. Агар инсон объект ҳақида ҳар томонлама, онгли ва тизимлаштирилган билимга эга бўлса, турли хил тушунчаларга эга бўлса. Масалан, шахсда университет биноси, аудиторияси, университетнинг умумий схемаси, олий университет таълимининг концепцияси, сценарий кўринишида ўқув босқичларининг кетма-кетлиги, университет таълимининг барча таркибий қисмларининг умумий тузилиши ҳақида тушунча бўлса, бундай ҳолда гештальт билиш жараёнида доимий изоляция қилинадиган, барча тушунчаларни бирлаштирган концептуал тизим сифатида ишлайди.

Гештальт таҳлилини ўхшатишлар мисолда кўриб чиқамиз. Масалан, Алпомишдай ўхшатиши бақувват, гавдали, жуда ҳам кучли, кўркмас, садоқатли, виждонлилик ва баҳодирлик сифатларини яхлит ҳолда гавдалантиради. Чунки бу шахс ҳақидаги халқимиз учун маълум бўлган умумий билимлар фони ана шундай яхлит тасаввурни ҳосил қилишга ёрдам беради. Масалан: *Алпомишдай йигит экансиз, асли. сизга кўз тегибди, шекилли, – деди у ҳазиллашиб* (А.Абдуллаев. Дард). *Ҳар бир йигит шу пайтда ўзини нақ Алпомишдек ҳис қилиб турибди* (Х.Тўхтабоев. Қасоскорнинг олтин боши).

Авлиёдай – авлиёлик сифатларини: бегуноҳлик, азизлик, имон-эътиқодли бўлиш, диёнатли, барча ижобий сифатларга эгаликнинг яхлит ифодаси бўлиб келади. Масалан: *Тоғ қоровули умрида биринчи марта галати тортиб кетди. Ўзини бу авлиёдек одамнинг олдида ҳақирдан-ҳақир туйиб, қимирлашига-да, йўл бошлашига-да, ожиз сезди* (М.Мансур. Жудолик диёри).

Гулдай – яшнамоқ, очилмоқ, бениҳоя чирой очмоқ, гўзаллашмоқ, нафис, нозик, чиройли, гўзал, ёш, навқирон, жуда яхши, ҳар жиҳатдан маъқул. Масалан: *Гулдай умрлари ҳар замонда бир келиб кетадиган эрнинг дастидан хазон бўлаётгани, айниқса, фарзанд кўрмай ўтаётган ёш хотинлари учун даҳшатли фожиа эканини Акбар уларнинг дил ёриб йиғлаб гапирган пайтларида билиб қолади* (П.Қодиров. Ҳумоюн ва Акбар).

Илондай – чакмоқ, заҳар сочмоқ, совуқ, ўта ёқимсиз, тўлғанмоқ, ўрмаламоқ, буралмоқ, вишилламоқ, аврамоқ. Масалан: *Анови аблаҳ бўлса бир сўз билан илондек чақиб, қариянинг кўнглини чилтарчин қилган* (Ў.Ҳошимов. Нур борки, соя бор).

<sup>1</sup> Худойберганова Д. Матн ва концептнинг лисоний воқеланиши. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2015, 5-сон, 7-бет.

<sup>2</sup> Худойберганова Д.С. Ўзбек тилида бадий матнларнинг антропоцентриқ талқини. Филол. фан.д-ри...дисс., Тошкент, 2015, 76-бет.

<sup>3</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах, “Сангзор”, 2006, 47-бет.

<sup>4</sup> Коннова М.Н. Введение в когнитивную лингвистику. Учебное пособие, изд. 2-е, перераб., Калининград, изд-во БФУ им. И.Канта, 2012, с. 57.

Оловдек – ёнмоқ, қизимоқ, чиройли, жўшқин, ҳаракатчан, ғайрати ичига сиғмайдиган, ҳароратли, куйдирувчи, иссиқ. Масалан: *Ҳурихон деган ўт-оловдай қизимиз бор эди* (С.Зуннуова. Олов).

Лингвистик гештальт, асосан, яхлит тушунча ёки предметни тавсифловчи матнларда кузатилади. Хусусан, шахснинг ташқи ёки ички қиёфаси, ҳолати, бирор манзара ёки предметнинг кўринишини тасвирловчи матнларда айна ҳодиса амал қилади.<sup>1</sup> Фикримизча, ўхшатишларда ҳам, асосан, шахс ёки унинг руҳий ҳолатини, ички ёки ташқи қиёфасини, бирор предметнинг кўринишини, бирор ҳолатни (табиат манзараси), жой тасвирини қиёслаб ифодалашда лингвистик гештальт кузатилади. Қуйида бунини мисоллар билан кўриб чиқамиз.

**Шахс руҳий ҳолати:** баҳор ҳавосидай, вулқондай, дарёдай. Дарёдай – тошмоқ, тўлқинланмоқ, жўшмоқ. Инсоннинг ҳаяжонли ҳиссий-руҳий ҳолатлари ҳақида. *Болаликдан ўтиб мен ҳам, бўй этиб секин Гоҳо пинҳон, гоҳо асов дарёдай тошиб, Бир ёш йигит севганчалик севдим-у, лекин Бошқалардай толе менга бўлмади насиб* (А.Орипов. Муҳаббат). Ижодкор шахс руҳий ҳолатини ифодалашда бу ўхшатишни кўллашдан олдин дарё билан боғлиқ барча сифатларни: тўлқинланиш, тошиш, жўшқинлик, ўзанига сиғмаслик, тизгинсизлик кабиларни кўз олдида яхлит тасаввур қилганлиги аниқ, албатта. Китобхон учун ҳам шундай тасаввурни ярата олган.

**Шахснинг ички ёки ташқи қиёфаси.** *Алпомишдай, арслондай, аждарҳодай, девдай.*

**Арслондай** – кучли, бақувват, азамат, мардлик, жасорат билан олишмоқ, ҳамла қилмоқ, наъра тортмоқ, ҳайқириш, ўқириш сифатларини яхлит ҳолда гавдалантиради. Масалан: *У ҳозиргина ёдига олган қишлоқи Ҳушрўйибини ҳам, унинг камтарин, меҳнаткаш марҳум эрини ҳам, қутилмаган вақтда йўқлаб келган бу арслондай қишлоқи жиянчани ҳам унутган, унинг фикрини ёлғиз ўз ишлари ишғол этган эди* (Ойбек. Қутлуғ қон).

**Аждарҳодай** ўхшатиши бениҳоя кучлилиқ, зўрлик, паҳлавонлик, қўрқинчли овоз чиқариш, дахшат солувчи ҳаракатлар қилиш, қомига тортмоқ, ваҳшат билан емоқ каби аждарҳо билан боғлиқ барча тушунчаларни яхлит ҳолда идрок этиш имконини беради. Масалан, *Самарқанд қўргонига ўралиб, унинг олти дарвозасини олти бошли аждарҳодай қўриқлаб ётган ёв қўшинининг бутун диққат-эътибори хон қароргоҳидан келаятган карнай-сурнай товушига ва қалъадан гўё сулҳ тимсоли бўлиб чиққан маликага жалб бўлган эди.*

*Девдай* – ўхшатишида забардаст, бақувват, баҳайбат, улкан, кучлилиқ сифатларининг яхлит тасвирини кўриш мумкин. *Бўйи наст, сугдиёналиклардан фарқ қилмайдиган бу одамни кўришиб, Искандар одамлари девдек бўлади, деб эшитгандик, улар ҳам ўзимизга ўхшар экан-ку, деб тааж-жубланишарди* (М.Қориев. Спитамен).

**Предметнинг кўриниши: темирдай.** **Темирдай** – қаттиқ, чидамли, бақувват, кучли, барқарор. Муайян таъсирдан ўзгармайдиган, ортиқ куч билан таъсир қилиши мумкин бўлган нарсалар ҳақида. *Қайиш бўлгандаям бегона эмас, ўз отининг юганидан қирқшиган. Сиқиб ташлаганидан темирдай қаттиқ эди, ёмғир еб юмшади* (Б.М.Али. Кўктўнлилар).

**Ҳолат (табиат манзараси):** баҳордай. Баҳордай – яшнамоқ, барқ урмоқ, гўзал кўринмоқ.

*Бу ерларда турли ўсимликлар, баҳор янглиз барқ урган майса-ғиёҳлар, ажойиб тоғ гуллари жуда кўп* (Ж.Абдуллахонов. Тарки дунё).

**Жой:** жаннатдай, жаҳаннамдай. Жаннатдай – жуда ҳам гўзал, обод, хушманзара; яшнамоқ, яшнатмоқ, обод қилмоқ. *Табиатан жуда таъсирчан бўлган Гулбадан бегим шавқ-завқни ичига сиғдиролмади хитоб қилди: – Ҳазрати Акбаржон, айланай сиздан, кекса аммангизни Адандаги жаҳаннам азобидан қутқариб, жаннатдай гўзал Каширмага олиб келдингиз-а?* (П.Қодиров. Ҳумоюн ва Акбар).

Жаҳаннамдай – қоп-қоронғи, қўрқинчли; қорайиб, қўрқинчли бўлиб кўринмоқ. *Қорадаранинг жаҳаннам янглиз чуқур тубига бир-бир кўз ташларкан, ички бир қатъият билан таъкидлади* (Н.Норқобилов. Тоғ одами).

Турғун ўхшатишлар антропоцентриқ табиатга эга. Яъни, қиёслаш амалиётида инсон баҳо объекти бўлганда ҳам, баҳо субъекти бўлганда ҳам мезон унинг ўзидир. Хусусан, инсон баҳо объекти бўлганда марказда унинг ўзи туриши, шубҳасиз. Аммо олам субстанцияларига баҳо бераётганда ҳам инсон (унинг қизиқишлари, эҳтиёжлари, манфаатлари) асосий мезон вазифасини ўтайди. Шу сабаб ўхшатишларни шахсдан ҳамда тил жамоасидан айро таҳлил этиб бўлмайди. Маса-

<sup>1</sup>Худойберганова Д.С. Ўзбек тилида бадиий матнларнинг антропоцентриқ талқини. Филол. фан. д-ри... дисс., Тошкент, 2015, 78-бет.

лан, *чумолидек меҳнаткаш* ўхшатишининг муаллифи миллат (инсон) экан, демак, у инсоннинг меҳнаткашлик сифатини чумолига қиёслаш учун асос бор, деб ҳисоблайди. Бинобарин, турмуш шароитлари, маданиятда турғунлашган меъёрлар туфайли нарса-ҳодисаларга турлича эталонлар танланади.<sup>1</sup>

Киши онгининг борлиқ ҳақидаги ахборотларни қайта ишлаб, нисбий барқарор билимга айлантиришда бошқа тил бирликлари каби ўхшатишларнинг ҳам ўзига хос ўрни бор. Мавҳум тафаккур борлиқ ҳақидаги билимларни кодлаштириш, бу квантни онгда сақлашида ўхшатишлар ва уларнинг эталонида мужассамлашган маънонинг роли бошқа бирликларнингидан анча устун. Zero, эталонларнинг мазмунида бутун бир халқнинг ўзига хослиги ҳамда борлиқ ҳақидаги маданий тасдиқ (ёки инкор) ўз аксини топади.

Қиёснинг вужудга келишида инсоннинг билиш фаолиятининг ўрни катта. Инсон борлиқни билиши, англаши асосида нарса ва ҳодисаларнинг ўзига хос алоҳида хусусиятларини, шунингдек, бир неча предметга хос умумий хусусиятларни ажратади ва уларни ўз қарашлари асосида таърифлайди.<sup>2</sup>

Теоморфик метафораларни концептуал таҳлил қилган тадқиқотчи Ш.Махмараимова *девона* теоморфик метафорасини когнитив сатҳда куйидагича таҳлил қилади: “Когнитив сатҳда – “севги”, “изтироб”, “дарбадар”, “телба”, “савдойи” концептларининг ўзаро ўхшашлиги ва алоқадорлигини инобатга олиб, улар бириккан ҳолда ягона гештальтни ташкил этади деб ҳисоблаш мумкин. Чунки девонага нисбатан халқ орасида умумий ижтимоий фикрни ифодаловчи аниқ-тиниқ бўлмаса-да, яхлит образ шаклланган (*қаландар, дарбадар, кимсасиз* сингари қатор сифатларнинг орасида *телба* ҳамда *савдойи* сифатларидек бир-бирига ёндаш муносабатли белгиларнинг мавжудлиги назарда тутилмоқда), шунга кўра, миллий лисоний манзарада девонага нисбатан муқим интерпретацион тажриба мавжуд: а) севги изтиробидан ғайритабиий ҳолатга тушиш; б) ақлдан озиш; в) салбий; ҳақорат, айбсотиш, нописандлик; г) руҳий хаста одамга нисбатан; д) ичкилик оқибатида ғайритабиий ҳолатга тушиш; е) ноодатий феъл-атвор эгаси, ҳолатга нисбатан; ё) ёт, бегона, ўзга, ақлдан оздирувчи; ж) қайишиш, қисман куйиниш; з) лақаб, тахаллус маъносида”.<sup>3</sup>

*Девонадай* ўхшатишида ҳам худди шу концептлар бирикиб ягона гештальтни ташкил этганини кўриш мумкин. Масалан:

1. “Севги” – *Миразиз Аъзам кўйингда тентирар девонадек, Сан ўзингни унга бунча тутмагил бегонадек* (А.Миразиз. Кузги япроқлар).

2. “Изтироб” – *Темиржон гаранг бўлиб, девонадай довдираб юрган кунлар профессор Жамолов уни ҳузурига чақириб қолди* (Ж.Абдуллахонов. Орият).

3. “Дарбадар” – *Бунақа кечаларда девоналарга ўхшаб дайдиб юрмагин* (С.Аҳмад. Қирқ беш кун).

4. “Телба” – *Сўнгни кунларда девонага менгзаб галати қилиқлар қилар эди зангар* (С.Сиеев. Аваз).

5. “Савдойи” – *Умрида тўртта одамнинг ўртасига чиқиб қўл кўтармаган йигит, дам-бадам девоналардай ўзидан-ўзи бармоқларини қисирлатиб ўйинга тушар эди* (Қ.Кенжа. Палахмон тошлари).

Кўриб турганимиздек, *девонадай* ўхшатиши англаган маъноларни яхлитлаб битта гештальтни ташкил этишини кузатиш мумкин.

*Гулдай* ўхшатишини эса қуйидаги маънолари бир-бирига яқин бўлганлиги боис яхлит гештальтни ҳосил қилади:

1) “яшнамоқ” – *Ҳаёт гулдек яшнаб борар кун сайин, Мен ҳам энди олисларни кўзлайин* (С.Ҳаким. Олис юлдуз);

2) “очилмоқ” – *Аллоҳим, ҳайратдан айирма мени, Бенасіб қилмагин ифтихорингдан. Ҳавас ғунчалари гулдек очилсин* (А.Орипов. Ҳикоят);

3) “нафис” – *Ҳозиргина гулдай нафис туйғулар ичида юрган Бобурга ўлим хабари шу гул орасидан чиққан илон бўлиб туюлди* (П.Қодиров. Юлдузли тунлар);

<sup>1</sup> Усмонов Ф. Турғун ўхшатишларнинг айрим хусусиятлари. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Т., 2019, 4-сон, 51-бет.

<sup>2</sup> Умурқулов З. Қиёс ва унинг ифода асоси. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2017, 4, 106-бет.

<sup>3</sup> Махмараимова Ш. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри дисс..., Қарши, 2018, 132-бет.

4) “нозик” – Бироқ Клара Жамоловна кутилмаган бир чаққонлик билан оппоқ момик қўллари Музаффарнинг бўйнига ташлади-да, гулдай нозик, ним пушти ёноқларини унинг пальтосига ишқаб, ўкириб юборди (О.Ёкубов. Оққушлар, оппоқ қушлар);

5) “чиройли” – Севгилим, севгилим, Оғрийди дилим. Жоним оғрийверар сизни ўйласам. Гулдай юзингизни силар энди ким? Мени эслармисиз-йўқми ўшал дам (М.Юсуф. Мактуб);

6) “ёш” – Гулдай умринг кулдай тўзиб кетмоқда, Кимни кутиб ёшинг қирқдан ўтмоқда (М. Юсуф. Айт).

7) “жуда яхши” – Йигитнинг қўлида гулдай хунари бор экан, бўйдоқ экан, уй-жойи тайин экан (Ойбек. Қутлуғ кон).

Маълумки, когнитология ўз моҳиятига кўра семантика билан узвий боғлиқдир. А.В.Кравченконинг фикрига кўра “...когнитив тилшунослик ўз олдида тил воситасида билимларни сақлаш, ифодалаш ва узатиш механизмларини тадқиқ этишни асосий вазифа қилиб қўяди”. Бундай вазифа эса, табиийки, инсон томонидан амалга оширилади. Назаримизда, жаҳон тилшунослигида яратилган бой назарий маълумотларга суянган ҳолда, муайян ижодкор шахс тилининг лингвокогнитив хусусиятларини ўрганиш ўзбек тили соҳибининг “тафаккур грамматикаси”ни ёритиб беришда муҳим аҳамият касб этади.<sup>1</sup>

**Jumaniyazov Atabay (Urganch davlat universiteti professori), Rahimova Shodiya Shuxrat qizi (Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti; r.shodiy92@gmail.com)**  
**O‘ZBEK TILIDA SO‘Z YASALISHI VA ATRIBUTIV QO‘SHMA SO‘ZLARNING O‘RGANILISHI HAQIDA**

***Annotatsiya.** Maqolada o‘zbek tilida so‘z yasalishi tarixi va atributiv qo‘shma so‘zlar haqida tilshunoslarning fikri muhokama qilinib, unga yetarlicha tanqid va izohlar berilgan hamda atributiv qo‘shma so‘zlar orasidagi tobe, hokimlik munosabatlari yuzasidan ham fikrlar aytib o‘tilgan.*

***Аннотация.** В статье рассматривается история словообразования в узбекском языке и мнение лингвистов об атрибутивных сложных словах, дается достаточно критики и комментариев к ней, а также упоминаются мнения о подчинительных отношениях между атрибутивными сложными словами.*

***Annotation.** The article discusses the history of word formation in the Uzbek language and the opinion of linguists about attributive compound words, enough criticism and comments are given to it, and opinions are also mentioned about the subordinate relations between attributive compound words.*

***Kalit so‘zlar:** atributiv qo‘shma so‘zlar, so‘z yasalishi, affiksatsiya, kompozitsiya so‘z yasash usullari.*

***Key words:** attributive compound words, word formation, affixation, composition word formation methods.*

***Ключевые слова:** атрибутивные сложные слова, словообразование, аффиксация, композиционные способы словообразования.*

Маълумки, о‘zbek tilida ingliz tilidagi kabi qo‘shma so‘zlar o‘rganilishida va ularning tavsiflanishida ham turli xil ilmiy-nazariy qarashlar, mavzuga turfa qirralardan turib yondashishlar va aksariyat qismida muayyan e’tirozga loyiq va qusurli xulosalar mavjud. Masalaga o‘z nuqtayi nazarimizni ko‘rsatish va bu borada shaxsiy fikr-mulohazalar bildirish uchun, dastavval, tilimizda “so‘z yasalishi” va uning tavsifiga tarixiy-tadrijiy nuqtayi nazardan muxtasar to‘xtalamiz.

O‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishi masalasining astoydil o‘rganilishi tadqiqotlarga ko‘ra, XX asrning birinchi yarmiga borib taqaladi. Chunonchi, o‘zbek tilida so‘z yasalishi nazariyasi va amaliyoti haqidagi dastlabki ilmiy ishlar bilan qiziqqan tilshunoslar (XX asrning 40–50-yillari) tilimiz morfologiyasi, yoxud so‘z yasalishi hamda so‘zlarning morfem tuzilishini taqlidan (rus tiliga) o‘rganilganini qayd qilishadi. “Ikkinchi bosqich (XX asrning 60–80-yillari) doirasida morfemika va so‘z yasalishi til qurilishida alohida sath va shu sathni o‘rganadigan mustaqil soha (bo‘lim) sifatida e’tirof etildi”.<sup>2</sup>

Bunda so‘z yasalishining ikki: a) affiksatsiya va h.k.) kompozitsiya usuli qiziquvchilarning asosiy e’tiborida bo‘ldi va aksariyat hollarda mazkur usul asosida so‘zlar tahlil qilindi. E’tiborlisi shundaki, tili-

<sup>1</sup> Худойберганова Д. Ўзбек тилшунослигида матннинг антропоцентрик талқини. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2011, № 1, 56-бет.

<sup>2</sup> G.Saidova. Umumta’lim maktablarida so‘z yasalishini o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2018, 6-бет.

mizda mazkur masalning o'rganilishi tarixi davomida so'z yasalishiga e'tibor qaratilgan ilk ishlardan boshlab, to XX asrning oxirlariga qadar yaratilgan ilmiy tadqiqotlarda ham so'zlar faqat va faqat (yuqorida nomlanilgan) ikkita usulda yasali b kelngani va shu asnoda tahlil qilingani ma'lum. Ta'kidlanishi lozimki, morfematik tahlilga bunday yondashishga deyarli barcha tilshunoslar hayrixoh bo'lishgan va ilmiy ishlarida bu usuldan foydalanishni yakdillik bilan qabul qilishgan.<sup>1</sup>

Qizig'i shundaki, milliy tilshunosligimizda bu fenomenon hodisa bir safar aniq "so'z yasash" va ikkinchi safar esa majhul "so'z yasali b" terminlari ostida nomlanilib kelgan. Ularni farqlash va har birini alohida ta'riflash lozim ko'rilmagan, masala mohiyati umumtushunarli deb qaralgan. "So'z yasash va so'z yasali b" terminlari ostida bir narsa – so'zlar qurilishi tushunilgan, alohida ta'rifga hojat sezilmagan. Ularning hozirigi kundagi ta'rifiga to'xtaladigan bo'lsak, u atoqli o'zbek tilshunoshi Azim Hojiyev nomi bilan bog'liq. Olim bu terminlarni o'z davrida juda aniq sharhlagan. U yozadi: "...So'z yasash birikmasi ikki ma'noga ega: 1) umuman, yangi so'z hosil qilish; 2) til birliklari yordamida, ma'lum usul bilan so'z hosil qilish. Ana shu (ikkinchi) ma'nosi bilan "so'z yasash" birikmasi lingvistik termin hisoblanadi, lingvistik tushunchani bildiradi... "so'z yasali b" termini ham ikki ma'noga ega: 1) tilshunoslik sohasi ma'nosi; 2) yuqorida ta'rifi berilgan "so'z yasash" terminining majhul nisbat shakli va ma'nosi".<sup>2</sup>

Azim Hojiyev sharhi lo'ndaroq izohlaniladigan bo'lsa, u "so'z yasash"da *hosil qilingan yangi so'zlar* va *so'z hosil qilish usullarini* tushunadi, "so'z yasali b"ni esa tilshunoslikning *so'zlar qurilishi bo'yicha tadqiqot sohasi* deb qaralishini hamda *so'zlarni yasovchi xalq* va ularni tahlil qiluvchi ta'dqiqotchilar nazarda tutulishini inobatga oladi.

Tilshunosligimizda "so'z yasash usuli" borasida ko'p ishlar qilingan, u haqda ham ko'p ishlar qilingan, turfa fikr-mulohazalar bildirilgan. Qiziqarlisi shundaki, "usulga" va undan "foydalanishga" tilshunoslar o'z "bilganlaricha" yondashgan. Natijada hodisa mohiyati aniq tushunilmagan, ta'riflar soni va sifati jihatidan yakdil bir fikrga kelinmagan. Jumladan, o'zbek tili morfologiyasida so'z yasash usullari ostida 3 xil yondashuv: 1) grammatik so'z yasash (affiksatsiya va kompozitsiya); 2) leksik-semantik so'z yasash (ma'no o'zgarishi orqali); 3) fonetik so'z yasash tushuniladi.<sup>3</sup>

Ikkinchi bir adabiyot (darslik)da esa so'z yasash usullarini 5 turga bo'lib o'rganish tavsiya qilinadi. Bunda: 1) affiksatsiya usuli; 2) fonetik usul; 3) semantik usul; 4) kompozitsiya usuli; 5) abbreviatsiya usullari nazarda tutiladi. Bundan affiksatsiya usuli o'zbek tilida so'z yasashning eng unumli usullardan biri ekanligi ta'kidlanib, misol sifatida *suvchi*, *to'siq*, *ko'pay*, *tuzla* kabi til birliklari qayd qilinadi.

Fonetik usulni, asosan, urg'u bilan aloqador ekanligi ta'kidlanilib, so'z urg'usini ko'chirish orqali yasalgan yangi so'zlarga izoh beriladi: *hozir* so'zida urg'u birinchi bo'g'inga tushib, paytni bildirsa, ikkinchi bo'g'inda esa *tayyor* ma'nosini olishi aytiladi.

Semantik usul yordamida so'z yasash tarixiy taraqqiyot jarayonida tildagi ayrim leksik ma'nolar orasidagi bog'lanishning yo'qolib ketishi, so'zning ayrim shakllarda yangi leksik ma'noni yuzaga kelish kabi hodisalar ro'y berishi ko'rsatilib, *yupqa*–qalin emas (*yupqa* qog'oz), *yupqa* xamir ovqatning nomi, *yupqa*–faqirona, boy bo'lmagan (qo'li *yupqa*), *yupqa*–ingichka (*yupqa tomoq*–bo'yinga nisabatan) lug'atlarda ma'nolarda uchrashi izohlanilgan. Kompozitsiya usulida ikki yoki undan ortiq so'zning qo'shilishi orqali yangi so'z yasali b (*mullajiring*, *gultojixo'roz*) ta'kidlaniladi. Abbreviatsiya usulida turg'un birikma tarkibidagi qismlar qisqartirilishi (BMT, UrDU) nazarda tutiladi.<sup>4</sup>

Yuqorida qayd qilganimizdek, Azim Hojiyev "so'z yasash" va "so'z yasali b" terminlarini, umuman olganda, muqobil atamalar sifatida tushunilishini va farqi bu terminlar fe'llarning aniq va majhul, nisbat shakllarida qo'llanilishini ta'kidlaydi: "So'z yasali b, tilshunoslikning alohida sohasi (bo'limi) sifatida, so'z yasash va u bilan bog'liq birliklar, hodisalar haqidagi, umuman aytganda, so'z yasali b tizimi haqidagi ta'limotdir".<sup>5</sup> Mazkur ta'rifdan xulosa chiqarish mumkinki, so'z yasali b termini ostidan endi nafaqat yangi so'z hosil qilish yoki so'z yasashda muayyan bir usulni qo'llash, balki tilshunoslikda so'z yasali bning sistemasini o'rganuvchi ta'lim sohasi yaratish zarur. Shu ma'noda bu soha tilshunoslikning grammatika, leksikologiya, frazeologiya, anomasiologiya va semasiologiya sohalari kabi til o'rganish fanlariga aylanadi.

<sup>1</sup> Galiyevich Fazliddin Sharipov, Aliqulova Mohichehra Bektemir qizi. So'z yasali b tarixiga doir munosabat. Academic Research in educational sciences, 2021, Scientific Journal Impact Factor, p. 1640.

<sup>2</sup> Azim Hojiyev. O'zbek tili so'z yasali b tizimi. "O'qituvchi", Toshkent, 2007, 5-bet.

<sup>3</sup> O'zbek tili grammatikasi. Ikki tomlik, I tom, morfologiya, T., "Fan", 1957, 22 – 23-betlar.

<sup>4</sup> U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev, Hozirgi o'zbek adabiy tili. "O'zbekiston", 1992, 202-bet.

<sup>5</sup> Azim Hojiyev. O'zbek tili so'z yasali b tizimi. "O'qituvchi", Toshkent, 2007, 5-bet.

Asosiy e'tibor shundaki, "so'z qurilishi"ga zamonaviy o'zbek tilshunosligida til tarkibidagi o'ziga xos alohida tizim deb qaraladi.<sup>1</sup>

So'z yasalihi bo'yicha tizimli ilmiy yondashuv A.G'ulomovning "O'zbek tili ilmiy grammatika-sidan materiallar" ishidan boshlandi desak, adashmagan bo'lamiz. Chunki olim bunda so'z yasalihi masalasiga qisman to'xtalib o'tgan bo'lsa, 1944 hamda 1947-yillarda so'z yasovchi "-la affiksi haqida", undan keyin "-dosh affiksi haqida"gi maqolalarida qo'shimchani ma'nolari va ulaning umumiy xususiyatlari haqida ikkitadan, undan sal oldin "-ka affiksi haqida", "So'z yasalihi o'zaki qurilishida o'zaki qurilishlar" va "O'zbek tilida so'z yasash yo'llari" (G'ulomov. 1949) maqolalarini e'lon qildi.

Xuddi shu tarzda 50-yillargacha bir nechta ilmiy asarlar va darsliklarda ham so'z yasalihi masalalariga to'xtalib o'tdi va 1955-yilga qadar "O'zbek tilida affiksatsiyaning ayrim masalalari" (1953), "О правописании сложных слов" hamda "O'zbek tilida adverbializatsiya masalasi haqida" (1954) maqolalarini e'lon qildi.<sup>2</sup>

Tilshunosligimizda so'z yasalihi bir tomonlama qarashlar ham mavjud. Ba'zi olimlar so'z yasalihi ostida affikslarni inobatga olsa, ayrimlari yasama so'zlarni nazarda tutishadi. Masalan, A.G'ulomov o'zbek tilida so'z yasash yo'llari haqidagi 50 sahifalik mashhur maqolasida "So'z yasash termini, dunyo tillarida so'z yasash usullarining bir qancha xil bo'lishiga qaramay, bizning ongimizda, odatda, affiks orqali yangi so'zning muomalaga kirishi tushuniladi, chunki u hozirgi tillarda eng ko'p qo'llaniladigan, juda singib ketgan usuldir".<sup>3</sup> Tilshunos G.Saidova esa "So'z yasalihi tilshunoslikning ayrim bir bo'limi sifatida so'zlarning yasalihini (yasama so'z), yangi leksik birlik hosil qilishning qonun-qoidalarini, vositalarini, so'z yasalihi strukturasi (tarkibi)ni tadqiq qiladi va bu sohani obyekt yasama so'zdir",<sup>4</sup> deydi.

Yuqoridagi fikrlar turli xil izohlar orqali ifodalanayotgan bo'lsa-da, masalani umumiy mohiyati sharhida yakdillik bor, barchasi so'z yasalihi morfemalar asosiy rol o'ynashini ta'kidlaydilar, morfemalarni so'z qurilishining muhim elementi deb biladilar. Darhaqiqat, morfemalar majoziy ma'noda so'z qurilishining asosiy g'ishtlaridir. Morfologik jihatdan ular, o'z navbatida, affikslar (prefiks va suffiks) deb nomlaniladi. Tabiiyki, prefiks va suffikslarning yasama so'z qurilishidagi roli katta. Ularning biri old tomondan (*behayr, lomakon*), ikkinchisi esa so'zga orqa tomondan (*xayrli, makonsiz*) qo'shilish bilan farqlanadilar, xolos.<sup>5</sup> Tarjimalarda affikslar o'rni almashishi mumkin – *неточный–aniqmas, incur-rect – to'g'rimas* yoki so'z ma'nosini prefiks bilan ham suffiks bilan ham berish mumkin: *нечёткий – aniqmas – noaniq, inaccurate – tartibsiz, betartib*.

Endi o'zbek tilida qo'shma so'zlar, xususan, aniqlovchili qo'shma so'zlar yasalihi to'xtalinadigan bo'lsa, shuni aytish joizki: qo'shma so'zlarni o'rganish hali nihoyasiga yetmagan, bu jarayonda chalkashlik va nuqsonlarga yo'l qo'yilgan va yo'l qo'yilmoqda. Qo'shma so'zlarga bag'ishlangan ishlarda ularning sodda so'zlardan va so'z birikmalaridan farqi hali yetarlicha ochib berilmagan – bu masalada turli mualliflarning qarashlari turlichadir. Bunday har xilliklar, chalkashliklar ayni "qo'shma so'z" terminini turlicha tushunish natijasida kelib chiqqan bo'lishi ham mumkin".<sup>6</sup>

Bizning fikrimizcha, leksik va sintaktik nuqtai nazardan muloqotda so'zlarning biriktirilishi: juft so'zlar, takror so'zlar, so'z birikmalari, qo'shma so'zlar va ibora (frazologizm)larning hamda qisqartmalarining (og'zaki nutqda) to'liq aytilishi kabi holatlar hamda ularni bir-biridan aniq ajrata bilmaslik, qo'shib-ajratib yozilish holatlari zikrimizdagi masalani turli tushunishga olib kelgan. Bundan tashqari, qo'shma so'zlar mohiyati masalasiga har kim o'z nuqtayi nazaridan, leksikolog – ma'no jihatdan, leksikograf – so'zlarning lug'atda qayd qilinishi jihatidan, morfologiyaga qiziqqan olim so'z qurilishi jihatdan yondashgan va baholi qudrat ta'rif berishgan va tahlil qilishgan. Masalan, bir tilshunos qo'shma so'zlarni juft so'zlardan, ikkinchisi so'z birikmalaridan farqlab o'rgangan bo'lsa, uchinchi bir olim aynan qo'shma so'z ostida nima tushunilishi va uning ta'rif bilan qiziqqan. Ayrimlar tahlilni umuman qilishgan bo'lsa, ayrimlarda xususiylik va bir yoqlamalilik bor. Hatto qo'shma so'zlardagi bir yoqlamalilikni adabiyotshunos, yoxud yozuvchilarimiz ham sezishgan. Masalan, taniqli yozuvchi va shoir bu boradagi o'z fikrini quyida-

<sup>1</sup> Saidova Gulnoza. Umumta'lim maktablarida so'z yasalihi o'qitish metodikasi. Toshkent, 2018, 8-bet.

<sup>2</sup> F.Sharipov. Ayyub G'ulomovning so'z yasalihi doir qarashlari. Guliston davlat universiteti, 2019, 3-bet.

<sup>3</sup> F.Sharipov, M.Aliqulova. So'z yasalihi tarixiga doir munosabat. Guliston davlat universiteti, Scientific Journal Impact Factor (SJIF), 2021.

<sup>4</sup> Saidova Gulnoza. Umumta'lim maktablarida so'z yasalihi o'qitish metodikasi. Toshkent, 2018, 9-bet.

<sup>5</sup> Bunday holatlarda tadqiqotchi tahlil davomida shuni e'tibordan chetda qo'ymasligi kerakki, prefiks "old qo'shimchalar" bilan so'z yasalihi o'zbek tiliga yot til hodisasi, ular aksariyat hollarda chet tillari, ko'pincha, arab va fors tillariga xos bo'ladi.

<sup>6</sup> Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. Qo'shma so'zlarning imlo qoidalari va lug'ati. Toshkent, 1961.



gicha yozadi: “Qo’shma so’zlar ikki yoki undan ortiq so’zlardan tashkil topib, bitta so’roqqa javob bo’ladi. *Otquloq, yurtboshi, tinchliksevar, xushxat, shirinzabon, kungaboqar*. Qo’shma so’zlar tilning tarixiy taraqqiyoti davomida ikki va undan ortiq so’zlarning birikuvidan tashkil topgan, lekin hozirgi o’zbek adabiy tili nuqtayi nazardan bu birikuv o’z kuchini yo’qotib, bir so’zga aylanib qolgan bo’ladi. Shuning uchun qo’shma so’z tarkibida alohida so’z bo’lib ko’ringan qismlar (*kungaboqar, beshiktervatar, namozshomgul*) hozir o’zbek tilida so’zlik xususiyatini yo’qotgan, bir so’z tarkibidagi ma’noli qism (morfemalar) sanaladi”.<sup>1</sup>

Yosh olim I.L.Fazliddinova qo’shma so’zlar tahlilini juft so’zlar bilan farqlab o’rganishga bag’ishlaydi va ularni quyidagi 4 holatga bo’ladi:<sup>2</sup>

1. Qo’shma so’zlar tobelanish yo’li bilan–ergash so’z+bosh so’z; juft so’zlar esa tenglanish yo’li bilan yasaladi.

2. Qo’shma so’zlar bir bosh urg’uli bo’ladi, juft so’zlarning har bir element urug’li bo’ladi.

3. Qo’shma so’zlarning materiali turli mustaqil so’z turkumlaridan iborat bo’lishi mumkin: sifat+ot, son+ot, ot+fe’l kabi. Juft so’zlarning elementlari esa bir xil so’z turkumidan iborat bo’ladi. Ot+ot, fe’l+fe’l, sifat+sifat.

4. Qo’shma so’zlarda tartib o’zgarishi bilan fikr va grammatik holat ham o’zgaradi. Masalan, ko’z-oyinak va oynak, ko’z – shishadan qilingan ko’z; juft so’zlarda esa bu holat kuzatilmaydi.

N.Erkaboyeva esa qo’shma so’zlarni morfologik jihatdan yoxud ularning imlosi nuqtai nazaridan quyidagi guruhlarga ajratgan: 1) qo’shib yoziladigan qo’shma so’zlar; 2) ajratib yoziladigan qo’shma so’zlar. Bu differentsatsiyaning ham qusurdan holi emasligi, undagi mantiqsizlik o’quvchida yana bir qancha savollarni paydo qiladi.<sup>3</sup> Bu qusurlarni o’z vaqtida bartaraf qilish zarurligini A.Hojiyev o’tgan asrning ikkinchi yarmidayoq ta’kidlagan edi. Qo’shma so’zlar imlosini to’g’ri hal etish, ularni tartibga solish uchun birinchi galda qo’shma so’zlar nazariy jihatdan to’la va to’g’ri o’rganilishi kerak, ya’ni, qo’shma so’zlarning sodda so’zlardan va, aniqsa, so’z birikmalaridan farqi, ularning chegarasi aniq belgilab olinishi kerak<sup>4</sup> turli mualliflarning mazkur masaladagi fikrlari o’rganilib, mushtarak holga keltirilmog’i zarur. Tadqiqot ishimiz so’z birikmalari va ulardan yasalgan atributiv qo’shma so’zlar bilan uzviy bog’liq ekanligi sababli so’z birikmalari haqida muxtasar to’xtalib o’tamiz.

Zero, “nafaqat tilshunoslar, balki tilga qiziqqan har bir inson uchun, eng muhimi shundaki, muloqotda insonlar narsa va hodisalarni faqat nomlab chiqish bilan fikr almashib bilmaydilar, so’zlarni ham o’zaro bog’laydilar, so’z birikmalari yasaydilar. Binobarin, bir-biri bilan uzviy bog’liq obyektiv borliqni ifodalash uchun ularning nomlarini ham uzviy bog’lab muloqot qilish zarur. Shu asosida so’zlar o’zaro bog’lanadilar, so’z birikmalari yasaladi. Darhaqiqat, inson tabiiy va hayotiy zarur ravishda obyektiv borliq bo’yicha mushohada qilgan narsalari to’g’risidagi fikrning nutqiy muloqotda to’g’ri chiqishi, xulosa tasdiqlarning aniq bo’lishi uchun asosiy qurol sifatida so’z va so’z birikmalaridan foydalanadi. Lo’nda qilib aytganda, narsa va hodisani ifodalash uchun so’z, ularning o’zaro bog’liqligini bildirish uchun tabiiy ravishda so’z birikmasi kerak”.<sup>5</sup> Garchi milliy tilimizda so’z birikmalari va qo’shma so’zlar munosabati ham chuqur tahlil qilinmagan bo’lsa-da, nazdimizda, bu masalaga aniqlik kiritish unchalik murakkab emas. Bunda so’z birikmasi va qo’shma so’zlar anglatayotgan narsa va hodisa mohiyatidan kelib chiqilsa, ularni farqlash va o’zaro aniqlik kiritish unchalik ham qiyin emas. Binobarin, so’z birikmasi orqali yoxud ikki so’z birikuv natijasida hissiy a’zolarimiz orqali mushohada qilinayotgan narsa va hodisalar ikkinchi bir (o’xshash) bo’lgan narsa va hodisalardan xossatan ajratib ko’rsatiladi, hokim tavsiflanadi, sifati nomlaniladi. Tobe va hokim so’z ma’nosi mushtaraklashadi va bir narsa va hodisa nomlaniladi, yaxlid birlikka aylanadi. Hokim so’z ma’nosi va unga beriladigan sifat dahldorligi shu darajada jiplashadiki, ularni bir-biridan ajratib bo’lmaydi. Masalan, *qizil olma* (meva rangi), *issiq xona* (xona harorati), *oq soch* (soch rangi). Misollardan ko’rinib turibdiki, nomlangan narsalar mavjudligi nuqtayi nazaridan (*olma, xona, soch*) bir va yagona, biroq qizilni olmadani, issiqni xonadan, oqni sochdan ajratib bo’lmaydi, yoxud *qizil* alohida, *issiq* alohida, *oq* alohida mavjud emas, ular mavhum. Endi bu birikmalardan qo’shma so’zlar yaratilsa, yoxud qo’shib yozilsa ularning ma’nolari tubdan o’zgarib, kundalik hayotimizdagi uchinchi bir

<sup>1</sup> E.Vohidov. So’z latofati. Toshkent, 2018, 56-bet.

<sup>2</sup> Islomova Latofat Fazliddinovna. Ingliz va o’zbek tillarida qo’shma so’zlar. Magistrlik dissertatsiyasi, Toshkent, 2009, 10-bet.

<sup>3</sup> N.Erkaboyeva. O’zbek tilidan ma’ruzalar to’plami. Toshkent, Akademiya, 2015.

<sup>4</sup> Hojiyev A. O’zbek tilida qo’shma, juft va takroriy so’zlar. Toshkent, 1963.

<sup>5</sup> A.Jumaniyozov, Sh.Rahimova. Ma’no mushtaraklashuvi. Toshkent, 2020, 5-son. Kasbiy fanlar metodikasi.

narsa va hodisani atashadi, ko'rsatishadi va ular borasida ma'lumot berishadi. *Qizil olma* qo'shib yozilsa, *olma navini*, *issiq xona* qo'shib yozilsa, *teplitsani*, *oq soch* qo'shib yozilganda esa *farroshni* anglatadi. Natijada obyektiv borliqdagi uchinchi bir narsa va hodisa nomlaniladi va u haqida axborot beriladi. Pirovardida esa "nav turi"dan *qizil olma* yetishtirilishi, xonada yil bo'yi sabzavotlar va poliz ekinlari yetishtirilishi mumkinligi va farroshning, odatda, qari va sochi oq bo'lishi qo'shib tushuniladi.

Qo'shma so'zlar va so'z birikmalarini farqlash bobida Urganch davlat universiteti magistrantlarining professor A.Jumaniyozov rahbarligidagi ilmiy guruhi (N.Polvonova, F.Allaberganova, A.Ibragimova, D.Toshnazarova, Z.Qurbonova, Sh.Rahimova), o'z ilmiy tadqiqotlarida quyidagi, bizning fikrimizcha, eng to'g'ri va oddiy maslahat berishadi va so'z birikmalari va qo'shma so'zlarni ta'riflashadi. Ular ta'kidlashadiki: "Agar so'z birikmasidan sodda gap yasash imkoniyati bo'lsa, masalan, "oq soch" til birligidan, "Soch oqdir". sodda gapi yasalsa, u so'z birikmasi nomi ostida qolishi kerak. Zero, umumiy ma'no o'zgarmaydi, mushohadada soch oqligi tafakkur qilinadi va mazkur gap orqali so'z birikmasi berayotgan fikr tasdiqlanadi. Endi "oq soch" so'z birikmasidan "oqsoch" qo'shma so'zi yasalsa va uchinchi bir narsa "farrosh"ni bildirsa, bu til birligini, albatta, qo'shib yozish kerak va qo'shma so'zlar sirasiga kiritmoq kerak. Zero, undan "Soch oqdir" yoki "Oq sochdir" sodda gapi tuzilsa, u farroshni (uchinchi bir narsani) anglatmaydi. Mushohadamizda *sochning oqligi* yoki *oq sochligi* gavdalanadi. Fikrni lo'nda qilib aytiladigan bo'lsa, so'z birikmasidan gap yasalsa va fikr (xulosa, tasdiq) o'zgarmasa, unga birikma si-fatida qarash va imlodan ajratib yozish kerak. Birikmadan gap yasalsa-yu, u nazdimizdagi uchinchi narsa va hodisani nomlay olmasa, bunday til birligini qo'shib yozish va qo'shma so'z deb atasa bo'ladi. Ushbu qoida asosida ish tutish qo'shma so'zlar imlosi va ularni, qo'shib yoki ajratib yozish haqida darsliklarda berilgan barcha (30ga yaqin) tavsiyani o'rnini bosadi. O'quvchi (qiziquvchi) birikmadan yasalgan gap asosida ish tutadi, birikma ma'nosi o'zgarmasa – *birikma*, o'zgarasa – uchinchi narsa yoki hodisa anglashilsa – *qo'shma so'z* bo'ladi. Asosiy narsa o'quvchi qiziquvchining so'z birikmasidan gap tuza olishi va ularning ma'nosini to'g'ri anglab bilishi bilan bog'liq bo'ladi. Misollardan ko'rinib turibdiki, bu eng oson va to'g'ri yo'l. Til bilan qiziqqan har bir shaxs buni uddalay oladi. Shu kungacha darsliklarda tavsiya qilinib kelayotgan 30 ga yaqin ko'rsatmalarni yodlab va ulardan qachon va qanday foydalanish haqida bosh qotirib o'tirmaydi.

Абдувахабова Махина Азатовна (ЎЗМУ мустақил изланувчиси, филология фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD), доцент; email: makhina.abduvahabova@gmail.com)

#### НАРРАТОРЛАР УСЛУБИНИ ИФОДАЛОВЧИ ТАШҚИ ВА ИЧКИ ТИЛ ВОСИТАЛАРИ

**Аннотация.** Мақола анъанавий ва замонавий маданиятларда мавжуд фольклор дискурсини очиб берувчи тил бирликларининг тадқиқини кўзда тутади. Ўрганилаётган фольклор жанри дискурс сифатида ташқи ва ички, жой ва вақт бирликларини ҳисобга олган ҳолда тавсифланади. Нарраторларнинг ижтимоий-маданий ўзгаришларга муносабат билдира олиш қобилияти фольклор жанрларининг ҳар қандай тарихий даврда ҳам жамоавий онгнинг долзарб соҳасида қолишига имкон беради.

**Аннотация.** Статья раскрывает специфику реализации языковых единиц как факторов раскрытия фольклорного дискурса, бытующего в традиционной и современной культуре. Исследуемый фольклорный жанр как дискурс описывается с учетом внешних и внутренних, единиц места и время. Способность нарраторов реагировать на социокультурные изменения позволяет фольклорным жанрам оставаться в актуальной сфере коллективного сознания в любую историческую эпоху.

**Annotation.** The article reveals the specifics of the implementation of language units as factors in the disclosure of folklore discourse that exists in traditional and modern culture. The studied folklore genre as a discourse is described taking into account external and internal, units of place and time. The ability of narrators to respond to sociocultural changes allows folklore genres to remain in the actual sphere of collective consciousness in any historical era.

**Калим сўзлар:** фольклор, нарратор, дискурс, макон ва замон бирликлари, услуб.

**Ключевые слова:** фольклор, нарратор, дискурс, единицы места и время, стиль.

**Key words:** folklore, narrator, discourse, units of place and time, style.

**Қириш.** Фольклор дискурсида акс эттирилган воқеалар ўтмишга чекинмаган, воқеалар бугунги кун нуктаи назари билан содир бўладигандек тасвир этилади. Фольклор дискурсининг вақти атайлаб шартли ўтмиш, тўқимага айнан шу замон хос, фольклор матнини хикоя қилиш вақтидан

чиқишнинг, умуман, иложи йўқ. Фольклор матнида баён темпи воқеалар темпидан, табиийки, ошиб кетолмайди, эпик ёки ажойиб ҳаракат, бир вақтнинг ўзида, иккита бир неча жойда содир бўлмайди, воқеалар эмпиризм қоидалари бўйича акс этади.<sup>1</sup>

Фольклор дискурсида замон тушунчаси (объектив вақт ва қаҳрамоннинг “атроф-муҳит” вақти) жамоавий ҳаёт воқеалари, қишлоқ хўжалиги ва меҳнатга оид ҳодисаларнинг ўсиш цикли билан ўлчанади. Фольклор замони ҳозирги, ўтмиш ва келажакни фарқлашни билмайди, у индивидуалликни назарда тутаяди.

Инсон ҳаёти ва табиат ҳаёти ягона комплексда идрок этилади, унинг барча элементлари бир хил даражада гавдаланади. Ҳаётнинг биргина ҳодисаси унинг турли қирралари ва лаҳзаларида намойиш бўлади. Қаҳрамонлик жанридаги фольклор матнларида вақт тушунчаси барча кейинги даврлардан, миллий анъаналарнинг ёпиқ ва тугалланган даври, хотира даври билан боғлиқ бўлади. Тасвирланган дунё, нарратор ва тингловчиларнинг ҳақиқати эпик масофа билан ажралиб туради. Мутлақ ўтмиш – эпик дунёнинг қиймат-замон категориясидир. У идеал, адолат, баркамоллик, уйғунлик каби категорияларни маҳаллийлаштиради.

**Тадқиқот методологияси.** Ҳақиқатнинг кучи бўлган ва бўлмаган тоифаларида келажак тоифаси ҳақиқий вазндан маҳрум. Идеални воқелик билан таъминлаш учун у аллақачон олтин асрда, ҳозирда – узокда, денгизда, ер остида, осмон ва ҳоказоларда, эсхолостик фазо-вақтда горизонтал ва вертикал деб ҳисобланади. Айнан ўзбек миллатинининг иккала жинсига тегишли фольклор матнларида воқеа-ҳодисалар муъжизавий маконда ва жаннатмакон гўшаларда содир бўлади, бу эса, ўз навбатида, фольклор матнларининг сеҳрли ва жозибадор хусусиятларини очиб беради:

And when he opened them, there he saw a most wonderful and glorious sight. A large and spacious hall, so large that it seemed to be as long, and as broad, as the green hill itself. The roof was supported by fine pillars, so large and lofty, that the pillars of a cathedral were as nothing to them. They were all of gold and silver, with fretted work, and between them and around them, wreaths of flowers, composed of what do you think? Why, of diamonds and emeralds, and all manner of precious stones. And the very key-stones of the arches had for ornaments clusters of diamonds and rubies, and pearls, and other precious stones. And all these arches met in the middle of the roof, and just there, hung by a gold chain, an immense lamp made out of one big pearl hollowed out and quite transparent. And in the middle of this was a big, huge carbuncle, which kept spinning round and round, and this was what gave light by its rays to the whole hall, which seemed as if the setting sun was shining on it. The hall was furnished in a manner equally grand, and at one end of it was a glorious couch of velvet, silk and gold, and there sat Ellen, combing her golden hair with a silver comb (Jack and His Golden Snuff-Box).

Боғда йилнинг тўрт фаслини кўриш мумкин экан: боғнинг бир томони баҳор – дарахтлар гуллаганимиш, иккинчи томони эса ёз, мевалар пишиб, тагига тушиб ётганимиш. Учинчи томони куз, дарахтларнинг барги сарғайиб ерга тушаётганимиш...Тўртинчи томонида эса ҳовуздаги сув музлаб, қор паға-паға бўлиб ёғиб турган экан (Хуршид билан Лайло).

Хотам девларни саранжонлаб бўлгач, ғорнинг ичкарасига кирибди. У ёқ-бу ёққа қараса бир эшик кўринибди. Эшикни очиб ичкарига кирса, бир чиройли боғ, унда гуллар очилган, қушлар сайраган, шоҳона супалар ясатилган, бир супада қип-қизил чўғдай гиламлар, кўрпачалар устида тўрт чиройли қиз ухлаб ётибди (Ҳотам).

Шуни таъкидлаш лозимки, эркаклар фольклор дискурсида даҳшатга солувчи маконлар тасвири кўпроқ оммалашган: Now, this time, when Anne lifted the lid off the pot, off falls her own pretty head, and on jumps a sheep's head (Kate Crackernuts). Дала туздан ўтин йиғишиб, ов ўлжаларини қўйишиб, тошчи полвонни ошпаз қилиб полвон шўрвани пишириб турган пайтида, кўприкнинг тагдан бўйи бир қарич, соқоли қирқ қарич бир нарса “Қий-қи-кий” деб чиқиб кетибти-да, соқолининг бир мўйи билан ҳалиги Тошчи полвоннинг қўл-оёғини маҳкам боғлаб, қайнаб турган шўрвани ичиб, суяқларини пуркиб кетибти (Айикполвон).

Қаҳрамонлик эпосидаги вақт барча кейинги даврлардан, миллий анъаналарнинг ёпиқ ва тугалланган даври, хотира даври билан ўралган. Тарихий инверсия – бу ҳақиқатдан фақат келажакда амалга ошириладиган нарсаларнинг ўтмишда бўлган тасвири. Фольклор дискурсида идеал тушунчасини воқелик билан таъминлаш учун у аллақачон олтин асрда, ҳозирда, бироқ узокда, денгизда, ер остида, осмонда ва ғайритабиий маконда, эсхатологик фазо-вақтда ифодалаш керак бўлади.

<sup>1</sup> Панченко А.А. Фольклористика как наука. Первый Всероссийский конгресс фольклористов. Сб. докл. Т. I, М., Гос. республик. центр рус. фольклора, 2005, с. 72 – 95.

Инсониятнинг дунё ҳақидаги ғояларини ривожлантириш жараёнида вақтнинг индивидуаллашуви тарих ва шахсий ҳаёт воқеаларининг турли хил маконга эга бўлишига олиб келади. Тарихий сюжетлар шахсий ҳаёт (севги, никоҳ) сюжетларидан фақат маълум нуқталарда (уруш, подшо никоҳи, жиноят) кесишган, шунга қарамай, ажралиб ҳам туради (тарихий шахснинг шахс сифатидаги ҳаёти). Айнан инсон ҳаётида учровчи ижтимоий муаммолар эркак нарраторларнинг фольклор дискурсида кўпроқ ёритилади: Once upon a time there was a man and a wife had too many children, and they could not get meat for them, so they took the three youngest and left them in a wood (Molly Whuppie). Шу боисданми, ҳаётини маиший муаммолар маълум ёш китобхонларни тез улғайишига сабаб бўлади, чунки қаҳрамонларнинг кечинмалари болалик орзу-истакларидан анча йироқ: оталарнинг қайта оила қуриши, ўғай она қарамоғида улғайиш, оталарнинг ёмон муносабатда бўлиши, камбағаллик туфайли болаларни ташлаб келиш, бева оналар, касалманд ота-оналар.

